

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

X.U.Raximova
I.F.Sayfiddinov

TO'LOV TIZIMI VA BANK XAVFSIZLIGI
D A R S L I K

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan 5A230702 – “Bank hisobi va audit”,
5A230701 – “Bank ishi” yo'nalishi magistrantlari uchun darslik sifatida
tavsiya etilgan.

Toshkent – 2019

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Toshkent moliya instituti

X.U.Raximova

iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

I.F. Sayfiddinov

iqtisod fanlari nomzodi

TO'LOV TIZIMI VA BANK XAVFSIZLIGI
D A R S L I K

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan 5A230702 – “Bank hisobi va audit”,
5A230701 – “Bank ishi” yo'nalishi magistrantlari uchun darslik sifatida
tavsiya etilgan.

Toshkent - 2019

X.U.Raximova, I.F.Sayfiddinov To'lov tizimi va bank xavfsizligi. Darslik / Toshkent moliya instituti. Toshkent - 2019. – 320 bet.

Ushbu qo'llanma “Bank ishi”, “Buhgalteriya hisobi va audit” mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan magistrantlarning nazariy va amaliy bilimlarini kengaytirishga xizmat qilishi bilan birga milliy iqtisodiyotda hisob-kitob va to'lov tizimi hamda bankning xavfsizligini ta'minlash sohasida olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishga zamin yaratadi. U magistrantlarga milliy to'lov tizimi faoliyatini tashkil qilish va tartibga solish hamda bankning xavfsizligini ta'minlash masalalarining nazariy va amaliy tomonlarini o'rgatish bilan birga ushbu fanning mavzulariga oid ilg'or tajribalarni hamda zamonaviy tendentsiyalarni tanishtirish imkonini beradi.

Darslik talabalar, magistrantlar, mustqil izlanuvchilar, iqtisodiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, mamlakatning bank-moliya tizimida faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotchi mutaxassislar va bank ishi muammolari bilan qiziquvchi barcha o'quvchilarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

Dodiev F.O'. O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Bank ishi” kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent

Umarov Z.A. “Bank xisobi va auditi” kafedrasi mudiri i.f.n., dots.

Toshkent moliya instituti Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi yurtimizda bozor munosabatlari tamoyillarini to'liq qaror topdirishdan iborat. Bunga erishish uchun avvalambor mamlakatda tovar-pul munosabatlarini samarali yo'lga qo'yib beruvchizamonaviy to'lov tizimlarni tashkil qilish va bank faoliyatini xavfsizligini ta'minlash lozim.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon milliy to'lov tizimida hamda bank xavfsizligini ta'minlash sohasida izchil islohotlar olib bormoqda. Jumladan, to'lov tizimi sohasidagi islohotlarni eng salmoqli natijasi sifatida respublikada naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimining kog'ozsiz to'lov hujjatlari aylanish texnologiyasi asosida xavfsiz tashkil qilinishi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari aholining barcha sohadagi taklif va talablari o'zgarishiga va oshishiga xizmat qilmokda. Muxtasar aytganda, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Mobil aloqa, yuqori tezlikda ishlaydigan internet, kabelli televidion aloqa, masofaviy bank xizmatlari, qishloq xo'jaligi texnikasi, avtomobillar va texnologik uskunalarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish kabi zamonaviy yuqori texnologiyalar asosidagi xizmat turlari aholi o'rtasida tobora ommalashib bormokda"¹.

Hozirda, milliy bank tizimining faoliyatini tashkil qilish va tartibga solish sohasida yuz berayotgan jiddiy o'zgarishlar milliy to'lov tizimlarning faoliyatini tashkil qilish va bankning xavfsizligini ta'minlash amaliyotida ham o'z aksini topmoqda. 2018 yil 9 yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF № 5296-sonli Farmoni "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida Markaziy bankining faoliyatining strategik maqsadli yo'nalishlari belgilab qo'yilgan bo'lib, unda 3 ta

¹ I.A.Karimov 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizir. –T.: O'zbekiston, 2015. – 72-b.

yo'nalishdan biri aynan to'lov tizimi barqarorligi va rivojlanish yo'nalishi hisoblanadi. Shuningdek, ushbu xujjatning ikkinchi masalasi "Amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida Markaziy bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:" debetida masala belgilab o'tilgan bo'lib, undan to'rtasi bevosita va bilvosita to'lov tizimiga va bank xavfsizligiga ta'luqli. Jumladan:

"..... uchinchidan, bank tizimini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini, shu jumladan tijorat banklar faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni dastlabki bosqichlarida aniqlash va ularni bartaraf etuvchi choralar ko'rish imkonini beruvchi tijorat banklar tavakkalchiligini boshqarish va baholash tizimini takomillashtirish;

to'rtinchidan, o'rta va uzoq muddat istiqbollarda iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlovchi muhim tarkibiy qism sifatida bank tizimini rivojlantirish, tijorat banklar va tadbirkorlik sub'ektlarining o'zaro to'liq sheriklik munosabatlarini shakllantirish, aholining bank tizimiga ishonchli institutsional sherik sifatida ishonchini mustahkamlash uchun raqobat sharoitlarni yaratish;

beshinchidan, to'lov tizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan real vaqt rejimida tezkorlik bilan hisob raqamlarni boshqarish va bank operatsiyalarini o'tkazish imkonini beruvchi masofadan bank xizmatlari ko'rsatgan holda tijorat banklarining samarali axborot almashinuvi tizimini tashkil etish;

"..... ettinchidan, bank xizmatlari iste'molchilari huquqi va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash, aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga moliyaviy ochiqlikni va ularning savodxonlik darajasini oshirish"².

Yuqorida belgilab o'tilgan masala va holatlar shundan dalolat beradiki, bank soha mutaxassislari oldida ulkan vazifalar turganini. To'lov tizimlarini samarali tashkil qilish va takomillashtirish masalasi har bir bank rahbari va mutaxassislari bu sohadagi bilim darajasini yuqori bo'lishini va hozirda faoliyat yuritayotgan

²[www/cbu.uz/O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"](http://www/cbu.uz/O'zbekiston-Respublikasi-Prezidentining-O'zbekiston-Respublikasi-Markaziy-bankining-faoliyatini-tubdan-takomillashtirish-chora-tadbirlari-to'g'risida)gi2018 yil 9 yanvardagi. PF № 5296-sonli Farmoni

to'lov tizimlarning tahlil qilaolishi, aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha boshqaruv qarorlarni operativ ravishda qabul qilishini taqozo etadi.

Ushbu darslik "Bank ishi", "Banklarda buxgalteriya hisobi va audit" mutaxassislikyo'nalishida tahsil olayotgan magistrantlarning nazariy va amaliy bilimlarini kengaytirishga xizmat qilishi bilan birga milliy iqtisodiyotda hisob-kitob va to'lov tizimlari hamda bank xavfsizligi sohalarida olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishga zamin yaratadi. Shuningdek, magistrantlarga milliy to'lov tizimi faoliyatini samarali tashkil qilish, jahon tizimlariga integratsiya qilish va bank xavfsizligini ta'minlash masalalarining ilmiy-nazariy va amaliy tomonlarini hamda ushbu sohalarga oid ilg'or tajribalarni o'rgatadi.

1-BOB. TO'LOV TIZIMI VA BANK XAVFSIZLIGINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. “To'lov tizimi va bank xavfsizligi” fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasida, shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ning boshqa davlatlarida XXI asr boshlarigacha naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qiluvchi to'lov tizimlarini o'rganish va bank xavfsizligini ta'minlash faqatgina “Bank ishi” fani doirasida o'rganilgan.

“To'lov tizimi va bank xavfsizligi” fanining predmetini, ob'ektini, maqsad va vazifalarini ochib berishdan oldin uning shakllanishiga asos bo'lgan ilmiy va amaliy jihatlarini ko'rib chiqamiz.

To'lov tizimini tashkil qilish va tartibga solish hamda bank xavfsizligini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor karatish lozimligi jahon iqtisodchilimlarining ilmiy tadqiqotlarida etarlicha asoslab berilgan va quyidagi ayrim fikrlar bayon etiladi.

Dunyo miqyosida bank tizimiga oid tadqiqotlarni tahlil etadigan bo'lsak, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimini tashkil qilish, tartibga solish va bu sohaga chambarchang bog'liq bo'lgan bank xavfsizligini ta'minlash masalalari alohida tadqiqot ob'ekti sifatida namoyon bo'la boshlaganligini va bank ishi yo'nalishi bo'yicha tayyorlanayotgan mutaxassislarining o'quv dasturlariga mutaxassislik fani sifatida kiritilgani va o'qitilayotganini kuzatish mumkin.

Iqtisodiy jarayonlar ko'rsatishicha, to'lov tizimlarining rivojlanishi banklarning barcha turdagi faoliyatini takomillashishiga va shu bilan birga bankning xavfsizligini ta'minlashda yangi usul va mexanizmlarni qo'llashni taqozo etmoqda.

To'lov tizimlari bozor iqtisodiyotida muhim o'rin tutib, ular yordamida barcha turdagi bozorlarni (moliya, real, milliy, xalqaro va h.k) bir-biriga bog'lash mumkin va buni ta'minlab bruvchi mexanizm takomillashgan darajada bo'lishini taqozo etadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan o'z strategik yo'nalishini aniq belgilab olgan davlatlar qatoriga kiradi va uning oliy maqsadi bozor tamoyillariga va mexanizmlariga asoslangan, rivojlangan iqtisodiyotni barpo etish va demokratik-huquqiy jamiyat qurishdir.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotining o'zagini tovar pul-munosabatlari tashkil qilib, ular asosan bank va boshqa to'lov xizmat ko'rsatuvchi institutlarning to'lov xizmatlari orqali amalga oshiriladi.

Pul-tovar munosabatlarining tashkil qilish holati to'lov xizmatlarini ko'rsatuvchi bank va boshqa institutlari tomonidan ushbu munosabatlarni tashkil qiluvchilarga yaratilgan shart-sharoitlariga bog'liq bo'ladi, bu esa, bevosita to'lov tizimini tashkil qilinishiga va xavfsizligiga bog'liq.

Samarali to'lov tizimini tashkil qilish va tartibga solish masalasi iqtisodiyot uchun ham, bank tizimi uchun ham birdek muhim hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotning barcha sohalarida, shu jumladan, hisob-kitob jarayonlarini tashkil qilishda yangi axborotva kommunikatsiya texnologiyalari keng doirada qo'llanishi natijasida to'lov tizimlarini tashkil qilish va tartibga solish hamda bank xavfsizligini ta'minlash masalalarining mohiyati va xususiyati tubdan o'zgarmoqda.

Iqtisodiy sub'ektlar (yuridik va jismoniy shaxslar) o'rtasida tashkil qilinayotgan iqtisodiy, moliyaviy va boshqa munosabatlar takomillashgan elektron aloqa tizimlari va avtomatlashgan kliring institutlari asosida, vaqt va masofadan qat'i nazar, real vaqt ichida amalga oshirilishi ta'minlanib borilmokda. Shu bilan birga iqtisodiyotdagi pul aylanmasini tashkil qilish va tartibga solish hamda mamlakat monetar siyosatini yuritishda o'ziga xos o'zgarishlar yuzaga kelmoqda va ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish zaruriyati tug' ilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, "To'lov tizimi va bank xavfsizligi" faniga munosabat o'zgarishiga va unga qo'yilayotgan talab oshishiga asos bo'lib, ushbu fan keng doirada o'rganilishini zaruriyatga aylantiradi.

"To'lov tizimi va bank xavfsizligi" fanining iqtisodiy nazariyada mustaqil o'ringa ega bo'lishi, jamiyatdagi ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarish jarayoni

samaradorligiga bevosita ta'siri, shuningdek, boshqa institutlar faoliyatlari bilan yuqori darajada bog'liqliligi uning mazmunini va mohiyatini ochib beradi.

Fanning *predmeti* bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro kelishuv majburiyatlarini bajarish yuzasidan shakllanadigan munosabatlarni samarali tashkil qilish va bank institutlarini xavfsizligini ta'minlash.

Fanning *ob'ekti* to'lov jarayonining ishtirokchilari, to'lov vosita va mexanizmlari, hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatuvchi institutlar hamda tashkil qilingan hisob-kitob tizimlari.

Fanning *maqsadi* O'zbekiston va rivojlangan davlatlarda naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish, boshqarish va tartibga solish amaliyotining nazariy va amaliy jihatlarini o'rgatish hisoblanadi.

Ushbu fanning metodologik asosi bo'lib, moliya, pul muomalasi va kredit, buxgalteriya hisobi va tahlil, tijorat banklari faoliyati, Markaziy banktarkibi, funktsiya va operatsiyalari, soliqlar va soliqqa tortish hamda boshqa fanlar xizmat qiladi.

Ushbu fan o'z oldiga qo'ygan muhim *vazifalar* quyidagilardan iborat:

1. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning iqtisodiy mohiyatini, to'lov tizimining ahamiyatini va iqtisodiyotda tutgan o'rnini ochib berish;
2. To'lov tizimlari turlarini va ularning arxitektura tuzilishi xususiyatlarini hamda ishlash mexanizmlarini, shu jumladan, banklararo, bankning ichki va chakana hisob-kitob tizimlarining ishlash tamoyillarini va tuzilish arxitekturasi mazmunini keng doirada yoritish;
3. Rivojlangan davlatlarda naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimlarini tashkil qilish va tartibga solish, ilg'or tajribalarini o'rganish va ma'qullarini respublika amaliyotini, xususiyatlarini inobatga olgan holda tatbiq etish masalalarini ko'rib chiqish;
4. Milliy iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar samarasini oshirish, to'lov tizimi arxitektura tuzilishini optimallashtirish va rivojlantirish yo'lidagi muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish usul va yo'nalishlarini ko'rsatib berish;

5. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimining istiqbolini belgilash.

1.2. Hisob-kitob va to'lov tizimini tashkil qilishning nazariy asoslari

Korxonada va tashkilotlarda olib boriladigan hisob-kitob operatsiyalarini ikki guruhga, ya'ni naqd pul bilan amalga oshiriladigan hisob-kitob operatsiyalari va naqd pulsiz yoki pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladigan hisob-kitob operatsiyalariga bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Globalashuv sharoitidagi zamonaviy axborotlashtirish iqtisodiyotida, hisob-kitob jarayonlarini tashkil qilishda naqdpulsiz hisob-kitoblarning o'rni tobora mustahkamlanib bormokda. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning rivojlanishi naqd puldagi hisob-kitoblardan bir qator ustuvor tomonlari mavjudligi bilan asoslanadi, ular, eng asosiysi, yangi zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish imkoni mavjudligi bilan e'tiborlidir.

Banklarda hisobni to'g'ri va operativ amalga oshirishda to'lov tizimini samarali tashkil qilish muhim hisoblanadi.

Banklarda hisobni tashkil qilish va to'lov tizimini samarali shakllantirish, boshqarish va uning faoliyatini nazorat qilish masalasi iqtisodchi olimlarning bahs va mulohaza ob'ekti bo'lib qolishiga asos bo'luvchi omillar mavjud. Chunonchi, to'lov tizimi:

- moddiy boyliklar harakatini tezlashtiruvchi zaruriy mexanizm bo'lib xizmat qiladi;
- banklararo pul bozorlari va qimmatli qog'ozlar bozorlarining rivojlanishiga ta'sir etadi;
- tizimning yangi bank xizmatlari rivojlanishiga asos bo'ladi.

To'lov tizimiga oid da'vlatdagi ilmiy qarashlar amerikalik iqtisodchi-olim Pol Van den Berg tomonidan ilgari surulgan. U "To'lov tizimining operatsion va moliyaviy tarkibi" kitobida to'lov tizimiga quyidagicha ta'rif bergan: «To'lov tizimi – bu xo'jalik sub'ektlarining qabul qilgan moliya va moddiy resurslar yuzasidan bajariladigan majburiyatlarni amalga oshirishda foydalanadigan

mexanizmlar yig'indisi»³. Muallif, bu o'rinda, mexanizmlar yig'indisi, deb to'lov xizmatini ko'rsatuvchi institutlarni, to'lovlarni o'tkazish bilan bog'liq vositalarni hamda o'tkazish kanallarini nazarda tutmoqda. Lekin shuni ta'kidlab o'tish joizki, muallif bunda me'yoriy masalani inobatga olmagan. Ma'lumki, to'lov jarayonlaribozor sub'ektlari o'rtasidagi mulkiy munosabatlar va boshqa moliyaviy-iqtisodiy majburiyatlar asosida yuzaga keladi va ularning qonun doirasida amalga oshirilishi, me'yorlar ustuvorligining ta'minlanishimuhim masala hisoblanadi.

Rossiyalik iqtisodchilar V.V.Tsarev va A.A.Kantarovich "Elektron tijorat"ilmiy asarida to'lov tizimiga kuyidagicha ta'rif beradi: "To'lov tizimito'lov vositasi sifatida elektron raqamli pullarni ishlatish orqali zaruriy bo'lgan dasturiy vositalar yig'indisi hisoblanadi"⁴. Ko'rinib turibdiki, mualliflar ixtisoslashgan to'lov tizimiga ta'rif berishgan. Demak, bu ta'rifni barcha turdagi to'lov tizimlariga berilgan ta'rif deb bo'lmaydi.

Rossiyalik yana bir olim – O.I. Lavrushinning ta'rifigako'ra, «Davlatning to'lov tizimi bu qonun doirasida tartibga solunuvchi elementlaryig'indisi bo'lib, u iqtisodiy faoliyat jarayonida vujudga keluvchi majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydi»⁵. Ushbu ta'rifda muallif tomonidan "qonun doirasida tartibga solunuvchi elementlar" deganda nima nazarda tutilgani aniq ko'rsatilmagan bo'lsa-da, u to'lov tizimining iqtisodiy mohiyatini boshqa iqtisodchi-olimlardan ko'ra kengroq ochib bergan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Milliy to'lov tizimiga ta'rif berishda u pul-kredit tizimining ajralmas qismi va uni amalga oshiruvchi vosita sifatida xizmat qilishini unitmasligimiz kerak. Shuning uchun, fikrimizcha, to'lov tizimiga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq: "To'lov tizimi – bu ixtisoslashgan institutlar, hisob-kitob mexanizmlari va tamoyillari yig'indisi bo'lib, bozor sub'ektlari o'rtasidagikelishuvlarni

³ Platejnaya sistema: struktura, upravlenie i kontrol. Pod red .Bryusa D.–Sammersa, MVF 1994. – S.280.

⁴Tsaryov V.V., Kantarovich A.A. Elektronnaya kommertsiya. – SPb: Piter, 2002.– S. 92.

⁴LavrushinO.I.Bankovskoe delo: Uchebnoe posobie. –M: Finansi i statistika, 2004. – S.366.

⁵Raximova X.U. Osobennosti razvitiya platyojnoj sistemi Respubliki Uzbekistan. Monografiya. – T.: "Moliya", 2013 – S. 23

o'rnatilgan qonun doirasida barqaror bajarishni ta'minlashga xizmat qiluvchi tizim"⁶.

Ixtisoslashgan institutlar sifatida davlat miqyosida to'lov aylanmasini tashkil qiluvchi va tartibga soluvchi bank va boshqa institutlar nazarda tutilgan. Hisob-kitob mexanizmlarisirasiga milliy pul tizimi, to'lovlarni amalga oshiruvchi vosita va usullar hamda to'lov jarayonini va bozor sub'ektlari majburiyatlarining bajarilishini tartibga soluvchi me'yoriy bazani kiritish lozim.

Iqtisodiyotda tutgan o'rnidan kelib chiqib, to'lov tizimiga quyidagicha ta'rif bersa bo'ladi: to'lov tizimi bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining zarur va muhim bo'g'ini hisoblanib, ushbu tizim yordamida iqtisodiy jarayonlar muvozanatini ta'minlashga va resurslarni samarali qayta taqsimlashga erishish mumkin.

Bozor iqtisodiyotida turli mulkchilik shakllarida tashkil qilingan kompaniya va firmalar faoliyat ko'rsatadi. Ular bir-birlari bilan doimiy iqtisodiy-moliyaviy munosabatda bo'lishadi. Korxonalar va tashkilotlarni vujudga keltirishdan maqsad o'zaro, shuningdek, aholi bilan oldi-sotdi jarayonlarini tashkil qilishdir. Bozor sub'ektlarining o'zaro munosabatlari barqarorligi iqtisodiyotda tashkil qilingan hisob-kitob tizimiga, shuningdek, banklar tomonidan ko'rsatilayotgan to'lov xizmatlari holatiga bog'liq.

O'zbekiston hududida yuqori samarali hisob-kitob tizimini tashkil qilish va bozor sub'ektlarini yuqori, ko'p qirrali talablarini sifatli qondirish uchun shart-sharoitlar bilan ta'minlash masalalari milliy to'lov tizimini rivojlantirish strategiyasida va yangi tendentsiyalarda o'z ifodasini topmoqda.

Bozor iqtisodiyoti ikki yirik sektordan tashkil topgan bo'lib, ular moliya va real sektorlardir. Bu ikki sektor bir-birini to'ldirib turuvchi va bir-biriga xizmat qiluvchi bo'g'inlardir. Ma'lumki, bozor iqtisodiyotida moddiy va pul resurslari aylanmasini qanchalik tezlashtirsak, unda qo'shimcha moddiy boylik va qiymat shunchalik tez hosil bo'ladi.

Moliya sektorini misol tariqasida oladigan bo'lsak, ushbu sektor tomonidan iqtisodiy jarayonlarga qiritilgan pul resurslari qo'shimcha pul resursini

yaratadi. Masalan, banklar kredit yoki investitsiya sifatida pul resurslarini kiritishi natijasida foiz ko'rinishida daromad oladi va natijada iqtisodiyotdagi pul resurslari miqdori oshadi.

Iqtisodiyotning real sektori amaliyotida yuqoridagi holatni kuzatadigan bo'lsak, ishlab chiqarish kapitalining aylanish tezligi oshishi qayta ishlab chiqarish jarayoni tezlashishiga olib keladi. Bu esa, to'g'ridan-to'g'ri qo'shimcha qiymat (moddiy ko'rinishda) yaratilishini ta'minlaydi, boshqacha so'zlar bilan ifodalaganimizda, foyda (moliyaviy ko'rinishda) olish tezlashadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, xulosa qilishimiz mumkinki, pul-tovar munosabatlarining tezlashtirish imkonini va shart-sharoitlarni yaratishga qanchalik muvofiq bo'lsak, iqtisodiyotda YaIM va milliy boylik o'sishini shunchalik ta'minlagan bo'lamiz. Shuning uchun samarali tashkil qilingan milliy to'lov tizimi ishlab chiqarish va pul resurslari aylanmasini tezlashtirishga asos bo'ladi. Ushbu holatni umumtanish bo'lgan fond aylanmasi formulasi orqali ko'rsatish mumkin:

$$P \Leftrightarrow T \cdot I/Ch \cdot T' \Leftrightarrow P'$$

Bunda:

P – pul resursi, ishlab chiqarishga yo'naltirilgan kapital;

T – pul resursiga ishlab chiqarish bilan bog'liq ma'lum tovar yoki xizmatlarning sotib olinishi;

I/Ch – xom ashyolarni qayta ishlash – ishlab chiqarish jarayoni;

T' – yangi qiymat ko'rinishi, tovar va xizmatlar yaratilishiga sarflangan xarajatlar va qo'shimcha qiymat (foйда- moddiy ko'rinishda);

P' – yangi qiymatning realizatsiyasidan so'ng pul qo'rinishi. U ishlab chiqarish jarayoniga sarflangan xarajatlardan va yaratilgan qo'shimcha qiymatdan iborat.

Xo'jalik sub'ektlarining P-T (pul-tovar) va T'-P' (tovar-pul) munosabatlari to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilishiga erishish orqali I/Ch (ishlab chiqarish) jarayoniga, bevosita uning sifatiga va tezligiga ta'sir etish mumkin.

Ko'rib turganingizdek, moliyaviy va tovar majburiyatlarining bajarilish jarayonlari o'z vaqtida amalga oshirilishi nafaqat ishlab chiqaruvchi firma yoki kompaniyaning moliyaviy va boshqa ko'rsatkichlariga, balki ta'minotchi va iste'molchi firma yoki kompaniyalar faoliyatiga ham ijobiy ta'sir etadi. Kompaniya yoki firma iqtisodiy agentlari oldida o'z majburiyatini kelishgan vaqtda amalga oshirsa, unda ularning faoliyatida iqtisodiy o'sish bo'ladi, agar aksi bo'lsa, ularning moliyaviy holati yomonlashadi.

To'lov jarayonlari yoki pul majburiyatlari o'z vaqtida amalga oshirilishi va yuqorida ko'rsatilgan fond aylanmasining barqaror harakati ta'minlanishi uchun samarali to'lov tizimini tashkil qilish muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari milliy iqtisodiyotda mavjud noto'lovlar muammosini to'lov tizimini samarali tashkil qilish orqali hal etish mumkin. Bunga to'lov aylanmasini tashkil qilishda kredit mexanizmiga asoslangan to'lov vositalaridankeng foydalanish orqali erishish mumkin.

Bozor iqtisodiyotining asosiy o'zagini pul-tovar munosabatlari tashkil qiladi va ularning aksariyati bank institutlari orqali amalga oshiriladi. Pul-tovar munosabatlarining samarali va tez bajarilishi bankda yaratilgan shart-sharoitlarga, aniqrog'i, naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimining tashkil qilinishiga bog'liq. Shuning uchun samarali naqd pulsiz hisob-kitoblarni va to'lov tizimini tashkil qilish hamda tartibga solish masalasi bank tizimi uchun, qolaversa, iqtisodiyot uchun ham birday muhim.

Zamonaviy iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblarning mohiyati va xususiyati quyidalilarda ifodalanadi:

–pul aylanmasining katta qismi naqd pulsiz hisob-kitoblar asosida tashkil qilinadi;

–kredit muassasalari hamda to'lov jarayonida ishtirok etuvchilar qonun hujjatlarida belgilangan naqd pulsiz hisob-kitob shakllari asosida yuridik va jismoniy shaxslar majburiyatlarining o'zaro bajarilishi ta'minlanadi va hisob-kitob kliringi yakuniga etkaziladi (pul to'lovchi va oluvchining joylashish joyidan qat'i nazar).

Tarixdan ma'lumki, naqd pulsiz hisob–kitoblarning dastlabki shakli vekselar hisoblangan. Veksel birinchi moliyaviy instrument va to'lov vositasi sifatida XII asrda Italiyada qo'llanila boshlangan, qeyinchalik naqd pulsiz hisob-kitob tizimiga cheklar va boshqa to'lov hujjatlari kirib kelgan.

Xalqaro amaliyotda naqd pulsiz hisob-kitob shakllari keng ko'rinishda va keng doirada amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. Har bir davlat o'z iqtisodiy va boshqa holatlarini inobatga olgan holda naqd pulsiz hisob-kitob shakllarining o'ziga keraklisini, ma'quliniva samaralirog'ini tanlab oladi yoki ishlab chiqish huquqiga ega.

Mamlakatda iqtisodiy munosabatlarni tashkil qilishda naqd pulsiz hisob-kitob shakllari samarali qo'llanilishi va tartibga solinishi qabul qilinayotgan qonun va me'yoriy hujjatlarning takomillashganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Naqd pulsiz aylanma deganda, bozor sub'ektlarining banklardagi joriy hisobraqamlari orqali pul o'tkazilishini, o'zaro talablardan voz kechilishi (barter) va to'lov vositalari (chek, veksel, kartochkalar) orqali pul o'tkazish shaklidagi uzluksiz harakatlar jarayoni tushuniladi.

Naqd pulsiz aylanmaning mutlaq asosiy qismi korxon va tashkilotlarning tijorat banklarida ochilgan joriy hisobraqamlari hamda aholining banklarda ochilgan kartochkali hisobraqamlari orqali amalga oshiriladi.

Naqdsiz pullarni pul aylanish zamonaviy tizimidagi ishtiroki bo'yicha ikki toifaga bo'lish maqsadga muvofiq:

birinchisi – banklararo va banklarning ichki to'lov tizimida ishtirok etuvchi naqdsiz pullar;

ikkinchisi – chakana to'lov tizimida va bevosita bankdan tashqari harakatlanuvchi naqdsiz pullar aylanmasi va ularga asoslangan to'lovlarni o'tkazish.

Ikkinchi turdagi naqdsiz pullar bevosita aholining ishtiroki asosida amalga oshirilib, ularni elektron pullar, shuningdek, raqamli pullar, deyish maqsadga muvofiq va tabiiyki, bunda ularni davlatning monetar siyosatini yuritishda M1 – pul agregati tarkibida (M1 – bu naqd pullar va talab qilib olguncha

hisobraqamlaridagi depozitlar) elektron pullar hisobining yuritilishi ko'zda tutiladi.

Axborotlashtirish davrida yuqori samarali to'lov vositalaridan iqtisodiyotda keng foydalanilishi natijasida naqd pul aylanmasining hajmi qisqarishi bilan birga naqdsiz pul aylanmasi hajmi oshmoqda. Rivojlangan davlatlarda pul aylanmasining katta qismininaqdsiz pul aylanmasi tashkil qilib, uning miqdori esa turli adabiyotlardan turlicha ko'rsatilgan: 80 foizdan ziyod, 90foiz atrofida, 90 foizdan ziyod va h.q.. Lekin bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, 90 foizga yaqin va undan ziyod deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi, chunki oxirgi tendentsiyasiyalar ko'rsatishicha, bu ko'rsatkich o'sib bormoqda, rivojlanayotgan davlatlarda esa biroz past.

Naqdsiz va elektron pullar aylanmasi hajmi oshib borishi va chakana to'lov tizimlari tez sur'atlarda rivojlanishi naqdsiz pullarning naqd pullarga nisbatan ustuvor tomonlari ko'pligi bilan izohlanadi. Jumladan:

- naqdsiz va elektron pullar summasining yuqori darajada portativligi – summalarning miqdor va hajmi bilan bog'liq emasligi, naqd pullarga asoslangan hisob-kitob jarayonida bu jihat katta ahamiyatga ega;

- chakana elektron hisob-kitoblarda summalarning bo'linishi va yig'ilishi oson kechib, qaytim zaruriyati yuzaga kelmaydi va tranzaktsiyalar tez amalga oshiriladi;

- naqdsiz va elektron pullar emissiyasining xarajati juda past, naqd pullarni emissiya qilishda xarajat (metall, kog'oz, kraska, texnika, uskuna, transportirovka va boshq.) sezilarli darajada yuqori bo'ladi;

- naqdsiz va elektron pullarni kassalarda saqlash uchun maxsus joy, kassir-xodimlar, transportirovka, inkassatsiya, sanash va qayta sanash operatsiyalarini amalga oshirish zaruriyati yo'q. Ular kompyuter dasturlariga, to'lov vositalariga (plastik va virtual kartochkalariga) va maxsus axborot texnologiyalariga o'tkaziladi;

- naqdsiz va elektron pullar asosida tashkil qilingan pul aylanmasi hozirda inson omili ishtirokini kamaytirib, jarayon avtomatlashgan tarzda amalga oshirilishini ta'minlashga zamin yaratmoqda;

- naqdsiz va elektron pullar asosida amalga oshirilayotgan pul aylanmasining shaffofligi va monitoringi oshib, bunda davlat byudjetiga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summalarini bekitish imkoni yo'q;

- naqdsiz va elektron pullarni o'g'irlash va qalbakilashtirish qiyin. Ularning xavfsizligi asosan kriptografiya va elektron vositalar yordamida ta'minlanadi;

- aholiga, xo'jalik sub'ektlariga va banklarga boshqa bir qator ijtimoiy-iqtisodiy ustunliklarni beradi.

To'lov tizimida yangi axborot texnologiyalari keng ko'llanishi natijasida, iqtisodiyotda pul aylanmasining samarali tashkil qilinishi va uni boshqarishning operativligi, ma'lumotlar shaffofligi oshishi ta'minlanadi. Bunda, shu bilan birga, quyidagi ijobiy holatlarni kuzatish mumkin:

- iqtisodiyotda naqd pulga bo'lgan talab qisqaradi;

- naqd pullarni emissiya qilish, saqlash, tashish bilan bog'liq xarajatlar kamayadi;

- tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish tezligi va uning shaffofligi ta'minlanadi;

- to'lovlarni amalga oshirish va pul aylanish jarayonlari ustidan davlat va moliya institutlari tomonidan olib borilayotgan monitoring samarasi va operativligi oshadi;

- davlatning pul-kredit siyosatini yuritish va moliya sohasini boshqarish jarayonlari osonlashadi;

- yuridik va jismoniy shaxslarning moliya resurslarini samarali boshqarish imkoni yuzaga keladi;

- iqtisodiyotda to'lovlar hamda moliyaviy munosabatlar qonun doirasida amalga oshirilishining kafolati oshadi;

– iqtisodiy globallashtirish jarayonida xalqaro kreditlar, kapitallar, to'lovlar (moliyaviy majburiyatlar) va boshqa resurs va moddiy boyliklarning harakati osonlashadi;

– pul va tovar oqimi o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun imkoniyat yuzaga keladi.


Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimlarining rivojlanishi davlatning bank tizimi salohiyatiga, uning rivojlanganlik darajasiga, monetar siyosatiga hamda takomillashgan me'yoriy bazasiga bog'liq bo'ladi.

1.3. To'lov tizimining iqtisodiy funksiyalari

Iqtisodiyotda bozor mexanizmlarining to'la namoyon bo'lishi va samarali ishlashi to'lov tizimining shakllanish holatiga va u tomondan bajarilayotgan funksiyalarning mohiyatiga bog'liq bo'ladi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar to'lov tizimlarining iqtisodiyotda bajaradigan funksiyalari mohiyat jihatidan bir xil bo'lishi mumkin, lekin ularni amalga oshirish holati va bajarilish darajasida farq mavjud. Bu farq asosan bozor mexanizmlari to'la shakllanib ulgurmagani rivojlanib kelayotgan iqtisodiyot(davlat)larda to'lov tizimining funksiyalari ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra, keng doirada namoyon bo'lmayotganida ko'rinadi.

Bozor iqtisodiyotida to'lov tizimining asosiy funksiyalari 1.1-rasmda aks ettirilgan.



*1.1-rasm. To'lov tizimining iqtisodiy funktsiyalari*⁷

Iqtisodiyotda naqdsiz pul aylanmasini tashkil qilish va boshqarish uchun unga mos, uning samarali va to'la ishlashini ta'minlovchi to'lov tizimi barpo etilgan bo'lishi lozim.

Quyida to'lov tizimining iqtisodiyotda tutgan o'rni va vazifalari belgilangan funktsiyalar orqali amalga oshirilishi haqida to'xtalamiz.

Birinchi funktsiyasi. Iqtisodiyotda *xo'jalik sub'ektlarining tovar-pul munosabatlari doirasida yuzaga keladigan pul majburiyatlari o'z vaqtida bajarilishini ta'minlovchi shart-sharoitlarni yaratish* to'lov tizimining asosiy funktsiyalaridan biri hisoblanadi.

⁷Raximova X.U. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi. O'quv qo'llanma.– T.:Moliya, 2016. – 41 b.

Bu funktsiya doirasida to'lov tizimiga yuklatilgan vazifalar to'la bajarilishi uchun uni shunday shakllantirish kerakki, unda to'lov jarayonining barcha ishtirokchilariga etarlicha shart-sharoitlar yaratilib berilgan bo'lishi lozim. Jumladan, to'lov jarayoni ishtirokchilari uchun taklif etilayotgan to'lov vositalar va to'lov tizimi infratuzilmasi keng bo'lishi to'lov hujjatlarini tez va xavfsiz o'tkazilishini ta'minlash, foydalanuvchilar tomonidan to'lovlarini monitoring va audit qilish imkonini yaratish, qonun ustuvorligini va pul hamda to'lovlarning erkin harakatini ta'minlash, to'lov jarayoni bilan bog'liq axborot bazalaridan qonun doirasida mijozlar tomonidan foydalanish imkonini berish va boshqa qulayliklar mavjudligini anglatadi.

Bozor iqtisodiyoti sub'ektlarining talab va istaklari yuksalishi to'lov tizimi rivojlanishiga va unda uning foydalanuvchilari uchun yaratilayotgan sharoitlar yaxshilanishiga asos bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotdagi moddiy boyliklar, tovarlar (xizmatlar, bajarilgan ishlar) va pul resurslari tez va to'siqsiz aylanishiga zamin yaratadi.

To'lov tizimining *ikkinchi funktsiyasi boshqa majburiyatlar* (byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga, sud ijrolari va boshq.) *bo'yicha talablar o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash* hisoblanadi. Bu o'rinda eslatib o'tish joizki, iqtisodiyotda to'lovlardan tashqari o'ziga xos o'tkazmalar ham mavjud, bunday o'tkazmalar jumlasiga soliq, bojxona, sud organlari hamda Moliya vazirligi tomonidan qo'yiladigan va qonun bilan belgilangan boshqa to'lovlar kiradi. Bu to'lovlar xo'jalik faoliyati doirasidan tashqarida yuzaga keladigan to'lovlar bo'lib, ular real vaqtda tovar yoki xizmatlar bilan ta'minlanmagan, asosiy qismi davlat byudjetiga va byudjetdan tashqari maxsus jamg'armalarni shakllantirishga, shuningdek, qonun doirasida belgilanib, bajarilishi lozim bo'lgan to'lovlar amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Bu funktsiya bajarilishi orqali, birinchi navbatda, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalarning resurslari shakllanadi. Ushbu resurslar to'liq va o'z vaqtida yig'ilishi esa milliy iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim hisoblanadi.

To'lov tizimining *uchinchi funksiyasi* tizim ishtirokchilari o'rtasida axborot almashuvini va to'lov intizomi buzilmasligini ustidan nazorat olib borilishini ta'minlash hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida tovar va pul majburiyatlari o'z vaqtida bajarilishi uchun ushbu ob'ektlar ustidan tizimli nazorat o'rnatish va bunga mos ravishda barcha shart-sharoitlar yaratib berilishi, jumladan, tizim ishtirokchilari o'rtasida axborot almashuvi zamonaviy kommunikatsion tizimlar asosida yo'lga qo'yilishi va to'lov jarayonlarini tashkil qilish hamda ularning ishtirokchilari tomonidan to'lov intizomi holati bo'yicha monitoring olib borish talab etiladi. Ma'lumki, iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi hisob-kitoblar ular tomonidan imzolangan shartnomaga asosan amalga oshiriladi va majburiyatlar o'z vaqtida bajarilishi bilan izohlanadi. Banklar xo'jalik sub'ektlar o'rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishda ushbu yuridik hujjatga asoslanadi.

To'lov tizimi funksiyalarini amalga oshirish orqali iqtisodiyotdagi barcha to'lov va majburiyatlarning bajarilishi bo'yicha nafaqat ma'lumot olish mumkin, balki nazorat uchun ham qulay imkoniyatlar yaratilgan bo'ladi, ayniqsa, elektron to'lov tizimiga o'tgandan so'ng.

Iqtisodiyotda yagona me'yorlarning mavjudligi to'lov jarayonlari samarali tashkil qilinishi bilan birga nazorat o'rnatish uchun ham qulay shart-sharoitlar yaratadi. Shuningdek, tovar va pul majburiyatlari o'z vaqtida bajarilishi va to'lov intizomi buzilmasligi ustidan nazorat yaxshi yo'lga qo'yilishi iqtisodiyotda debitor va kreditor qarzdorlikning oldini oladi va tovar-pul oqimlari muvozanatini ta'minlaydi.

To'lov tizimining *to'rtinchi funksiyasi* hisob-kitoblarni o'rnatilgan tartiblar, me'yorlar va standartlar asosida bajarilishini nazorat qilish va tartibga solish hisoblanadi. Zamonaviy milliy to'lov tizimida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish va tartibga solish masalalari qattiq o'rnatilgan me'yorlar va standartlar asosida amalga oshiriladi. Naqdsiz pul aylanmasini tashkil qilishda ishtirok etishi mumkin bo'lgan naqd pulsiz hisob-kitob shakllari, hujjatlari va vositalari davlatning me'yoriy hujjatlarida belgilanadi va ularning ishlash mehanizmi hamda tartibga solinishi o'rnatilgan me'yor va standartlar asosida amalga oshiriladi.

Deyarli barcha davlatlarda Markaziy bank tomonidan hisob-kitoblarni tashkil qilish tartiblari, me'yorlari va standartlari ishlab chiqilgan va ular doimiy ravishda to'lov tizimining texnik bazasi takomillashib borishi bilan birga o'zgarib bormoqda.

To'lov tizimining *beshinchi funktsiyasi to'lovlar vaqtini qisqartirish va noto'lovlar kelib chiqishining oldini olish* hisoblanadi. To'lov tizimining ushbu funktsiyasi iqtisodiyotda mavjud resurslar samarali ishlashini hamda maqroiqtisodiy jarayonlar (tovar va pul oqimlari) muvozanatini ta'minlash imkonini beradi.

Iqtisodiyotda vujudga keladigan debitor-kreditor qarzdorlik jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlariga salbiy ta'sir etib, uning muvozanatini buzilishiga olib keladi. Ushbu funktsiyaning samarali bajarilishi qo'p omillarga bog'liq bo'ladi, jumladan, to'lov tizimining rivojlanganlik darajasiga, yangi texnika va texnologiyalar samarali ishlatilishiga, hisob-kitob sohasida takomillashgan kredit mexanizmlaridan keng foydalanilishiga, me'yoriy bazaning takomillashganligiga, shuningdek, davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning belgilangan ustuvor yo'nalishiga.

To'lovlar vaqtini qisqartirish va noto'lovlarni kelib chiqishini oldini olish funktsiyasining samarali bajarilishi ko'p jihatdan hisob-kitob sohasini tartibga soluvchi me'yoriy bazaga va uning takomillashganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

To'lov tizimi tomonidan ushbu funktsiya samarali bajarilishi uchun hisob-kitob jarayonida innovatsion texnologiyalaridan keng foydalanish, hisob-kitob tizimida yangi mexanizm va shakllarni tatbiq etish maqsadga muvofiq.

To'lov tizimining *oltinchi funktsiyasi davlat pul-kredit siyosatini amalga oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilinishi*. Davlat monetar siyosatining asosiy maqsadi – iqtisodiyotning o'sishini ta'minlash, ishsizlikning oldini olish, inflyatsiya darajasini pasaytirish va h.q. Ushbu maqsadlarga erishish uchun monetar sohaning real sohaga ta'sirini kuchaytirish, bunda pul resurslarining samarali harakatini ta'minlash va uni real sektorning iqtisodiy o'sishiga ta'sirini

kuchaytirish muhim hisoblanadi. To'lov tizimi orqali iqtisodiyotda monetar siyosatning transmissiyaviy mexanizmi harakatini kuzatish mumkin.

Mamlakatda samarali pul oqimini tashkillashtirish orqali davlat pul-kredit siyosatining strategik maqsadlariga tez erishish mumkin. Bunda to'lov tizimi infratuzilmasi iqtisodiyotda pul oqimini harakatlantiruvchi kanallar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida iqtisodiy agentlar o'rtasidagi barqaror pul aylanishi ta'minlanishi va ular tomonidan o'z vaqtida pul majburiyatlari bajarilishi ko'p jihatdan pul massasini to'g'ri aniqlashga bog'liq bo'ladi.

Pul massasi muomaladagi naqd pullar va jismoniy, yuridik shaxslarning va davlatning bank hisobraqamlaridagi naqdsiz qo'rinishdagi pullarning qoldiq summalari yig'indisi hisoblanadi. Pul massasi summasi va tarkibi monetar siyosatning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi.

Rivojlanib kelayotgan davlatlarda bozor mexanizmlari to'la shakllanishiga hali ulgurmagan sharoitda pul massasi qay darajada to'g'ri belgilanganligini baholash qiyin. Bunga faqat pul oqimi shaffofligini va uning ustidan samarali nazoratni o'rnatish orqali erishish mumkin.

Iqtisodiy nazariya asoslaridan ma'lumki, iqtisodiyotda pul massasi taklifi keng miqyosda ko'pligi inflyatsiyani keltirib chiqaradi, uning kam bo'lishi esa to'lov jarayoni sekinlanishiga, shu bilan birga real sektorning ishlab chiqarish hajmi ham pasayishiga sabab bo'ladi, natijada o'zaro noto'lovlar kelib chiqishi kuzatiladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi-olimi O.Sh. Namozov ta'kidlab o'tganidek, "Pul taklifi iqtisodiyotning pul talabiga mos tushishi lozim"⁸. Pul taklifi bilan pul talabining ideal mos tushishini ta'minlash qiyin, lekin bu boradagi moslikni o'zaro yaqinlashtirish mumkin. Buning uchun iqtisodiyotda pul aylanishi ustidan doimiy ravishda samarali monitoring olib borilishi talab etiladi. To'lov tizimi esa, o'zining iqtisodiy funktsiyalaridan kelib chiqib, pul aylanishi ustidan doimiy nazorat olib

⁸Namozov O.Sh. «Monetarnaya politika v perexodnoy ekonomike: kontseptualnie podxodi i programmie napravleniya» (na primere Respubliki Uzbekistan). Dok.diss. rabota. – T.: Moliya, –2001., – S.13


borishga qodir tizimdir. Shunday ekan, iqtisodiyotda pul taklifi va talabini bir-biriga yaqinlashtirish uchun bu tizim samarali mexanizmga aylanishi va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish talab etiladi. Shundagina u *davlat pul-kredit siyosatini amalga oshirishda muhim vositaga aylanadi*, milliy valyutani barqarorlashtirishga va mustahqamlashga xizmat qiladi.

1.4. To'lov tizimini tashkil qilish tamoyillari

Iqtisodiyotda barcha tizimlar ma'lum tamoyillarga asoslanib faoliyat yuritadi, shu jumladan, to'lov tizimi ham. Milliy to'lov tizimi xalqaro amaliyotdan va yillar davomida to'plagan tajribalaridan kelib chiqib, shuningdek, milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda o'zining maxsus tamoyillarini shakllantirishga muvofiq bo'lgan.

Tamoyillar bevosita mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan, amaliyot natijasiga ko'ra va ma'lum strategik maqsadlarga erishishni ko'zlagan holda ishlab chiqilgan bo'lib, iqtisodiyotda to'lov jarayonlarini samarali tashkil qilish va qo'yilgan maqsadlarga xatosiz va tez erishishga xizmat qiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotining bugungi xususiyatlarini, holatini va maqsadlarini inobatga olgan holda 1.2-rasmda keltirilgan asosiy tamoyillarni belgilab o'tish o'rinli.



1.2-rasm. To'lov tizimining asosiy tamoyillari⁹

To'lov tizimining 1.2 - rasmda keltirilgan asosiy tamoyillari bozor mexanizmlari yanada chuqurroq qaror topishini, iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlaydi. Ushbu tamoyillarning har biriga alohida to'htalib, ularning iqtisodiy mohiyatini kengroq ochib beramiz.

Birinchi tamoyil – milliy valyutaning to'lov qobiliyatini oshirish va uning erkin harakatini ta'minlash tamoyili milliy to'lov tizimiga bo'lgan ishonchni oshirishga, to'lov jarayonlarining samarali va tez tashkil qilinishiga hamda milliy valyutaning to'lov qobiliyatini mustahqamlashga yo'naltirilgan.

Ushbu tamoyilning iqtisodiy zaruriyati shundan iboratki, unga tayanib, to'lov jarayonlarini doimiy ravishda tezlashtirib borish bilan birga milliy valyutaning erkin harakatini ta'minlash orqali barqarorligini va to'lov qobiliyatini oshirishga erishish mumkin.

⁹Raximova X.U. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2016. – 46 b.

Iqtisodiy nazariyadan ma'lumki, pulning erkin harakati uning to'lov vositasi sifatidagi roli oshganligidan dalolat berib, funktsiyalari to'la namoyon etilishiga va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi tamoyil – to'lov tizimining amaldagi pul-kredit tartibiga nisbatan aniq va shaffof bo'lishini ta'minlash tamoyilining ahamiyati shundaki, u tizimni tashkil qilishda monetar siyosatning maqsadlariga va vazifalari bajarilishiga erishish ustuvor hisoblanishini taqazo etadi. To'lov tizimi asosiy amaliy maqsad va vazifalaridan tashqari, davlatning pul-kredit siyosatini amalga oshirish jarayonida ko'maklashishga xizmat qiluvchi tizim sifatida faoliyat yuritishi lozim. Bu esa, tizim tomonidan bajarilayotgan barcha operatsiyalar pul-kredit siyosatiga nisbatan aniq va shaffof bo'lishini talab etadi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, to'lov tizimining faoliyati va monetar siyosatning amalga oshirish jarayoni bir yo'nalish doirasida ta'minlanishi kerak. Bu esa iqtisodiyotning strategik maqsadlari tez va samarali bajarilishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Uchinchi tamoyil – zamonaviy texnika va texnologiya asosida tizimning yuqori samaradorligini oshirish tamoyili. To'lov tizimining texnika va texnologik jihatdan takomillashganlik darajasi bevosita iqtisodiyotda pul resurslaridan samarali foydalanishiga, to'lov tizimi faoliyatidagi risklar samarali boshqarilishiga va mijozlarga to'lov xizmatlari ko'rsatish sifati oshishiga ijobiy ta'sir etadi.

Bu tamoyiliga rioya qilinsa:

- to'lov tizimi ishtirokchilarining yangi, ko'p qirrali talablari yuqori darajada va sifatli qondirilishiga erishiladi;
- to'lov jarayonlarining sifati, tezligi va xavfsizligi ta'minlanadi;
- hisob-kitob sohasida integrallashuv darajasi yuqorilashadi;
- jahon iqtisodiyotida qo'llanilayotgan yangi hisob-kitob tizimlaridan orqada qolib ketmaslik ta'minlanadi;
- jahon to'lov xizmatlar bozorida milliy to'lov tizimning nufuzi oshadi;
- respublika va xalqaro miqyosida tovar, pul va kapitallarning erkin, tez va xavfsiz harakati ta'minlanadi.

To'rtinchi tamoyil – to'lov tizimidaxo'jalik sub'ektlarining mablag'lari ular tomonidan erkin boshqarilishi va bank kreditidan to'lov aylanmasida samarali foydalanish tamoyili xo'jalik sub'ektlarining iqtisodiy erkinligini oshirishi bilan birga ularning iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarini kengaytirishga ham zamin yaratadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan, pul bozori va bozor mexanizmlari yaxshi yo'lga qo'yilgan davlatlarda ushbu tamoyilga to'la rioya etilayotganligini kuzatish, O'zbekistonda esa ushbu tamoyilga talab darajasida rioya etilmayotganligini, bu holatni asoslovchi bir necha omillar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Ular milliy iqtisodiyotimiz rivojlanib kelayotganligi va bu sohada hali echilishi kerak bo'lgan muammo va bartaraf etilishi zarur kamchiliklar mavjudligi bilan asoslanadi. Masalan, respublika tijorat banklari o'z mijozlarining pul majburiyatini bajarish jarayonida kredit taqdim etmayotgani, jahon amaliyotida keng qo'llanilib kelayotgan overdraft, overnayt, kontokorent kabi kredit turlari hali amaliyotda yo'lga qo'yilmaganligi bunga asosdir.

O'zbekiston bank tizimi tomonidan kredit berish mexanizmlarini takomillashtirish borasida katta ishlar olib borilayotgani, jumladan, bu jarayonga yangi axborot texnologiyalari tatbiq etilayotgani va kredit riskini kamaytirishga xizmat qiluvchi avtomatik elektron tizimlar, dasturlar va bazalar yaratilayotgani sohada tez orada keskin ijobiy o'zgarishlarga erishilishiga umid o'yg'otadi.

Beshinchi tamoyil – to'lov tizimining takomillashtirilgan me'yoriy bazani shakllantirish va u orqali to'lov jarayonlarini tartibga solish tamoyili bozor iqtisodiyoti uchun juda muhim hisoblanadi. Takomillashgan me'yoriy baza to'lov jarayonida vujudga keladigan barcha munosabatlar samarali tartibga solinishi, to'lov jarayonlari yagona standart va me'yorlar asosida amalga oshirilishi va tashkil qilinishining xavfsizligini ta'minlaydi.

To'lov tizimi hamda to'lov mexanizmlari zamon talabiga mos ravishda rivojlanib borishi, shuningdek, bu sohada yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish natijasida me'yoriy bazani doimiy ravishda takomillashtirilishi talab etilmoqda.

Zamonaviy me'yoriy hujjatlarning mohiyati yangi axborot texnologiyalari rivojlanishi ta'sirida tubdan o'zgarib bormoqda. Buning asosiy sababi shundaki, jamiyat sub'ektlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarning ko'rinishi va shakllari ham o'zgarib bormoqda.

Oltinchi tamoyil – to'lov tizimi talab darajasida faoliyat ko'rsatishi, unda o'rnatilgan talab va me'yorlar buzulishiga yo'l qo'ymaslik uchun mas'ul organ (Markaziy bank) tomonidan rasmiy nazorat olib borilishi va tizim faoliyati tartibga solinishini ta'minlash tamoyili muhim hisoblanadi.

To'lov tizimini ustidan nazorat olib borish funksiyasi ko'p davlatlardagi kabi O'zbekistonda ham Markaziy bank zimmasida.

“O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi qonunning 3-moddasiga muvofiq hisob-kitob tizimining samarali tashkil qilinishi Markaziy bankning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, u tomonidan ushbu sohaning samarali tartibga solinishini ta'minlovchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, Markaziy bank makroiqtisodiy holatni inobatga olgan holda respublika hududida foydalaniladigan to'lov shakllarini, vosita va mexanizmlarini qabul qilgan va ular tegishli me'yoriy hujjatlarda aks ettirilgan. Markaziy bank monetar siyosatning strategiya va taktikasidan kelib chiqib, to'lov tizimi takomillashtirib borilishini va bu jarayon ustidan samarali nazorat o'rnatilishini ta'minlaydi.

Jahon amaliyotida to'lov tizimlarining modellarini yaratishda xalqaro hisob-kitob banki tomonidan ishlab chiqilgan 10 ta asosiy tamoyillar muhim o'rin tutadi.

To'lov tizimlarining mukammal modellarini yaratishda andoza bo'lib xizmat qiluvchi bu xalqaro tamoyillar quyidagilardir:

1. To'lov tizimi barcha yuridik jabhalarni va jarayonlarni qamrab olgan holda puxta asoslangan me'yoriy bazasiga ega bo'lishi lozim;
2. Tizimning tartib va protsedurasi uning ishtirokchilariga kutilayotgan moliyaviy risk bo'yicha aniq tushuncha va tasavvur etish imkonini berishi kerak;
3. Tizim to'lov jarayonida yuzaga keladigan kredit va likvidlik risklarini boshqarishning aniq choralarga ega bo'lishi va tizim operatoriga hamda to'lov

tizimi ishtirokchilariga yuzaga keladigan risklarni boshqarish va oldini olish mas'uliyatini belgilab berishi zarur;

4. To'lov tizimi tomonidan yakuniy hisob-kitobningkun davomida yoki kunning oxirida valyutalashirishni tez amalga oshirilishi kerak;

5. Ko'p tomonlama netting tartibida ishlaydigan to'lov tizimi kunlik hisob-kitoblarning ishtirokchilari to'lov majburiyatlarini kun yakuni bo'yicha bajara olmaslik holatida bu jarayonni yakuniga etkazish masalasi aniq belgilangan bo'lishi (kredit yordamida va h.q.) lozim;

6. Hisob-kitob jarayonida foydalaniladigan aktivlar Markaziy bankning tegishli majburiyati bo'lgani yaxshi, agar ushbu jarayonda boshqa aktivlardan foydalanilayotgan bo'lsa, unda ularning kredit va likvidlilik riski nolga tenglashgani maqsadga muvofiq;

7. Tizim yuqori xavfsizlikni va operatsion ishonchni ta'minlashi lozim, shuningdek, operatsion kun davomida to'lovlarni qayta ishlashi uchun rezerv mexanizmlariga ega bo'lishi talab etiladi;

8. To'lovlar amalga oshirilishi uchun to'lov tizimining foydalanuvchilariga qulay va iqtisodiyot uchun samarali usullarni taqdim etishi lozim;

9. Tizimda ishtirok etish xohishini bildiruvchilar uchun haqqoniy va ochiq ishtirok etishini ta'minlovchi ob'ektiv va rasmiy ochiq mezonlar mavjud bo'lishi talab etiladi;

10. Tizimni boshqaruvchi mexanizmlari samarali, hisobot olish imkonini beruvchi va ochiq bo'lishi lozim.¹⁰

¹⁰<http://edu.znate.ru/docs/index-28093545.html?page=3>.

1.5. Bank xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslari

“Xavfsizlik” soʻzini maʼnosi koʻrilayotgan obʼektning holati bildirib, bu holatda ushbu obʼektga sezilarli zarar koʻrsatmasligi va uni boshqa obʼektlarga ham sezilarli zarar keltirmasligini anglatadi.

“Xavfsizlik” soʻzi XII asrda Evropa tarixi falsafasida oʻz oʻrniga ega boʻlgan boʻlsa, amaliyotda esa u insoniyat yuzaga kelgandan beri keng foydalanilib kelingan. Chunki xavfsizlik inson, jamiyat, davlat uchun zaruriy hisoblangan asosiy xayot talablaridandir.

“Xavfsizlik”ning maʼnosi inson har hil turdagi xavflardan himoyalangan sezib, ruhiyatini tinch va osuda holatini bildirgan.

XVII asrning boshida ushbu soʻz davlat tizimlarida qoʻllanila boshlandi va uning mohiyati quyidagicha taʼlqil qilindi:

“Moddiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda real xavf-xatar (moddiy va maʼnaviy xavf-xatar) yoʻqlik holatida tinch holatini taʼminlab beruvchi shart-sharoitlarni yaratish”.

“Xavfsizlik” soʻzi chuqur tarixiy negiziga ega boʻlib, inson jamiyati taraqqiy etishi bilan birga ushbu soʻzni mohiyati tubdan oʻzgarimasada, lekin uning taʼminlash choralari inson xayotini oʻzgarishi bilan birga oʻzgarib borgan.

Bank faoliyatini rivojlanish tendentsiyalarini kuzatadigan boʻlsak, u doimiy ravishda riskka moil boʻlganligini va ushbu holat alohida eʼtiborni talab etganini koʻrish mumkin.

Banklarning faoliyati doirasida bajaradigan operatsiyalarning hajmi va soni oʻsib borishi hamda bank xizmatlarini mohiyatini tubdan oʻzgarilib borishi bilan birga bir turdagi risklarni olib tashlasa yoki taʼsirini yumshatishga xizmat qilgan boʻlsa, ikkinchi turdagi risklarni yuzaga kelishiga yoki ularni taʼsirini kuchayishiga olib kelgan. Masalan, zamonaviy bank faoliyatini koʻradigan boʻlsak, yangi axborot texnologiyalar yordamida banklar oʻz filiallarini yoki shoʻbalarini masofadan turib resurslarini hamda kredit va likvidlik riskini samarali

boshqarilishiga zamin yaratib bergan bo'lsa, ikkinchi tomonidan bu esa, texnik riskini oshishiga olib keldi.

Zamonaviy bank ishi shuni ta'qidlamoqda, kredit institutlari faoliyatini samarali olib borilishi uchun bank faoliyatini xavfsizligini yuqori darajada tashkil qilib olishi lozim.

Bank xavfsizligini ta'minlashda bir qator choralarni amalga oshirilishi lozim:

- Me'yoriy bazani mustahkamlash (bank tizimi va bank faoliyatining me'yorlarini mustahkamlash);

- Texnik va dasturiy ta'minot;

- Tashkiliy chora-tadbirlar.

Me'yoriy bazani mustahkamlash masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, uni ikki pog'onada yuritilishini ko'rish mumkin: bank darajasida va bank tizimi doirasida.

Bank tizimi doirasida banklarning xavfsizligini ta'minlash masalasini asosan davlat huqumati, markaziy bank, banklar assotsiatsiyasi hamda bank faoliyatini nazorat qilish xalqaro ko'mita va tashkilotlari (Bazel ko'mitasi, Xalqaro savdo palatasi (UCP - 600)) tomonidan yuritiladi. Sanab o'tilgan tashkilotlar tomonidan xavfsiz bank faoliyatini yuritilishi uchun tegishli me'yorlar va standartlar ishlab chiqiladi va ularni amaliyotda qo'llanilishi nazorat qilinadi yoki baholanadi.

Bank faoliyatini xavfsizlik masalasiga qaratilgan me'yoriy xujjatlar, unga bag'ishlangan ilmiy ishlar, uslubiy ko'rsatmalar yaratilganligiga qaramasdan banklarning xavfsizligi doimiy dolzarb masalalar qatorida turadi. Buning asosiy sabablaridan biri, ilm va fan doimiy rivojlanishda, uning ta'sirida bank faoliyatini yuritish yangi texnologiyalar ta'sirida takomillashib bormoqda, jumladan, mijozlarga xizmat ko'rsatish turi, usul va shakli o'zgarmoqda, bank va mijozlar o'rtasidagi munosabat raqobat muhiti ostida yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, bankning ma'lum darajada yangi xavf va xatarlarga ruboro bo'lishiga asos bo'lmoqda.

Davlat tomonidan bank faoliyatini xavfsizligini ta'minlash uchun kerakli me'yoriy xujjatlar qabul qilinadi, shuningdek, markaziy banklar tomonidan qonun

osti xujjatlari ishlab-chiqiladi. Masalan, O'zbekiston Respublika amaliyotini keltiradigan bo'lsak bu masalaga oid bir qator qonunlar qabul qilingan:

1. O'zbekiston Respublikasi "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonun (21.12.1995 y);
2. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun (25.04.1996 y);
3. O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun (11.12.2003y);
4. O'zbekiston Respublikasi «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi Qonun (11.12.2003y);
5. O'zbekiston Respublikasi «Elektron to'lovlar to'g'risida»gi Qonun (16.12.2005y);
6. O'zbekiston Respublikasi "Elektron xujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun (29.04.2004 y);
7. O'zbekiston Respublikasi "Avtomatlashgan bank tizimida axborot xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun (2006 y);
8. O'zbekiston Respublikasi "Bank siri to'g'risida"gi Qonun (30.08.2003 y);
9. Va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yuqoridagi qonun xujjatlariga asoslanib "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlarining axborot xavfsizligi Kontseptsiyasi» ni ishlab chiqdi va tasdiqladi. Ushbu Kontseptsiyadabank tizimida yagona yondashuv asosida axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy vazifalari ko'rsatib berilishi bilan birga amalda qo'llash chora-tadbirlarini ishlab chiqish tartib-qoidalarini muhim o'rin topgan.

Markaziy bankning asosiy maqsadlaridan biri Respublika bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash, shuningdek to'lov tizimini beto'xtov va samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi bank tizimi tashkilotlarida axborot xavfsizligini etarli va lozim darajada ta'minlash hisoblanadi, ya'ni aksariyat hollarda avtomatlashtirilgan bank tizimining (ABT),

bank texnologik jarayonlarining (to'lov, ma'lumotlari va boshqalar) axborot xavfsizligi darajasini aniqlashdan iboratdir.

Bank tizimining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, alohida tashkilotlarning ish faoliyatidagi negativ holatlar yuzaga kelishi oqibatlari to'lov tizimida tizim inqirozini tez rivojlanishiga olib keladi, mijozlar va mulkdorlar daromadlariga ta'sir qiladi.

Axborot xavfsizligida intsident holatlarining yuzaga kelishi bank tizimi tashkilotlariga sezilarli darajada ziyon etish imkoniyatlarini oshiradi. Shuning uchun bank tizimi tashkilotlarining axborotlar aktivlariga tahdid, ya'ni axborot xavfsizligiga xavf tashkilotga ko'rsatiladigan real xavfni ifoda qiladi. Bunday tahdidlarga qarshi turish va axborot xavfsizligida noxush holatlarni bartaraf etishning samarali chora-tadbirlarini ta'minlash uchun bank tizimi tashkilotlarida axborot xavfsizligi etarli darajada ta'minlanishi, shuningdek bu holatni uzoq vaqt mobaynida saqlab turilishi lozimdir. Ushbu sabablarga ko'ra bank tizimi tashkilotlarida axborot xavfsizligi masalalari ularning faoliyatida eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi.¹¹

Markaziy bankning qonun osti xujjatlariga keladigan bo'lsak, deyarli barcha me'yoriy xujjatlarni asosiy maqsadi bankning u yoki bu operatsiyalarini barqaror va xavfsiz amalga oshirish uchun shart-sharoit va zamin yaratishdan iborat.

Tijorat banklari faoliyatini boshlashi bilan bankning xavfsizligini ta'minlab beruvchi dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Buning doirasida banklar:

- bank sirini saqlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni va tegishli ichki me'yoriy xujjatlarni ishlab chiqishi;

- bank xodimlarni bajaradigan mansabi doirasidagi funktsiyalarini belgilashi;

- bank mijozlari to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga ta'rqalib ketilishini oldini olish bo'yicha aniq choralarni ishlab chiqishi;

- bank tomonidan qo'llanilayotgan axborot texnologiyalarni xavfsizligini ta'minlashi;

- va boshqalar.

¹¹ www.cbu.uz. Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamenti boshqarmasining ahboroti.

“Bank xavfsizligi” deganda bankning xavfdan himoyalanganlik holati desak mubolag’a bo’lmaydi. Hozirda “bank xavfsizligi” muraqqab, tizimli va har tomonlama himoyalanganlik holatini anglatadi.

Bank amaliyotida “xavf-xatar” doim ishtiroq etib keluvchi holat desak mubolag’a bo’lmaydi. “Xavf-xatar” – bu bankning xavf darajasini belgilab beruvchi atama hisoblanadi.

Bank xavfsizligini ta’minlash masalasi bank faoliyatiga taaluqli keng doiradagi ma’lumot bazasini qayta ishlagan holda uning zaif va xavf-xatarga moil tomonlari aniqlash va kerakli choralarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

1.6. To’lov tizimini tashkil qilishda Markaziy bankning o’rni

Naqd pulsizhisob–kitoblarni rivojlantirish har bir davlatning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Ma’lumki, davlatlarning monetar sohasini tartibga soluvchi va uni real sektorga xizmat qilishi ta’minlanishiustidan nazorat olib boruvchi organ Markaziy bankdir. Iqtisodiyot uchun muhim bo’lgan hisob-kitob va to’lov tizimlarini nazorat qilish funksiyasi ham uning zimmasida.

Xalqaro hisob-kitoblar banki ta’kidlashicha, hisob-kitob tizimlarini nazorat qilish Markaziy bankning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi¹².

Markaziy bank mamlakatning pul-kredit siyosatini yuritishda asosiy organ hisoblanadi. U yuridik maqomidan va funksiyalaridan kelib chiqib, to’lov vositalarini emissiya qilish va ular asosida tashkiletilgan pul aylanmasini tartibga solishda ustuvor o’ringa ega. Markaziy bank, shuningdek, naqd va naqdsiz pul aylanmasini tashkil qilishda metodologik markaz bo’lib xizmat qiladi.

Markaziy bank to’lov tizimlarini shakllantirishda o’z maqsadini aniq belgilab oladi va to’lov tizimlarining asosiy tamoyillarini bajarish ustidan nazorat o’rnatadi, to’lov tizimlarining xavfsizligini va samarasini oshirishda boshqa davlatlarning markaziy banklari hamda tegishli chet el institutlari bilan hamkorlikniyo’lga qo’yadi.

¹²Central bank oversight of payment and settlement systems. — BIS, Basel, Switzerland, May 2005–55pg.

Markaziy bank naqdsiz pul aylanmasini tashkil qilib beruvchi asosiy operator va ayniqsa, banklararo hisob-kitob jarayonida barcha depozit institutlari o'rtasida qonun bazasiga muvofiq umumiy bank-vakil funksiyasini bajaradi, shuningdek, bank tizimini likvidlik bilan ta'minlab beruvchi oxirgi kreditor rolini bajaruvchi va yalpi to'lovlar kliringini amalga oshiruvchi institut hisoblanadi. Bu o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, samarali tashkil qilingan naqd pulsiz hisob-kitob tizimining o'rni noto'lovlar inqirozi sharoitida oshib boradi, chunki to'lov tizimining bir bo'limida kechiktirilgan to'lovlar va bajarilmagan majburiyatlar ishtirokchilarning ishlab chiqarish va tijorat faoliyatlariga salbiy ta'sir etadi.

Markaziy bank hisob-kitob tizimining rivojlanish strategiyasini aniqlashda asosiy rolni o'z zimmasiga oladi, jumladan, hisob-kitob tizimining tarkibiy tuzilmasini shakllantirishda, ishonchli va barqaror faoliyatni ta'minlanishda, risklarni tushirishda va jamiyat manfaatini himoyalashda bosh rolni bajaradi.

Rivojlangan davlatlardasavdo va moliya tizimlarini globallashuv jarayonida pul-kredit siyosatini samarali yuritish uchun to'lov tizimlarini rivojlantirish masalasini hal etishda yangi innovatsion yondashuvlarni qo'llash tendentsiyasi kuchaymoqda, jumladan, yangi moliya vositalari, elektron pullar iqtisodiy munosabatlarni tashkil qilishda keng qo'llanilmoqda va h.q.

Barcha davlatlarda Markaziy bank mamlakatning samarali hisob-kitob tizimini tashkil qilish va tartibga solishda hamda milliy valyutaning to'lov qobiliyatini oshirishda mas'ul organ hisoblanadi. Chunki, har bir davlatning moliyaviy barqarorligi uchun muhim bo'lgan xavfsiz va to'lovlar vaqtida o'tkazilishini ta'minlovchi samarali hisob-kitob va to'lov tizimlari muhim sanaladi. Shuning uchun har bir davlatda Markaziy bankning naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimlarini tashkil qilish uchun ruxsat berish va uning ustidan nazorat yuritishi qonun hujjatlari bilan qat'iy belgilab qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida"gi Farmoni bilan 1994 yil 1 iyuldan co'm mamlakatimiz hududida yagona, cheklanmagan va qonuniy to'lov vositasi sifatida muomalaga kiritildi.

So'mning muomalaga kiritilishi natijasida Vatanimizda milliy pul tizimi shakllandi va mustaqil pul-kredit siyosatini yuritish uchun shart-sharoitlar ta'minlandi.

Milliy pul tizimi, Markaziy bank to'g'risidagi qonunning 32-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining pul birligini, pul muomalasi tashkil etilishini va uni tartibga solishni o'z ichiga oladi va "so'm" mamlakatimizda yagona, cheklanmagan va qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi.

Hozirda o'zbek so'mining barqarorligi va mustahkamligini ta'minlash maqsadida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, mavjud zaxiralardan oqilona foydalanish masalalari davlatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarida ilgari surilmoqda.

So'mning xarid qobiliyatini oshirish maqsadida pul-kredit siyosatining izchilligini, iste'mol mollari bilan pul mutanosibligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgani barcha sohalarda o'z samarasini bermoqda.

Butun dunyoda "o'zbek modeli" deya e'tirof etilgan o'ziga xos modelga asoslangan taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekiston naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimini shakllantirish sohasida ham islohotlarni izchillik bilan o'tkazishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Milliy to'lov tizimini shakllantirishda Markaziy bank bosh islohotchi organ sifatida o'zini namoyon etib, respublika hududida yagona elektron banklararo to'lov tizimini barpo etishga muvaffaq bo'ldi.

Yangi elektron to'lov tizimi o'ziga xos arxitekturaga ega bo'lib, unda Markaziy bankning Bosh axborotlashtirish markazi yakuniy hisob-kitoblar instituti rolini bajarishga mo'ljallangan.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni va to'lov tizimini tashkil qilishda Markaziy bankning o'rnini belgilangan huquqiy me'yorlar asosida ko'rish mumkin.

Markaziy bank barcha banklar va ularning mijozlari uchun majburiy bo'lgan, hisob-kitoblar qoidalarini belgilovchi me'yoriy aktlarni ishlab chiqadi. Bu esa hisob-kitoblarning umumiy qoidalari mamlakat hududida bir xil bo'lishini va qo'llanilishini ta'minlaydi.

“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida Markaziy bankning asosiy maqsadi va bir qator vazifalari belgilangan. Jumladan, respublikada samarali hisob-kitob tizimini tashkil qilish va ta‘minlash ham uning vazifasiga kiradi.

Ushbu qonunning 33-moddasiga ko‘ra, Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to‘lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko‘rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarishda mutlaq huquqqa ega va shu bilan birga bu uning qat‘iy majburiyati. Shuningdek, Markaziy bankning ushbu majburiyatlari uning barcha aktivlari bilan ta‘minlangan.

Qonunning 36-moddasiga muvofiq to‘lovlar naqd va naqd pulsiz shakllarda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Qonun asosida Markaziy bank naqd pulsiz hisob-kitoblarning shakllarini belgilaydi va tartiblarini ishlab chiqadi hamda yuridik shaxslar uchun kassa operatsiyalarini yuritish tartibini belgilab beradi.

Qonunning 41-moddasiga muvofiq Markaziy bank o‘z nomidan yoki huqumat topshirig‘iga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi nomidan chet elda joylashgan kliring tashkilotlari bilan kliring hamda to‘lov bitimlari, shuningdek, har qanday shartnomalar tuzishga haqlidir.

Markaziy bank banklarga banklararo to‘lovlarga hisob-kitob kliring xizmatini, shu jumladan, cheklar va boshqa to‘lov hujjatlari orqali haq to‘lashni tashkil etishda yordam ko‘rsatish, shunday operatsiyalarni o‘tkazish tartibini o‘z ixtiyoriga ko‘ra belgilash va tegishli ko‘rsatmalar berishga haqlidir. (Asos: tegishli qonunning 57-moddasi).

Markaziy bank naqd pulsiz hisob-kitob vositalarini tanlashda va qonuniy to‘lov vositasi sifatida belgilashda ularning quyidagi sifatlariga e‘tiborini qaratadi:

1. Xavfsizlilik darajasiga. Ushbu sifat to‘lov vositasidan foydalanuvchilarning ishonchini oshiruvchi muhim omil hisoblanib, to‘lovlarni ko‘chirishda uning oluvchining hisobraqamiga etib borish kafolatini ko‘rsatib beradi. Bu sifat uchinchi shaxs tomonidan noqonuniy aralashuv oqibatida yoki texnik nosozlik tufayli pul mablag‘larini harakati chog‘ida yo‘qotish riskini belgilab beradi.

2. To'lov vositasini kiritish va u orqali to'lov aylanmasini tashkil qilish xarajati hajmi. Ushbu sifat texnologik jihatdan tortib, bu to'lov vositasi aylanishiga sarflanishi lozim bo'lgan xarajat hajmini o'z ichiga oladi.

3. To'lov vositalarining aylanish qobiliyati. Bu to'lov vositasini qay darajada keng ishlata olish darajasiga bog'liq. Ushbu sifat to'lov vositalarini barcha sohalarda qo'llash imkonini va unga mos shart-sharoitlarning yaratilish holatini belgilab beradi.

Yuqorida qayd etilgan to'lov vositalarining sifat ko'rsatkichlari u yoki bu to'lov vositalarini Markaziy bank tomonidan tanlash uchun asos bo'ladi.

Zamonaviy milliy to'lov tizimimiz banklararo, ichki va chakana to'lov tizimlaridan tashkil topgan bo'lib, ularning ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bevosita va bilvosita olib boradi. Tashkil qilingan banklararo elektron to'lov tizimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking mulki hisoblanib, Markaziy bank uni bevosita nazorat qiladi, shu bilan birga qonun osti me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqib, ularning bilvosita nazoratini ham yuritadi.

1.7. To'lov tizimini tashkil qilishda tijorat banklarining o'rni

Davlatning to'lov tizimi shakllanishida va samarali faoliyat yuritishida tijorat banklarining o'rni katta.

Tijorat banki Markaziy bankdan farqli o'laroq moliyaviy vositachi sanalib, uning asosiy maqsadi moliya bozorida tijorat faoliyatidan daromad olish hisoblanadi.

Tijorat banklarining boshqa moliya institutlaridan farqli tomoni shundaki, ular tomonidan uchta funktsiya bajarilishi lozim:

- iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini depozitlarga jalb qilish;
- xavf-xatarni o'z zimmasiga olgan holda resurslarni joylashtirish va kredit berish;
- hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish va to'lov xizmatlarini ko'rsatish.

Milliy to'lov tizimi arxitekturasi shakllanishida katta o'rinni tijorat banklari egallaydi. Tijorat banklari iqtisodiyotdagi pul aylanmasining asosiy qismini shakllantiradi, shuningdek, ular orqali, ularning faol ishtiroki asosida mamlakat monetar siyosatining amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Tijorat banklari mamlakatning hisob-kitob tizimi samarali yuritilishini ta'minlovchi moliyaviy institut sifatida namoyon bo'ladi. Uning daromad keltiruvchi tijorat operatsiyalaridan biri xo'jalik sub'ektlariga va aholiga yuqori sifatli bank to'lov xizmatlarini ko'rsatish hisoblanadi.

Bank xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishi tijorat banklarining mijozlariga ko'rsatayotgan to'lov xizmatlari sifati va hajmini oshirishga hamda mijozlarga qulay ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratib berishga asos bo'lmoqda.

Iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi hisob-kitob jarayonini tashkil qilishda tijorat banklari vositachi funksiyasini amalga oshirish bilan birgamilliy to'lov tizimi faoliyatini tashkil qiladi va uning barqaror ishlashini ta'minlaydi. Tijorat banklarida mijozlar uchun ochilgan bank hisobraqamlaridagi pul mablag'lari to'lov va pul majburiyatlari ko'rinishida o'tkazilishi orqali milliy to'lov tizimining banklararo, ichki va chakana to'lov tizimlari darajasidagi faoliyati ta'minlanadi. Ta'kidlab o'tish lozimki, hisob-kitob jarayonini tashkil qilishda iqtisodiy sub'ektlarning talab qilib olguncha bank hisobraqamlaridagi mablag'lari asosiy manba bo'lib ishtirok etadi. Hozirda ushbu hisobraqamlaridagi mablag'larning aylanish tezligi yuqorilashib, ulardan samarali foydalanish darajasi ortib bormoqda. Buning asosiy sababi shundaki, to'lov tizimlarining avtomatlashtirish holati oshdi, yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalar hisob-kitob tizimida keng joriy etildi.

Ma'lumki, banklararo hisob-kitoblar davlat iqtisodiyotining qon tomiri hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, u o'sha davlat jamiyatining umumiy holatini aks ettiradi.

Banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirish zaruriyati shundan kelib chiqadiki, tijorat banklari o'z mijozlariga ularning buyrug'iga binoan hisob-kitob

xizmatini ko'rsatish chog'ida boshqa banklar bilan aloqaga tushishi talab etiladi, ularga shuningdek, banklararo kredit munosabatlarini tashkil qilishda murojaat qilishadi. Shuning uchun banklararo hisob-kitob shartlaridan biri tijorat banklari boshqa banklarda (O'zbekiston amaliyotida Markaziy bankitijorat banlariga) vakillik hisobraqamlarini ochishilozim va ular orqalivakillik munosabatlari o'rnatiladi.

Jahon amaliyotida tijorat banklari banklararo to'lov tizimlarining asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Agar tijorat banki yirik bo'lib, banklararo kliring operatsiyalarini amalga oshirish qudratiga va zamon talabiga javob beraoladigan to'lov tizimiga ega bo'lsa, unda u kliring xizmati ko'rsatuvchi institut sifatida o'zini to'lov xizmatlari bozorida namoyon etishi, shuningdek, bir vaqtning o'zida boshqa institutlarda ochilgan kliring tizimiga a'zo bo'lishi ham mumkin. Agar tijorat banki banklararo kliring instituti sifatida faoliyat yuritishni lozim ko'rmasa, unda u boshqa kliring institutlarining banklararo hisob-kitob xizmatidan tijorat asosida foydalanishi mumkin.

O'zbekiston amaliyotini kuzatadigan bo'lsak, tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan Hisob-kitoblar markazining milliy valyutadagi kliring xizmatidan foydalanishi yo'lga qo'yilgan. Ushbu markazning Markaziy bankda ochilganligini asoslaydigan bo'lsak, ta'kidlash lozimki, Markaziy bank respublika hududidagi hisob-kitob tizimini isloh etuvchi hamda ushbu islohotlarni moliyaviy, texnik va me'yoriy jihatdan ta'minlovchi institut sifatida o'zini namoyon etdi. Bunday strategiyani qo'llashdan maqsad islohotlar samarasini oshirish va tijorat banklarining jahon to'lov bozoridagi raqobatbardoshligini tez sur'atlar bilan ta'minlash hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlarda tijorat banklarining hisob-kitob xizmatini ko'rsatish salohiyati o'z imkoniga ko'proq tayansa, respublikamiz sharoitda, bozor mexanizmlari rivoj topib kelayotgan davrda, bunday banklarning innovatsion yondashuvi va ta'minoti rivojlangan davlatlar banklarinikiganisbatanpast bo'lib, ularga Markaziy bank tomonidan banklararo hisob-kitob hamda kliring xizmatlarini ko'rsatilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, ma'lumki, O'zbekiston

hududi 447,4 ming km²dan tashkil topgan bo'lib, geografik jihatdan Markaziy bankmilliy valyuta "so'm"da banklararo hisob-kitob hamda kliring operatsiyasini bajarishiva monetar siyosatni samarali yuritishi qulay.

Markaziy bankhisob-kitob instituti rolini bajarishining yana bir qulay tomoni shundaki, respublika hududida mintaqa vaqti bir vaqtga to'g'ri keladi, lekin ayrim davlatlarda mintaqa soati har xil bo'lganligi hisob-kitob va kliring markazlari faoliyatiga salbiy ta'sir etadi, aniqrog'i, bu qiyinchilikning kelib chiqishi tijorat banklari operatsion kunining boshlanishi va tugallanishida farq mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, Qozog'istonO'zbekistondan 6 marotaba katta va bu davlatda ikki soatga farq qiluvchi 2 ta mintaqa vaqtlari mavjud. Rossiyadaesa bu muammoni yanada yaqqolrok ko'rish mumkin. Bu davlatda 7 ta mintaqa soat vaqtlari mavjud. Shuning uchun Rossiya davlatida hisob-kitob va kliring markazlari ikki darajali bo'lib, mintaqa banklararo darajada tashkil qilingan kliring markazlari (o'tkazilayotgan to'lovlar: soni –90% va summa–82%) hamda ularning o'rtasida mintaqalararo kliring markazlari alohida tashkil qilingan. Bundan xulosa qilish mumkinki, mintaqa soatlari har xil bo'lgan davlatlarda tijorat banklarining banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayoni bir vaqtda yoki real vaqt ichida tugallanishi qiyin bo'lib, kliring markazlari ko'p bo'lishinitaqazo etadi. O'zbekiston esabunday muammodan xoli. Respublikada tijorat banklari (2016 yil 1 yanvar holatiga 26 ta tijorat banki) Markaziy bankda ochilgan yagona Hisob-kitoblar markaziga ulangan. Bu esa banklararo hisob-kitobni amalga oshirishda tijorat banklariga va shu bilan birga banklarning mijozlariga katta qulayliklar yaratib beradi, jumladan, to'lovlarni real vaqt ichida amalga oshirishga, operatsion kun bir vaqtda tugallanishiga va banklararo tranzaktsion xarajatlar qisqarishiga, shuningdek, respublika hududida barcha hisob-kitoblar qisqa vaqt ichida yakunlanishiga, eng asosiysi, Markaziy bank respublika hududida hisob-kitob jarayonlarini real vaqt ichida nazorat qilishiga katta shart- sharoitlar yaratadi.

Tijorat banklari plastik kartochkalarni hamda qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish orqali iqtisodiyotda samarali pul-kredit munosabatlarni tashkil qilinishiga sezilarli ta'sir etadi.

Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunning "Bank operatsiyalari" nomli 4-moddasiga muvofiq:

– jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, vakil banklarning hisobvaraqlarini ochadi va yuritadi, hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshiradi;

– pul mablag'lari, vekselar, to'lov va hisob-kitob hujjatlarini inkasso qilish bilan shug'ullanadi.

Ushbu qonunning "Banklararo operatsiyalar" nomli 32-moddasiga binoan esa tijorat banklari shartnomalar asosida mablag'larni depozitlar, kreditlar shaklida bir-birlaridan jalb etishi va bir-biriga joylashtirishi, tashkil etiladigan hisob-kitob markazlari va vakillik hisobraqamlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishi hamda litsenziyada nazarda tutilgan boshqa o'zaro operatsiyalarni bajarishi mumkin.

Respublikada amalga oshirilayotgan naqd pulsiz hisob-kitob operatsiyalarining asosiy qismi tijorat banklari yordamida tashkil qilinadi. Markaziy bank naqd pullarni emissiya qilishda monopol o'rinni egallasa, tijorat banklari esa kredit emissiyasini amalga oshiradi. Bu esa, tijorat banklari samarali pul aylanmasini tashkil qilishda muhim o'ringa egaligini va to'lov vositalarini emissiya qilishga haqliligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, tijorat banklari xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda iqtisodiy sub'ektlarning eksport-import shartnomalari, huquq va majburiyatlari ijrosida ishonchli moliyaviy vositachi hamda hamkor rolini bajaradi. Bunda tijorat banklari chet el davlatlarining banklarida vakillik hisobraqamlarini ochishi ("Nostro" – vakillik hisobraqami) yoki boshqa tijorat banklarining chet el vakillik hisobraqamlaridan xizmat haqi to'lash evaziga foydalanish orqali xalqaro operatsiyalarni amalga oshiradi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bir to'lov tranzaksiyani o'tkazishda, ya'ni to'lov trafigida ishtirok etuvchi banklarning soni ko'paysa, to'lov xizmati narxi ham oshib boradi, chunki xalqaro hisob-kitob jarayonida ishtirok etuvchi banklar o'z xizmat haqini talab etadi va natijada

tranzaktsion xarajatlar summasi oshadi. Shuning uchun tijorat banklari optimal to'lov trafiklarni izlaydi va to'lov jarayoni tezligini ta'minlaydi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. To'lov tizimi va bank xavfsizligi tushunchalarning iqtisodiy mohiyati.
2. To'lov tiziminining nazariy asoslarini nimalar tashkil topadi?
3. "To'lov tizimi va bank xavfsizligi" fanining predmeti, ob'ekti, maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Bozor iqtisodiyotida tovar-pul munosabatlarini tashkil etishda hisob-kitobva to'lov tizimlarning o'rni va ularga ta'sir etish imkoni?
5. Iqtisodiyotni rivojlanishiga to'lov tizimlarning ta'sirini ifodalab bering?
6. Davlatning monetar siyosati nuqtai nazaridan naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirish masalasining dolzarbligini asoslab bering.
7. Bozor iqtisodiyotida tovar va pul oqimlari muvozanatini ta'minlash muammosi va uni kelib chiqish sabablari?
8. Samarali to'lov tizimini tashkil qilishda Markaziy bank qanday o'rin tutadi?
9. Samarali naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimini tashkil qilishda tijorat banklarning o'rni nimalarda namoyon bo'ladi?
10. Milliy iqtisodiyotda to'lov tizimini tartibga soluvchi me'yoriy xujjatlarni keltirib o'ting?

2-BOB. TO'LOV TIZIMI VA UNING STRUKTURASI

Iqtisodiyotda to'lov tizimining strukturasi uch asosiy hisob-kitob tizimlaridan iborat. Jumladan, banklararo hisob-kitob tizimi (xalqaro va milliy darajadagi), tijorat banklarining ichki to'lov tizimlari hamda chakana to'lov tizimlaridir.

To'lov tizim foydalanuvchilarning maqsad, vazifa va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uning asosiy funktsiyasi, ishlash tamoyili va tashkiliy elementlari aks ettirilishi lozim.

Ushbu bobda naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning umumiy tamoyillari, to'lov tizimning asosiy funktsiya va tamoyillari taqdim etilgan. Bundan tashqari, har bir turdagi to'lov tizimi mahsus elementlardan tashkil topadi va ushbu elementlarning bir biriga mos va uygun ishlashi zarurligi asoslab berilgan.

2.1.To'lov tizimining funktsional va tartibga soluvchi elementlari

Iqtisodiy faoliyatning har xil turida va darajasida (mintaqalar bo'yicha, sohalar bo'yicha va davlat miqyosida) iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi hisob-kitob jarayonini tashkil qilishda pullar to'siqsiz va to'xtovsiz xar xil (naqd va naqdsiz) ko'rinishlarda aylanishi ta'minlanishi lozim. Pullarni uzluksiz va talab darajasida aylanishi nafaqat ayrim bozor ishtirokchilarining holatiga ta'sir etadi, balki butun iqtisodiyotning holatini ham belgilab beradi.

Pul muomalasining samarali tashkil qilinishi ko'p omillarga bog'liq bo'ladi. Ushbu omillardan biri to'lov tizimini tashkillashtirib beruvchi elementlarning tarkibi, holati va ularning bir-biriga muvofiq faoliyat yuritishi hisoblanadi.

Tizim bir-biriga bog'liq bo'lgan bir qator elementlardan tashkil topadi va ularning har biri o'z funktsiyasiga ega bo'lib, tizimning pirovard maqsadi bajarilishiga hissa qo'shadi. Ma'lumki, tizimdagi bir elementning holati ikkinchi elementning holatiga bevosita ta'sir etadi va bu bog'liqlik butun tizim faoliyati samarasiga va holatiga ta'sir ko'rsatadi.

To'lov tizimi elementlari funksional va tartibga soluvchi elementlardan tashkil topadi (2.1. – jadvalni karang). Ulardan har biri ushbu tizimda o'zining maxsus roli va o'rniga ega.

2.1-jadval

To'lov tizimi elementlarining tasnifi¹³

To'lov tizimining funksional elementlari			To'lov tizimining tartibga soluvchi elementlari			
To'lov jarayonlari-ning ishtirokchilari	To'lov mexanizmi usul va vositalari	To'lov xizmat-larini amalga oshiruvchi institutlar	To'lov tizimi-ning faoliyatini tamoyillari	Davlatning pul tizimi	To'lov tizimini tartibga soluvchi organ (institut, tashkilot)	Me'yoriy baza

To'lov tizimining provard maqsadi to'lov jarayonidagi hamma ishtirokchilarning bu jarayondagi manfaatlarini ko'zlash va barcha darajadagi hisob-kitob jarayonlarini yakuniga etkazish hisoblanadi.

To'lov tizimining *funksional elementlariga* quyidagilarni kiritish lozim:

- to'lov jarayonlarining ishtirokchilarini;
- to'lov mexanizmi, usul va vositalarini;
- to'lov xizmatlarini amalga oshiruvchi institutlarni.

Bu elementlarning funksional element sifatidagi xususiyati shundaki, ular to'lov tizimining ish faoliyatida bevosita ishtirok etadi.

To'lov tizimining *tartibga soluvchi* elementlari quyidagilar hisoblanadi:

- to'lov tizimining faoliyatini tamoyillari;
- davlatning pul tizimi;
- milliy to'lov tizimini tartibga soluvchi organ;
- me'yoriy baza.

Bu elementlarning tartibga soluvchi element sifatidagi xususiyati shundaki, ular to'lov tizimining faoliyatida bilvosita ishtirok etib, uning tartib, me'yor,


¹³Raximova X.U. Osobennosti razvitiya platyojnoj sistemi Respubliki Uzbekistan. Monografiya. – T.: Moliya, 2013, str. 24

standart va talablari buzilmasligini ta'minlaydi va tizimni doimiy ravishda tartibga solib turadi.

To'lov tizimining funksional va tartibga soluvchi elementlari bir- biri bilan yagona maqsadga erishish va vazifalarni bajarish uchun bog'langan bo'lib, davlat miqyosida ular birgalikda yaxlit tizim va mexanizmni tashkil qiladi.

To'lov tizimi samarali tashkil qilinishi uning elementlari bir-biri bilan chambarchas bog'lik holda va zidiyatsiz faoliyat yuritishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Shuni ta'kidlab o'tish lozim, agar to'lov tizimining bir elementida muammo yoki kamchilik vujudga kelsa va u o'z vaqtida bartaraf etilmasa, unda tizimning boshqa elementlariga ham ushbu salbiy holat ta'sir qilishi va tizimning ishdan chiqish xavfi yuzaga kelishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan elementlarning bir biriga bog'liqlik darajasini bevosita pastda keltirilgan sxema orqali ularning bog'lanish mexanizmini 2.1. – rasm yordamida tasavur etish mumkin bo'ladi.



2.1-rasm. To'lov tizimi elementlarining bir-biri bilan bog'lanishi va ularning ishlash mexanizmi

To'lov tizimini takomillashtirish masalasi bevosita uning tarkibiga kiruvchi elementlar rivojlantirilishini taqozo etadi. Yuqori aks ettirilgan sxemada to'lov tizimining barcha elementlari bir-biriga bog'liq bo'lganligi sababli ulardan birining rivojlanishi qolganlarini ham rivojlantirilishiga asos bo'ladi, agar teskari holat bo'ladigan bo'lsa, ya'ni tizimning elementlari bir-biriga to'la mos tushmasa, unda tizimda buzilishlar va muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois to'lov tizimini tashkil qiluvchi elementlar muntazam tahlil etib turilishi va aniqlangan nomutonosib holatlar bartaraf etilishi zarur.

Masalan, to'lov tizimi ishtirokchi (foydalanuvchi)lari zamon tendentsiyalarini inobatga olgan holda ma'lum bir to'lov xizmatiga talabgor, deylik, forfeiting operatsiyasiga, lekin banklar va boshqa xizmat ko'rsatuvchi institutlar tomonidan bu turdagi xizmatlar ko'rsatilmaydi. Agar forfeiting operatsiyasini amalga oshirish amaliyoti qo'llanilsa, unda, albatta, birinchi navbatda me'yoriy bazani takomillashtirish lozim bo'ladi. Unda yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalarni qo'llagan holda xizmat ko'rsatuvchi institutlar tomonidan mijozlarga barcha shart-sharoitlar yaratib berilishi nazarda tutiladi. Bundan tashqari Markaziy bank tomonidan ushbu operatsiya turi samarasini va uning ustidan nazoratni oshirish forfeiting operatsiyasini amalga oshirish usul va mexanizmlari aniq belgilab olinishi hamda noqonuniy holatlarning oldini olish uchun tartibga soluvchi organ sifatida ushbu ob'ekt ustidan monitoring tizimi mukammal tashkil qilinishi talab etiladi.

To'lov tizimini rivojlantiruvchi tizim ishtirokchi (foydalanuvchi)larining kunsayin o'sib borayotgan zamonaviy talab va istaklari hisoblanadi. Hozirda to'lov tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va uning infratuzilmasi rivojlantirilishi tizim ishtirokchilariga maksimal darajada zamon talabiga mos ravishda shart-sharoitlarni yaratib berishga, shu bilan birga nazorat qiluvchi organ, aniqrog'i, Markaziy bankning tartibga soluvchi faoliyati samarasini oshirishga qaratilgan.

To'lov tizimidan foydalanishda uning ishtirokchilari ma'lum iqtisodiy manfaatlarni ko'zlaydi (2.2-jadval).

To'lov tizimi ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlari

<i>Ishtirokchilar</i>	<i>Iqtisodiy manfaatlari</i>
<i>1. Davlat</i>	Mamlakatning pul-kredit siyosatini amalga oshirish, soliq va byudjetdan tashqari to'lovlarni yig'ish, davlat-ma'muriy xarajat to'lovlarni amalga oshirish hamda aholiga daxldor ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish.
<i>2. Yuridik shaxslar (moliyaviy va nomoliyaviy xo'jalik sub'ektlari)</i>	Shartnomaviy majburiyatlarni tez va qulay bajarish uchun shart-sharoitlar yaratish, to'lov jarayonini tashkil qilishda kredit mablag'laridan foydalanish imkonini berish, to'lovlarning ta'minlanganligi va xavfsizligi, to'lov xizmatlari narxlarining pastligi.
<i>3. Jismoniy shaxslar (aholi)</i>	Samarali to'lov vositalaridan hamda bankning yangi va qulay xizmatlaridan maksimal darajada foydalanish, milliy valyutamizning to'lov qobiliyati yuqoriligini ta'minlash va iste'mol kreditidan foydalanishni kengaytirish.

To'lov tizimi modellashtirilishini tizimdan foydalanuvchilarning iqtisodiy manfaatlarini inobatga olgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

To'lov tizimini shakllantirishda pul tizimi muhim hisoblanib, to'lov tizimining mohiyat va ishlash mexanizmini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasida pul tizimining yuridik ifodasi "Markaziy bank to'g'risida"gi qonunning 32-moddasida belgilab qo'yilgan. Unga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining pul tizimi uning pul birligini, pul muomalasi tashkil etilishini va uni tartibga solishni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasining pul birligi so'mdir. Uning bir so'mi yuz tiyinga tengdir. So'm O'zbekiston Respublikasida yagona, cheklanmagan va qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotda pul tizimi bittadan ko'p bo'lsa, unda mamlakat doirasida to'lov tizimining tuzilishi va mohiyati o'zgaradi hamda uning modeli va davlatning ichki to'lov aylanmasini tartibga solish amaliyoti ham murakkablashadi. Bunda tizim ikki turdagi valyutani o'rtasidagi konversion jarayonlarini ham inobatga olishi lozim. Har bir mustaqil davlat o'z milliy valyutasiga ega bo'lishini

ta'minlaydi. Uning to'lov qobiliyatini oshirish monetar siyosatning strategik vazifasiga kiradi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda qonun bo'yicha belgilangan pul tizimi mohiyat jihatidan farq qilishi mumkin, chunki globallashtirish sharoitida rivojlangan davlatlar o'z to'lov tizimini modellashtirishida pul tizimi faqat milliy valyutani emas, balki xalqaro to'lov aylanmasini tashkil qilishda faol qatnashadigan qattiq valyutalarni ham o'z ichiga oladi, lekin shunga karamasdan olib borilayotgan to'lov jarayonlari valyutasidan qat'ii nazar, ularning yakuniy kliringi mamlakat doirasida yakun topadigan bo'lsa, unda to'lov aylanmasi real vaqt ichida milliy valyuta qiymatida (ushbu vaqtdagi valyuta kursi asosida) mamlakatning Markaziy banki tomonidan baholanadi.

To'lov tizimining muhim elementlaridan yana biri to'lov mexanizmi, usul va vositalari hisoblanadi. Ushbu elementning mohiyatini, aniqrog'i, to'lov jarayonini tashkil qilishning har bir usul, vosita va mexanizmlarini va ularning o'ziga xos xususiyatlarini oltinchi bobda ko'rib chiqamiz.

2.2. Milliy to'lov tizimining arxitektura tuzilishi

To'lov tizimi arxitekturasi deganda, uning to'lov jarayonlari qonun doirasida amalga oshirilishi uchun mo'ljallangan institutsional tashkiliy tuzilmasi nazarda tutiladi.

Elektron-axborot asrida iqtisodiyotda hisob-kitob tizimlarini yuqori texnologiyalardan keng foydalangan holda tashkil qilish, zamonaviy bozor talablariga to'la javob beraolish kudratiga ega bo'lish lozim.

To'lov tizimining institutsional tuzilmasi shunday tashkil qilinishi lozimki, unda iqtisodiyotda barcha darajadagi hisob-kitob tizimlari uyg'un ishlashi, moliyaviy axborot almashuvi hamda pul oqimi barqaror, shaffof, operativ va samarali tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Buning uchun to'lov tizimida texnik, yuridik va iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlar to'la yaratilishini ta'minlash lozim.

Jahon amaliyotida pul muomlasining samarali va barqaror aylanishini tashkil qilish maqsadida to'lov tizimi arxitekturasini takomillashtirish va rivojlantirishda quyidagi dolzarb masalalar inobatga olinadi:


- moliyaviy bozorning barcha segmentlarini qamrab olish;
- chakana va yirik summadagi hisob-kitob tizimlarini uyg'unlashtirish;
- to'lov xizmatidan foydalanuvchi sub'ektlarning zamonaviy talablariga mos ravishda hisob-kitob tizimlari diversifikatsiyasini oshirish va maksimal darajada shart-sharoitlar yaratish;
- hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirish va inson omilining aralashuv darajasini pasaytirish;
- to'lov tizimida hisob-kitob jarayonlari shaffofligini va operativligini ta'minlash;
- to'lov jarayonlari ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatini himoya etish va qonun doirasida axborot ta'minotini tashkil qilish;
- to'lov tizimi arxitekturasidan nafaqat jarayonda bevosita ishtirok etuvchi sub'ekt va institutlar joy olishi, balki to'lov jarayoniga bilvosita ta'sir etuvchi va uning sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi institutlar ham o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Masalan, iqtisodiy kontragentlarning moliyaviy holatiga baho beruvchi mustaqil institutlar va h.q.;
- to'lov jarayonlari sifatini oshirish maqsadida hisob-kitob sohasining iqtisodiyotdagi boshqa sohalar bilan samarali integratsiyasi amalga oshirilishini ta'minlash;
- to'lov tizimida ishtirok etuvchi aylanma mablag'lardan samarali foydalanish maqsadida ularning kredit mexanizmlariga asoslangan operatsiyalarini va institutlarni (faktoring kompaniyalarini) barpo etish;
- iqtisodiyotda ro'y berayotgan zamonaviy tendentsiyalarni inobatga olgan holda to'lov tizimining institutsional tuzilmasini barpo etish.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda to'lov tizimlarining arxitekturasini barcha moliya bozorlarini o'z ichiga qamrab olgan. Ushbu bozorlar bir biri bilan uyg'unlikda faoliyat yuritadi. Tizim foydalanuvchilari (mijozlari) uchun katta va

mayda summadagi to'lovlar hamda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar samarali o'tkazilishini va qayta ishlashini ta'minlash maqsadida to'lov tizimlar ixtisoslashgan.

Ixtisoslashgan to'lov tizimlarining har biri alohida kliring markaziga ega. Ushbu markazlar yordamida netting tartibida hisob-kitoblar amalga oshiriladi va ularning asosiy ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro pul majburiyatlari aniqlanadi. Shundan so'nggina markaziy banklarning hisob-kitoblar markaziga barcha turdagi maxsus kliring markazlari amaliyot kun natijasi bo'yicha axborotni uzatadi va kliring ishtirokchilari o'zaro pul majburiyatlarining hisob-kitoblari yakun topadi¹⁴.

Rivojlangan davlatlarning to'lov tizimlarini arxitektura modeli 2.2-rasmda keltirilgan.



¹⁴James Brook. Examples & Explanations: Payment Systems.–New York.:Wohers Kluwer Low@Business.Pg 299



**Axborot bilan ta'minlash va boshqa turdagi
xizmatlarni ko'rsatuvchi institutlar**

2.2-rasm. To'lov tizimining takomillashgan arxitektura modelini ko'rinishi¹⁵

Yuqoridagi rasmdan zamonaviy to'lov tizimining arxitektura modelida ko'rish mumkin institutsional jihatdan keng rivojlanganligini, aniqrogi ixtisoslashgan kliring markazlarini ko'pligini.

“Kliring” so'zi (“clearing” – “clear”) inglizcha so'z bo'lib, “tozalash”, “shaffoflashtirish” degan ma'nolarni anglatadi. Kliring markazi to'lov jarayoni ishtirokchilarining o'zaro talab vamajburiyatlarini hisobga olib, amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi hisoblanadi, mamlakat ichidagi kliring banklar o'rtasidagi to'lovlarni, naqd pulsiz hisob-kitoblarni o'z ichiga oladi. Xalqaro hisob-kitoblarda bu jarayon kliring kelishuvlar (kliring kelishuvlari, valyuta kelishuvlari) ko'rinishida amalga oshiriladi. Davlatlar o'zaro qarzlarni tilla va valyutaga o'tkazmasdan savdo-sotiq talablariga ko'ra amalga oshiradilar. Masalan, paxta tolasi o'rniga uning qiymatiga teng miqdorda oziq-ovqat, mashina va asbob-uskunalar olish mumkin.

Rivojlangan davlatlarda to'lov tizimining tashkiliy qismlarigato'xtalganda, quyidagilarni alohida e'tirof etish lozimki, markaziy bankning to'lov tizimidan tashqari xususiy to'lov tizimlari ham mavjud. Ular uyg'unlikda to'lov xizmatlari bozorida yaxlit tizim sifatida faoliyat yuritishini kuzatish mumkin.

Rivojlangan davlatlarning to'lov tizimlari arxitekturasida yordamchi (qo'shimcha) institutlar ham muhim o'ringa ega. Ular 2.2–rasmda “Axborot bilan ta'minlash va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatuvchi institutlar” deb nomlangan. Ushbu institutlarning to'lov tizimidagi funktsiyasi hisob-kitob jarayonlarini sifatli tashkil qilish va ularni o'z vaqtida yakunlash hisoblanadi. Yordamchi institutlar to'lov jarayoni ishtirokchilarining talablaridan kelib chiqib, ularni kontragentlari to'g'risidagi moliyaviy axborot bilan ta'minlaydi, shuningdek, to'lov qobiliyati va

¹⁵Raximova X.U. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2016 -137 b.

bozordagi reytingini baholaydi. Bundan tashqari, to'lov tizimining arxitekturasiga yordamchi institutlar sifatida konsalting, faktoring, sug'urta va boshqa kompaniya hamda institutlar ham kirishini aytib o'tish o'rinli. Ushbu institutlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning o'rni katta. Masalan, to'lov jarayonini tashkil qilishda to'lov summasining sug'urtalanishi va boshqa xizmat ko'rsatuvchi institutlarning to'lov tizimifaoliyatdagi faol ishtirokini ko'rish mumkin.

Mustaqillik yillarida tobora chuqurlashtirib borilgan islohotlarni natijasida milliy to'lov tizimimizning arxitektura tuzilishi va hisob-kitob jarayonlarining tashkil qilinishi hamda boshqarilishi tubdan o'zgardi.

Hozirda tashkil qilingan milliy to'lov tizimimizning arxitektura ko'rinishi rivojlangan to'lov tizimlari modellariga yaqinlashmoqda. Buni yordamchi institutlartashkil topishida va ulartizimda mustaqil o'ringa ega bo'lishida ko'rishi mumkin.

2004 yili O'zbekiston Respublikasida Kredit axboroti milliy instituti tashkil etildi. Uning asosiy funksiyasi respublika moliya bozorining asosiy ishtirokchilariga, aniqrog'i, tijorat banklariga potentsial kredit oluvchilarning kredit tarixi to'g'risida axborot berish hisoblanadi. Ushbu funksiyasi orqali bu institut kredit bilan bog'liq hisob-kitob jarayonlari o'z vaqtida tugallanishini ta'minlaydi hamda tijorat banklari kredit bozorida reytingi past bo'lgan iqtisodiy sub'ektlar bilan kredit munosabatlariga tushmaydi. Natijada iqtisodiyotda debitor – kreditor qarzdorlikning hajmi kamayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1989-sonli qarori bilan respublika "Elektron hukumat" tizimining kompleks axborot tizimlari tarkibiga Markaziy bankning "Chakana to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish kliring tizimini yaratish hamda xizmat ko'rsatuvchilarning billing tizimi bilan integrallash" loyihasi ham kiritilgan bo'lib, mazkur Kliring tizimi amaliyotga tatbiq etildi.

Ushbu tizimni yaratishdan maqsad unga tijorat banklari filiallari, kassalari va O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi qoshidagi Yagona umumrespublika


Protssessing markazini ulagan holda, jismoniy shaxslarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek, kommunal xizmatlar va mobil aloqa operatorlari uchun to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyatini yaratishdan iborat. Mazkur tizim mijozlarga kunutun bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish va bank infokiosklari orqali ishlash imkoniyatini berdi.

Kliring tizimi bilan Davlat soliq qo'mitasi axborot tizimi, shuningdek, "O'zbekenergo" DAK hamda "O'ztransgaz" AKning billing tizimlari integratsiya qilingan holda soliq va boshqa majburiy to'lovlar hamda elektr energiyasi va gaz iste'moli to'lovlarini real vaqt tartibida amalga oshirish imkoniyati yaratildi.¹⁶

Shu bilan birga, "O'zkart" banklararo chakana to'lov tizimi faoliyatini tartibga solish va samarali tashkil etish maqsadida, Markaziy bank huzuridagi Axborotlashtirish Bosh markazida "Banklararo universal netting axborot tizimi" dasturiy majmuasi ishga tushirilishi munosabati bilan "O'zkart" tizimida Hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi bank vazifalari O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining Banklararo hisob-kitob markazidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankini Hisob-kitoblar markaziga o'tkazildi.

Milliy to'lov tizimning zamonaviy arxitektura ko'rinishi 2.3- rasmda aks ettirilgan.

¹⁶ www.cbu.uz.



Estlatma:

- - - elektron aloqa tizimi;
- an'anaviy, kog'ozli ko'rinishida.

2.3-rasm. O'zbekiston Respublikasi to'lov tizimi arxitekturasining umumiy tuzilishi*¹⁷

Chizma yordamida qo'rish mumkin tijorat banklarining o'zaro majburiyatlarini hisob-kitobi Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi. Bu tizim xarajatlari kamayishiga olib keladi va tijorat banklari o'z mablag'laridan samarali foydalanishlariga imkon beradi.

¹⁷Raximova X.U. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2016 -139 b.

Hozirgi vaqtda bank tizimi tomonidan ushbu axborot tizimini takomillashtirish va joriy qilish doirasini kengaytirish ishlari olib borilmoqda¹⁸.

Milliy to'lov tizimi arxitekturasining tuzilishida va unda amalga oshirilayotgan hisob-kitob jarayonlarida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarga alohida to'xtab o'tish joiz:


– birinchi navbatda to'lov tizimida tranzaksiyalarni o'tkazish vaqtini qisqartirishga muvofiq bo'lindi. Unga erishish uchun dastlabki banklararo elektron to'lov tizimining arxitekturasida mavjud bo'lgan hududiy hisob-kitob markazlari qisqartirildi va hozirda banklararo to'lov jarayonlari to'g'ridan-to'g'ri Markaziy bankning hisob-kitob markazi orqali ta'minlanmokda;

– ikkinchi navbatda to'lov tizimining asosiy ishtirokchilari o'rtasidagi aloqa avtomatlashtirilishiga erishilmoqda. Hozirda bank va mijoz o'rtasidagi aloqa tizimi an'anaviy ko'rinishdan elektron ko'rinishga o'tmokda. Bunda ilg'or innovatsion yangi dasturiy texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Jumladan, "Bank-mijoz", "Internet-banking", "SMS-banking", "Mobil-banking" va h.q..

– uchinchi navbatda yuqorida aytib o'tganimizdek, banklararo to'lov tizimida Kredit axboroti milliy instituti o'z o'rniga ega bo'lib, tijorat banklari kredit operatsiyalari bilan bog'liq hisob-kitoblar sifati va ularning o'z vaqtida yakunlanishi ta'minlanmokda.

Ma'lumki, milliy to'lov tizimimizning asosiy qismini banklararo to'lov tizimi tashkil qiladi. Endilikda uning institutitsional tuzilishi zamonaviylashdi (2.4-rasm).

¹⁸ www.cbu.uz.



2.4-rasm. Banklararo to'lov tizimining institutsional tuzilmasi¹⁹


Milliy to'lov tizimi arxitekturasini takomillashtirish orqali iqtisodiyotda optimal pul aylanish tizimi barpo etiladi hamda yuqori samarali to'lov instrument va mexanizmlaridan foydalanish imkoni oshadi.

Har bir davlat pul aylanish tizimini ideal modeliga yaqinlashtirishga harakat qiladi. Bu shunday modelki, unda iqtisodiyot uchun emissiya qilingan pul massasi ustidan yuqori darajada monitoring ta'minlanadi va qonun bilan belgilangan pul aylanish tizimlaridan pullarning chetga, ya'ni yashirin iqtisodiyotga chiqib ketmasligi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'ladi. Pul aylanish tizimining takomillashgan modelini tahminiy ko'rinishini 2.4-rasmda ko'rish mumkin.

Keltirilgan ushbu rasmdan ko'rish mumkinki, pul aylanish tizimining takomillashgan modelida emissiya qilingan pullarning tizimga qaytish nuqtasi bo'lib jismoniy shaxslar hisoblanadi. Ularga kelib tushgan mablag'lar, ularning

¹⁹Raximova X.U. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2019 -140 b.

majburiyati va istag'larini bajarishga xizmat qilib, mablag'larni bir qismi yuridik shaxslarga qaytishi (iste'mol tovarlari va xizmatlarni sotib olishi va h.q.) va iste'mol xarajatlarini qoplagandan so'ng qolgan ortiqcha qismi investitsiya ob'ektlariga yoki tijorat banklarining depozitlariga yo'naltiriladi. Investitsiya ob'ektlari bo'lib, ishlab chiqarish ob'ektlari, davlat va korporativ qimmatli qog'ozlar hisoblanishi mumkin.



2.4-rasm. Iqtisodiyotda pul aylanish tizimining takomillashgan modeli²⁰

Hozirda rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida pul aylanish tizimi yuqorida ko'rib chiqilgan takomillashgan modeliga yaqinlashgan bo'lsa-da, lekin ularda ham amalga oshiriladigan ishlar talaygina. Masalan, ushbu davlatlar iqtisodiyotida chakana to'lov tizimlarida naqd pul aylanmasi mavjud bo'lib, aynan ushbu tizim orqali pulning monitoringi susayadi. Shuning uchun chakana to'lov tizimlarini avtomatlashtirish va naqd pul aylanmasini qisqartirish muhim hisoblanadi.

Takomillashgan to'lov tizimini barpo etish orqali takomillashgan pul aylanish tizimi va makroiqtisodiy muvozanat ta'minlanadi.

To'lov tizimini takomillashtirishda quyidagi mikro- va makroiqtisodiy darajadagi masalalar inobatga olinishi maqsadga muvofiq:

- to'lov aylanmasini tartibga solish jarayonida axborot ta'minotini avtomatlashtirish;
- barcha bozorlar ustidan monitoringni amalga oshirish va tartibga solinuvchi bozorlarni (elektron) rivojlantirish;

²⁰Raximova X.U. Osobennosti razvitiya platyojnoj sistemi Respubliki Uzbekistan. Monografiya. – T.: Moliya, 2013 –str 97.

- qimmatli qog'ozlar bozorini, ayniqsa, ikkilamchi bozorni takomillashtirish;
- hisob-kitob jarayonlarida naqd pulsiz hisob-kitoblarning shakl va vositalaridan samarali foydalanishni ta'minlash;
- to'lov tizimining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi kommunikatsion aloqalarni avtomatlashtirish darajasini oshirish, ayniqsa, bank va ularning mijozlari o'rtasidagi aloqalarni;
- chakana naqd pulsiz to'lov tizimlarini yanada kengaytirish orqali milliy to'lov tizimimiz infratuzilmasini takomillashtirish;
- iqtisodiyotda tijorat va iste'mol kredit to'lov mexanizm va vositalarini rivojlantirish;
- aholining, xo'jalik sub'ektlarining va davlatning kredit tizimiga qo'yilmalarini rivojlantirish va rag'batlantirish;
- iqtisodiyotdaha xil turdagi pul oqimlari ustidan monitoringni kuchaytirish;
- noqonuniy pul aylanmalari ustidan ma'muriy va jinoiy sanksiyalarni kuchaytirish.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. To'lov tizimining umumiy strukturasi.
2. To'lov tizimining tarkibiy va tashkiliy tuzilmasi.
3. To'lov tizimining tashkiliy elementlari.
4. To'lov tizimining funktsional elementlarning iqtisodiy mohiyati.
5. To'lov tizimining tartibga soluvchi elementlarning iqtisodiy mohiyati.
6. To'lov tizimi ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlari.
7. Rivojlangan to'lov tizimlarning umumiy arxitekturasi va ularning ustuvor tomonlari.
8. Milliy to'lov tizimining arxitekturasining mohiyati va tashkil qilish asoslari.
9. To'lov tizimining ishlash texnologiyasi va uning samarasini belgilab beruvchi ko'rsatkichlar.
10. Iqtisodiyotda takomillashgan pul aylanma tizimi qanday bo'lishi kerak?

3 BOB. NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR TIZIMI

3.1. O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining me'yoriy asoslari

Iqtisodiyotda pul muomalasi naqd va naqdsiz pullardan tashkil topadi. Ushbu pullarning yuridik maqomi(statusi) bir xil bo'lib, ular ko'rinishidan bu ko'rinishiga o'tishi va aylanishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Zamonaviy tendentsiyalar shuni ko'rsatmoqdaki, pul muomalasi tarkibida naqdsiz pul aylanmasining hajmi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi shundaki, hisob-kitob sohasiga samarali naqd pulsiz hisob-kitob mexanizmlari, usullari va vositalari kirib kelmokda.

O'zbekiston hududida pul muomalasini samarali tashkil qilish borasida olib borilgan islohotlar oqilona monetar siyosatni yuritish masalasi bilan bevosita bog'liq.

Samarali pul tizimini hamda pul muomalasini tashkil etish vazifasi qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan. 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonunning32-moddasida belgilab o'tilganidek, O'zbekiston Respublikasining pul tizimi uning pul birligini, pul muomalasi tashkil etilishini va uni tartibga solishni o'z zimmasiga oladi.O'zbekiston Respublikasining pul birligi "so'm" hisoblanib, bir so'm yuz tiyinga teng va "so'm" O'zbekiston hududida yagona, cheklanmagan va qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi.

"O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank to'g'risida"gi qonunning3-moddasida Markaziy bankning bosh maqsadi ko'rsatib o'tilgan. Unga muvofiq uning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash hisoblanadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida"gi PF-870-sonli farmoniga muvofiq 1994 yilning 1 iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasi sifatida O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – "so'm" muomalaga kiritildi. Milliy valyutani muomalaga kiritilishi nafaqat mamlakat mustaqilligining asosiy belgilaridan biri bo'ldi, balki respublika








hududida mustaqil to'lov vositasi muomalada bo'lishiga va mamlakatning pul-kredit siyosati yuritilishiga zamin yaratdi.








Naqd pul muomalasiga to'lov vositasi sifatida kiritilgan pul birliklarining qiymati va ularning kiritilish sanasi 3.1-jadvalda aks ettirilgan.

3.1-jadval

Naqd pul muomalasiga to'lov vositasi sifatida kiritilgan pul birliklarining qiymati va kiritilish sanalari

№	O'zbekiston pul birliklarining qiymati va ularning ikki tomonlama namunalari	Muomalaga kiritilgan sana
1	<p>Pul birliklarining qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50 va 100 so'm bo'lgan banknotalar va ularning namunalari:</p> 	1994 yil 1 iyul
2	<p>Pul birliklarning qiymati 1, 3, 5, 10, 20 va 50 tiyin bo'lgan metall tangalar va ularning namunalari:</p> 	1994 yil 1 iyul
3	Pul birligining qiymati 200 so'm bo'lgan banknotalar va	

	<p>ularning namunalari:</p> 	<p>1997 yil 1 mart</p>
4	<p>Pul birligining qiymati 1, 5 va 10 so'm bo'lgan metall tangalar va ularning namunalari:</p> 	<p>1997 yil 1 mart</p>
5	<p>Jaloliddin Manguberdining 800 yillik yubileyiga bag'ishlab chiqarilgan, qiymati 25 so'm bo'lgan esdalik metall tangalar va ularning namunasi:</p> 	<p>1999 yil 20 oktyabr</p>
6	<p>Pul birligining qiymati 1 so'm bo'lgan metall tangalar va ularning namunasi:</p> 	<p>2000 yil 15 may</p>
7	<p>Pul birligining qiymati 500 so'm bo'lgan 1999 yil namunasidagi banknotalar va ularning namunasi:</p> 	<p>2000 yil 1 iyun</p>
8	<p>Pul birligining qiymati 1000 so'm bo'lgan banknotalar va ularning namunasi:</p> 	<p>2001 yil 1 sentyabr</p>
9	<p>O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10 yilligiga bag'ishlangan, qiymati 5, 10 va 50 so'm bo'lgan metall tangalar va ularning namunalari:</p> 	<p>2001 yil 1 sentyabr</p>

10	<p>Shahrisabz shahrining 2700 yilligiga bag'ishlangan, qiymati 50 so'm bo'lgan metall tangalar va ularning namunasi:</p> 	2002 yil 1 noyabr
11	<p>O'zbekiston milliy valyutasining 10 yilligiga bag'ishlab chiqarilgan, 2004 yil namunasidagi, qiymati 100 so'm bo'lgan metall tangalar va ularning namunasi:</p> 	2005 yil 1 iyul
12	<p>Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag'ishlangan, qiymati 100 so'm bo'lgan ikki xil ko'rinishdagi metall tangalar va ularning namunasi:</p> 	2009 yil 1 sentyabr
13	<p>O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan, qiymati 500 so'm bo'lgan metall tangalar va ularning namunasi:</p> 	2011 yil 1 sentyabr
14	<p>Pul birligining qiymati 5000 so'm bo'lgan banknotlar va ularning namunasi:</p> 	2013 yil 1 iyul
15	<p>Pul birligining qiymati 10000 so'm bo'lgan banknotlar va ularning namunasi:</p> 	2017 yil 10 mart
16	<p>Pul birligining qiymati 50000 so'm bo'lgan banknotlar va ularning namunasi:</p> 	2017 yil 22 avgust
17	<p>Pul birligining qiymati 100000 so'm bo'lgan banknotlar va ularning namunasi:</p>	2019 yil 25 fevral



Yuqorida keltirilgan milliy valyutamizning banknota va tangalarida milliy g'ururimizni ruhlanturuvchi naqsh va rasmlar o'z aksini topgan.

Bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki rivojlanayotgan va rivojlangan boshqa davlatlar iqtisodiyotida naqdsiz pul aylanmasi hajmi kun-sayin oshib borishiga qaramasdan naqd pul muomalasi muhim o'rin tutmoqda. Naqdsiz pul aylanmasi oshib borishiga qaramasdan aholi tomonidan naqd pulga bo'lgan talab hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q va bu masala monetar siyosatning muhim nazorat va tartibga soluvchi ob'ekti bo'lib qolmoqda.

Bozor iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik sub'ektlari o'rtasida hisob-kitoblar mexanizmini to'g'ri, samarali tashkil etish, to'lovlar bir maromda va hech qanday uzilishsiz o'tishini ta'minlash taqozo etiladi.

Hozirda har bir davlat naqdsiz pul aylanmasining ustunligini, birinchi navbatda uning tez aylanishini va boshqarish osonligini tan olgan holda ushbu tizimni rivojlantirish uchun etarlicha shart-sharoitlarni yaratib beradi. Birinchi navbatda, bu me'yoriy asoslar hisoblanadi. Har bir mamlakat o'zining to'lov tizimini takomillashtirishda ushbu talablarga amal qilgan holda o'zlarining me'yoriy-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni samarali tashkil qilish va tartibga solish maqsadida Markaziy banki tomonidan 1993 yil 3 fevralda "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida Nizom" ishlab chiqildi. O'zbekiston hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarning tashkil qilinishi aynan mazkur nizomga muvofiq tartibga solina boshlandi.

1994 yilga kelib, Markaziy bankning xalqaro standartlarga va uning talabiga javob bera oladigan banklararo elektron to'lov tizimi hamda unga mos axborot va kommunikatsion texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha tegishli qarorlari qabul qilindi. Bank sohasida axborotlashtirish infratuzilmasini rivojlantirish va

to'lovlarning amalga oshirilishini tezlashtirish maqsadida 1995 yil 9 noyabrda "O'zbekiston bank tizimini rivojlantirishning kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Bu esa, o'z navbatida, qisqa vaqtda ichida banklarni zamonaviy kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya qurilmalari bilan ta'minlash, hisob-kitoblarni amalga oshirishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish va respublikaning barcha hududlarida to'lovlar elektron tarzda o'tkazilishini ta'minlashga ko'mak berdi.

Bundan tashqari respublikamizda olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida milliy to'lov tizimimizni rivojlantirishga oid qonunchilik bazasini takomillashtirishga alohida e'tibor berildi.

Banklararo elektron to'lov tizimi joriy etilishi yangi me'yoriy hujjatlar, jumladan, bir qator qonunlar qabul qilinishiga asos bo'ldi. Ular quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonuni (11.12.2003 y.);
- O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni (11.12.2003 y.);
- O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanish to'g'risida"gi qonuni (29.04.2004 y.);
- O'zbekiston Respublikasining "Elektron to'lovlar to'g'risida"gi qonuni (16.12.2005 y.);
- O'zbekiston Respublikasining "Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni (04.04.2006 y.);
- O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonuni (22.05.2015 y.);
- va boshqa qonunlar.

Yuqorida sanab o'tilgan qonunlar bilan bir qatorda chakana hamda elektron tijorat tizimlarini rivojlantirishga doir bir qator qarorlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bularga misol qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 sentyabrdagi "Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 445-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 3 avgustdagi “Plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-433-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 30 yanvardagi “Elektron tijoratni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 21-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 12 iyundagi “Elektron tijoratni amalga oshirishda to'lovlarni o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 120-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 6 apreldagi “Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo'jalik sub'ektlari bo'sh pul mablag'larini jalb etishni yanada rag'batlantirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-1090-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 19 apreldagi “Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-1325-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 martdagi “Pensiyalar va nafakalar to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ -2826-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi “Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ -2777-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ -3620-sonli qarori

– va boshqa me'yoriy xujjatlar.

Ushbu qarorlarning qabul qilinishi soha rivojlanishiga katta turtki berdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bir qator me'yoriy-

huquqiy hujjatlar ishlab chiqdi va ayrim me'yoriy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bularga misol sifatida quyidagi ayrim me'yoriy hujjatlarni keltirishimiz mumkin:

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2001 yil 30 iyunda 1044-son bilan davlat ro'yxatiga olingan “Hisobvaraqlar ochish, mijozlar hisobvaraqlariga mablag' o'tkazish va hisobdan chiqarish, ish haqi va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa ehtiyojlar uchun naqd pul berish tartibi bo'yicha belgilangan talablarni buzganlik uchun tijorat banklariga nisbatan jarima jazo choralarini qo'llash tartibi to'g'risida” nizomga kiritilgan tegishli o'zgartirishlar;

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 30 aprelda 1344-son bilan davlat ro'yxatiga olingan “Tijorat banklari tomonidan bank kartalarini chiqarish va ularni O'zbekiston Respublikasida muomalada bo'lishi tartibi to'g'risida”gi nizom;

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yilning 18 aprelda 1470-son bilan davlat ro'yxatiga olingan “Yuridik shaxslar tomonidan milliy valyutadagi korporativ bank kartalaridan foydalanish tartibi to'g'risida” nizom;

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 17 yanvarda 1545-son bilan davlat ro'yxatiga olingan “Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida”gi nizom;

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 13 fevralda 1767-son bilan davlat ro'yxatiga olingan “Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarini qo'llagan holda to'lov tizimlarini tashkil qilish qoidalari to'g'risida”gi nizom;

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 4 sentyabrda 1850-son bilan davlat ro'yxatiga olingan “Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan milliy valyutadagi bank kartalaridan foydalanish tartibi to'g'risida”gi nizom;

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 27 iyulda 1986-son bilan davlat ro'yxatiga olingan “To'lov terminallari bilan jihozlash va aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshirishda ularni qo'llash tartibi to'g'risida”gi nizom;

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 21 aprelda 2099-son

bilan davlat ro'yxatiga olingan "To'lov agentlik tarmog'i orqali jismoniy shaxslarning to'lovlarini qabul qilish tartibi to'g'risida"gi nizom;

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 19 noyabrda 2155-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarida ishlash tartibi to'g'risida"gi nizom;

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2012 yil 30 mayda 2369-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "“O'zkart” banklararo chakana to'lov tizimi faoliyati to'g'risida"gi nizom;

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013 yil 6 iyunda 2465-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi nizom va h.k.

Bundan tashqari to'lov tizimining samarali ishlashi va uning muhofazasi ta'minlanishini tartibga soluvchi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi hamda amaldagi ayrim me'yoriy hujjatlarga belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritildi.

Misol uchun to'lov tizimida axborotlarni muhofaza qilish maqsadida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari avtomatlashtirilgan bank tizimlarida axborotni muhofaza qilish to'g'risida"gi nizom (2006 yil 13 martda 1552-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan). Bu nizomga 2006 yilda O'zbekiston Respublikasining "Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to'g'risida"gi va 2010 yilda "Arxiv ishi to'g'risida"gi qonunlar kuchga kirishi munosabati bilan tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan.

Shu bilan birga, "O'zbekiston Respublikasi bank tizimida elektron raqamli imzo va shifrlash kalitlaridan foydalanish tartibi to'g'risida"gi (13.03.2006 ro'yxat raqami 1553) hamda "O'zbekiston Respublikasining avtomatlashtirilgan bank tizimlaridagi antivirus himoyasi to'g'risida"gi (10.03.2000 yil ro'yxat raqami 910) nizomlar ishlab chiqildi hamda 2006 yilning 17 yanvarida Markaziy bank boshqaruvining 633-son bilan ro'yxatga olingan "Markaziy bank elektron tizimlarida axborotlarni muhofazalash va mansabdor shaxslarning javobgarligi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi.

To'lov hujjatlarining saqlanishi borasida ham qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Bularga misol qilib "Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunni olishimiz mumkin. Bu qonunga ko'ra, Markaziy bank tomonidan "O'zbekiston Respublikasi banklarida elektron arxiv ishlarini yuritish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnoma (2007 yil 2 iyunda 1685-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) ishlab chiqildi. Uni ishlab chiqishdan asosiy maqsad Markaziy bank va uning hududiy Bosh boshqarmalarida hamda tijorat banklari va ularning filiallarida elektron arxiv ishlarini olib borishni tartibga solish hisoblanadi.

Ushbu hujjatda banklar va ularning filiallari tomonidan elektron arxiv ishlarini olib borish bo'yicha me'yorlar belgilab berilgan, shuningdek, arxivga olinadigan ma'lumotlar, ularning saqlanish muddatlari, shartlari va ishlarning to'g'ri yuritilishi ko'rsatib o'tilgan.

Respublikamizda to'lov tizimini rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan sa'y-harakatlar bilan birga, ayrim qonun hujjatlariga ularda ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha o'zgartirishlar kiritildi. Xususan, "Elektron to'lovlar to'g'risida"gi qonunining 17-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2001 yil 30 iyunda 1044-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "Hisobvaraqlar ochish, mijozlar hisobvaraqlariga mablag' o'tkazish va hisobdan chiqarish, ish haqi va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa ehtiyojlar uchun naqd pul berish tartibi bo'yicha belgilangan talablarni buzganlik uchun tijorat banklariga nisbatan jarima jazo choralarini qo'llash tartibi to'g'risida"ginizomga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan. Ushbu nizomga ko'ra, agarda to'lov hujjati bankning operatsiya kuni mobaynida tushgan bo'lsa (qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno), o'sha kunning o'zida amalga oshirilishi shartligi ko'rsatib o'tilgan. Agar to'lov hujjati operatsiya kuni yakunlangandan so'ng kelib tushgan bo'lsa, to'lov keyingi ish kunidan kechiktirmay (qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno) amalga oshirilishi shartligi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, kelgusida aholining banklarga bo'lgan ishonchini oshirish, bank mijozlarining huquqlarini himoya qilish va hisob-kitob sohasidagi

qonunbuzarliklarning oldini olish, to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilishi va to'lov intizomini o'rnatish maqsadida joylardagi barcha tijorat banklarida hamda O'zbekiston Markaziy bankida ishonch telefonlari tashkil etilgan.

3.2. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillari

Jahon amaliyotida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish va rivojlantirish jarayonida bir qator tamoyillar ishlab chiqilgan. Ushbu tamoyillarning iqtisodiy maqsadi iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblarning iqtisodiy, yuridik statuslarini ta'minlash, shu bilan birga bu jarayon ishtirokchilarining ushbu tizimga ishonchini oshirish, shuningdek, milliy iqtisodiyotda harakatlanuvchi pul-tovar oqimi muvozanatini ta'minlashdir.

Bozor iqtisodiyotida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishda quyidagi *umumiy tamoyillar* mavjud:

- naqd pulsiz hisob-kitoblarni takomillashgan me'yorlar asosida amalga oshirish va tartibga solish;
- naqd pulsiz hisob-kitoblarni kredit institutlarida mablag' to'lovchi va oluvchi xo'jalik sub'ektlariga ochilgan hisobvaraqaqlar orqali amalga oshirish;
- to'lov jarayonlarini barqaror amalga oshirish darajasida likvidlikni ta'minlash (tijorat banklari va xo'jalik sub'ektlari nuqtai nazaridan);
- to'lovlar amalga oshirilishiga to'lovchining aktsepti (roziligi) zarurligi (qonun bilan belgilab qo'yilgan hollar bundan mustasno);
- bank hisobvaraqasi qoldig'i doirasida to'lovlarning amalga oshirilishi;
- to'lovning muddatliligi;
- to'lov jarayonida uning barcha ishtirokchilari tomonidan hisob-kitoblarni amalga oshirish me'yor va talablari buzilmasligini nazorat qilish imkoni mavjudligi;
- shartnomaviy majburiyatlarni bajaraolmaslik holatida ularning mulkiy javobgarligi (kelishuv shartlari buzilish holatida fuqarolik - huquqiy javobgarlikka tortilishi, ya'ni pena va shtraf ko'rinishlarda zarar va yo'qotishlarni qoplab berilishi).

Birinchi tamoyilning mazmuni shundan iboratki, bunda iqtisodiyotda *naqd pulsiz hisob-kitoblar takomillashgan me'yorlar asosida amalga oshirilishi va tartibga solinishi* zarur. Har bir iqtisodiy hudud(bu davlat yoki iqtisodiy ittifoq hududi bo'lishi mumkin) o'z ijtimoiy-iqtisodiy holatini hamda monetar siyosatda belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda naqd pulsiz hisob-kitob shakllarini tanlab oladi va ular bilan amaliyotda hudud bo'ylab birday foydalanishi uchun me'yorlar va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqadi. Bu hujjatlar hisob-kitob jarayonida bo'layotgan o'zgarishlarni va zamonaviy tendentsiyalarni inobatga olgan holda takomillashtirib borilishi, bunda ma'lum iqtisodiy hududda o'rnatilgan umumiy tartiblar, me'yorlar va standartlar zamonaviy talabga javob berishi ta'minlanishi lozim. Shundagina naqd pulsiz hisob-kitoblarning samarasi va iqtisodiy mohiyati oshadi.

To'lov tizimini tartibga soluvchi asosiy organ Markaziy bank hisoblanadi. Uning asosiy funksiyalaridan biri mamlakat hududida samarali va barqaror hisob-kitob tizimini ta'minlashdir. Ushbu funktsiyasidan kelib chiqib, Markaziy bankning zimmasiga hisob-kitoblarni amalga oshirish shakllarini va vositalarini, tartiblarini, standartlarini, muddatlarini, foydalaniladigan hujjatlarning shakllarini, tartibga solinishini va litsenziyalash amaliyoti tartiblarini, shuningdek, kliring tizimlarini tashkil qilish va tartibga solish me'yor va standartlarini ishlab chiqish yuklatilgan.

Ikkinchi tamoyilning mohiyati shundan iboratki, *u naqd pulsiz hisob-kitoblar kredit institutlarida mablag' to'lovchi va oluvchi xo'jalik sub'ektlariga ochilgan hisobvaraqaqlar orqali amalga oshirilishini* nazarda tutadi.

Ushbu tamoyil bajarilishining ta'minlanishi yuridik jihatdan quyidagi me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan:

– O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining “Bank hisobvarag'i” deb nomlangan 44-bobining 771–789-moddalariga muvofiq xo'jalik sub'ektlariga ochilgan bank hisobvaraqaqlari bo'yicha naqd pulsiz hisob-kitoblar tashkillashtirilib, tartibga solinadi. Jumladan, bank hisobvaraqaqlarini ochish tartibi, bank va mijoz o'rtasida shartnoma tuzish, bank xizmatlariga haq to'lash, bankning

majburiyatlari, bank hisobvaraqlarini kreditlashi, me'yorlarda belgilangan holda naqd pul olish, bank siri, hisobvaraqlariga o'z vaqtida pul tushishi va mijoz topshirig'iga ko'ra yoki qonun doirasida belgilangan qoidalarga muvofiq o'z vaqtida pul o'tkazilishi, kalendar ketma-ketlik holida to'lovlar amalga oshirilishi, agar xo'jalik hisobvaraqsida qoldik etarli darajada bo'lmasa, unda tegishli jarayon maxsus o'rnatilgan tartib asosida amalga oshirilishi, bank tomonidan pul asossiz o'tkazilgan hollarda mijozga zarar va jarima to'lanishi, bank hisobvaraqani yuritish shartnomasi bekor qilinishi kabi masalalar tartibga solinadi;

– O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2009 yil 27 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risida"gi 1948-sonli yo'riqnomasi asosida bank mijozlari uchun milliy valyutamiz-so'mda va chet el valyutasida bank hisobraqamlarini ochish, yopish va qayta rasmiylashtirish tartiblarini belgilab beradi. Bank hisobraqamiga ega bo'lgan mijoz to'liq iqtisodiy-yuridik jihatdan mustaqil hisoblanib, hisobraqamdagi mablag'laridan foydalanish huquqiga ega. Bank mijozning hisob-kitob operatsiyalarini unga ochilgan hisobvaraqsidan amalga oshiradi. O'zbekistonda o'rnatilgan qonun doirasida bank o'z mijozlarining mablag'larini ularga ochilgan hisobraqamlarida saqlaydi, unga kelib tushgan summalarni hisobga oladi va mijozning topshirig'iga ko'ra, summalarni chiqaradi, shuningdek, boshqa tegishli bank operatsiyalarini bajaradi;

– 1998 yilda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunna muvofiq bank hisobvaraqsini ochish uchun bank va mijoz o'rtasida bank hisobvaraqsini yuritish to'g'risida shartnoma tuziladi. Kelishuv shartnomasi bank va mijozning huquq va majburiyatlarini belgilab qo'yish bilan birga ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatni tartibga soladi.

Uchinchi tamoyilning mohiyati *to'lov jarayonlarini barqaror amalga oshirish darajasida likvidlilikni* (tijorat banklari va xo'jalik sub'ektlari nuqtai nazaridan) *ta'minlashdan* iborat.

Ushbu tamoyilga ko'ra, agar hisobraqamlarda qoldiq summa mavjud bo'lmasa, hisob-kitob jarayoni tashkil etilmaydi, bu xoh bank muassasi, xoh uning mijoz bo'lsin bundan qat'ii nazar.

Bu tamoyilga qat'iy rioya etilishi naqd-pulsiz hisob-kitoblarga bo'lgan ishonchni oshiradi, iqtisodiyotda noto'lovlarni va to'lov inqirozining oldini oladi. To'lov jarayonining ishtirokchilari bo'lishi mumkin banklar, xo'jalik sub'ektlari va aholi.

“Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi (29.08.1998 y.) qonuniga muvofiq, barcha xo'jalik kelishuvlari va o'zaro iqtisodiy munosabatlar xo'jalik shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Ushbu qonunning 3-moddasida xo'jalik shartnomasiga quyidagicha ta'rif berilgan:“Taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladigan kelishuv xo'jalik shartnomasi deyiladi”.

Bank va mijoz o'rtasida ham bank hisobvaraqsini yuritish to'g'risida shartnoma tuziladi. Xo'jalik shartnomasida belgilangan o'zaro majburiyatlar xo'jalik sub'ektlari tomonidan to'la va o'z vaqtida bajarilishi ularning likvidlik darajasiga bog'liq va bu naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning qattiq nazorat ob'ekti bo'lishi talab etiladi.

To'rtinchi tamoyilning mohiyati shundaki, unga ko'ra, *naqd pulsiz hisob-kitoblar amalga oshirilishida to'lovchining aktsepti (roziligi) zarur.*

Ushbu tamoyilni bajarilishi qonun doirasida belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 777; 778; 783-moddalariga muvofiq, mijozning topshirig'iga ko'ra belgilangan muddatlarda to'lovlar amalga oshirilishi, mijozning hisobvaraqsidan pul mablag'larini ko'chirish asoslari, soliq, bojxona, sud organlari va Moliya vazirligi tomonidan qo'yilgan inkasso topshiriqnomalari bundan mustasnoligi ko'rsatilgan. Bu o'rinda eslatib o'tish joizki, ushbu organlar tomonidan inkasso topshiriqnomalari xo'jalik sub'ekti soliq,

bojxona, sud qarorlari asosidagi hamda Moliya vazirligi bilan bog'liq bo'lgan to'lovlarni o'z vaqtida to'lamagan holatlarda qo'yiladi.

Bank mijozlarining hisobvaraqlarida mablag' etarli darajada bo'lmagan taqdirda va ular tomonidan to'lov intizomi buzilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2012 yil 14 sentyabrda tasdiqlangan "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risida"gi 2342-sonli yo'riqnoma asosida hisob-kitoblar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 785-moddasiga muvofiq bank hisobvaraqqasi bo'yicha operatsiyalar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi va pul mablag'lari asossiz ko'chirilganligi uchun bank javobgar hisoblanadi, ya'ni mijozning roziligisiz bank hisobvaraqqasidagi mablag'larni ko'chirishga bankning haqi yo'q. Mijozga kelgan pul mablag'lari hisobvaraqqa o'z vaqtida kiritib qo'yilmagan yoki hisobvaraqdan mablag'larni asossiz ravishda o'chirgan hollarda bank mijozning talabi bilan tegishli summani darhol hisobvaraqqa kiritib qo'yishi shart (qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno). Bank o'z vaqtida kiritilmagan yoki asossiz ko'chirilgan summaga foizlar to'lashi va zararining o'rnini qoplashi ham shart. Bank hisobvaraqdan mablag'larni o'z vaqtida bermaganligi va mijozning hisobvaraqdan mablag'larni o'tkazish haqidagi farmoyishlarini belgilangan vaqtda bajarmaganligi uchun ham javobgar bo'ladi (qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

Beshinchi tamoyilning mohiyati *to'lovlarning bank hisobvaraqqasi qoldig'i doirasida amalga oshirilishi* hisoblanadi.

Ushbu tamoyil to'lov jarayonlarini barqaror amalga oshirish darajasida likvidlilikni ta'minlash tamoyili bilan bevosita bog'liq bo'lib, mijozning hisobvaraqqasida mavjud pul mablag'lari hajmi darajasida to'lovlarni amalga oshirishga qodirligini belgilaydi.

Agar xo'jalik sub'ektlarining majburiyatlari ularning to'lov qobiliyatidan yuqori bo'lsa, unda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksning (O'zR. FK) 784-moddasiga muvofiq "Hisobvaraqdan pul mablag'larini ko'chirish navbati"

asosida amalga oshiriladi. Hisobvaraqdagi pul mablag'lari unga qo'yilgan barcha talablarni qondirish uchun etarli bo'lmagan taqdirda, ushbu moddaga muvofiq pul mablag'lari quyidagi navbatda ko'chirilishi belgilangan:

– birinchi navbatda mutanosib ravishda byudjetga, byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlarni hamda ish haqi to'lash uchun pul mablag'lari berilishini nazarda tutuvchi to'lov (ijrochi) hujjatlari bo'yicha, alimentlarni undirishga doir talablarni qondirish uchun hisobvarag'idan pul mablag'larini o'tkazish yoki pulni berishni nazarda tutuvchi ijrochi hujjatlar bo'yicha, mualliflik shartnomalariga binoan mukofotlarni to'lash bo'yicha, shuningdek, hayoti va salomatligiga etkazilgan zararining o'rnini qoplash bo'yicha hamda mehnatga oid va unga tenglashtirilgan huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan to'lovlar bo'yicha, xo'jalik sub'ektlarining majburiyatlari teng darajada bajarilishini ta'minlovchi ijro hujjatlari bo'yicha;

– ikkinchi navbatda boshqa pul talablarini qondirishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari bo'yicha;

– uchinchi navbatda boshqa to'lov hujjatlari bo'yicha kalendar navbat tartibida pul ko'chiriladi.

Bevosita ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlarga pul mablag'larini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda hisobdan chiqarish, kalendar navbat tartibidan tashqari navbatda amalga oshiriladi.

Oltinchi tamoyilning mohiyati *to'lovning muddatlili*gi hisoblanadi.

Bozor mexanizmining mohiyatidan kelib chiqib, barcha majburiyatlar o'z vaqtida va to'la bajarilishi ta'minlanishi zarur. Xo'jalik shartnomalarida barcha majburiyat va huquqlar, shu jumladan, to'lab berish shakli va vaqti belgilanadi.

Ettinchi tamoyilning mohiyati *to'lov jarayonida uning barcha ishtirokchilari tomonidan hisob-kitoblarni amalga oshirish me'yor va talablari buzulmasligini nazorat qilish* tamoyili hisoblanib, uning bajarilishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan olib boriladigan chora-tadbirlariga bog'liq bo'ladi. Ushbu holat yuridik jihatdan ham mustahkamlangan. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida mamlakat

hududida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash Markaziy bankning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Zamon talabiga javob beradigan hisob-kitoblar tizimining tashkil etilishi hisob-kitoblar bevosita to'lovlarni amalga oshirishdagi me'yorlar va o'rnatilgan talablar asosida bajarilishini taqozo etadi. Hozirda ushbu me'yor va talablar nazorati imkon qadar avtomatlashtirilgan tarzda olib borilmoqda.

Markaziy bank tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishida ular tomonidan naqd pulsiz hisob-kitoblarning tashkil qilinishi va amalga oshirilishi ustidan nazorat o'rnatish muhim o'rin tutadi. Tijorat banklar faoliyati ular mijozlariga to'lov xizmatini ko'rsatish jarayonida to'lovlarning qonuniyligini, muddatini, umumiy qonun va me'yorlar asosida amalga oshirilishini, majburiyatlar to'la bajarilishini ta'minlash maqsadida nazorat qilinadi va shunga muvofiq ma'muriy va boshqa sanksiyalar qo'llanadi.

***Sakkizinchi tamoyil** shartnomaviy majburiyatlarni bajaraolmaslik holatida ularni tegishli sub'ektlarning mulkiy javobgarligini talab etadi.*

Kelishuv shartlari buzilish holatida fuqarolik – huquqiy javobgarlikka tortilishi va bunda zarar va yo'qotishlar pena va shtraf ko'rinishida qoplab berilishi ko'zda tutiladi.

Xo'jalik sub'ektlari o'rtasida yuzaga keladigan barcha munosabatlarni ikki yoki undan ko'p tomon manfaatlarini inobatga oluvchi va yuridik jihatdan ma'lum doirada tartibga soluvchi hujjat kelishuv shartnomasi hisoblanadi. Ushbu shartnoma yuridik jihatdan mukammal tuzilgan bo'lishi, unda xo'jalik sub'ektlarining o'z majburiyatlarini to'la yoki qisman bajarmaslik holatlari ob'ektiv va sub'ektiv sabablar asosida aks ettirilgan, shuningdek, har xil iqtisodiy holat inobatga olingan holda ularning mulkiy javobgarligi aniq belgilab qo'yilgan bo'lishi lozim. Tomonlar shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida to'la yoki qisman bajaraolmagan hollarda hisob-kitob ularning mol-mulkiga qaratiladi. Agar xo'jalik sub'ekti bankrot maqomini olgan bo'lsa, unday holatda O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 24 aprelda qabul qilingan "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunga muvofiq ish ko'riladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan naqd pulsiz hisob-kitob tamoyillari bozor iqtisodiyotiga mos ravishda ishlab chiqilgan. Ularga to'la rioya etilishi mamlakatda naqdsiz pul aylanmasini tashkil qilish va tartibga solish samarasini oshiradi.

3.3. O'zbekiston banklarida milliy va chet el valyutasida hisobvaraqlarini ochish tartibi

Hozirda naqd pulsiz hisob-kitoblarning asosiy qismi yuridik va jismoniy shaxslarning banklarda ochilgan hisobraqamlari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston pul muomalasini tashkil qilish me'yoriy bazasiga muvofiq, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalar va tashkilotlar o'z pul mablag'larini tegishli banklarda saqlashlari ko'rsatilgan. Korxonalar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha banklar orqali pul o'tkazish yo'li bilan naqd pulsiz amalga oshirish belgilangan.

Hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish orqali korxonalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning samarali bo'lishi va iqtisodiyotda pul muomalasining barqaror tashkil qilinishi ta'minlanadi, bu esa, o'rinsiz muammolarni keltirib chiqarmaydi.

2009 yil 27 aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risida"gi 1948-sonli yo'riqnomaga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslar banklarda quyidagi turdagi bank hisobvaraqlarini ochishlari mumkin:

- a) talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari;
- b) jamg'arma depozit hisobvaraqlari;
- v) muddatli depozit hisobvaraqlari;
- g) ssuda hisobvaraqlari;
- d) boshqa depozit hisobvaraqlari.

Yuridik va jismoniy shaxslar o'zlariga hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatish uchun banklarni mustaqil ravishda tanlaydilar hamda bir yoki bir necha banklarda milliy va chet el valyutasidagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari, shuningdek, jamg'arma, muddatli, ssuda va boshqa depozit

hisobvaraqlarini ochish huquqiga egalar. Lekin, ular tomonidan bankka hisobvaraqani ochish uchun taqdim etiladigan hujjatlar ularning faoliyati mohiyatidan, ta'sis etish holatiga ko'ra va respublika soliq va boshqa qonun me'yorlarini hisobga olgan holda taqdim etiladigan hujjatlar biroz farqlanadi.

Yuqorida qayd etilganyo'riqnomaga muvofiq barcha turdagi yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar bank hisobraqamini (talab qilib olguncha, muddatli, omonat) ochishi uchun taqdim etilishi shart bo'lgan hujjatlarga alohida to'xtalib o'tamiz.

Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari bo'lgan rezident yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda dehqon xo'jaliklari tomonidan milliy valyutada (chet el valyutasida) talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

a) bank hisobvaraqi ochish to'g'risida standart shakldagi ariza;

b) tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni xorijdan olib keluvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – yashash joyi bo'yicha davlat soliq xizmati organi tomonidan berilgan Tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi yakka tartibdagi tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;

v) davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;

g) tasdiqlangan shaklga muvofiq imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan ikki dona varaqcha;

d) ta'sis hujjatlari (ta'sis shartnomasi, ustav) hamda ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarning nusxalari, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va xorijiy sarmoya ishtirokidagi boshqa korxonalar ta'sis hujjatlari va ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarning notarial tasdiqlangan nusxalari;

e) mijoz nomidan pul-hisob-kitob hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (pasport yoki uning o'rnini bosadigan hujjat). Shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asli ko'rsatilgandan so'ng, bank tomonidan undan nusxa olinadi.

Tadbirkorlik faoliyati sub'ekti bo'lmagan rezident yuridik shaxslar hamda byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan milliy valyutada (chet el valyutasida) talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

a) bank hisobvarag'ini ochish to'g'risidagi standart shakldagi ariza;

b) statistika organlari tomonidan berilgan korxon va tashkilotlarning yagona davlat ro'yxatiga kiritilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi;

v) tasdiqlangan shaklga muvofiq imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan ikki dona varaqcha;

g) ta'sis hujjatlari (ta'sis shartnomasi, ustav) hamda ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarning notarial tasdiqlangan nusxalari, shuningdek, yuridik shaxs nomidan pul-hisob-kitob hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (pasport yoki uni o'rnini bosadigan hujjat). Shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asli ko'rsatilgandan so'ng, bank tomonidan undan nusxa olinadi.

Rezident yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallariga talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun vakolatxona va filiallar tomonidan bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

a) bank hisobvarag'i ochish to'g'risida standart shakldagi ariza;

b) yuridik shaxsning iltimosnomasi (iltimosnomada yuridik shaxsning "Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami" va "Xos raqami" ko'rsatilgan bo'lishi shart);

v) tasdiqlangan shaklga muvofiq imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan ikki dona varaqcha. Mazkurkichik bandning notarial tasdiqlashga doir qismi tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Markaziy bank boshqaruvining (Adliya vazirligida 2012 yil 31 iyuldagi 1948-7-son bilan ro'yxatga olingan qaror).

g) vakolatxona yoki filialga berilgan vakolatlarni belgilovchi hujjatning notarial tasdiqlangan nusxasi;

d) vakolatxona yoki filial nomidan pul-hisob-kitob hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi (pasport yoki uni o'rnini

bosadigan) hujjat. Shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asli ko'rsatilgandan so'ng, bank tomonidan undan nusxa olinadi.

O'z faoliyatini yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirmoqchi bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ustav kapitalini shakllantirish uchun davlat ro'yxatidan o'tgunlariga qadar ta'sischi(ishtirokchi)larning dastlabki badallarini kiritish uchun milliy yoki chet el valyutasida vaqtinchalik (mablag' yig'ish uchun) 29801–"Mijozlar bilan hisob-kitoblar" hisobvarag'i ochilishi mumkin.

Vaqtinchalik hisobvaraqlar ochish uchun belgilangan tartibda bankka ta'sischi(ishtirokchi)lar nomidan ixtiyoriy shaklda hisobvaraqlar ochish to'g'risida ularning ishonchli vakili tomonidan ariza taqdim qilinadi.

Davlat ro'yxatidan o'tgandan keyin ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektga Markaziy bankning 1948-sonli yo'riqnomasiga muvofiq asosiy hisobvaraqlar ochilib, unga vaqtinchalik hisobvaraqlardagi mablag'lar o'tkaziladi va vaqtinchalik hisobvaraqlar yopiladi.

Norezident yuridik shaxslar (diplomatik va boshqa imtiyozlardan foydalanadigan chet el diplomatiya va boshqa rasmiy vakolatxonalari, xalqaro tashkilotlar hamda ularning filiallari, shuningdek, xorijiy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasida xo'jalik faoliyati yoki tijorat yo'nalishidagi boshqa faoliyat bilan shug'ullanmaydigan vakolatxonalari), shuningdek, norezidentlarning O'zbekiston Respublikasida qonunchilik bilan belgilangan tartibda faoliyat yuritayotgan doimiy muassasalari milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim qiladilar:

a) bank hisobvarag'i ochish to'g'risidagi norezident shaxslar uchun standart shakldagi ariza;

b) agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchining identifikatsiya raqami berilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;

v) norezidentlar uchun tasdiqlangan shaklga muvofiq imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan hamda notarial tasdiqlangan ikki dona varaqlar;

g) norezident yuridik shaxs nomidan pul-hisob-kitob hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki uni o'rnini bosadigan hujjat). Shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asli ko'rsatilgandan so'ng, bank tomonidan undan nusxa olinadi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan asosiy hisobvaraqa xizmat ko'rsatuvchi bankda jamg'arma va muddatli depozit hisobvaraqlarini ochish uchun tegishli shakldagi ariza taqdim qilinadi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar boshqa banklarda ikkilamchi talab qilib olinguncha, muddatli, jamg'arma depozit hisobvaraqlarini ochishda ham asosiy hisobvaraqa ochish uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarni taqdim etishlari shart.

Asosiy hisobvaraqa ochilgan bankda qo'shimcha ravishda milliy valyutada ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i ochilishiga yo'l qo'yilmaydi, markazlashtirilgan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan maqsadli tadbirlar uchun hamda qonunchilik hujjatlari asosida ochiladigan ikkilamchi depozit hisobvaraqlar bundan mustasno.

Rezident va norezident jismoniy shaxslar tomonidan milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun yuridik shaxslardan farqli ravishda faqatgina standartdagi shaklda bankda hisobvaraqa ochish to'g'risida ariza hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki uni o'rnini bosadigan hujjat) taqdim qilinadi va bank tomonidan ushbu hujjatlardan nusxa olinadi. Hisobvaraqa ochish uchun ariza jismoniy shaxslar tomonidan shaxsan taqdim etilishi lozim, qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

Jismoniy shaxslarga bankning omonat kassalarida shaxsiy hisobvaraqlar ochish omonat kassasi nazoratchisi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi (31.12.2010 y. 2205-sonli yo'riqnomada belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bank hisobraqamini ochish uchun yuridik va jismoniy shaxslar yuqorida keltirib o'tilgan hujjatlarni bankka taqdim etgandan so'ng ochilishi mumkin.

Hisob-kitob ochilishi munosabati bilan korxonaga yoki tashkilot bankka birlamchi, ya'ni tashkilot tashkil qilingan sanaga o'z balansini tuzib beradi. Balansda korxonaga taalluqli bo'lgan mablag'lar ularning joylanishi va tashkil topish manbalari bo'yicha ko'rsatiladi. Hisob-kitob raqami bo'yicha amalga oshiriladigan muomalalar bevosita bank tomonidan nazorat qilinadi. Hisob-kitob raqami bo'yicha amalga oshiriladigan muomalalarmajmui bank tomonidan to'g'riligi tekshirilgandan keyingina amalga oshiriladi. Bu hisob-kitob raqamiga kelib tushadigan (o'tkaziladigan) pul mablag'larining manbai mahsulot realizatsiyasi hisoblanadi. Mol etkazib beruvchilar tomonidan xaridorlarga jo'natilgan tovarlar summasi to'lanadi. Demak, hisob-kitob raqamidagi pul mablag'larining harakati ikki tomonlama nazorat qilinadi.

Birinchi nazorat banklar tomonidan olib borilsa, ikkinchi nazorat bevosita tashkilot tomonidan shartnoma shartlari bajarilishini nazorat qilish bilan olib boriladi. Hisobraqamdagi pul mablag'larining harakati banklar tomonidan tashkilotga beriladigan bank ko'chirmalari tarzida bajariladi. Bank ko'chirmalarida hisob-kitob raqamiga o'tkazilgan va bu hisobraqamidan to'langan pul mablag'lari tasdiqlovchi hujjatlar bilan ko'rsatiladi.

Hisob-kitob raqamidan tuzilgan shartnomaga asosan bajarilgan ish va xizmatlar uchun to'lovlar to'lanadi.

3.4. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari va to'lov hujjatlari

To'lov tizimini mexanizm sifatida qaraganimizda uning yana bir harakatga keltiruvchi elementi sifatida to'lov vositasi yoki to'lov qurollarini ko'rishimiz mumkin. To'lovni o'tkazishni boshlash aynan to'lov vositalarini tanlashdan boshlanadi.

Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari doirasida hisob-kitob ishtirokchilari mablag' to'lovchi va oluvchidan tashqari to'lov xizmatini ko'rsatuvchi bank ham hisoblanadi, agar mablag' to'lovchi va mablag' oluvchining hisobvaraqlari boshqa boshqa banklarda joylashgan bo'lsa, unda korrespondent bank va banklararo to'lov tizimining kliring markazi ham ishtirokchi sanaladi.


Naqd pulsiz hisob-kitob shakli bank mijozlari tomonidan mustaqil tanlanadi va ularning kontragentlari bilan tuzilgan xo'jalik shartnomalarida belgilab qo'yiladi.

Zamonaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish amaliyotida quyidagi asosiy shakl va to'lov vositalardan samarali foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Naqd pulsiz hisob-kitob shakllarini tanlashda ko'p omillar hisobga olinadi:

- hisob-kitob ishtirokchilarining o'zaro xo'jalik aloqasi xarakteri;
- tomonlarning joylashishi;
- transfer xarajatlari;
- to'lov manbalari;
- to'lov kafolati;
- o'zaro nazorat qilish imkoni;
- tomonlarni moliyaviy holati.

Hisob-kitob shakl va to'lov vositalarni 3.1-rasm orqali ko'rish mumkin bo'ladi.



3.1-rasm. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari va vositalari

Banklar mijozlarining shartnomaviy munosabatlariga va ular o'rtasida vujudga keladigan muammolarga aralashmaydi. Agar hisob-kitob jarayonida bankning xatosi bilan yoki uning faoliyat jarayoni bilan bog'liq muammo yuzaga kelsa, unda bankning qonun doirasida aralashuvi ko'zda tutiladi.

3.2-jadval

Naqd pulsiz hisob-kitob vositalarining tavsifi

Instrumentlar	Tavsifi
<i>Cheklar</i>	
Cheklar	Mijozning xizmat ko'rsatuvchi bankiga chek beruvchining hisobvarag'idan chek ushlovchining hisobvarag'iga ma'lum summadagi mablag'larni o'tkazish bo'yicha bergan topshirig'i
<i>To'g'ridan-to'g'ri o'tkazmalar</i>	
Kredit o'tkazmalar	To'lovchining o'z bankiga uning hisobraqamidan mablag' oluvchining bank hisobraqamiga o'tkazib berish to'g'risida topshirig'i
Debit o'tkazmalar	To'lovchining oldindan roziligini olgan holda to'lovchining bank hisobraqamidan oluvchining bank hisobraqamiga pul o'tkazib berish to'g'risida oluvchining topshirig'i
<i>To'lov kartochkalari</i>	

Kreditkartochkalar	Karta foydalanuvchilariga kelishilgan kredit limiti doirasida tovar va xizmatlarni sotib olishi hamda naqd pullarni echib olish imkonini beradi. Taqdim etilgan kredit summasi o'rnatilgan vaqtgacha to'lanishi shart
Debit kartalar	Karta foydalanuvchilar bank karta hisobvaraqa-sida mavjud summa qoldig'i doirasida tovar va xizmatlarni sotib olishi hamda naqd pullarni echib olish uchun imkon beradi.
Oldindan to'langan kartalar (prepaid card)	Karta foydalanuvchilariga tovar va xizmatlarni sotib olishi yoki uning yordamida ularni olishi uchun oldindan to'lov qilinganligini asoslab beruvchi vosita
<i>Boshqa to'lov usullari</i>	
Internet-banking	Internet global tarmog'i yordamida yirik va chakana to'lovlarni o'tkazish dasturiy ta'minotlari hisoblanib, yuridik va jismoniy shaxslarga to'g'ridan-to'g'ri, qog'ozsiz ko'rinishda va avtomat ravishda to'lovlar amalga oshirilishiga xizmat qiladi
Mobil-banking	Mobil telefonlar yordamida yuridik va jismoniy shaxslarga to'g'ridan-to'g'ri, qog'ozsiz ko'rinishda va avtomat ravishda to'lovlar amalga oshirilishiga xizmat qiladi


To'lov tizimlari mohiyat jihatidan o'z ichiga moliyaviy axborot oqimini uzatish funksiyasini oladi. Ushbu funktsiyaning bajarilishi to'lov instrumentlari orqali ta'minlanadi. To'lov instrumentlari har xil ko'rinishda (naqd, karta, to'lov topshiriqnomasi, veksel va boshq.), andozada va shakllarda namoyon bo'ladi.

To'lov instrumentlari (payment instrument) aniq bir to'lov tizimining instrument shakli bo'lib, bir sub'ektdan ikkinchi sub'ektga pul oqimini tashkillashtirib beradi. Pul oqimi debit va kredit xarakterlarga ega bo'lishi mumkin.

To'lov vositalari to'lovni amalga oshirish mohiyatiga va mablag'lar harakatiga ko'ra, debitli va kreditli turlarga bo'linadi. To'lov hujjatlari yoki vositalari to'lov summa harakatiga parallel ravishda xarakatlanishi va aksincha bo'lishi mumkin. To'lov hujjati to'lov summaga parallel ravishda xarakatlansa, unda ushbu to'lov vositasini kredit turiga kiritish kerak, agar to'lov xujjati to'lov summasiga qarama-qarshi xarakatlansa, unda ushbu to'lov vositasini debit turiga kiritish lozim.

Foydalanuvchilar tomonidan to'lov vositalarining tanlanishi asosida to'lov tizimida pul oqimini tashkil qilinishi debitli yokikreditli xarakterga ega bo'ladi. Ular maxsus adabiyotlarda debitli va kreditli floutlar deb nomlanadi.

Debitli floutda pul va to'lov hujjatlarining harakatini 3.2 rasm orqali ko'rish mumkin.



3.2-rasm. Debitli floutning tashkil qilinishi


Debit floutni tashkil qilib beruvchi to'lov vositalari:

- cheklar;
- to'lov talabnomasi;
- inkasso topshiriqnomasi.

Kreditli floutda pul va to'lov hujjatlarining harakatini 3.3- rasm orqali ko'rish mumkin.

Kredit floutni tashkil qilib beruvchi to'lov vositalari:

- to'lov topshiriqnomasi;
- akkreditiv ochish uchun ariza.



3.3-rasm. Kreditli floutning tashkil qilinishi

Debit va kredit floutlar o'rtasidagi farq shundaki, debit floutda mablag'lar to'lov hujjatiga qarama-qarshi harakatlanadi, kredit floutda to'lov hujjatlari pul mablag'lari bilan bir yo'nalishda va parallel ravishda harakatlanadilar.


Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini ikki turga bo'lish lozim:

–chakana to'lov tizimi aholi uchun mo'ljallangan bo'lib, ularga naqd pulsiz hisob-kitob xizmatlarini taklif etadi. Hozirda respublika amaliyotida chakana naqd pulsiz hisob-kitob xizmatlari asosan to'lov kartochkalari yordamida taqdim etilmokda;

–yirik va muddati qat'iy belgilangan to'lov tizimi, xo'jalik sub'ektlari o'rtasida tashkil qilinadigan hisob-kitob tizimi. Ushbu to'lovlar bir bankning mijozlari o'rtasida tijorat banklarining ichki to'lov tizimi orqali, agar yuridik shaxslar turli banklar mijozlari bo'lsa, unda banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshiriladi.

Rivojlangan davlatlarda yuridik shaxslar o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblar asosan yirik va muddati qat'iy belgilangan to'lov tizimlari orqali qonun bilan belgilangan shakllar yordamida amalga oshiriladi.

Jahon amaliyotida naqd pulsiz hisob-kitob hujjatlarining quyidagi shakllarini ko'rsatish mumkin (3.4-rasm).



3.4-rasm. Naqd pulsiz hisob-kitob vosita va shakllari

Rivojlangan iqtisodiyotda to'lov vositalarini tanlashdan avval bir qator masalalar o'ylab ko'riladi. Har bir operatsiya turi bo'yicha alohida savollar echimini topishga harakat kilinadi va ishtirokchilar tomonidan chuqur o'ylanib, vaziyatni tahlil qilib, qulay bo'lgan variant, to'lov usul va vositalari tanlanadi va shartnoma bilan mustahkamlab qo'yiladi.

Rivojlangan davlatlar amaliyotida naqd pulsiz hisob-kitob shakllarining turlari va ko'lami keng bo'lib, buni asoslovchi bir nechta omillar mavjud, jumladan, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasi rivojlanganligi, moliya bozorida raqobat kuchliligi va bu sohada innovatsion texnologiyalardan keng foylanilishi, bozor sub'ektlarining keng qirrali, yuqori talablarini qondirish uchun bank institutlari tomonidan naqd pulsiz hisob-kitob shakllarining katta taklifi mavjudligi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida qo'llaniladigan *naqd pulsiz hisob-kitob shakllariga* quyidagilar kiradi:

- to'lov topshiriqnomalari va talabnomalari;
- akkreditivlar asosida hisob - kitob;
- cheklar bilan hisob-kitoblar;

- inkasso bo'yicha hisob-kitoblar;
- qonun doirasida hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin bo'lgan boshqa shakllar.

Ushbu hisob-kitob shakllari amalga oshirilishi uchun quyidagi pul-hisob-kitob hujjatlaridan foydalaniladi:

- 1) memorial order;
- 2) to'lov topshiriqnomasi;
- 3) to'lov talabnomasi;
- 4) inkasso topshiriqnomasi;
- 5) akkreditivga ariza;
- 6) tijorat bankining hisob-kitob cheki.

Banklar **memorial orderlardan** fuqarolarning, olib borayotgan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan holda, yozma topshiriqnomalari bo'yicha naqdsiz pul mablag'larini o'tkazishni amalga oshirishda foydalanishlari mumkin. Tijorat banklari o'z operatsion xarajatlarini naqdsiz tartibda amalga oshirayotganda memorial order tuziladi.

To'lov topshiriqnomasi– mijozning unga xizmat ko'rsatuvchi bankka o'z hisobvarag'idan oluvchining hisobvarag'iga ma'lum bir summani o'tkazish to'g'risidagi topshirig'i.

To'lov talabnomasi–mablag' oluvchini to'lovchi tomonidan bank orqali ma'lum bir summani to'lash to'g'risidagi talabi aks ettirilgan pul-hisob-kitob hujjati.

Inkasso topshiriqnomasi–mablag' oluvchining bankka to'lovchi hisobvarag'idan so'zsiz tartibda mablag'larni hisobdan chiqarish to'g'risidagi topshirig'i.

Hisob-kitoblarning **akkreditiv** shaklida, mijozning (to'lovchining) topshirig'iga va ko'rsatmasiga muvofiq akkreditiv ochgan bank (bank-emitent), o'z zimmasiga uning kontragenti-mablag' oluvchi foydasiga to'lovni amalga oshirish majburiyatini yoki mablag' oluvchi tomonidan akkreditivda ko'zda tutilgan

hujjatlarni va boshqa shartlarni bajarish sharti bilan ushbu to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha vakolatlarni boshqa bankka taqdim etishni o'z zimmasiga oladi.

Tijorat bankining hisob-kitob cheki – mijozning xizmat ko'rsatuvchi bankiga chek beruvchining hisobvarag'idan chek ushlovchining hisobvarag'iga ma'lum summadagi mablag'larni o'tkazish bo'yicha bergan topshirig'i.

O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishdagi xususiyatlar quyidagilardir:

1) 1996 yildan boshlab respublikada banklararo to'lovlar elektron tizim asosida amalga oshirilishi ta'minlandi. Natijada:

– to'lov tizimida qog'ozsiz elektron hujjatlar va axborotlar aylanishi vujudga keldi;

– banklararo to'lov tizimining boshqarish va operatsion faoliyatidagi risklar boshqarilishi avtomatlashtirildi;

– to'lov jarayonining xafsizligini, tezligini va ishonchliligini ta'minlovchi va turli xarakterga va maqsadlarga ega bo'lgan elektron bazalar yaratildi va ularni yanada rivojlantirish uchun zamin mavjud.

2) O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'rtta shaklda va oltita turdagi to'lov hujjatlari asosida amalga oshirilib, ularning yagona elektron ko'rinishi, aylanish va tartibga solish mexanizmlari me'yorlari talab darajasida ishlab chiqilgan.

3) O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarning samarali tashkil qilinishi va davlatning umumiy siyosatidan kelib chiqib, bu sohada islohotlarni olib borish dasturlari ishlab chiqilishi va ijro etilishi Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi.

4) O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish me'yoriy bazasiga muvofiq to'lovlarning kalendar ketma-ketligi asosida va to'lovchining hisobraqamida etarli summa mavjud bo'lmaganda, unda O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik kodeksi"ning 784-moddasiga muvofiq "Hisobvaraqdan pul mablag'larini o'chirish navbati" (Markaziy bankning 2342-raqamli yo'riqnomasi) asosida amalga oshiriladi.

Barpo etilgan banklararo elektron to'lov tizimi orqali O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan barcha turdagi to'lov hujjatlari bir bankdan ikkinchi bankka, bir hisobraqamidan ikkinchi hisobraqamiga elektron shaklida aylanishi ko'zda tutilgan. Ular orqali pul mablag'lari bir hisobraqamdan ikkinchi hisobraqamiga harakatlanadi. Har bir to'lov hujjatining aylanish texnologiyalarini alohida ko'rib chiqamiz.

Memorial orderlar bilan hisob-kitoblar. Bank to'lov jarayonida to'lovchi sifatida qatnashganda yoki bank doirasida bir hisobraqamdan ikkinchi hisobraqamiga mablag'larni qo'chirilishida, shuningdek, buxgalteriya provodkalarini to'g'rilashda memorial orderdan foydalaniladi.

Memorial order bank xisobvarag'larini yurutuvchi buxgalter tomonidan rasmiylashtiriladi, imzolanadi va bosh buxgalter hamda bank rahbari imzolari bilan tasdiqlagadan so'ng buxgalter provodkasi o'tkaziladi.

Banklar memorial orderlardan fuqarolarning, olib borayotgan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan holda, yozma topshiriqnomalari bo'yicha naqdsiz pul mablag'larini o'tkazishni amalga oshirishda foydalanishlari mumkin. Hisob-kitob amalga oshirilgandan so'ng memorial order bankning kunlik hujjatlariga tikib qo'yiladi.

Memorial orderlar bilan sodir etilayotgan operatsiyalarning to'g'riligi bo'yicha javobgarlik bank rahbariga va bosh buxgalteri zimmasiga yuklatiladi.

To'lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar. To'lov topshiriqnomasi mijozning unga xizmat ko'rsatuvchi bankka o'z hisobraqamidan oluvchining hisobraqamiga ma'lum bir summani o'tkazish to'g'risidagi topshirig'ini anglatadi. To'lov topshiriqnomalari asosida tovarlar, ishlar va boshqalarga daxldor to'lovlar uchun hisob-kitoblar amalga oshirilishi mumkin.

To'lov topshiriqnomasi bank tomonidan mijozning depozit hisobraqamida mablag'lar mavjud bo'lgandagina qabul qilinadi, agarda bank hisobraqami bo'yicha shartnomada boshqa holatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa.

To'lov topshiriqnomasining sanasi uni bankka taqdim etilgan sana bilan bir xil bo'lishi kerak. Ular mos kelmagan holda to'lov topshiriqnomasi ijro uchun

qabul qilinmaydi (byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bundan mustasno).

To'lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitob tartibi. To'lov topshiriqnomalari bankka quyidagi tartibda taqdim qilinadi:

1. Mablag' to'lovchi va oluvchi xo'jalik sub'ektlari bitta bank xizmatidan foydalansa, topshiriqnoma uch nusxada taqdim kilinadi. Topshiriqnomaning:

a) birinchi nusxasi to'lovlar amalga oshirilgandan keyin bankning kunlik hujjatlar yig'masiga tikiladi;

b) ikkinchi nusxasi esa mablag' oluvchining shaxsiy hisobraqamidan olingan ko'chirmaga;

v) uchinchi nusxasi to'lovchining shaxsiy hisobraqamidan olingan ko'chirmaga ilova qilinadi;

2. Mablag' to'lovchi va oluvchi xo'jalik sub'ektlari turli xil banklarning xizmatidan foydalanishsa, topshiriqnoma ikki nusxada taqdim qilinadi. Uning:

a) birinchi nusxa to'lovlar amalga oshirilgandan keyin bankning kunlik hujjatlar yig'masiga tikiladi;

b) ikkinchi nusxasi esa mablag' oluvchining shaxsiy hisobraqamidan olingan ko'chirmaga ilova qilinadi.

To'lov talabnomalari bilan hisob-kitoblar. To'lov talabnomasi mablag' oluvchini to'lovchi tomonidan bank orqali ma'lum bir summani to'lash to'g'risidagi talabi aks ettirilgan pul-hisob-kitobi hujjatidir. Talabnoma yuklab jo'natilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun, shuningdek, kelishuv tomonlari tomonidan tuzilgan shartnomada ko'zda tutilgan boshqa to'lovlar bo'yicha qo'yilishi mumkin.

Talabnoma aktseptlangan va aktseptlanmagan bo'ladi. Aktsept bilan to'langan talabnomalar to'lov summasini to'lovchi tomonidan aktsept (tan olishni) talab qiladi. Bundan tashqari mahsulot etkazib beruvchi "To'lov detallari/maqsadi" ustunida quyidagilarni ko'rsatib o'tishi shart:

a) shartnoma sanasi va tartib raqamini;

b) kontraktatsiya shartnomalari bo'yicha mahsulot etkazib berishda "kontraktatsiya shartnomasi" deb ko'rsatish kerak;

v) mahsulotni yuklab jo'natish (berish) sanasini va tovar-transport yoki qabul qilish-topshirish hujjatlari raqamini va transport turini, tovarlarni pochta aloqasi orqali jo'natganda esa, pochta kvitantsiyalarining raqamini;

g) mahsulot sotib oluvchining transport vositasi bilan olib ketilganda "Sotib oluvchining transporti bilan olib chiqib ketilgan, - sonli ishonch xati" ko'rsatiladi (O'zRMBning 2465-sonli nizomi);

d) qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa rekvizitlarni.

Inkasso topshiriqnomasi bilan hisob-kitoblar. Inkasso topshiriqnomasi – mablag' oluvchining bankka to'lovchi hisobvaraqaasidan so'zsiz tartibda mablag'larni hisobdan chiqarish to'g'risidagi topshirig'i.

Inkassotopshiriqnomasini quyidagi davlat organlari taqdim etaoladi:

a) soliq organlari – soliqlar va davlat byudjetiga boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi byudjetidan tashqari Pensiya jamg'armasi, byudjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'armasi, Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar bo'yicha hamda yuridik shaxslar tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun muddati o'tgan to'lovlar;

b) bojxona organlari – o'z muddatida to'lanmagan bojxona to'lovlari va jarimalarni undirishda;

v) sud ijrochilari va undiruvchilar – ijro hujjatlari bo'yicha pul mablag'larini undirishda;

g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

– respublika byudjetidan moliyalashtirish jarayonida belgilangandan ortiqcha o'tkazilgan mablag'larni qaytarish uchun byudjet tashkilotlarining byudjet hisobvaraqlariga;

– yuqori moliya organlari – quyi moliya organlarining byudjet hisobvaraqlariga;

– O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar bo‘yicha noqonuniy olingan mablag‘lar va jarimalarni undirib olish uchun xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning bank hisobvaraqlariga;

– O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida berilgan xorijiy kreditlarni qaytarish va foizlar to‘lash bilan bog‘liq majburiyatlar bo‘yicha qarzdorlar va subqarzdorlarning milliy va chet el valyutalaridagi bank hisobvaraqlariga.

Sud ijrochilari va undiruvchilarning ijro hujjatlari quyidagilar hisoblanadi:

a) sudlar tomonidan berilgan ijro varaqalari;

b) sudga taalluqli bo‘lgan buyruqlar;

v) alimentlarni to‘lash bo‘yicha notarial tasdiqlangan kelishuvlar;

g) notariuslarning ijro ustxatlari;

d) mehnat nizolari bo‘yicha komissiyaning ular qabul qilgan qarorlari asosida beradigan guvohnomalari;

e) ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishga vakolat berilgan organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan chiqarilgan qarorlar;

yo) sud ijrochilarining qarorlari;

j) qonun hujjatlari bilan ko‘zda tutilgan hollarda boshqa organlarning aktlari.

To‘lovchining hisobraqamida mablag‘ bo‘lmagan taqdirda ijrochi bank kelib tushgan inkasso topshiriqnomasini "Muddatida to‘lanmagan hisob-kitob hujjatlari" hisobraqamlariga (2-sonli kartoteka) joylashtirib, bu haqda mablag‘larni oluvchining bankiga uch ish kunidan kechiktirmay xabar beradi hamda tegishli summa mablag‘lar kelib tushishiga qarab qonunchilikda belgilangan tartibda to‘lanadi.

Akkreditiv bo‘yicha hisob-kitoblar. Hisob-kitoblarning akkreditiv shaklida, mijoz(to‘lovchi)ning topshirig‘iga va ko‘rsatmasiga muvofiq akkreditiv ochgan bank (bank-emitent), mablag‘ oluvchi foydasiga to‘lovni amalga oshirish majburiyatini yoki mablag‘ oluvchi tomonidan akkreditivda ko‘zda tutilgan hujjatlarni va boshqa shartlarni bajarish sharti bilan ushbu to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarni boshqa bankka taqdim etishni o‘z zimmasiga oladi.

Akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblarning tartibga solinishi quyidagi me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

1. Xalqaro savdo palatasi tomonidan "Hujjatlashtirilgan akkreditivlarning unifikatsiyalashgan qoidalari" (yangi tahriri, 2007 y. UCP-600);

2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;

3. Xo'jalik yurituvchi sub'eklar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni;

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari (O'zR MBning 2465- sonli nizomi).

Akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar tartibi va uning amal qilish muddati to'lovchi va mablag' oluvchi o'rtasidagi shartnomada belgilanadi. Shuningdek, shartnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak: a) bank-emitentning nomi; b) akkreditivning turi va uni bajarish usullari; v) akkreditiv ochilganligi to'g'risida mablag' oluvchini xabardor qilish usuli; g) akkreditivlar bo'yicha mablag'larni olish uchun mablag' oluvchi tomonidan taqdim qilinadigan hujjatlarning to'liq ro'yxati va aniq tavsifnomasi; d) mahsulotlar yuklab jo'natilgandan (ishlar bajarilgandan, xizmatlar ko'rsatilgandan) keyin hujjatlarni taqdim etish muddati, ularni rasmiylashtirishga doir talablar.

Akkreditivning bir necha shakllari mavjud. Ularning asosiy turlari quyidagilar:

– qoplangan va qoplanmagan akkreditivlar.

✓ *Qoplangan (deponentlangan) akkreditivlarni* ochishda bank-emitent mijozning shaxsiy mablag'larini yoki unga berilgan kreditni bank-emitentning majburiyatlari amalda bo'lgan barcha muddatga ijrochi bank ixtiyoriga o'tkazishga majburdir.

✓ *Qoplanmagan akkreditivni* ochishda bank-emitent ijrochi bankka bank-emitentning ijrochi bankda yuritilayotgan hisobraqamining barcha akkreditiv summasini hisobdan chiqarish xuquqini beradi;

– Chaqirib olinadigan va chaqirib olinmaydigan akkreditivlar.

Chaqirib olinadigan akkreditiv bank-emitent tomonidan mablag'larni oluvchini oldindan xabardor qilmagan holda, o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Akkreditivni chaqirib olish bank-emitent zimmasiga mablag'larni oluvchi oldida biron-bir majburiyat yuklamaydi. To'lovchi chaqirib olinadigan akkreditivning shartlarining o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi to'g'risidagi barcha ko'rsatmalarni mablag'lar oluvchiga, faqat bank-emitent orqali berishi mumkin. Ushbu bank mablag'larni oluvchining banki (ijrochi bank)ni, u esa, mablag' oluvchini xabardor qiladi.

Agar ijrochi bank operatsiyalarni bajarish paytigacha akkreditivning shartlari o'zgartirilganligi yoki u bekor qilinganligi haqida bildirishnoma olmagan bo'lsa, u to'lovni yoki boshqa operatsiyalarni amalga oshirishi shart.

Akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar o'tkazish va uning amal qilish muddati to'lovchi va pul mablag'larini oluvchi o'rtasidagi shartnomada belgilanadi.

Shuningdek, shartnomada quyidagilar ko'rsatilishi shart:

- a) bank-emitentning nomi;
- b) akkreditivning turi va uni bajarish usuli;
- v) akkreditiv ochilganligi to'g'risida mablag'larni oluvchini xabardor qilish usuli;
- g) akkreditivlar bo'yicha mablag'lar olish uchun mablag'larni oluvchi taqdim etishi lozim bo'lgan hujjatlarning to'liq ro'yxati va aniq tavsifi;
- d) mahsulotlar yuklab jo'natilgandan (xizmatlar ko'rsatilgandan, ishlar bajarilgandan) keyinhujjatlarni taqdim etish muddatlari, ularni rasmiylashtirishga doir talablar.

Chaqirib olinmaydigan akkreditiv:

– mablag' oluvchining rozilgisiz, akkreditiv o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas;

– ijrochi bank bank-emitent bilan shartnoma asosida chaqirib olinmaydigan akkreditivni tasdiqlashi mumkin. Bunday holda, chaqirib olinmaydigan akkreditiv tasdiqlangan akkreditiv bo'ladi;

– tasdiqlangan akkreditiv bo'lganda ijrochi bank, bank-emitentning akkreditiv shartlariga muvofiq, to'lovni amalga oshirish majburiyatlari bo'yicha o'z zimmasiga qo'shimcha ravishda majburiyatlar oladi;

– tasdiqlangan akkreditiv ijrochi bankning rozilgisiz o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas.

Mablag'lar oluvchining bankida akkreditiv qanday hollarda yopiladi?

–akkreditivni amal qilish muddati tugaganda;

–mablag' oluvchining akkreditivdan keyinchalik foydalanishdan bosh tortishi to'g'risidagi yozma arizasiga binoan (agar ushbu ariza akkreditivning amal qilish muddati tugaguncha berilgan bo'lsa) hamda akkreditiv shartlarida ko'zda tutilgan bo'lsa;

–to'lovchining akkreditivni to'liq yoki qisman chaqirib olish to'g'risidagi yozma talabnomasiga binoan, agar ushbu holat akkreditiv shartlarida ko'zda tutilgan bo'lsa.

Chek bilan hisob-kitoblar. Jahon amaliyotida chek hisob-kitoblar tizimida salmoqlik joy egallaydi. Chek bilan hisob-kitob qilinishi iqtisodiyotda tovar aylanmasini tezlashtiradi, yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishiga, yangi qiymatning yaratilishiga, bu esa, o'z navbatida, jamiyatning ijtimoiy holatiga bevosita ta'sir etadi.

Chekning to'lov jarayonida ishtirok etishi chek muomalasi ishtirokchilarininghammasi uchun foydali hisoblanadi.

Chek – belgilangan ko'rinishdagi pul hujjati, bankdagi o'z hisobidan muayyan pul miqdorini chekda ko'rsatilgan shaxsga berish yoki uning hisobiga pul o'tkazish bo'yicha yozma topshiriq. Chek ikki ko'rinishda bo'ladi:

a) oluvchining nomi yozilgan chek;

b) taqdim etiluvchi chek.

Oluvchining nomiga yoziladigan chek asosan bir marta aylanishga mo'ljallangan, ya'ni chek beruvchi chek oluvchining nomini ko'rsatgan holda unga chekni beradi va chek oluvchi bankka taqdim etish orqali chekda ko'rsatilgan summasini olishi yoki hisobraqamiga o'tkazib berishi ko'zda tutiladi.

Taqdim etiluvchi chekda oluvchining nomi qayd etilmaydi va shu sababli uni taqdim etgan shaxsga bank emitent tomonidan to'lab berilishi ko'zda tutiladi. Ushbu turdagi cheklar savdo aylanmasida bir martadan ko'prok ishtirok etishi mumkin, ya'ni bitta chek bir necha shaxsqo'lidan o'tadi va bevosita ular ishtirokida to'lov aylanmasi tashkil qilinadi.

Elektron to'lov tizimining rivojlanishi chek o'rnini bosuvchi yanada qulay to'lov vositalari kirib kelishiga asos bo'lmoqda, bu esa, o'z navbatida, cheklar bilan hisob-kitob hajmi qisqarishiga olib kelmoqda.

Chek bilan hisob-kitob tizimi AQShda, Frantsiyada va Evropaning qator davlatlari to'lov aylanmasi shakllanishida bevosita ishtirok etmoqda.

AQShda 50% ziyod to'lov aylanmasi aynan cheklar orqali amalga oshiriladi.²¹ Uning summasi miqdori 60 foizdan oshiq. Chekni to'lov jarayonida ishlatishning ustuvor tomonlari shundaki, bundan uning barcha ishtirokchilari birday manfaat olishadi. Jumladan, chek daftarchasini olmoqchi bo'lgan xo'jalik sub'ektlari o'z bankida chek hisobvaraqasini ochadi va bank undan ariza va ma'lum summani olgandan so'ng, unga chek daftarchasini rasmiylashtirib beradi. Chek ham qimmatli qog'ozlar turiga kiradi va ular pul bilan ta'minlangan.

Xo'jalik sub'ektlari chekni olganlaridan so'ng undan savdo do'konlarida va boshqa moliviy majburiyatlarni bajarishda foydalanishlari mumkin. Chekni hisobga olish, u bilan to'lovchi va oluvchi o'rtasidagi hisob-kitobni yakunlash uchun chekka tovar sotgan yoki xizmat ko'rsatgan shaxs, boshqacha aytganimizda, chek – oluvchi o'zining bankiga naqd pulni inkassatsiya qilgandek, uni ham inkassatsiya qiladi, bank esa, o'z navbatida, uni chek bergan bankka yuboradi, chek daftarchasini bergan bank esa, chekning hisobraqamidan tegishli summani chek oluvchining bankika, aniqrog'i, uning hisobraqamiga o'tkazib beradi.

O'zbekiston to'lov amaliyotida shuni ko'rish mumkinki, cheklar to'lov vositasi sifatida qo'llanilmaydi, ulardan faqat xo'jalik sub'ektlarining bankdagi hisobvarag'idagi mablag'lardan bir qismini naqd pul ko'rinishida olish uchun foydalaniladi. Hozirda chek o'rnini bosuvchi plastik kartochkalar dunyoningbarcha

²¹James Brook. Examples & explanations: payment systems. AspenPublishers: 5 edition.pg 205

bank tizimlarida, shu jumladan, O'zbekiston amaliyotida ham keng qo'llanilmoqda.

Veksellar bilan hisob-kitoblar. Naqd pulsiz hisob - kitoblarning ilk shakllaridan biri veksel hisoblanadi. Veksel birinchi moliyaviy instrument va to'lov vositasi sifatida XII asrda Italiyada qo'llanila boshlangan, qeyinchalik cheklar va boshqa to'lov hujjatlari naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun foydalanilgan.

Veksel (nem.Wechsel, ayirboshlash) qarz majburiyatlari xususida yozma holda berilgan maxsus ko'rinishdagi qimmatbaxo qog'oz hisoblanib, qarz bergan tomon unda ko'rsatilgan muddat tugashi bilan qarzni talab qilish huquqiga egaligini anglatadi.

Jahon amaliyotida veksellarning turlari ko'p. Iqtisodiy mohiyatiga va shakllariga ko'ra,ularning quyidagi asosiy ko'rinishlarini keltirib o'tamiz (3.3-jadval).

3.3-jadval

Veksellarning asosiy shakllari va ularning qisqacha tavsifi

Veksel shakllari	Asosiy tavsifi
<i>Tijorat(tovarli) veksel</i>	Tijorat krediti bo'yicha kelishuv natijasida yoziladigan veksel
<i>Moliyaviy veksel</i>	Pul shaklida ssuda berish jarayonida yoziladigan veksel
<i>Bank vekseli</i>	Depozit sertifikatining rolini bajaruvchi veksel
<i>Blankli veksel</i>	Bo'sh veksel formulyari (blanki) sotuvchi tomonidan to'ldiriladi va uni sotib oluvchi aktseptlaydi

Muomalada aylanishi bo'yicha vekselning ikki turini ajratish lozim:

- oddiy veksel (“solo” – veksel);
- o'tkazma veksel (“tratta” – veksel).

Oddiy veksel qimmatli qog'oz bo'lib, veksel beruvchi(emitent)ning imzosi va muhri bilan rasmiylashtirilib, uning qarz majburiyati hisoblanadi. Vekselning so'ndirish muddati kelganda emitent, so'zsiz, to'lab berishi shart.

O'tkazuvchi veksel qattiq belgilangan tartibga to'ldirilgan moliyaviy hujjat hisoblanib, unda ko'rsatilgan summani, belgilangan muddatda uchinchi shaxsga (vekselni taqdim etgan remitentga) kreditor(trassant)ning qarz oluvchi(trassat)ga so'zsiz to'lab berish buyrug'i sanaladi. O'tkazma veksel tashqi iqtisodiy kontraktlarning muhim hujjati ham hisoblanadi. Remitenti sifatida veksel beruvchi ham bo'lishi mumkin.

Vekselning to'lov jarayonida ishtirok etishidabir qator ustuvor tomonlar mavjud.Muhim ustuvor tomonlardan biri iqtisodiyotda tovar aylanmasito'xtab qolishining oldini oladi va shu bilan birga pulga bo'lgan talabni keskin tushiradi. Veksel debitor va kreditor qarzdorlikning oldini oladi. Shuning uchun uzoq yillar davomida veksel to'lov aylanmasida dolzarbligini saqlab kolgan.

O'zbekiston amaliyotida veksel 1995 yili to'lov muomalasiga kiritilgan. Bundan asosiy maqsad iqtisodiyotda ishlab chiqarishni kuchaytirish va unda mavjud bo'lgan to'lov jarayoni bilan bog'liq muammolarni hal etish, aniqrog'i, debitor va kreditorlik qarzdorlikni qisqartirish bo'lgan. Markaziy bankning qimmatli qog'ozlar departamenti tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1995–1996 yillar mobaynida respublikamizda 35265 mln. so'mlik veksel muomalaga chiqarilgan, shu jumladan, 4819 mln.so'mlik veksel tijorat banklari tomonidan chiqarilgan.Hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, har bir veksel muomalada 16,5 marta aylangan²².

Veksellarning kamchiliklari ham mavjud edi. Ma'lumki, respublika amaliyotida bir paytlar qarzdorlik, majburiyatlar o'z vaqtida bajarilmasligi va xo'jalik sub'ektlarining aylanma mablag'lari etmasligi kabi holatlar avj olgandi. Bu holatni yumshatish va vaziyatdan chiqish choralari ko'rildi. Shunday choralardan biri vekselning qo'llanilishi bo'ldi. Ammo veksel respublika to'lov aylanmasi tashkil qilinishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga bu jarayondasalbiy tomonlar ham namoyon bo'ldi. Milliy iqtisodiyotimizda veksel aylanmasini tashkil qilish va tartibga solish sohasidagi kamchilik va xatoliklardan asosiylari

²²Raximova X.U. Osobennosti razvitiya platyojnoj sistemi Respubliki Uzbekistan. Monografiya . – T.: Moliya, 2013. – S.78

quyidagilar edi:bu qimmatli qog'ozlar bilan to'lov aylanmasini tashkil qiluvchi ishtirokchilar vekselning iqtisodiy mohiyatini yaxshi bilmasligi uning belgilangan me'yorlar va hisob-kitob tartiblari buzilishiga olib keldi. Jumladan, vekselni hisobga olish, rasmiylashtirish tartiblari, bundan tashqari veksel aylanmasiga qalbaki vekselar ham kirib kelishi uning muomalasito'xtalishiga asos bo'ldi. Qolaversa, veksellarni qayta hisobga olish amaliyoti deyarli bajarilmaganligi sababli ularni tovarga emas, balki pullarga almashtirish holatlari kuzatildi. Natijada iqtisodiyotda pulga bo'lgan talab yanada ortgan.

O'zbekiston iqtisodiyotida veksel muomalasi atigi bir yarim yil davom etdi.

Rivojlangan davlatlarning hisob-kitob sohasida, ayniqsa, xalqarohisob-kitob amaliyotida veksel muhim o'rin egallab kelmoqda. Vekselar har xil turdaligi ularning imkoniyatlarini va o'zgaruvchan iqtisodiy muhitda elastikligini ko'rsatmoqda.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish va tartibga solishning me'yoriy asoslari.
2. O'zbekitonda naqd pul muomalasini tashkil qilishtarihi va uning o'ziga xos xususiyati.
3. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillari.
4. O'zbekiston banklarida milliy va chet el valyutasida hisobvaraqlarini ochish tartibi.
5. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari.
6. To'lov xujjatlari va ularni debitli va kreditli floutlarini tashkil qiluvchi xususiyatlari.
7. To'lov topshiriqnoma va talabnomalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish mexanizmlari va jahon amaliyoti.
8. Inkasso topshiriqnoma asosidagi to'lovlar va ularning xususiyatlari.
9. Chek bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi.
10. Vekselar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi.

11. Akkreditiv shartnomasi asosida hisob-kitoblarni amalga oshirish mexanizmi.

12. Hisob-kitob jarayonining sifatiga ta'sir etuvchi omillar.

4-BOB. BANKLARARO ELEKTRON TO'LOV TIZIMI: TASHKIL QILINISHI, RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY HOLATI

4.1. O'zbekistonda elektron to'lov tizimini shakllantirish asoslari

Ushbu paragrafning mohiyati bevosita mustaqillik yillaridagi respublika hayotida, shu jumladan, hisob-kitob sohasida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni va eski tizim asoratlarini engish tarixi bilan bog'liq.

Sobiq ittifoq parchalangach, dunyo xaritasida yangi davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston o'rin egallashi ularning ichki tuzilmasi qayta qo'rib chiqilishini taqozo etdi. Bu muammo, birinchi navbatda, hisob-kitob tizimini isloh etish va bozor iqtisodiyotining ko'p qirrali talablariga to'la javob beraoladigan yangi hisob-kitob tizimi barpo etilishini zaruratga aylantirdi. Darhaqiqat, bu masala nechoglik dolzarbligi zamonamiz iqtisodchi-olimlarining ilmiy g'oya va kontseptsiyalarida ham asoslandi. Ular to'lov tizimini iqtisodiyotning "qon tomiri" sifatida e'tirof etib, uni iqtisodiyot rivojlanishiga yuqori darajada ta'sir etishini asoslab berdilar.

O'zbekistonga sobiq ma'muriy rejali iqtisodiyotdan meros bo'lib o'tgan to'lov tizimi bozor iqtisodiyoti talablariga mutlaqo javob beraolmasligi sir emas. Ma'lumki, o'sha davrlarda xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi hisob-kitoblar davlat bank tizimining filiallararo aylanmasi (MFO – mejfilialnie oboroti) orqali Rossiyaning Moskva shahridan o'tkazilishi mexanizmi yo'lga qo'yilgan edi. Ushbu mexanizm primitiv ko'rinishga ega bo'lib, uning ishtirokchilari o'rtasidagi kommunikatsion tizim pochta aloqasi hisoblangan. Bu esa xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi hisob-kitob jarayonlari o'z vaqtida yakunlanmasligiga va o'zaro majburiyatlari hajmini oshib ketishiga olib kelgan. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti ushbu muammoga alohida e'tiborini qaratgan holda quyidagilarni ta'kidlagandi: "...Umuman, to'lov masalasi qiyin kechyapti. Markaziy bank va boshqa banklarning rahbarlari mas'uliyatni chuqur his etishi

lozim. Nima uchun to'lov Farg'onadan Toshkentga 20 kun yoki bir oy ichida kelib tushadi?...»²³

Shuni mamnuniyat bilan aytish lozimki, respublikada hisob-kitob sohasini isloh etish kabi murakkab vazifani davlatimiz, jamiyatimiz, bank tizimimiz olim va mutaxassisleri a'lo darajada hal etishga muaffaq bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasi MDH davlatlari orasida birinchilardan o'z maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq belgilab olgan davlat hisoblanadi. Barcha sohalarda, shu jumladan, hisob-kitob tizimida ham islohotlar olib borilishi bo'yicha aniq reja belgilanib olindi. Tabiiyki, bozor iqtisodiyoti xo'jalik sub'ektlari turli mulkchilik shakllariga asoslangan bo'lishini va ular o'rtasida hisob-kitoblar samarali tashkil qilinishini taqozo etar edi. Turli mulkchilik shakllariga asoslangan xo'jalik sub'ektlariga bir to'lov tizimi doirasida iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar samarali tashkil qilinishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish, ularning manfaat va talablarini inobatga olish lozim edi. Shu bois ularning barchasi to'lov tizimida olib boriladigan islohotlar jarayonidagi dolzarb masala sifatida mustaqillikningdastlabki kunlaridanok belgilab olindi.

Respublika hisob-kitob tizimi konstruktiv tarzda qayta ko'rib chiqilishi va zamonaviy naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini barpoetish o'sha davr uchun juda muhim hisoblangan. Ushbu tizim turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik sub'ektlari o'rtasida tashkil qilinadigan tovar-pul munosabatlari bozor mexanizmlariga to'la javob beraoladigan darajada bo'lishini shart qilib qo'yardi.

Tahlil natijalari ko'rsatishicha, sobiq ma'muriy rejali iqtisodiyotning hisob-kitob va to'lov tizimi quyidagi kamchilik va salbiy omillarni aniqlab, respublika hisob-kitob tizimini isloh qilish zarurligini belgilab bergan:

–to'lov tizimining ishlash jarayoni oldindan belgilangan sxema, vosita va mexanizmlar orqali amalga oshirilgan;

–to'lov joyi faqat bank hisoblangan, naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi va nazorat qiluvchi tashkilot;

²³Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida.– T.: O'zbekiston, 2005, B.150.

–to'lov muddati – tovarlar etkazib berilgandan so'ng, ya'ni oldindan to'lov yoki to'lov jarayonida kredit berish xizmati bo'lmagan;

–to'lovchining roziligi (aktsept) – to'lovni amalga oshirish uchun asos bo'lgan;

–to'lov manbai – oluvchining o'z mablag'i evaziga yoki bank kreditini olish huquqi berilgantashkilotlar;

–to'lov jarayoniishtirokchilarining naqd pulsiz hisob-qitobqilish uchunhisob-kitob shakli oldindan belgilangan.

Bundan tashqari, rejali to'lov tizimining quyidagi salbiyholatlarini belgilab o'tish joiz:

– to'lov xizmatiga bo'lgan talab sun'iy ravishda belgilangan, real talab o'rganilmagan;

– to'lov xizmatini ko'rsatuvchi kredit tashkilotlari o'rtasida raqobat bo'lmagan;

– davlatning manfaati ustuvor hisoblangan;

– to'lov tizimining rivojlanishi asosan pochta aloqasining holatiga bog'liq bo'lgan;

– hisob-kitob jarayonlari sekin amalga oshirilgan, bank krediti xo'jalik sub'ektlari faoliyatida deyarli ishtirok etmagan, faqatgina ayrim hollarda yuqori tashkilotlarning ruxsati asosida kredit taqdim etilgan.

Bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olgan holda hamda yuqorida qayd etilgan kamchilik va salbiy omillarni bartaraf etish asosida va hisob-kitob jarayonlarida innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash orqalirespublika to'lov tizimida chuqur islohotlarni olib borish talab etildi.

Maqsad qilib olingan hisob-kitob tizimining yangi modeli bozor iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini va unda faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlarining keng va ko'p qirrali talablariniinobatga olishi hamda to'lovlarning uzluksizligini va bir maromda o'tishini ta'minlashi zarur edi. Milliy iqtisodiyotning hisob-kitob sohasida olib borilgan islohotlar ushbu holatlarni hisobga olib, qo'ygan maqsadiga erishishi mumkin edi. Shu sababdan bozor

talabiga mos tushuvchi hisob-kitob tizimini shakllantirish vazifasi davlatning strategik va taktik maqsadlariga aylandi.

Bozor mexanizmlarining samarali ishlashini ta'minlovchi to'lov tizimini isloh etish masalasi birinchi navbatda banklararo hisob-kitob tizimini o'z ichiga olishini taqozo etadi. Ma'lumki, davlat bank tizimining, shu jumladan, to'lov tizimining faoliyati banklararo hisob-kitob tizimining rivojlanish holatiga bevosita bog'liq. Shu sababdan milliy to'lov tizimining isloh qilish dasturida banklararo hisob-kitob tizimi muhim ob'ekt sifatida belgilandi.

Tezkorlik bilan yangi talablarga to'la javob beradigan milliy to'lov tizimini shakllantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi belgilanib, unga muvofiq quyidagi asosiy vazifalar hal etilishi ko'zda tutildi:

- sobiq sovet respublikalari bilan o'zaro hisob-kitoblarni yakuniga etkazish;
- milliy valyutani kiritish va mustaqil pul-kredit siyosatini yuritish;
- to'lov jarayonlari tezligini va xavfsizligini ta'minlash;
- texnik bazani kuchaytirish va yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- bozor iqtisodiyoti talabiga javob beraoladigan me'yoriy bazani shakllantirish;
- boshqarish tizimini qaytadan ko'rib chiqib, uni bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda takomillashtirish (nafaqat menejment sohasida, pul muomalasini tartibga solish tizimida ham);
- yangi muhitda ishlay oladigan malakaviy bank xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash.

Ishlab chiqilgan dasturga muvofiq takomillashgan milliy to'lov tizimi modelini yaratish va uning asosini tashkil qilib beruvchi banklararo hisob-kitob tizimini isloh etish bo'yicha bosqichma-bosqich faoliyatni yo'lga qo'yish ko'zda tutildi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, milliy to'lov tizimining yangi modelini shakllantirishda rivojlangan davlatlar to'lov tizimlari andoza bo'lib xizmat qilgan,

jumladan, Shveytsariya davlati to'lov tizimining arxitektura tuzilishi va hisob-kitoblarni amalga oshirish texnologiyalari.

O'zbekiston davlati milliy to'lov tizimini shakllantirish yuzasidan belgilab olgan reja va maqsadlaritog'riligi tobora yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. Qisqa muddat ichida xalqaro standartlarga to'la javob bera oladigan banklararo elektron hisob-kitob tizimining yaratilishi buning isbotidir.

Respublika banklararo to'lov tizimi qog'ozli to'lov hujjatlariga asoslangan tizim hisoblanadi. Qisqa vaqt ichida ushbu tizim tubdan isloh etilib, to'lov hujjatlarining elektron shaklda aylanishiga, shu bilan birga banklarning o'zaro hisob-kitob kliringi avtomat ravishda bajarilishiga erishildi. Yaratilgan banklararo elektron hisob-kitob tizimi xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori baholandi va MDH davlatlari orasida birinchilardan bo'lib qog'ozsiz banklararo hisob-kitob texnologiyasiga o'tilganligi e'tirof etildi.

4.2. O'zbekistonda banklararo elektron to'lov tizimini rivojlantirish bosqichlari

O'zbekistonda banklararoto'lov tizimining isloh etilishi uchun ishlab chiqilgan dastur va unda belgilangan tadbirlar, o'zgarishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ko'zda tutdi. Banklararo hisob-kitob tizimini isloh etishning har bir bosqichida vazifalar aniq belgilanib, ularga erishish chora-tadbirlari ko'rsatib berildi.

Banklararo hisob-kitob tizimini isloh etish jarayonida asosiy e'tibor rivojlangan davlatlarning innovatsion texnologiyasiga asoslangan elektron hisob-kitob tizimlari modellariga qaratilgan bo'lib, ularni respublika bank amaliyotiga joriy etish, banklarning naqd pulsiz hisob-kitoblarni hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini kompyuter dasturlari va texnologiyalariyordamida amalga oshirilishini ta'minlash masalalari kun tartibiga qo'yildi.

Banklararo to'lov tizimini elektron shaklga o'tkazish zaruriyati quyidagilar bilan izohlanadi:

–maqroiqtisodiy darajada to'lov jarayonlarining tezligini, xavfsizligini, ishonchliligini oshirish hamda iqtisodiyotda to'lovlarninguzluksizligini va bir maromda o'tishini ta'minlash;

– miqroiqtisodiy darajada bozor sharoitida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlarining keng qirrali talablariga to'la mos keluvchi samarali hisob-kitob tizimini barpo etish.

O'zbekiston iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotining bir qismi bo'lganligi sababli uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini ta'minlash muhim masalahisoblanib, milliy hisob-kitoblar tizimini xalqaro standartlarga moslashtirgan holda shakllantirish talab etildi. Shu bois milliy to'lov tizimining yangi arxitektura va texnologiyasini ishlab chiqish jarayonida ushbu masalaning shu tomonlari inobatga olinishi taqozo etiladi.

O'zbekiston jahon iqtisodiyotining to'la haqli a'zosi bo'lishi va unda erkin tashqi iqtisodiy faoliyat yuritishi milliy hisob-kitob tizimining holatiga, aniqrog'i, jahon talablariga mos ravishda tashkil qilinishiga bevosita bog'liq.

Yuqoridagi fikrlar milliy to'lov tizimini barpo etish lozim bo'lgan modelda, shuningdek,uning foydalanuvchilari uchun maksimal darajada shart-sharoitlar yaratish masalasibanklararo elektron to'lov tizimini shakllantirish dasturida o'z aksini to'la topgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Banklararo elektron to'lov tizimini shakllantirish va rivojlantirish quyidagi bosqichlardan tashkil topgan²⁴:

Birinchi bosqich(1991–1994 yy.)– elektron to'lov tizimini yaratish uchun zamin tayyorlash bosqichi. Bu bosqichda:

–milliy to'lov tizimni shakllantirish va rivojlantirish strategiyasi belgilab olindi;

–qog'ozsiz va elektron asosda ishlovchi to'lov tizimini yaratish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqildi;

²⁴www.cbu.uz

–to'lov jarayonlarini jadallashtirish maqsadida Markaziy bank 127 ta Kliring markazlarini tashkil qildi va ularni yangi kompyuter texnologiyalari bilan ta'minladi;

–yangi tizimda ishlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari amalga oshirildi;

–davlatlararo hisob-kitob ishlarini yaqunlash, eski qarz va majburiyatlarni tugatish vazifasi bajarildi;

–chet el mutaxassislarini jalb etgan holda banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirishi texnologiyasi bo'yicha kompyuter dasturlari ishlab chiqildi;

–to'lov tizimini shakllantirish va uni tartibga solish maqsadida tegishli me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Banklararo to'lov tizimini takomillashtirishning ilk bosqichida, 1991 yil 1-oktyabrdan boshlab Davlatbanki tizimida 127 kliring markazi tashkil qilindi. Ushbu markazlar tijorat banklari to'lovlari ularning vakil hisobvaraqlari yordamida amalga oshirilishini yo'lga qo'ydi va natijada bir hudud ichidagi to'lovlar tez o'tishi ta'minlandi, lekin hududlararo to'lovlarning o'tish vaqtini qayta qo'rib chiqish lozim bo'ldi.


1993 yili O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan hududlararo to'lovlarni tezlashtirish maqsadida "O'zbekiston pochta" bilan kelishilgan holda, bank hujjatlarining feld'eger aloqasi orqali yuborilishi joriy etildi. Natijada, hujjatlarning o'tish vaqti 1–3 oydan 9 kungacha qisqartirildi.²⁵ Shuningdek, bank tizimida, shu jumladan, hisob-kitob tizimida islohotlarni chuqurlashtirish maqsadida 1994 yil 18 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bank tizimini takomillashtirish va pul-kredit aloqalarini barqarorlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 146-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash uchun Markaziy bank boshchiligida respublika bank tizimini kompyuterlashtirish kontseptsiyasi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bank tizimining iqtisodiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilganligi sababli

²⁵O'zbekiston Respublikasi bank tizimi/ Muallif: F.M.Mullajonov (va boshq.). F.M.Mullajonov tahriri ostida. To'ldirilgan ikkinchi nashri. –T.: O'zbekiston, 2011.–191 b..

respublika hududidagi barcha banklar 1994–1997 yillarda soliqning ayrim turlaridan ozod qilindi.

Birinchi bosqichda olib borilgan ishlarning iqtisodiy samarasini 4.1- rasmda ko'rish mumkin:



4.1-rasm 1994 yildan boshlab to'lovlarni o'tkazish tezligining o'zgarish tendentsiyasi (kunda)²⁶

Hisobimizga ko'ra, to'lovlarni o'tkazish vaqti 90 kundan 4 kunga tushirildi. Bu to'lovlarni amalga oshirish tezligi mustaqillikka erishilgan kundan buyon 22,5 marta oshganini bildiradi.

Ikkinchi bosqich (1994–1997yy.)–Respublika banklararo Elektron to'lov tizimini shakllantirish va takomillashtirish bosqichi.

Ushbu bosqich kamrab olgan vazifalar va chora-tadbirlarning amaliyotda to'la bajarilishiga muvaffaq bo'lindi. Ular quyidagilar:

– banklararo elektron to'lov tizimi, uning axborot bazalari va tizimning samarali ishlashini ta'minlovchi kompyuter dasturlari va kommunikatsion tizimlari to'la shakllandi va respublikadagi barcha tijorat banklari ushbu tizimga ulandi;

– banklararo elektron to'lov tizimida to'lov hujjatlarining aylanishini ta'minlash uchun ularning elektron shakllari yaratildi va tizim xavfsizligini oshirish uchun elektron raqamli imzo (kalit) orqali unga kirishimkoni yuzaga keldi;

²⁶O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisoboti.

–tizimning dastlabki amaliy tekshiruvlari amalga oshirildi va aniqlangan kamchilik va muammolar operativ ravishda bartaraf etildi;

–respublikaning bir hududidan ikkinchi hududiga to'lov hujjatlarini o'tkazish tezligi oshdi va natijada to'lovlarni uzatish va ularning hujjatlarini qayta ishlash vaqti 1–2 kundan bir soatga qisqartirildi;

–banklararo to'lov tizimida o'zaro hisob-kitoblarni to'la, nuqsonsiz va risksiz amalga oshirish maqsadida tijorat banklarining ichki vakillik hisobraqamidagi qoldiqlarni tashqi Hududiy kliring markazlaridagi vakillik hisobraqamdagi qoldiqlar bilan operatsion kun davomidagi har bir jo'natish seansida avtomat ravishda taqqoslanishi ta'minlandi. Agar ichki va tashqi vakillik hisobraqamidagi qoldiqlardagi farq yuzaga kelsa, tizim ishlamasligi va aniqlangan farqni bartaraf etgunga qadar faoliyatni davom ettirib bo'lmasligi dasturiy belgilanib qo'yilgan;

–O'zbekiston hududida qonun bilan belgilangan barcha to'lov vositalarining yangi tizim orqali o'tkazilishi ta'minlandi va uning uchun barcha sharoitlar yaratildi;

–tizimda to'lovlarning hajmi bo'yicha chegaralar qo'yilmagan bo'lib, to'lovlarning ustuvorligi va navbati to'lov hujjatlari asosida shakllangan faylning kelib tushish vaqti bilan aniqlanishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, hisob-kitob operatsiyalari tijorat banklarining vakillik hisobraqamidagi qoldiq summasi chegarasida amalga oshirilishiga imkon yuzaga keldi;

–tizim dastur asosida viloyat ichidagi va viloyatlararo o'tkazilgan to'lovlar kunlik auditining amalga oshirilishi ta'minlandi;

–elektron to'lov tizimi yillik moliyaviy hisobotni o'z vaqtida yopish uchun qulay sharoit yaratdi, ya'ni kelgusi yilga o'tmasdan va qo'shimcha oborotsiz yakunlash imkonini yaratdi (eski tizim sharoitida moliya yili balansi yangi yilning 20 fevral kunigacha yopilganligini ko'rish mumkin);

–Markaziy bankning viloyatlar markazlarida ochilgan Kliring markazlari yopilib, Toshkent shahrida joylashgan bosh kliring markazi tomonidan tegishli jarayonlar olib borilishi yo'lga qo'yildi;

– 1997 yil 17 martdan boshlab barcha tijorat banklarida hamda Markaziy bankda yangi hisobvaraqlar rejasi kiritildi va ular yordamida to'lovlarni amalga oshirish tezligi va sifati yuqorilashdi. Shu bilan birga banklarda hisoblarni o'tkazish va hisobotlarni taqdim etish unifikatsiyalashdi hamda markazlashgan tartibda real vaqtda buxgalteriya hisobini yuritish va banklarning ish faoliyati ustidan monitoringolib borish uchun imkon yaraldi. Yangi hisobvaraqlar rejasi 20 sondan iborat hisobvaraqlardan tashkil topgan bo'lib, u jahon amaliyotida keng foydalanib kelinayotgan hisobraqamlar rejasiga mos tushadi. Shuningdek, har bir tijorat banki yangi hisob tizimi orqali nafaqat milliy banklararo to'lov tizimining ishtirokchisi sifatida identifikatsiya qilinadi, balki jahon to'lov tizimida ham jahon banklari milliy banklarimizni mustaqil ishtirokchi sifatida tan olishi uchun zamin yaratdi, desak mubolag'a bo'lmaydi;

– yangi hisobvaraqlar rejasini qo'llash natijasida to'lovlarni o'tkazish tezligi viloyat ichida 1–3 daqiqani, viloyatlararo to'lovlar uchun 3–15 daqiqani tashkil qildi;

– yaratilgan tizimni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar, jumladan, “O'zbekiston Respublikasi banklari o'rtasida elektron to'lovlar tizimi bo'yicha hisob-kitoblar yuritish to'g'risida”gi Nizom qabul qilindi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, banklararo elektron to'lov tizimi hali takomillashish jarayonida bo'lganligi sababli me'yoriy hujjatlarning aksariyati vaqtinchalik yo'riqnomalar ko'rinishiga ega edi;

– innovatsion texnologiyalardan samarali foydalangan holda milliy to'lov tizimining infratuzilmasini rivojlantirishga va to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilariga keng shart-sharoitlar yaratishga katta e'tibor berildi. Milliy to'lov tizimi infratuzilmasini kengaytirishda axborot elektron bazalarning o'rni muhimligi bois ular, birinchi navbatda axborotlar xavfsizligini ta'minlashga, noto'lovlarning oldini olishga, likvidlik va tizimli risklarni samarali boshqarishga xizmat qilishi uchun zamin yaratildi. Shunday axborot elektron bazalardan biri bank depozitorlari milliy axborot bazasi (BDMAB) hisoblanadi.

BDMAB banklararo elektron to'lov tizimi barcha ishtirokchilarining ma'lumotlaridan tashkil topgan yagona axborot bazasibo'lib, shu tizim orqali o'tkazilayotgan to'lov hujjatlarida aks ettirilgan to'lovchi va mablag' oluvchi xo'jalik sub'ektlari identifikatsiya va audintifikatsiya qilinadi, ya'ni to'lovchi va mablag' oluvchi xo'jalik sub'ektlarining bazada mavjudligi aniqlanadi va tizim orqali tasdiqlanadi. Ushbu amaliyotdan so'nggina to'lov hujjati tizim tomonidan qabul kilinadi va tranzaktsiya amalga oshiriladi. To'lov tizimining barcha ishtirokchilari manfaatlarini ko'zlagan holda ushbu elektron baza yordamida noqonuniy operatsiyalarni amalga oshirishga va tizimida mavjud bo'lmagan ishtirokchilarning to'lov hujjatlari (qalbaki hujjatlar) o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. 2016 yil 1yanvar holatiga BDMABdagi mijozlar soni 1 515 004 tani,ularning hisobraqamlari esa 5 364 838 tani tashkil qildi, 1997 yil holatiga nisbatan mijozlar soni 8,1 martaga,hisobvaraqlari esa 26 marta oshdi.

BDMAB tomonidan bank mijozlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish maqsadida ochilgan maxsus raqamlar xo'jalik sub'ektlari faoliyatlari to'xtalishiga karamasdan, uch yil mobaynida boshqa xo'jalik sub'ektlariga berilmaydi. Bu esa, o'z navbatida, xo'jalik sub'ektlari hisob-kitoblarining shaffofligini, shuningdek, zaruriy holatlarda ularning moliyaviy operatsiyalari holatiga oydinlik kiritilishini ta'minlaydi.

BDMAB tomonidan shakllangan axborot bazasi yildan-yilga kengayib, unda aks ettirilayotgan mijozlar soni, shuningdek, ushbu institut tomonidan bajarilayotgan funktsiyalar ham sifat,ham son jihatidan o'sib borayotganini ko'rish mumkin.

Hisob-kitobimizga ko'ra, ikkinchi bosqichda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida banklararo elektron to'lov tizimi orqali to'lovlarning amalga oshirilish tezligi 1991 yildagiganisbatan 2160 marta oshdi.

Uchinchi bosqich (1998–2001yy.) – banklararo elektron to'lov tizimining sifatini oshirishga karatilgan bosqich.

Ushbu bosqich shakllangan zamonaviy banklararo elektron to'lov tizimini takomillashtirishga karatilib, unda bugungi kungacha banklararo elektron to'lov

tizimini sifat jihatidan yaxshilash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqildi va xalqaro kelishuvlar amalga oshirildi. Ulardan eng asosiysi quyidagilardir:

– Markaziy bank bilan Jahon banki o'rtasida 1998 yil dekabr oyida respublika moliya sohasini rivojlantirish uchun zayom ajratish to'g'risida shartnoma imzolandi. Bu loyiha besh komponentga bo'linib, shulardan to'rtinchi komponent o'z ichiga quyidagi masalalarni oladi:

- to'lov tizimini takomillashtirish;
- boshqarish uchun axborot tizimini yaratish;
- bank telekommunikatsiya tizimini rivojlantirish;
- axborot tizimi muhofazasini yaratish.

Yuqorida keltirilgan masalalar bo'yicha tadbirlarni nihoyasiga etkazish 2003 yilning ikkinchi yarmiga mo'ljallanib, har bir masala bo'yicha rivojlanish yo'llari tijorat banklari bilan birgalikda aniqlandi va chet el ekspertlarining xulosalari olindi.

To'rtinchi bosqich (2002y – hozirgacha) banklararo elektron to'lov tizimining infratuzilmasi sifatini oshirish bosqichi.

2002 yil. To'lovlar real vaqtda o'tishini ta'minlash va tijorat banklariga yagona vakillik hisobvarag'i orqali xizmat ko'rsatish bo'yicha texnologiya tanlanib, u bo'yicha texnik topshiriq ishlab chiqildi va banklararo to'lovlarni yagona vakillik hisobvarag'i orqali o'tkazish hamda banklarda axborotlashtirilgan axborot tizimini tashkil etish bo'yicha dastur yaratildi. Tijorat banklarining banklararo to'lovlarni yagona vakillik hisobvarag'i orqali amalga oshirish tizimiga o'tishi ushbu yilning iyun oyidan boshlandi.

To'lov tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro tender o'tkazilib, tender g'olibi bilan mavjud bank telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish loyihasi bo'yicha shartnoma tuzildi.

Plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblarni yo'lga qo'yish maqsadida to'lovlarni amalga oshiradigan milliy tizim yaratish kontseptsiyasi, tavsiyanomalar va sxemalar ishlab chiqildi. Respublikamizda mavjud yirik banklar, xususan, TIF

Milliy banki, Asaka banki, Sanoatqurilish banki, Xalq banki va Paxta banklarida plastik kartochkalar orqali to'lovlarni tashkil qilish yo'lga qo'yildi.

2003 yil. Tijorat banklarini banklararo to'lovlarni yagona vakillik hisobvarag'i orqali amalga oshirish tizimi 2003 yil 8 sentyabrda to'liq ishga tushirildi va barcha banklarda markazlashtirilgan axborot tizimi tashkil etildi. Bu banklarga kundalik to'lovlar o'tkazish uchun band bo'lgan mablag'larning bir qismi bo'shashiga va ularni o'rinli aktivlarga joylashtirishga, bank o'z filiallari mavqeini tahlil qilib, kerakli chora ko'rishiga, bankning kunlik yagona balansi uning likvidligini, tavakkalchiliklarini, majburiyatlarini, o'z kapitalini aniq ifoda etishga imkon beradi.

2002–2003yillar mobaynida barcha tijorat banklari yagona hisobvara qoldiq tizimiga o'tkazilib, ularning barcha filiallari va bo'limlari hisobvarag'idagi mavjud resurslari bosh ofisida ochilgan yagona hisobvarag'ida yig'ilishiga imkon yaratdi. Bu esa, bosh ofisdan turib tijorat banklarning mavjud resurs, likvidlik holatlariga va riskiga baho berish imkonini berdi. Tijorat banklarining yagona hisobvara qoldiq tizimida hisob-kitob jarayoni amalga oshirilishi bir qator qulayliklarni hamda likvidlik va kredit risklari samarali boshqarilishini ta'minladi. Tijorat banklari yagona hisobvara qoldig'i tartibida ishlashining eng qulay tomoni shundaki, to'lovlarni amalga oshirishi bilan ularning konsolidatsiyalashgan buxgalteriya balansida real vaqt ichida ushbu operatsiyalar holati aks ettiriladi.

Shuningdek, Jahon banki krediti hisobiga tuzilgan shartnomaga asosan Bank telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish loyihasi amalga oshirilib, respublika moliya tuzilmalarini banklararo ma'lumot uzatish tarmog'iga ulash va o'zaro ma'lumot almashinuvining elektron tizimini yaratish bo'yicha ishlar olib borildi.

2004 yil. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 sentyabrda qabul qilingan "Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-sonli qarori bilan ushbu tizimni kengaytirish borasidagi ilk reja ko'rsatkichlari, shuningdek, to'lovlarni plastik kartochkalar orqali qabul qilish terminallari bilan jihozlanadigan ob'ektlar ro'yxati tasdiqlandi. Shu bilan bir qatorda, mazkur qarorga muvofiq


mamlakatda Yagona umumrespublika protsessing markazi tashkil etildi, barcha tijorat banklarida plastik kartochkalar tizimida ish olib borilishiga zamin yaratildi.

2006–2012 yillar. Barcha tijorat banklarida (DT Xalq bankidan tashqari) yagona balans tizimi joriy etildi. Davlat tijorat Xalq bankida yagona balans texnologiyasiga asoslangan tizimni joriy etish ishlari bosqichma-bosqich olib borilib, 2008 yil 24 noyabrda to'liq ishga tushirildi. Bundan tashqari, Markaziy bankning Integrallashgan axborot-tahliliy tizimi (IATT) 2009 yil may oyida yaratilib, unda tijorat banklari tomonidan 58 ta talabnoma asosida Markaziy bankning ma'lumotlar omborxonasida ma'lumotlarni jamlash, nazorat qilish, hisobini yuritish, qayta ishlash, shakllantirish va saqlash jarayonlarini avtomatlashtirish ishlari amalga oshirildi. IATT tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Integrallashgan avtomatlashtirilgan bank tizimi, Kredit axboroti milliy instituti axborot tizimi, Yagona vakillik hisobvaraqlar hisob-kitob markazi, Elektron hujjat aylanishi tizimi, bank tizimi ma'lumotlar bazalari kiritilgan va ma'lumotlar omborxonasi tashkil etilgan. Ayni paytda mazkur tizimlarni takomillashtirish ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, noto'lovlarning oldini olish, kredit mexanizmlari va kredit munosabatlarini samarali tashkil qilish borasida Markaziy bank qoshida tashkil qilingan Kredit axboroti milliy instituti (KAMI) tomonidan yaratilgan kreditlar to'g'risidagi elektron ma'lumot bazasi ham elektron axborot bazalari orasida muhim o'rin tutmoqda.

Tijorat banklaridan kredit oluvchi sub'ektlarning kreditga layoqatlilik holatini va darajasini ushbu baza va aniq ko'rsatkichlar yordamida ob'ektiv baholash imkoni yuzaga keldi. U kelgusida kreditlarni eng samarali boshqarish mexanizmiga aylanishi shubhasiz. Banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlar soni va hajmi oshib borishi bilan birga ushbu kreditlar to'g'risidagi elektron ma'lumot bazasi takomillashib, boyib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotda va milliy to'lov tizimida muhit yanada sog'lomlashishiga xizmat qiladi.

Respublikamiz bank va banklararo to'lov tizimlarida 1994 yildan boshlab olib borilgan islohotlar natijalari 5.2-rasmda aks ettirilgan.



4.2-rasm. 1994 yildan boshlab to'lovlarni o'tkazish tezligining o'zgarish tendentsiyasi (soatda)²⁷

4.2-rasmdan ko'rinib turibdiki, amalga oshirilgan har bir islohot milliy banklararo to'lov tizimi orqali o'tkazilayotgan to'lov hujjatining o'tkazilish vaqtini qisqartirib borgan.

Mustaqillik yillaridan respublika banklararo to'lov tizimini shakllantirish va tartibga solish sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida tizim tubdan o'zgartirilib, yangi ahborot va kommunikatsion texnologiyalar bilan ta'minlandi. Natijada to'lovlarni o'tkazish tezligi, hisob-kitoblarimizga ko'ra, 8640 martaga²⁸ oshdi, banklararo hisob-kitob tizimida tijorat banklarining likvidlik holatini to'g'ridan-to'g'ri kuzatish imkoni yuzaga keldi, bu esa banklararo to'lov tizimi ishtirokchilarining likvidlik va kredit risklarini samarali boshqarishga yaxshi zamin yaratdi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, milliy to'lov tizimimizni yanada takomillashtirish va rivojlantirish masalasi Markaziy bankning strategik masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Hozirda olib borilayotgan ishlar bevosita milliy to'lov tizimimizni gorizontaal va vertikal rivojlantirishni bosqichma-bosqich amalga oshirishga qaratilgan.

²⁷O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisoboti asosida tuzilgan.

Gorizontal rivojlanish deganda bank tizimi ichida to'lov jarayoni bilan bog'liq axborot almashuvi sifatini keskin oshirish, boshqa tijorat banklari o'rtasidagi iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarni yanada kengaytirish, to'lov xizmatidan foydalanuvchi mijozlarning noto'lovlar riskidan himoya etish choralarini ishlab chiqish, to'lov tizimi infratuzilmasini rivojlantirish, aniqrog'i, qo'shimcha institutlarni tashkil qilish (Kredit axboroti milliy instituti kabi xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy holati, noto'lovlar to'g'risida axborot bilan ta'minlovchi institutlar va boshqalar) tushuniladi. Shuningdek, milliy to'lov tizimini gorizontal rivojlantirish masalasiga boshqa soha vazirliklari bilan bank tizimi axborot elektron bazalari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri axborot almashuvini (albatta, qonun bilan qat'iy belgilangan chegara doirasida) yo'lga qo'yish masalasi ham kiradi.

Milliy to'lov tizimini vertikal rivojlantirish deganda, mijoz va bank o'rtasidagi kommunikatsion tizimlarning samarali tashkil qilinishi va bunda yangi innovatsion texnologiyalar asosida "on-line" rejimida aloqani o'rnatish, banklararo to'lov tizimini va unga kiruvchi asosiy elementlarini texnik jihatdan yanada takomillashtirish hamda Markaziy bank qoshida ochilgan Hisob-kitob markazining faoliyati sifatini oshirish, shuningdek, mamlakat miqyosida to'lov aylanma va jarayonlarini boshqarish va tartibga solish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish tushuniladi.

4.3. Elektron to'lov tizimining mohiyati va unda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi

Yaratilgan elektron to'lov tizimi to'lovlarning tezligini va sifatini oshirishiga asos bo'lib, u bozor iqtisodiyotining barcha talablariga to'la javob bera oladigan va zamonaviy to'lov tizimi sifatida o'zini namoyon eta oldi.

Elektron to'lov tizimi O'zbekiston hududida axborot texnologiyalari asosida tashkil qilingan to'lov tizimi bo'lib, u banklararo qog'ozsiz to'lov jarayonlarini o'tkazishga asoslangan. Ushbu tizim ustidan nazorat Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi.

Elektron to'lov tizimining joriy etilishi naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimini tashkil qilish va tartibga solish me'yoriy bazasi, texnologik jarayonlarni hamda hujjat shakli va hujjat aylanish tizimi tubdan o'zgartirilishiga sabab bo'ldi.

Elektron to'lov tizimida to'lov hujjatlarining aylanish jarayoni o'ziga xos bo'lib, u maxsus me'yoriy bazani va o'ziga xos yondashuvni talab etadi. Ma'lumki, hisob-kitob sohasida yuzaga keladigan munosabatlarning, aniqrog'i, to'lov jarayoni ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarning ko'rinish shakli o'zgartiriladi. Ularni boshqarish va tartibga solish ham o'zgacha yondashuvni talab etadi. Bundan tashqari, elektron to'lov tizimida to'lov jarayonining tez amalga oshirilishi bilan birga xavfsizlik masalasi ham muhim o'rin tutadi.

Sobiq to'lov tizimida qog'ozli to'lov hujjatlarini qalbakilashtirish va bank mijozlarini hisobraqamidan pullarni noqonuniy asoslarda echib olish holatlari uchrayib turgan. Bunday salbiy holat yuzaga kelish sabablarining asosiylaridan biri shuki, bunda to'lov hujjatlarini o'tkazish jarayoni primitiv usulda amalga oshirilgan va ularning, to'lov ishtirokchilari o'rtasidagi harakatda inson omili aralashuvi yuqori darajadali va hujjatlar qo'ldan-qo'lga o'tishi bois, risk darajasi yuqori bo'lgan. Zamonaviy elektron to'lov tizimida aynan ushbu salbiy tomonlar olib tashlangan bo'lib, inson omilining aralashuv darajasi minimal hisoblanadi. Ekspertlar xulosasiga ko'ra, respublika banklararo hisob-kitob tizimining avtomatlashtirilganlik darajasi juda yuqori. Bunda inson omili ishtirokini faqat to'lov hujjatlarini rasmiylashtirishda va ularni tizimga kiritishda ko'rish mumkin. Bu holat to'lov tizimi ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan salbiy oqibat va nohush holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan hisob-kitob shakllari va to'lov hujjatlari banklararo elektron to'lov tizimi orqali o'tkazilishini ta'minlash uchun ularning elektron shakllari ishlab chiqilgan. Elektron to'lov hujjatlari (EHT) yuridik bo'lib, ular yuridik jihatdan qog'oz ko'rinishidagi to'lov hujjatlariga tenglashtirilgan va bir xil yuridik statusga ega (asos: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan 2006 yil 14 fevralda tasdiqlangan

“Markaziy bankning banklararo to’lov tizimi orqalielektron to’lovlarni amalga oshirish tartibi to’g’risida”gi 1545-sonli nizomning 1-bo’limi 1.5-bandi).

O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklararo elektron to’lov tizimining bosh tashabbuskori bo’lganligi, shuningdek, respublika hududida naqd pulsiz hisob-kitoblar va to’lov tizimini samarali tashkil qilish vazifasi qonun asosida uning zimmasiga yuklatilganligi (1995 yil 21 dekabrda “O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki to’g’risida”gi qonunning 3-moddasi) unga to’lov sohasiga taalluqli qonun osti hujjatlarini ishlab chiqish va joriy etish huquqini beradi.

Banklararo elektron to’lov tizimida hisob-kitob jarayonlarini elektron ko’rinishda tashkillashtirish va uning ishtirokchilari o’rtasidagi munosabatlarni tartibga solish Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan me’yoriy hujjatlarning takomillashganlik darajasiga bog’liq.

Banklararo elektron to’lov tizimi joriy etilgan dastlabki davrda Markaziy bank tomonidan qabul qilingan me’yoriy hujjatlar vaqtinchalik xarakterga ega edi, qeyinchalik ular asosida takomillashgan me’yoriy hujjatlar yaratildi.

Hozirda O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tashabbusi va maslahati asosida davlat tomonidan qabul qilingan bir qator qonunlar yangi hisob-kitob tizimi tartibga solinishi uchun samarali baza bo’lib xizmat qilmoqda. Ular jumlasiga O’zbekiston Respublikasi “Fuqarolik Kodeksi” (1.03.1997y.), “O’zbekiston Respublikasi Markaziy bank” to’g’risidagi (21.12.1995y.), “Banklar va bank faoliyati to’g’risida”gi (25.04.1996y.), “Valyutani tartibga solish to’g’risida”gi (11.12.2003y.), “Elektron raqamli imzo to’g’risida”gi (11.12.2003y.), “Elektron to’lovlar to’g’risida”gi (16.12.2005y.), “Elektron hujjataylanishi to’g’risida”gi (29.04.2004y.), “Elektron tijorat to’g’risida”gi (22.05.2015y.), “Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to’g’risida”gi (04.04.2006y.) O’zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa me’yoriy hujjatlarni kiritish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan naqd pulsiz hisob-kitob va to'lov tizimini tartibga solish borasida ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, quyidagilarni belgilab o'tish maqsadga muvofiq:

– “Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida”gi nizom, № 1545 (14.02.2006 y.);

– “O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida”gi nizom, № 2465 (03.06.2013 y.);

– “O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risida”gi yo'riqnoma, № 1948 (27.04.2009 y.);

– “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risida”gi yo'riqnoma, № 2342 (15.03.2012 y.);

– “O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitoblar kliring tizimi to'g'risida”gi nizom, № 2570 (04.04.2014 y.);

– “Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarida ishlash tartibi to'g'risida”gi nizom, № 2155 (19.11.2010 y.);

– “Banklararo pul resurslari elektron bozorida operatsiyalar o'tkazish to'g'risida”gi nizom, № 1535 (11.01.2006 y.);

– “Tijorat banklariga nisbatan belgilangan hisobvaraqni ochish, mijozlar hisobvaraqlariga pullarni hisobga kiritish va hisobdan chiqarish, naqd pul mablag'larini ish haqi va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa maqsadlar uchun berish qoidalarini buzish uchun jarima sanksiyalarini qo'llash to'g'risida”gi nizom, № 1044 (30.06.2001 y.);

– “Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarini qo'llagan holda to'lov tizimini tashkil qilish qoidalari”, № 1767 (13.02.2008 y.);

– O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning boshqa me'yoriy hujjatlari.

Banklararo elektron to'lov tizimi asosida O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish va tartibga solish respublika Markaziy bankining 2465-sonli nizomiga (03.06.2013 y.) muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu

nizom banklararo elektron to'lov tizimi takomillashishi bilan birga o'zgarib, yanada mustahqamlanib kelinmokda.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik Kodeksi"da xo'jalik sub'ekt-lario'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy kelishuvlarhisob-kitoblariningamalga oshirilishi 4ta shaklda belgilab o'tilgan. Shuningdek,ushbu shakllar banklararo elektron to'lov tizimi orqali amalga oshirilishi uchun 6ta to'lov hujjati hamda ularning aylanish mexanizm va tartibi Markaziy bankning "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi nizomda belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik Kodeksi" (1.03.1997y) va "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi 2465-sonlinizomiga (03.06.2013y.) muvofiq O'zbekiston hududida quyidagi naqd pulsiz hisob-kitob shakllari belgilangan:

- to'lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar;
- akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar;
- inkasso bo'yicha hisob-kitoblar;
- cheklar bilan hisob-kitoblar.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi hisob-kitob hujjatlaridan foydalanilishi belgilangan:

- memorial order;
- to'lov topshiriqnomasi;
- to'lov talabnomasi;
- inkasso topshiriqnomasi;
- akkreditivga ariza;
- bankning hisob-kitob cheki.

Chakana to'lov tizimida foydalaniladigan bank to'lov kartochkalari O'zbekiston Respublika Markaziy bankining 2465-sonli nizomiga (03.06.2013y.) muvofiq bank tomonidan emissiya qilingan, personalizatsiyalangan, to'lov vositasi sifatida ishlatiladigan va o'z saqlovchisiga bank hisobvarag'idagi mablag'lari doirasida operatsiyalarni, jumladan, hisobvaraqq orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni

(to'lovlarni) amalga oshirish, undan naqd pul mablag'larini va bank kreditini olish imkonini beradi.

Bank plastik kartalarining yuridik statusi to'lov vositasi hisoblanib, uni to'lov shakli yoki to'lov hujjatiga tenglashtirish noto'g'ri, lekin kartalar yordamida amalga oshirilgan hisob-kitoblar slip, elektron terminal kvitantsiyasi yoki elektron shaklda (bankomat yoki terminalning elektron hujjati) va boshqalar bilan tasdiqlanadi.

Hozirda bank tizimi doirasida shakllangan yirik summadagi elektron to'lov tizimi banklararo elektron to'lov tizimidan va tijorat banklarining ichki to'lov tizimidan tashkil topgan. Bank tizimi doirasida shakllangan elektron to'lov tizimi banklarning hisob-kitob sohasida amalga oshirilayotgan faoliyati samarasini oshirishga xizmat qilib, mablag'lar tejamli tarzda ishlatilishini ta'minlash bilan birga banklarning likvidlik holatiga ijobiy ta'sir etmoqda.

Tijorat banklari hozirda hisob-kitob hujjatlarining aksariyat qismini (ichki, filiallararo to'lovlarni) ichki to'lov tizimi orqali o'tkazayotganini va hisob-kitob ushbu bankning ichida tez yakun topayotganini kuzatish mumkin. Respublika tijorat banklarida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar ko'rsatishicha, aksariyat banklarning kunlik to'lov aylanmasida 50 foizdan ziyod operatsiyalar ularning ichki to'lov tizimi orqali amalga oshirilmokda.

To'lov aylanmasini tashkil qilishda mablag' to'lovchi va oluvchi bir bankning mijozlari bo'lishsa, unda tijorat banki ichki to'lov tizimi orqali to'lovhujjatlarini o'tkazadi. Agar mablag' to'lovchi va oluvchi har xil banklarning mijozlari bo'ladigan bo'lsa, unda to'lov hujjatlari banklararo to'lov tizimi orqali o'tkazilishi va operatsiyalarni Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazida hamda banklarning vakillikhisobvaraqlari ishtirokida yakun topadi.

Banklararo to'lov tizimi orqali to'lov hujjatlarining o'tishi mablag' to'lovchi va mablag' oluvchi xo'jalik sub'ektlari har xil banklarning mijozlari bo'lgandagina ta'minlanadi.

Milliy elektron to'lov tizimida respublika hududining ichida amalga oshiriladigan barcha kelishuvlar va to'lovlarfaqatgina milliy so'mda o'tkazilishi

qonun bilan belgilab qo'yilgan. Shu sababdan Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazida tijorat banklari uchun ochiladigan vakillik hisobvaraqlari qoldig'i milliy so'mda bo'lishi va to'lov hujjatlari summasi milliy so'mda aks ettirilishi belgilangan (1995 yil 21 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonunning 32-moddasi).

Banklararo elektron to'lov tizimi orqali o'tkaziladigan to'lov hujjatlari summasi "Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi 2006 yil 14 fevraldagi 1545-sonli nizomga muvofiq amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Ushbu nizomga muvofiq elektron to'lov tizimida tashabbuskor bank qonun doirasida belgilangan to'lov hujjatlari asl nusxalari asosida ularning elektron shaklini shakllantiradi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlaydi, shuningdek, "Bank-mijoz" tizimi orqali mijozdan olgan to'lov hujjati mijozni elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi va tizimga bosh buxgaterning bosh kaliti orqali o'tkazilishi (banklararo hisob-kitob sharoitida – uzatilishi) talab etiladi.

Elektron to'lov tizimi orqali o'tkaziladigan elektron to'lov hujjatlari pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalari asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tegishli formatda yaratilgan bo'lib, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanishi talab qilinadi. To'lov hujjatlarning elektron raqamli imzosi va rasmiylashtirish holati avtomatik tekshirilib, ijobiy natija olinganda, ular asl nusxalari kabi yuridik kuchiga ega. Ko'rinish shaklida taqdim etilganda, elektron to'lov hujjati (ETH) asl hujjat singari «Elektron» belgisi bilan rasmiylashtiriladi.

Banklararo to'lov tizim ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi 1545-sonli nizomga muvofiq banklararo to'lov tizimi orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi talablarga rioya etilishi talab qilinadi:

- a) uzatilayotgan ETHlarni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish;
- b) elektron to'lovlarni tartibga soluvchi qonunlar va qoidalarga qat'iy rioya etish.

Banklararo to'lov tizimi quyidagi tamoyillar asosida ishlashi yo'lga qo'yilgan:

a) ETHni biror belgi bo'yicha qayta ishlash ustuvorliklari yo'qligi hamda tizimda ishtirok etish uchun adolatli va oshkora ruxsat etilishi;

b) foydalanuvchilar nuqtai nazaridan qulayligi va elektron to'lovni amalga oshirish vositalarining iqtisodiy samaradorligi;

v) hisob-kitoblar bo'yicha aniq majburiyatlar tizimini boshqarish samaradorligi;

g) tashabbuskor bank tomonidan elektron to'lovlarni boshlash;

d) banklarning Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazidagi vakillik hisobvaraqlari yordamida va ularga tegishli hisobvaraqlardagi aylanmalar va qoldiqlarga mos ravishda elektron to'lovlarni amalga oshirish;

e) boshlangan elektron to'lovni bekor qilish imkoniyati yo'qligi;

yo) yuqori darajadagi xavfsizligi, tezkorligi va ishonchliligi;

j) tashabbuskor bankning elektron raqamli imzosi bilan ETH tasdiqlangandan boshlab elektron to'lovning chaqirib olinmasligi va mablag'lar benefitsiar bank vakillik hisobvarag'iga o'tkazilgandan boshlab elektron to'lovning yakuniyligi;

z) tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlarida mablag'lar vaqtinchalik etarli bo'lmaganida, boshlangan elektron to'lovlarni o'z vaqtida yakunlash va kun davomida tizimning likvidligini qo'llab-quvvatlash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va bank o'rtasida tuzilgan alohida shartnoma asosida zarur bo'lgan mablag'larni etkazib berish imkoniyati;

i) ETH almashuvini qabul qilish – nazorat – uzatish texnologik davrlar ko'rinishida tashkil etish;

y) tijorat banklarining jismoniy shaxslarga berilgan hisob-kitob cheklari bo'yicha elektron to'lovlardan tashqari, elektron to'lovlar summasi miqdori uchun qo'yiladigan cheklashlar yo'qligi.

O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazilayotgan barcha elektron hujjatlarni, birinchi navbatda to'lov hujjatlari to'lov jarayonininghar bir bosqichida elektron arxivlar yaratilgan bo'lib, ular to'lov jarayonlarini tahlil etishda, ushbu

tizimdagi iqtisodiy munosabatlarni tashkil qilish jarayonida yuzaga keladigan nizolarni hal etishda va bir soʻz bilan aytganda, toʻlov jarayoni adolatli va samarali amalga oshirilishini va tartibga solinishini taʼminlash uchun, shuningdek, har xil koʻrinishdagi moliyaviy va texnik risklarning oldini olishga xizmat qiladi.

4.4. Milliy elektron toʻlov tizimining zamonaviy holati va ijobiy tendentsiyalari

Eski toʻlov tizimi oʻrniga har tomonlama hisobga olinib yaratilgan milliy elektron toʻlov tizimi respublika hududida amalga oshirilayotgan toʻlov jarayonlarini tashkil qilish va boshqarish amaliyotini tubdan oʻzgartirib, uning mohiyatiga va samaradorligiga ham taʼsir etdi.

Maʼlumki, mamlakatning moliyaviy oʻzagini banklar tashkil qiladi. Ular oʻrtasida resurslarning uzluksiz harakatini taʼminlovchi tizim banklararo toʻlov tizimi sanaladi. Shuning uchun Oʻzbekiston rahbariyati ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni olib borishda bank tizimi yangilanishiga va mustaxqamlanishiga katta eʼtibor bermoqda. Oʻzbekiston moliya bozorini kuzatadigan boʻlsangiz, uning investitsion va emission faoliyatining salmoqli qismi va undagi hisob-kitob jarayonlari tijorat banklari ishtirokida amalga oshirilmoqda.

Milliy toʻlov tizimini shakllantirish va rivojlantirish borasida olib borilgan islohotlarning natijalari bevosita iqtisodiy jarayonlarga ijobiy taʼsir koʻrsatdi va kutilgan tendentsiyalarniyuzaga chiqardi.

Milliy valyutaning kiritilishi Oʻzbekiston uchun muhim tarixiy va iqtisodiy ijobiy hodisalardan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasini birinchi Prezidentining 1994 yil 16 iyundagi “Oʻzbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish toʻgʻrisida”gi PF-870-sonli farmoniga muvofiq 1994 yilning 1 iyulidan boshlab milliy valyuta–“Soʻm” muomalaga kiritildi va bu mamlakat mustaqilligining asosiy belgilaridan biri boʻldi. Shuningdek, respublika hududida mustaqil toʻlov vositasi muomalada boʻlishi mamlakat pul-kredit siyosati yuritilishiga zamin boʻldi.

O'zbekistonda joriy etilgan banklararo elektron to'lov tizimini tahlil etadigan bo'lsak, eng avvalo, bank tizimining ichidagi hujjat aylanish tezligiva sifati oshganligini (1991 yildagiga nisbatan tezligi 8640 marta o'sganini)ko'rish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, tijoratbanklari hamda xo'jalik sub'ektlari faoliyatida pul mablag'laridan samarali foydalanilishini ta'minladi. Masalan, xo'jalik sub'ektlari kelishuv majburiyatlari bo'yicha to'lov majburiyatlarini tez va o'z vaqtida bajarishi natijasida kontragen xo'jalik sub'ektlari hisobraqamlariga mablag'lar tez tushishi ta'minlandi, ularning to'lov qobiliyati va likvidiligi oshdi.Bu iqtisodiyotda yuzaga keladigan noto'lovlarning oldini olishga ijobiy ta'sir etdi. Bir so'z bilan aytganda, xo'jalik sub'ektlari bank hisobraqamlaridagi mablag'larning tez aylanishi tufayli, ularda mavjud resurslardan oqilona foydalanilib, jarayon samarali boshqarilmoqda.

Xozirda O'zbekiston Respublikasida tashkil qilingan naqd pulsiz hisob-kitob tizimi to'lov ishtirokchilariga keng imkoniyat yaratib bermoqda. Milliy to'lov tizimida olib borilgan islohotlar natijasida to'lov tizimidan foydalanuvchilar soni, tranzaksiyalar hajmi yildan-yilga ko'payib bormokda.

Markaziy bankning banklararo elektron to'lov tizimida yaratilgan Bank depozitorlari milliy axborot bazasi (BDMAB)O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan yuridik shaxslarga, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko'rsatayotgan dehqon xo'jaliklari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga birinchi marotaba bank hisobvaraqlari ochishda xos raqam berish, ularning hisobvaraqlari ro'yxatini yuritish hamda mijozlar hisobvaraqlari to'g'risida ma'lumotlar olishni ta'minlovchi axborotlar bazasi hisoblanadi. Ushbu bazani tahlil etadigan bo'lsak, ro'yxatga olingan bank mijozlari va ularning hisobvaraqlari soniningo'sish dinamikasini ko'rishimiz mumkin.

4.1-jadvaldagi raqamlar ko'rsatishicha, respublika banklari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan mijozlar soni va ularga ochilgan bank hisobvaraqlari yil sayin oshib bormoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida xo'jalik sub'ektlari soni o'sishi bilan birga ular tomonidan imzolanayotgan xo'jalik shartnomalari va bu shartnomalar bo'yicha amalga oshirilayotgan hisob-kitob operatsiyalari soni kundan-kunga oshmoqda.

4.1-jadval

**Markaziy bankning Bank depozitorlari milliy axborot bazasida
(BDMAB) ro'yxatga olingan mijozlar va ularning hisobvaraqlari bo'yicha
ma'lumot (1 yanvar holatiga)²⁹**

Yillar	Mijozlar soni	Hisobvaraqlar soni	Mijozlar sonining o'tgan yildagiga nisbatan o'zgarishi(+; - dona)
1997	187 416	206 614	
1998	245481	291682	+ 58066
1999	270434	291034	+ 24953
2000	313204	301861	+ 42770
2001	383090	416713	+ 69886
2002	441786	575496	+ 58696
2003	515203	751175	+ 73417
2004	583889	1488270	+ 68686
2005	656137	2007607	+ 72248
2006	732944	2561658	+ 76807
2007	849819	3 206841	+ 116875
2008	950848	3 329601	+ 101029
2009	1 026844	3 327260	+ 75996
2010	1 100541	3 612506	+ 73697
2011	1 159890	3 926356	+ 59349
2012	1 224732	4 207601	+ 64842
2013	1 285424	4 289556	+ 60692
2014	1 359831	4 622770	+ 74407
2015	1432849	5 030704	+ 73018
2016	1 515 004	5 364 838	+ 82 155
2017	1 638 673	5 809 172	+123 669
2018	1 755 492	6 469 921	+116 819
2019	1 880 634	7 263 621	+125 142

Banklararo to'lov tizimi orqali o'tkazilayotgan to'lov hujjatlari soni yildan-yilga, unga mutanosib holda summasi ham o'smokda. Ushbu ijobiy holatni 4.1-jadval raqamlari orqali ko'rish mumkin.

²⁹ www.cbu.uz sayti ma'lumotlari.

4.1-jadval ko'rsatishicha, 1998–2018 yillar mobaynida to'lov hujjatlarining yillik o'sishini va son va summa jihatidan ko'rish mumkin.

4.2-jadval

Banklararo elektron to'lov tizimi orqali o'tkazilgan to'lov hujjatlari soni va hajmining 1998–2018 yillarda o'zgarish dinamikasi³⁰

<i>Yil</i>	To'lov hajmi (mlrd. so'm)	To'lov soni (ming.)	To'lovlar hajmining o'sishi (%)	To'lovlar sonining o'sishi (%)	To'lovlarning o'rt. summasi (ming. so'm)
1998	9118	11635	-	-	783,7
1999	7943	13558	-0,13	16,5	585,8
2000	13203	15002	66	11	880,1
2001	19406	17641	47	17,5	1100,1
2002	23287	20160	20	14,3	1155,1
2003	28153	17657	20,9	-12,4	1594,4
2004	36730	21729	30	23	1690,4
2005	48836	23732	33	9	2057,8
2006	70605	25215	44,6	6,2	2800,1
2007	93863	27217	32,9	7,9	3448,7
2008	126271	29619	34,5	8,8	4263,2
2009	290517	31619	130	6,8	9188,1
2010	410888	35487	41,4	12,2	11578,5
2011	688973	44151	67,7	24,4	15604,9
2012	744195	48671	8,0	10,2	15290,3
2013	891 526	54 354	19	11	16 402,2
2014	748 018	60 036	-17	10	12 459,5
2015	673 017	65 096	-11	8	10 338,9
2016	838 628	72 555	24,6	11,4	11 558,5
2017	640 835	77 162	-23,6	6,3	8 305,1
2018	845 622	74 672	32	-3,2	11 324,5

Jadval raqamlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2003 yilda to'lov hujjatlarining umumiy soni 12,4 foizga tushishi kuzatilgan, qolgan yillarda esa o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Bunga sabab banklar yagona balans tizimida to'lov hujjatlari o'tkazilishi natijasida ulardagi hisob-kitob operatsiyalarining bir qismi ichki to'lov tizimi doirasida yakunlanishidir. Shuningdek, 2014 -2015

³⁰www.cbu.uz sayti ma'lumotlari.

yillarda banklararo to'lov tizimida tranzaksiyalarning umumiy summasida tushish kuzatilgan, buning asosiy sababi 2013 yilning avgustidan boshlab, Markaziy bankning banklararo kliring markazini to'laqonli faoliyat yurita boshlaganligi va aholining to'lovlari bilan bog'liq bo'lgan tranzaksiyalar aynan ushbu kliring tizimi orqali amalga oshirilganini ko'rish mumkin. 2017 yilda banklarning va xo'jalik sub'ektlarning likvidlik holati pastligi tufayli keskin tushish kuzatilgan va 2018 yilga kelib, vaziyat yaxshilanib, tranzaksiyalarning umumiy summasida ijobiy o'sish kuzatildi.

Shuni ta'qidlab o'tish lozim, O'zbekiston Respublikasida barpo etilgan banklararo to'lov tizimi milliy valyutamizni mustahkamlashga, inflyatsiyani jilovlashga, iqtisodiyotning barcha darajadagi to'lov jarayonlarini yaxlit bir tizimda, avtomatik ravishda boshqarishga zamin yaratadi. Bundan tashqari banklararo elektron to'lov tizimi orqali uzatilayotgan axborotlar, to'lov hujjatlarixavfsizligi yuqori darajada ta'minlaydi, ushbu tizimga noqonuniy kirishlarning oldini olish uchun etarli darajada shart-sharoitlar yaratadi. Ushbu tizim orqali o'tayotgan barcha to'lov hujjatlarini avtomatik ravishda, inson omili aralashuvsiz har bir o'tish bosqichida arxivlanishi va ma'lumotlarning saqlanishi yaxshi tashkillashtirilgan. Bu esa, noqonuniy operatsiyalar amalga oshirilishini va axborotlarning adolatli va shoffof saqlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, tizim takomillashgan texnika va dasturiy kompleks bilan ta'minlanganligi sababli banklararo to'lov tizimining ishtirokchilari o'rtasida o'tkazilayotgan to'lov hujjatlari mablag'lar bilan 100 foiz kafolatlangan. Banklararo elektron to'lov tizimi orqali o'tayotgan har bir to'lov hujjati avtomatik tarzda uning to'lovchisi to'lov qobiliyatini (bankni) "on-line" tartibida baholaydi, shundan so'nggina bankning vakillik hisobraqamidagi mablag'lar qoldig'i etarli bo'lganida to'lov hujjatlarining o'tkazilishiga ruxsat beriladi. Shuningdek, tizim tijorat banklarining ichki to'lov tizimi ularning mijozlari to'lov qobiliyatini baholagan holdagina to'lov hujjati o'tkazilishiga ruxsat beradi, agar mijozning bank-hisobraqamida mablag' etarli bo'lmasa, unda avtomatik ravishda to'lov hujjati "Kartoteka-2" elektron bazasiga olib qo'yilishi va to'lovlar o'tkazilmasligi dasturiy belgilab qo'yilgan.

Banklararo eski hisob-kitob tizimida esa, tijorat banklarining to'lov qobiliyatini va likvidlik holatini operativ ravishda baholash imkoni bo'lmagan va bankning to'lov qobiliyati yo'q bo'lsa (vakillik hisobraqami "debit" saldo bo'lib qolsa) ham operatsiyalar amalga oshirilgan. Bu to'lov tizimi ishtirokchilari o'rtasidagi to'lov munosabatlari sifatsiz tashkilotilganligidan va u bozor mexanizmlariga to'la javob bermasligidan dalolat berar edi.

Mustaqillikning ilk yillarida ayrim xo'jalik sub'ektlari yopilgan bo'lsa-da, uning nomi bilan qalbaki to'lov hujjatlari ("avizo"lar) aylangan, oqibatda ushbu to'lov hujjatlari bo'yicha hisob-kitoblar yakuniga etmagan holatlar uchrardi. Qalbaki "avizo"larning aksariyati respublikalararo moliyaviy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan. Buning sababi shundaki, o'sha davrda xo'jalik sub'ektlarining geografik uzoq joylashgan iqtisodiy kontragentlari o'rtasidagi munosabatlar tekshirish va to'lovlarning qonuniyligini nazorat qilish qiyin bo'lgan. Shu tariqa eski to'lov tizimini yakunlash va respublikalararo hisob-kitoblarni oxiriga etkazish hamda milliy valyutani, yangi to'lov tizimini joriy etish kechiktirilgan va debitor-kreditor qarzdorlik oshib borgan. Shunday muammoviy holat boshqa respublikalarning bank amaliyotida ham kuzatilgan. Ushbu muammoni hal etishda MDH davlatlarining bank tizimlari bilan kelishilgan holda yopilmagan to'lov hujjatlari ustidan nazorat kuchaytirilib, to'lovlarni oxiriga etkazish bo'yicha katta ishlar olib borildi, lekin tugallanishi qiyin bo'lgan to'lov hujjatlarini sun'iy ravishda yopishga va bank balanslarini ulardan tozalashga to'g'ri kelgan.

Hozirga kelib, bank mijozlari uchun taqdim etilayotgan xizmatlar turi va sifati oshdi. Birgina banklar tomonidan ko'rsatilayotgan to'lov xizmatlarini olaylik, aytish mumkinki, banklararo elektron to'lov tizimi bank-mijoz o'rtasidagi primitiv kommunikatsion tizim ham elektron shaklga o'tkazilishini ta'minladi. Bank va mijoz o'rtasidagi kommunikatsion tizimning avtomatlashtirilgan birinchi shakli "Bank-mijoz" dasturi hisoblanadi va u modem yordamida o'z funksiyasini bajaradi. Hozirda bank va mijoz o'rtasida "Internet-bankning", "Mobil banking", "SMS-banking" va boshqa aloqa tizimlari amaliyotga jadal kirib kelmoqda. Doimiy ravishda banklararo to'lov tizimi takomillashishi bilan birga bank va mijoz

o'rtasidagi kommunikatsion tizimlar ham takomillashib va mohiyati jihatidan boyib bormoqda.

Yuqorida bildirilgan fikrlar shundan dalolat beradiki, banklararo elektron to'lov tizimi mamlakat miqyosida to'lov jarayonlari barqaror amalga oshirilishini va samarali boshqarilishini ta'minladi.

O'zbekiston Respublikasida banklararo elektron to'lov tizimi barpo etilishi natijasida to'lov jarayonining nazorat qilish usullari osonlashdi va bank xizmatlar bozorining sifati yuqorilashib, boshqa moliya hamda real bozorlarga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Misol tariqasida banklararo elektron to'lov tizimining iste'mol bozorlariga ta'sirini ko'raylik, u aholining chakana hisob-kitoblarda naqd pullar o'rniga to'lov kartochkalaridan foydalanishi va respublika hududida kartochkali to'lov tizimi infratuzilmasi rivojlanishiga asos bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, davlat ahamiyatidagi banklararo to'lov tizimi chakana to'lov tizimiga uyg'unlashtirilishini ta'minlab, pul aylanmasini jadallashtirishga va ishlab chiqaruvchilar rag'batlantirilishga xizmat qilmokda.

Banklararo elektron to'lov tizimi fond bozoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston fond bozori bank tizimi bilan chambarchas bog'langan holda takomillashib bormoqda. Fond bozorining faoliyatini baholashda, birinchi navbatda, uning ishtirokchilari soniga, sig'imiga, aylanish hajmiga, tezligiga va ishtirokchilar kelishuv majburiyatlarini o'z vaqtida sifatli bajarilishini ta'minlash uchun yaratilgan shart-sharoitlarga baho berilishi lozim.

Respublika fond bozoridagi hozirgi holat shundan dalolat beradiki, ishtirokchilarning majburiyatlarini va hisob-kitoblarni O'zbekistonning har bir nuqtasidan turib amalga oshirishlari uchun zamonaviy talablar darajasida shart-sharoitlar yaratilgan. Respublika fond bozori infratuzilmasi tobora rivojlanmoqda. Har bir viloyat va hududda uning 12 ta filiali tashkil qilingan. Ularning barchasi banklararo savdo tizimiga Markaziy depozitariy va "Elsis-kliring" strukturasi orqali bog'langan. Bundan tashqari ikkinchi darajali depozitariy bazasi yordamida ("Toshkent" fond birjasi listingiga kirmagan brokerlar ishtirokida) birjadan tashqari fond bozorida ishtirok etishi uchun ham barcha shart-sharoitlar yaratilgan,

jumladan, o'zaro to'lov majburiyatlarining "Elsis-savdo" elektron savdo tizimi orqali amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fond bozorining "Elsis-savdo" tizimi "Elsis-kliring" strukturalariga bevosita bog'langan, "Elsis-kliring" esa Markaziy bankning Hisob-kitob kliring markaziga ulangan bo'lib, respublika hududida amalga oshirilgan qimmatli qog'ozlar elektron savdosining yakuniy hisob-kitob jarayonlari ushbu markaz yordamida tugallanadi.

Aholining iste'mol bozorlaridagi kartochkali hisob-kitob tizimlari joriy etilishida banklararo elektron to'lov tizimining roli katta. To'lov kartochkalari yordamida chakana hisob-kitob tizimlari avtomatlashtirildi va to'lov jarayonlarining tezligi oshib, ularni tartibga solish amaliyoti osonlashtirildi. Tabiiyki, chakana hisob-kitob tizimi jarayoni tezlashsa, ishlab chiqarish sohasida ham unga mutunosib ravishda o'sish kuzatiladi.

Kartali to'lov tizimlari ikki turda, aniqrog'i, "off-line" va "on-line" tartibida ishlaydigan bank to'lov kartalarni ko'satish lozim. Ularning ishtirokchilari o'rtasidagi hisob-kitobni Yagona protsessing markazi va Yagona banklararo netting kliring markazi bajarmoqda. Ushbu markazlar banklarning o'zaro netting pozitsiyasini aniqlab berib, so'ng banklarning to'lov kartochkalari asosida yakuniy majburiyatlari to'g'risidagi axborotni Markaziy bankning Hisob-kitob kliring markaziga uzatadi va u joyda banklar o'zaro hisob-kitoblarining amalga oshirilishi yakunlanadi.

Amaliyot shundan dalolat bermokdaki, banklararo to'lov tizimi rivojlanishi iqtisodiyotning moliya va real sektori bozorlari ham rivojlanishiga zamin yaratmokda.

Milliy to'lov tizimini shakllantirish va rivojlantirish borasida olib borilgan islohotlar bevosita iqtisodiy jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Mamlakatda banklararo va kartochkali elektron to'lov tizimlarining barpo etilishi iqtisodiyotda tovar va pul aylanmasi hamda hisob-kitob jarayoniga bevosita bog'liq makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ijobiy o'zgarishiga shart-sharoit yaratdi, desak mubolog'a bo'lmaydi. Chunki:

- banklararo hisob-kitoblar tezlashdi (1991 yildagiga nisbatan 8640 martagacha);
- bank va xo'jalik subektlari pul resurslarining oqilona ishlatilishiga zamin yaratildi;
- bank va xo'jalik sub'ektarining likvidlik va kredit risklarini avtomatlashtirilgan holda boshqarishi ta'minlandi;
- pul harakati monitoring tizimining o'z vaqtida axborot bilan ta'minlanishi uchun imkon tug'ildi;
- elektron to'lov hujjatlarining ularni uzatishda noqonuniy aralashuvlardan yuqori darajadagi xavfsizligi ta'minlandi;
- to'lov operatsiyalari ustidan qonun va qoidalarning bajarilish nazorati osonlashtirildi;
- Markaziy bankning tijorat banklari faoliyati ustidan masofaviy nazoratni ta'minlandi;
- zarur elektron axborot bazalarini shakllantirish uchun zamin yaratildi;
- yangi bank xizmatlari turini tatbiq etish uchun keng imkoniyatlar yuzaga keldi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. O'zbekiston Respublikasida banklararo to'lov tizimini shakllantirish asoslari.
2. Milliy to'lov tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari.
3. Elektron to'lov tizimining iqtisodiy mohiyati.
4. Elektron banklararo to'lov tizimida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish me'yorlari va tartibi.
5. Elektron to'lov tizimida elektron to'lov hujjatlarining aylanish tartibi va o'ziga xos xususiyatlari.
6. Banklararo elektron to'lov tizimini tartibga soluvchi me'yoriy xujjatlar.
7. Milliy banklararo to'lov tizimida amalga oshirilgan tranzaktsiyalarning tendentsiyasiga baho bering.
8. Banklararo to'lov tizimini elektron formatga o'tkazilishidan olingan iqtisodiy samarasini ko'rsatib bering.
9. Ohirgi yillarda banklararo to'lov tizimini samarali ishlashiga ta'sir etayotgan omillar.
10. Banklararo to'lov tizimini samarasini oshirishga qaratilgan islohotlar.

5 BOB. YAGONA VAKILLIK HISOBVARAG'I ORQALI HISOB-KITOB-LARGA ASOSLANGAN TO'LOV TIZIMI

5.1. Banklararo vakillik munosabatlariva ularning turlari

Milliy bank tizimimizning ikkinchi pog'onasi turli mulkchilikka asoslangan banklardan, jumladan, davlat, aktsiyadorlik-tijorat, xususiy va ko'shma banklardan tashkil topgan. Ushbu banklar o'rtasida kredit, hisob-kitob va boshqa ob'ektlar yuzasidan kelishuvlarni hamda banklar tomonidan o'z mijozlariga ko'rsatilayotgan to'lov xizmatlarini amalga oshirish uchun banklararo vakillik munosabatlarni tashkil qilish zamonaviy bank amaliyotining asosiy talablaridan hisoblanadi.

Banklar o'z faoliyati davomida mijozlariga hisob-kitob xizmatlarini taqdim etishida hamda banklararo majburiyatlarni bajarilishida o'zaro munosabatlarga tushadi va ular quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- raqobatchi sifatida – mijozlarni jalb qilishda raqobatlashadi;
- hamkor sifatida – bir-biriga kredit berishi, sindikat kreditini berish va boshqa turdagi hamkorliklar nazarda tutiladi;
- vakillik sifatida – bir-birlariga mijoz sifatida.

Banklararo vakillik munosabatlari banklarning bir-birida ochgan vakillik hisobraqami orqali tashkil qilinadi.

Vakillik munosabati o'zaro operatsiyalarini bajarish maqsadida banklar o'rtasida kelishilgan munosabat hisoblanadi. Ushbu munosabatlarni o'rnatgan banklar vakil banklar deb nomlanadi.


Bank tomonidan, vakillik munosabatlarni o'rnatish zarurati quyidagilar bilan izohlanadi:

- bank o'z mijozlariga to'lov xizmatlarini ularning talabiga mos ravishda to'la amalga oshira olmasa;
- boshqa bank bu ishni yaxshiroq, tezroq va arzonroq bajarsa;
- tijorat banklarining iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish nuqtai nazaridan.

Raqobat sharoitida, banklar o'rtasidagi munosabatlarini tashkil qilinishi asoslanib tasnif oddiy vakillik munosabat ko'rinishidan kompleks hamkorlik darajasigacha rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Banklarning vakillik munosabatlari bir qator mezonlar asosida tasniflanadi. Masalan, geografik yo'nalishlari bo'yicha, operatsiyalarning turlari bo'yicha, vakillikraqaqlarining hisobi, vakillik munosabatlarini tashkil qilish modeliga ko'ra va boshqalar.

Geografik yo'nalishi bo'yicha banklarning vakillik munosabatlarini milliy va xalqaro vakillik munosabatlariga ajratish lozim.



5.1– rasm. Banklararo vakillik munosabatlarining geografik jihatdan tasniflanishi

Milliy (ichki) banklararo vakillik munosabatlar davlat hududida banklarning o'zaro majburiyatlarni bajarish uchun tashkil qilinadigan munosabatlar hisoblanadi.

Xalqaro banklararo vakillik munosabatlar xalqaro doirada hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan banklararo munosabatni o'z ichiga oladi.


Banklararo vakillik munosabatlardavlat hududi doirasida va asosan milliy valyutada munosabatlar namoyon bo'lsa, quyidagi tartibda amalga oshirilishi belgilangan:

- ikki bank hamkorligining barcha ko'rinishdagi munosabatlarni o'zida mujassamlashtiradi;
- tijorat banklari o'rtasidagi hisob-kitoblar Hisob markazi tomonidan ishlab chiqiladi;
- vakillik hisob operatsiyalari mavjud bo'lgan mablag'lar chegarasida amalga oshiriladi;

– to'lov tizimi tashkilotlarida bevosita ishtirok etish yoki ularning ustidan nazorat o'rnatish Markaziy bankining vazifalaridan hisoblanadi;

– tijorat banklariga chet el valyutalaridagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun boshqa banklarda vakillik hisobraqamlarini ochishlariga ruxsat etiladi.

Operatsiyalar turlari bo'yicha banklarning vakillik munosabatlarini mijozlarga xizmat ko'rsatish va banklarning operatsiyalariga ajratish lozim.




5.2– rasm. **Banklararo vakillik munosabatlarining operatsiya turlarigako'ra tasniflanishi**

Mijozlarga xizmat ko'rsatishi uchun. Ushbu turda banklarning vakillik munosabatlari asosan mijozlari talabiga va istagiga binoan tashkil qilinadi. Ular mijozlarining tijorat kelishuvlarini, ularning trust va qimmatli qog'ozlari bo'yicha operatsiyalarini amalga oshirishi hamda ularni kafolatlash va boshqa xizmatlarini bajarish uchun zarur.

Banklarning banklararo operatsiyalari uchun. Bu asosan banklarning pul, valyuta va kapital bozorlarida faol ishtirok etishi uchun mo'ljallangan bo'lib, qimmatli qog'ozlarni, valyutalarni sotish va sotib olish, kredit olish va depozitlarini joylashtirish kabi operatsiyalari bajarilishini ta'minlaydi. Bir so'z bilan aytganda, bunda faqatgina banklar va ularning resurslari bilan bog'liq hisob-kitob operatsiyalari amalga oshiriladi.

Banklarning vakillik munosabatlari xarakteriga ko'ra, banklarning vakillik hisobraqamlarini ochib yoki ochmay tashkil qilinishi mumkin.



5.3– rasm. **Banklararo vakillik munosabatlarining xarakteriga ko'ra tasniflanishi**

Banklarning vakillik hisobraqamlarini ochish orqali tashkil qilish. Banklarning bu turdagi vakillik munosabatlari tashkil qilinishi uchun vakillik hisobvarag'ini ochish taqozo etiladi, hisobvaraqlar banklar kelishuvi asosida bir tomonlama yoki ikki tomonlama bo'lishi mumkin.

Bir tomonlama hisobvaraqlarning ochilish holatida bir bank ikkinchi bankda hisobvarag'ini ochadi, lekin ikkinchi bank esa birinchi bankda o'z hisobvarag'ini ochmaydi.


Agar vakil banklar bir-birida vakillik hisobraqamlarini ochishga qaror qiladigan bo'lsa, unda ikki tomonlama vakillik munosabatlari tashkil qilinishi to'g'risida gap yuritiladi.

– *Banklarning vakillik hisobraqamlarini ochmasdan tashkil qilish.* Ma'lumki, ko'p hollarda banklar banklararo hisob-kitoblarini amalga oshirish uchun boshqa banklarning xizmatidan foydalanishiga to'g'ri keladi. Bunda banklar o'rtasida kelishuv amalga oshirilib, boshqa banklarda tranzit hisobraqamlari ochish ko'zda tutiladi.

Banklar vakillik munosabatlarini tashkil qilish shartnomasida hisob-kitoblarni amalga oshirish shakl va shartlari, axborot almashuv tartibi, o'zaro huquq va majburiyatlari, vakillik hisobraqamidan foydalanish bo'yicha komission to'lov shartlari hamda pochta, telegraf va boshqa xarajatlarni qoplash, shartnoma shartlari buzilish holatida tomonlarning mas'uliyati, shartnomaning muddati va uni muddatidan oldin buzish holati o'z aksini topishi lozim.

Vakillik munosabatlari o'rnatilgandan so'ng birinchi qadam hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun hisobvaraqlarni ochish hisoblanadi. Banklarga hisobvaraqlarini ochish bir qancha variantlarni o'z ichiga oladi.

Banklarning vakillik munosabatlari tashkil qilinishida asosan ikkita modeldan foydalaniladi.



5.4 – rasm. Banklararo vakillik munosabatlarini tashkil qilish modellari

Banklarning vertikal vakillik munosabatlarini tashkil qilinishida markazlashgan model namoyon bo'ladi. Bunda Markaziy bank yoki yirik bitta bank banklararo hisob-kitob markazini funktsiyasini bajarilishini ko'rish mumkin.

Markazlashgan model ko'rinishida vakillik munosabatlarni tashkil qilinishi banklarning o'rtasidagi hisob-kitob jarayonlarini nazorat qilish va shaffofligini ta'minlash osonlashadi.

O'zbekiston bank amaliyotida milliy so'mdagi banklararo vakillik munosabalar aynan vertikal ko'rinishda tashkil qilingan, milliy banklarning chet el valyutasida tashkil qilingan vakillik munosabatlari esa gorizontal ko'rinishga ega.

Vakillik munosabatlarning markazlashmagan modelida tijorat banklari bir-birida vakillik hisobvaraqlarini ochishi orqali yoki mustaqil kliring markazlari ko'magida banklararo hisob-kitob jarayonlarini tashkil qiladi.

Tijorat banklari vakillik hisobvaraqlarini bir-birida ochish orqali ikki tomonlamamunosabatni o'rnatadi va bu holatda, ularning o'rtasidagi to'lov majburiyatlarteng huquqli asosda amalga oshiriladi.

Banklarning o'rtasidagi vakillik munosabat vakillik munosabatlarni tashkil qilish shartnomasiga muvofiq tartibga solinadi. Bu holatda banklar vakillik hisobvaraqlarini qoldigini debetlab, yoki kreditlab hisob-kitob jarayonining natijalarini o'zida aks ettiradi va ikki tomonlama kliring funksiyasini bajaradi.


Tijorat banklarining vakillik munosabatlarini markazlashmagan modelining yana bir ko'rinishini ko'rib chiqamiz. Bunda bir necha tijorat banki kelishgan holda mustaqil kliring institutini tashkil qiladi va unga a'zo bo'lgan banklar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar kliring tartibida amalga oshirilib, banklararo hisob-kitob me'yorlari hamda talablari barcha a'zo banklar ishtirokida ishlab chiqiladi. Ushbu kliring tizimidan bu tizimga a'zo bo'lmagan tijorat banklari ham foydalanishlari mumkin. Ularning ishtiroki faqat institutga a'zo banklar tomonidan ishlab chiqilgan maxsus qoida, talab va tartiblar asosida amalga oshiriladi. Ushbu qoidalar va talablar banklarning likvidlik holatiga, to'lov intizomiga va boshqa parametrlariga qo'yilgan bo'ladi. Bundan tashqari tizimdan foydalanish ixtiyorini bildirgan banklar tizimdagi barcha shart-sharoitlar va yuzaga keladigan risklar to'g'risida ma'lumotga, shuningdek, tizimning a'zo banklaridan birida vakillik hisobvarag'iga ega bo'lishi lozim. Tizimdan foydalanuvchi banklar uning a'zo banklariga nisbatan to'lov haqini yuqori miqdorda to'lashi lozim.

Jahon bank amaliyotida vertikal hamda gorizontal vakillik munosabatlarni samarali va uygun tashkil qilinganligini yaqqol ko'rish mumkin. Bunday yondashuv, banklarning iqtisodiy imkoniyatlarini, ularning vakillik munosabatlarning kengayishiga zamin yaratib beradi.

Masalan, AQShda "Fedwire" tizimi bo'yicha banklarning vakillik munosabatlari markazlashgan model asosida tashkil qilingan bo'lsa, davlat hududida har xil sig'imva ko'rinishdagi hususiy to'lov tizimlariko'p bo'lib, banklar vakillik munosabatlarini gorizontal tashkiletganini, ya'ni

markazlashmagan model asosida banklararo vakillik munosabatlar o'rnatilganligini ko'rish mumkin.

Banklarning vakillik hisobvaraqlarini yuritish bo'yicha "Nostro" va "Vostro" ("Loro") hisobvaraqlariga ajratish lozim.



5.5 – rasm. Banklarning vakillik hisobvaraqlarini yuritish bo'yicha turlari

"Nostro" lotincha "Nostra" so'z bo'lib, "bizniki" degan ma'noni anglatadi. "Nostro" vakillik hisobraqamlari bankning boshqa banklarda ochgan vakillik hisobvaraqlari bo'lib, hisobi yuritilishi bankning bosh ofisidan amalga oshiriladi va ular ushbu bankning aktivlaridan joy oladi.

"Vostro" lotincha "Vostra" so'z bo'lib, "sizniki" degan ma'noni anglatadi. "Vostro" yoki "Loro" vakillik hisobvaraqlari – boshqa banklarning bankda ochilgan vakillik hisobraqamlaridir. Ushbu hisobraqamlarda mavjud mablag'lardan hisob-kitob jarayonida foydalanish va ularni boshqarish vakillik hisobraqami egalarining buyrug'iga binoan amalga oshiriladi.

"Vostro" va "Loro" hisobraqamlarimazmun jihatidan bir xil. "Loro" hisobraqami italyanacha "*Loro conto*" so'ziga asoslangan bo'lib, "*ularning hisobraqami*" degan ma'noni anglatadi. Bundavakil banklarbank-respodentga vakillik hisobraqamini ochganligini anglatadi. Vakil banklarnorezident bankiga vakillik hisobraqamini ochganda hisobraqami "*Vostro*" deb nomlanadi. Demak, "Vostro" vakil hisobraqamlari chet davlatlarining banklari uchun ochiladigan vakil hisobraqamlar hisoblansa, "Loro" vakil hisobraqamlari mamlakat ichidagi milliy

banklariga ochilgan vakil hisobraqamlaridir. Bankning “Vostro” va “Loro” vakil hisobraqamlaridagi mavjud pullar uning passivihisoblanadi.

5.2. Yagona vakillik hisobvarag'i orqali hisob-kitoblarga asoslangan to'lov tizimi

O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotini rivojlanishi banklarning vakillik munosabatlarini takomillashishiga va banklararo hisob-kitob tizimini mukamallashishiga olib keldi.

Banklararo to'lov tizimini takomillashtirishning ilk bosqichida, 1991 yil 1 oktyabrdan boshlab respublika banki tizimida 127 kliring markazi tashkil qilinib, unda har bir hudud kliring markazida tijorat banklari filiallari uchun vakillik hisobraqami ochildi. Har bir hududda banklararo hisob-kitoblarniamalga oshirish tezligioshgan bo'lsada, hududlararo to'lovlarning o'tish vaqti talab darajasida emas edi. Bundan tashqari, tijorat banklarining konsolidatsiyalashgan balansi operatsiya kun yakunlangandan so'ng shakllantirishga to'g'ri kelgan, bu esa, tijorat banklarning likvidlik riskini, kredit riskini, bankni Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarni va standartlarni bajarish holatini nazorat qilish real vaqt rejimida imkoni bo'lmagan.

Yuqoridagi omillar, O'zbekiston Respublikasida rivojlangan davlatlarning amaliyotiga asoslanib, tijorat banklarning yagona vakillik hisobraqamini tashkil qilish va banklararo hisob-kitob operatsiyalarini ushbu hisobraqamidagi mablag'lar doirasida amalga oshirish imkonini yaratish zarurligini ko'rsatdi.

Banklararo elektron to'lov tizimini joriy etish bosqichida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida hisob-kitob markazi tashkil etilib, unda barcha tijorat banklarning yagona vakillik hisobvaraqlari ochildi va buning natijasida oldin tashkil qilingan 127 kliring markazlari hamda ularda ochilgan banklarning hududiy filiallarining vakillik hisobraqamlari to'la yopildi.

Takomillashgan banklararo elektron to'lov tizimi tijorat banklarining yagona vakillik hisobraqamlari asosida o'zaro hisob-kitobni amalga oshirish texnologiyasini barpo etdi..

Yagona vakillik hisobraqami – tijorat banklarning va uning barcha filial va bo'limlarini mablag' resurslarini bosh bankida yagona hisobraqamida jamlash imkonini beruvchi on-layn rejimidagi tizim hisoblanadi. Ushbu tizim yordamida banklar o'z mablag'larini yagona nuqtadan, aniqrogi bosh bankdan optimal va samarali boshqaradi va bank faoliyatida yuzaga keladigan risklarni to'g'ri baholash va boshqarishga imkon beradi.

Bankning yagona vakillik hisobvarag'i tijorat bankiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Hisob-kitob markazida ochilgan hisobvaraqq bo'lib, u banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirishga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi amaliyotida milliy valyuta "So'm"da tashkil qilingan elektron banklararo hisob-kitob tizimining ishlashi tijorat banklarining bevosita Markaziy bankning Hisob-kitob markazida ochilgan yagona vakillik hisobraqamlaridagi mablag'lar harakati asosida amalga oshiriladi. Masalan, A – bankning o'zi yoki uning filiali - mablag' to'lovchi (mijozning buyrug'iga binoan yoki ushbu bankning o'z to'lovi bo'yicha), B – bankning o'zi yoki uning filiali mablag' oluvchi (mijozga yoki ushbu bankka kelib tushadigan mablag'), bu holatda Markaziy bankning Hisob-kitob markazidagi A – bankning yagona vakillik hisobraqamidagi qoldiq summadan to'lov hujjatida aks ettirilgan mablag' summasi B – bankning yagona vakillik hisobraqamidagi qoldiq summasiga kelib qo'shiladi. Ya'ni, to'lovchi bank - A – bankning o'zi yoki filiali bo'lishidan qat'iy nazar Markaziy bankning Hisob-kitob markazidagi A – bankning yagona vakillik hisobraqami debitlanib, B – bankning yagona vakillik hisobraqami kreditlanadi.

Markaziy bank Hisob-kitoblar markazining vazifasiga tijorat banklari Bosh ofislariga vakillik hisobvaraqlarini ochish va xizmat ko'rsatish hamda ular o'rtasida elektron to'lovlar uzluksizligini ta'minlash ham kiradi.

Tijorat banklarining hisob-kitob amaliyotida hisob-kitobni ikki mijoz yoki ikki bank filiallarini o'rtasida amalga oshirish lozim bo'lgan holatlarda ichki to'lov tizimidan foydalaniladi va bu holatda banklarning yagona vakillik hisobraqamlaridagi qoldiqni o'zgartirish zarurati bo'lmaydi. Chunki, tijorat

bankning filiallari o'rtasidagi hisob-kitob amaliyoti bankning ichki amaliyoti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida vakillik munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish amaliyoti takomillashib, banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirishning texnologik jarayonlari sifat jihatidan takomillashgan hisoblanib, tijorat banklarining vakillik munosabatlarini optimallashtirishga zamin yaratdi.

Hozirda tijorat banklari o'rtasida yuzaga keladigan pul majburiyatlari o'z vaqtida va tez amalga oshirilishi bilan birga ularning resurslari bir joyda jamlanishini ta'minladi. Natijada filiallari keng tarqalgan tijorat banklarining resurslari bir nuqtadan oqilona boshqarilishiga zamin yaratildi.

Tijorat banklarining yagona vakillik hisobvarag'i ochilayotganda Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmasi va tijorat banki o'rtasida vakillik munosabatlari to'g'risida shartnoma tuziladi.

Vakillik munosabatlari to'g'risidagi kelishuvda quyidagilar ko'zda tutiladi:

- tomonlarning huquq va majburiyatlari;
- vakillik hisobvaraqlari asosida xizmat ko'rsatish;
- banklarning ikki tomonlama nazorat funktsiyalari;
- banklar o'rtasida axborot almashuvi tartibi.

Tijorat banki yagona vakillik hisobvarag'i ochilishini rasmiylashtirish uchun quyidagilar talab etiladi:

- Markaziy bankka hisobvaraq ochish to'g'risida ariza;
- bank ustavining notarial tasdiqangan nusxasi;
- imzolar va muhr izi tushirilgan varaqalarining notarial tasdiqlagan nusxasi.

Tijorat bankning yagona vakillik hisobvarag'i Markaziy bankning farmoyishiga ko'ra ochiladi.

Yagona vakillik hisobraqamini va bank kodini bank depozitlari Milliy axborot bazasi (BDMAB) belgilaydi. Vakillik hisobvarag'i ochish to'g'risidagi farmoyish tijorat banki hududiy boshqarmasi va bo'limiga, uning nusxasi Respublika Markaziy bankning tegishli hududiy bosh boshqarmasiga jo'natiladi.

Vakillik hisobvarag'i ham boshqa hisobvaraqlar singari 20 raqamdan iborat. Hisob-kitob markazida yagona vakillik hisobvaraqlari tijorat banklariga hamda hisob kassa markazlariga ochiladi. Boshqa banklarga ochilgan vakillik hisobvaraqlari 21302-balans hisobraqami bo'yicha, hisob kassa markazlariga ochilgan vakillik hisobvaraqlari 21304-balans hisobraqami orqali olib boriladi. Masalan:

21302000Kxxxxxxxx001

Bunda:

- 21302 –rezident banklarning vakillik hisobvarag'i;
- 000 – valyuta kodi, bu 3 ta nol vakillik hisobvarag'ining «so'm»da yuritilishini bildiradi;
- K – nazorat kaliti;
- xxxxxxxx - bankning unikal kodi;
- 001 – ushbu bank hisobvarag'ining tartib raqami.

Yuqorida ko'rsatilgan vakillik hisobvarag'i hisob-kitob markazida yuritiladi va hisob-kitob markazi uchun passiv hisobvaraqdır. Mablag'larning kelib tushishi va hisobvaraq qoldig'i hisobvaraqlarning kredit qismida, mablag'larning kamayishi esa uning debit qismida aks ettiriladi. Barcha to'lovlar vakillik hisobvarag'i qoldig'i chegarasida amalga oshiriladi.

Har bir bankning o'zi ham vakillik hisobvarag'ini yuritadi. Bu hisobvaraq bank balansining aktiv qismida yuritilib, bankning ichki vakillik hisobvarag'i, deb nomlanadi. Ichki vakillik hisobvarag'i 10301 balans hisobvarag'ida yuritiladi. Tijorat bankining hisob-kitob markazida ochilgan vakillik hisobvarag'i tashqi vakillik hisobvarag'i, deb yuritiladi. To'lovni amalga oshirish uchun asosiy mezon amaliyot kuni boshiga ichki va tashqi vakillik hisobvaraqlaridagi aylanmalar va qoldiq mablag'larining bir-biriga mos kelishi hisoblanadi. To'lovning eng katta summasi cheklanmagan. Har kuni ertalab hisob markazi tomonidan berilgan tijorat banki hisobvarag'ining ko'chirmasi tijorat banki tomonidan tasdiqlangandan so'ng ushbu hisobvaraq bo'yicha yangi kun operatsiyalari boshlanadi.

Banklararo hisob-kitoblar sifatli amalga oshirilishida birinchi navbatda doimiy ravishda tijorat banklarining yagona vakillik hisobraqamlarida mablag'lar mavjudligi va u o'z vaqtida pullik mabjuriyatlarini bajaraolish qobiliyatini yo'qotmasligi muhim hisoblanadi. Agar mablag' vaqtincha etishmasa, to'lovlarni qoplash uchun bank banklararo kredit olish imkoniyatini topishi kerak. Kredit summasi yagona vakillik hisobiga o'tkaziladi, bu esa to'lovlarni to'xtovsiz oshirib borish imkonini beradi.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi sharoitida tijorat banklar xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlarini o'rnatishini taqozo etadi. O'zbekiston amaliyotida xorij banklarda milliy banklarning vakillik hisovarag'ini ochilishi vakillik munosabatlarni gorizontal tashkil qilinishini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari xorijiy banklarda vakillik hisobraqamlarini ochishi uchun quyidagilarni inobatga olishi lozim:

- tijorat banklari horijiy banklar bilan vakillik munosabatlarini o'rnatishi uchun Markaziy bankdan bosh litsenziyani olishlari shart;
- vakillik munosabatlarini o'rnatish ishlarini boshlashdan oldin tijorat banki qaysi mamlakat va qaysi bank kerakligini aniqlab olishi lozim;
- vakillik munosabatlarini tashkil qilishda hujjatli va hujjatsiz operatsiyalarning mavjudligi va tizimning imkoniyatlarini ko'rib chiqishi zarur;
- banklararo vakillik munosabatlarida uch turdagi risklar farqlanadi va ularni baholash (mamlakat riski, bankning ishonchlilik riski, operatsion riski) lozim;
- risklarni baholashda bank balanslarini tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Banklararo vakillik munosabatlarni tashkil qilishning iqtisodiy asoslari.
2. Banklararo vakillik munosabatlarni o'rnatish usullari.
3. Banklararo vakillik munosabatlarni tashkil qilish turlari.
4. Banklararo vakillik munosabatlarni markazlashgan model asosida tashkil qilish. Uning ijobiy va salbiy tomonlari.

5. Banklararo vakillik munosabatlarni markazlashmagan model asosida tashkil qilish. Uning ijobiy va salbiy tomonlari.

6. O'zbekistonda tijorat banklarning yagona vakillik hisobraqamlarini tashkil qilish zaruriyati.

7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning Hisob-kitob markazida tijorat banklariga yagona vakillik hisobraqamlarini ochish tartibi.

8. Vertikal banklararo vakillik munosabatlarni tashkil qilinishi va tartibga solinishi.

9. Banklarning xorijiy banklarda vakillik hisobraqamlarini ochishda etibor qilinadigan asosiy jihatlar.

10. Banklarning vakillik munosabatlarini rivojlantirishda optimallashtirish muammosi.

6-BOB. MASOFAVIY BANK XIZMATLARI: “BANK-MIJOZ” VA “INTERNET-BANKING” TIZIMLARI

6.1. Bankning masofaviy bank xizmatlari. Bankning “Bank-mijoz” dasturining elektron to’lov tizimidagi o’rni

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martagi «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi № PQ-3620 sonli qarori bu sohani yanada jadal rivojlanishiga zamin yaratib berdi. Banklar o’z faoliyatida axborot texnologiyalarning barcha imkoniyatlaridan keng foydalangan holda, ayniqsa masofaviy xizmat ko’rsatish dasturlaridan samarali foydalanib, ushbu qaror vazifalarini keng doirada bajarish imkoni yaratiladi.

Keyingi yillarda respublika tijorat banklari masofaviy bank xizmatlarini hayotga tatbiq qilish bilan birga o’zlarining an’anaviy bank operatsiyalariga qo’shimcha ravishda, mijozlar ehtiyojini to’laroq va sifatliroq qondirishga va yangi bank mahsulotlarini keng joriy etishga erishmoldalar.

Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko’rsatish tizimlari –mijozning masofadan bergan topshiriqlariga asosan (bankka kelmasdan) bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyalaridir.

Mohiyati jihatidan bank va mijoz muloqatining an’anaviy va masofaviy bank xizmati sxemalari orasidagi farq uning tezligida, sifatida va avtomatlashtirilganlik darajasida.

Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko’rsatish tizimi bank va uning mijozlari o’rtasidagi munosabatlarni avtomatlashtirishga mo’ljallangan.

O’zbekistonda masofadan turib bank xizmatlaridan foydalanuvchilarning soni yildan-yilga o’sib borishiga qaramasdan rivojlangan davlatlarga nisbatan past darajada bo’lib qo’lmoqda. O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy saytida keltirilgan statistik raqamlariga asoslanib respublikada bank mijozlari masofali bank xizmatlar tizimidan qay darajada foydalanayotgani to’g’risida baho beramiz.

**2019 yil 1 yanvar holatiga masofali bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni
(turlari bo'yicha)³¹**

Nomi	Yuridik shaxslar va biznes sub'ektlari	Jismoniy shaxslar	Jami
Umumiy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni	1 880 634	17 686 000	19 566 634
Masofali bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni	359 770	7 599 337	7 959 107
Masofali bank xizmatlaridan foydalanuvchilarning ulushi (foizda)	19,1	43	40,7

Jadvaldan ko'rish mumkin, banklarning korporativ mijozlarini 1/5 qismigina va jismoniy shaxslarni 43 foizi masofaviy bank xizmatlaridan foydalanmoqda, umumiy ko'rsatkich esa 40,7 foizni tashkil qilmoqda. Rivojlangan davlatlarda, xususan AQSh, Finlyandiya, Norvegiya va Shvetsariyada 90% banklar o'z mijozlariga masofaviy bank xizmatlarini to'la taqdim etib, on-layn tartibda keng doirada moliyaviy xizmatlar taqdim etmoqda, jumladan, valyutani konvertatsiyasi, kreditlarni va depozitlarni rasmiylashtirish, sug'urtalash, bank hisob-raqamidagi pul mablag'larini xarakatini nazorat qilish, fond bozorlarida oldi-sotdi jarayonlarida operatsiyalarni amlga oshirish va h.q. Ushbu davlatlarda masofadan bank xizmatlarini ko'rsatishda banklar tomonidan o'z mijozlariga (korporativ, jismoniy) ochilgan shaxsiy "web – kabinet"lar muhim o'rin tutadi va bundan tashqari mijozlarga mobil internet tizimidan ham bank xizmatini ko'rsatish keng yo'lga qo'yilgan.

Shaxsiy web-kabinet mijozlarga katta imkoniyatlar berib, ular qaysi mamlakatda turishidan qat'iy nazar, kechayu kunduz istalgan vaqtda bank hisobvarag'i holatini onlayn rejimda nazorat qilish imkoniyatini beradi. Ushbu tizimda ishlashning afzalliklari shundaki, bank-mijoz internet tarmog'i orqali kechayu kunduz istalgan vaqtda tizimga kira olishi, har qanday kompyuterda

³¹ www.cbu.uz.

ishlay olishi, tizim yuqori darajada ximoyalangan bo'lib, mijoz mablag'larini himoyalash uchun parol va shifrlangan aloqa kanallari orqali operatsiyalarini amalga oshiradi. O'zbekiston bank amaliyotida mijozlarga web-kabinet ochish amaliyoti mavjud bulsada, lekin keng qo'llanilish va ular yordamida keng doiradagi bank xizmatlarni taqdim etilishi talab darajasida emas, bu esa bank biznesining marketingini keng yo'lga qo'yishni va banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirishni talab etadi.

Masofaviy bank xizmatini rivojlanishiga internet global tarmog'ining foydalanuvchilarini soni bevosita ta'sir etadi. O'zbekistonda internet tarmog'idan foydalanuvchilarning umumiy soni 2018 yil boshiga 20 mln. nafardan oshdi³², bu ko'rsatkich 2017 yil boshiga nisbatan 36 % oshgan. Mobil internet foydalanuvchilarning soni esa 3,504 milliontaga etdi³³.

“Bank-Mijoz” tizim tijorat banklari tomonidan yuridik mijozlarga ularning bankdagi hisobvaraqlarini masofadan boshqarish imkonini beradi va shu bilan birga zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish sharoiti yaratiladi.

Bank hisobvaraqlariga masofadan “Bank-mijoz” dasturi orqali xizmat ko'rsatish tizimi – bu mijozning bankka masofadan bergan topshiriqlariga asosan bank xizmatlarini ko'rsatish texnologiyasi bo'lib, kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim hisoblanadi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarini, jumladan to'lov hujjatlar va hisobvaraqlardan ko'chirmalarni saqlaydi.

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim. Bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlar va hisobvaraqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi

Bank-Mijoz tizimi xizmati orqali mijozga uning ish joyida o'ziga qulay sharoitda:

³² <http://infocom.uz/2018/01/26/kolichestvo-internet-polzovatelej-v-uzbekistane-prevysilo-20-millionov/>

³³ <https://www.gazeta.uz/2015/09/18/users/>.

- to'lovlarni o'tkazish;
- foydalanuvchi o'z xodimlarining oylik ish haqlarini ularning plastik kartochkalariga o'tkazish;
- to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish;
- barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

“Bank—mijoz” modem yordamida mijoz va bank o'rtasida kommunikatsion tizim o'rnatilib, dasturiy ta'minot orqali standartlashgan axborot almashuvi amalga oshiriladi. Ushbu dastur kompyuterdamijozlarning moliyaviy operatsiyalari bo'yicha (asosan to'lov hujjatlari va hisobvara qoldiqlari) ma'lumotlarni uzatish bilan birga ularni saqlaydi, zarur hollarda ular tahlil etilishi mumkin.

6.2. “Internet-banking” elektron to'lovlar tizimining iqtisodiy mohiyati

Iqtisodiy adabiyotlarda bank hisobvarag'iga masofadan xizmat ko'rsatish deganda mijozni bankka tashrif buyurmasdan o'z bankiga topshiriq bera olishi va tegishli kompleks bank xizmatlaridan foydalana olishini nazarda tutadi. Bank hisobvarag'iga masofadan xizmat ko'rsatishini ta'minlashda bir qator bank texnologiyalaridan foydalanish mumkin, masalan, “on-line banking”, “home banking”, “Internet-banking”, “rhone-banking”, “mobile banking” va “WAP-banking”. Ushbu bank texnologiyalar ichida “Internet-banking” tizimi muhim o'ringa ega bo'lib, uning imkoniyatlari kundan-kunga oshib bormoqda.

“Internet-banking” elektron to'lov tizimi masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatishga mo'ljallangan texnologiyalarning umumiy nomi bo'lib uning boshqa tizo'implardan asosiy farqli jihati undan foydalanuvchilar internet tizimiga ulangan bo'lishi va ushbu dasturiy tizim yordamida hisob-kitob va boshqa bank operatsiyalarni masofadan turib amalga oshirish mumkin bo'ladi.

“Internet-banking” (Internet-banking) mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, shu jumladan, plastik kartalarga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali

boshqarish huquqini beruvchi zamonaviy distantsion tizim hisoblanib, internet-brauzer yordamida bank operatsiyalarini amalga oshirishga mo'ljallangan.

Bankning boshqa masofaviy aloqalar tizimlariga (modem, telefon va tele aloqalarga) nisbatan "Internet-banking" keng imkoniyatga ega va banklarning masofaviy aloqa tizimlarining takomillashgan modeli sanaladi. Bunda bank mijozlari masofadan turib bank bilan bog'lanadi va real vaqt ichida to'lovlarni o'tkazishi mumkin bo'ladi. yordamida banklar mijozlarning hisob-kitoblarini amalga oshirish amaliyoti bilan birga depozit, kredit va boshqa operatsiyalarini ham muvoffaqiyatli bajaradi.

"Internet-banking" tizimidan tijorat banklari interaktiv bank amaliyotini bajarishga va mijozlarga moliyaviy xizmatlarini keng taklif etishga imkon berayotgan yangi bank texnologiyalardan hisoblanadi.

"Internet-banking" tizimini o'rnatishda bank mijozining kompyueri internet tizimiga ulangan hamda Microsoft Internet Explorerbrauzeri o'rnatilgan bo'lishi talab etiladi.

"Internet-banking" tizimi bank mijozlari uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratib beradi:

- bankka barcha turdagi moliyaviy xujjatlarni yuborish va bank bilan ma'lumot almashish imkonini beradi. Bu esa mijozning ish vaqtini va transport xarajatlarini tejjashga imkon beradi;

- bankdan barcha bank hisobraqamlar bo'yicha istalgan vaqt davri uchun ko'chirmalarni va zarruriy xujjatlarni olish;

- bankda real vaqt rejimida to'lov xujjatlariga ishlov berishning barcha bosqichlarini mijoz kuzatish imkoniga ega bo'ladi;

- to'lov yoki boshqa turdagi xujjatlar bo'yicha xatolar to'g'risida ma'lumotga tez ega bo'lish;

- tizim yordamida yuborilgan va qabul qilingan xujjatlarni nazorat etish va chop etish.

Ma'lumki, O'zbekistonda joriy etilgan "Bank-mijoz" tizimi asosan modem yordamida tashkil qilingan va tadbiq etilayotgan "Internet-banking" tizimi esa uni takomillashgan modeli hisoblanadi.

"Internet-banking" tizimi "Bank-mijoz" tizimidan bir qator avzalliklarga ega bo'lib, ushbu tizim "Bank-mijoz" tizimi tomonidan bajariladigan barcha operatsiyalarni to'la-to'kis amalga oshiradi va yana qo'shimcha operatsiyalar hamda qulayliklar yaratib beradi. Jumladan:

- bank va mijoz o'rtasidagi aloqa on-layn rejimida bo'lib, barcha hisob-kitob operatsiyalari ham on-layn rejimida bajariladi. Bu jarayonda mijoz to'lov xujjatlarni qayta ishlash jarayonini har bir bosqichni real vaqtda kuzatib turishi mumkin bo'ladi va uning amalga oshirilganlik xolatiga baho beraoladi;

- har bir to'lov xujjatlarini qayta ishlov berish natijasini avtomatik tarzda doimiy yangilanib turiladi;

- ushbu tizim orqali amalga oshirilayotgan axborot almashuvi kriptografika formatidan foydalangan holda shifrlanadi va tegishli nuqtaga xavfsiz etib borishiga zamin yaratadi.

"Internet-banking" tizimidan foydalanish uchun aloqa ishtiroqchilari elektron raqamli imzoga ega bo'lishi va undan foydalangan holda axborotlarni uzatishi mumkin bo'ladi. Raqamli imzo tizim foydalanuvchilarning xaqiqiyiligini identifikatsiya qilishga xizmat qiladi hamda axborotni uzatishda shifrlashga asos yaratadi.

"Internet-banking" tizimidan o'tkazilgan to'lov xujjatlari qog'oz xujjatlari bilan teng yuridik kuchga ega bo'ladi.

"Internet-banking" tizimidan foydalanish uchun quyidagi amaliyotni bajarish kerak bo'ladi:

- bank tashkilotiga "Internet-banking" tizimiga ulanish uchun buyurtma berish;

- "Internet-banking" tizimidan foydalangan holda bank xisobraqamiga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomani imzolash.

“Internet-banking” tizimidan foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki unda tranzaktsiyani tasdiqlash bir marotabali paroldan foydalaniladi.

“Internet-banking” tizimidan foydalanishda xakerlar tomonidan serverni almashtirib qo‘yish xavf xatar mavjudligi nazariy jihatdan ekspertlar tomonidan ko‘rsatilgan bo‘lsada, uchinchi tomondan imzolangan SSL-sertifikatlashgan aloqa tizimidan foydalanishi ushbu tizimning riskini oldini oladi.


«Internet-banking» tizimi yuqori darajada elektron raqamli imzo, axborotni arxivlash va shifrlash orqali ta‘minlanadi. Tizim foydalanishda oddiy bo‘lib, uni mustaqil mijozlar ham o‘rnatib olishi mumkin.

6.3. O‘zbekiston tijorat banklari tomonidan “Internet-banking” tizimini joriy etish amaliyoti

O‘zbekistonda bank xizmatlarining yangi turlarini joriy etish mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Xarakteristikalar strategiyasida ham “bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chukurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investitsion loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish; yangi turlardagi sug‘urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hisobiga ularning xajmini kengaytirish va sifatini oshirish, kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish” vazifasi belgilangan.

Naqd pulsiz hisob-kitob tizimini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish va bunda yuridik sub’ektlarning moliyaviy xizmatga bo‘lgan talabini yuqori darajada ta‘minlash nafaqat milliy bank tizimini balki jahon bank tizimining ham ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Milliy banklarning “Internet-banking” tizimidan foydalanish holatiga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning ma’lumotlariga murojaat qilgan holda baho beramiz.



1 yanvar holatiga 2011-2019 yillarda “Internet-banking” va “bank –mijoz” tizimlari orqali masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni³⁴

Masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilarning soni 2011-2019 yillar oralig‘ida o‘shish tendentsiyaga ega bo‘lgan. Ushbu rasmda korporativ mijozlar ko‘rsatilgan.

O‘zbekistonda “Internet-banking” tizimi 2007 yilda banklarning korporativ mijozlariga xizmat ko‘rsatish uchun kirib kelgan bo‘lsa keyingi uning rivojlanish bosqichi jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan.

“Internet-banking” tizimi O‘zbekistonda birinchi bo‘lib 2009 yili "Samarkand" bank o‘z faoliyatiga kiritdi va uning nomini “Sam.online” – Internet-banking. Shuningdek, ushbu bank birinchi bo‘lib 2010 yili mobil bankingni ham bank amaliyotiga kiritgan.

Ikkinchi o‘rinda “Internet-banking” tizimini 2010 yili Alokabank o‘z faoliyatiga kiritgan, undan so‘ng “Hi-Tech Bank”ning faoliyatiga kirib keldi.

³⁴ www.cbu.uz

Ma'lumki, "Internet-banking" tizimini rivojlanishiga internet global tarmog'ining foydalanuvchilarini sonini o'sishi bevosita ta'sir etadi. O'zbekistonda internet tarmog'idan foydalanuvchilarning umumiy soni 2018 yil boshiga 20 mln. nafardan oshdi³⁵, bu ko'rsatkich 2017 yil boshiga nisbatan 36 % oshgan. Mobil internet foydalanuvchilarning soni esa 3,504 milliontaga etdi³⁶.

Hozirda respublikaning barcha tijorat banklari o'z amaliyotiga ushbu tizimni joriy etgan. Ushbu tizimni rivojlanishiga moliya bozoridagi raqobat muhiti ham ijobiy ta'sir etmoqda.

Ushbu tizimdan foydalanayotgan bank mijozlari ish vaqtidan unumli foydalanayotganini va yuqori saviyada bank xizmatlarini olayotganini e'tirof etsada, ayrim bank mijozlari esa ma'lum sabablarga ko'ra undan foydalanishni xoxlamayotganini bildirmoqda. Buning muhim omillaridan biri bu bank mijozlarida innovatsion texnologiyalarga, ya'ni yangiliklarga va o'zgarishlarga bo'lgan psixologik to'siqlaridir. Lekin shunga karamasdan tijorat banklari tomonidan marketing faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilib, tizim foydalanuvchilarning sonini oshirishga erishmoqdalar.

Shuningdek, ushbu tizimning imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha banklarning strategik dasturlari masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish doirasida ishlab chiqilgan.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

Banklarning masofaviy xizmatlarni keng joriy etish asoslari.

1. Tijorat banklarini o'z mijozlariga masofadan xizmat ko'rsatish holati.
2. "Bank mijoz" dasturining iqtisodiy mohiyati va uning to'lov tizimida tutgan o'rni.
3. "Internet-banking" tizimining iqtisodiy mohiyati.
4. "Internet-banking" tizimining to'lov tizimlarida tutgan o'rni.
5. "Internet-banking" tizimida ishlash tartibi.
6. "Internet-banking" tizimining imkoniyatlari.

³⁵ <http://infocom.uz/2018/01/26/kolichestvo-internet-polzovatelej-v-uzbekistane-prevysilo-20-millionov/>

³⁶ <https://www.gazeta.uz/2015/09/18/users/>.

7. “Internet-banking” tizimidan foydalanuvchilarning sonini o’zgarish dinamikasi.

8. O’zbekiston bank amaliyotiga “Internet-banking” tizimini kirib kelish tarihi.

9. O’zbekistonda “Internet-banking” tizimining istiqboli.

7-BOB. YANGI BANK TEXNOLOGIYALARI

7.1. To’lov tizimida yangi axborot texnologiyalar

Bank institutlari moliya tizimining ajralmas qismi, iqtisodiyotning barcha sohalarini bir-biriga bog’lovchi muhim tizim bo’lib, o’z faoliyatini bozor va ishlab chiqaruvchilar talablari asosida tashkil qiladi.

Banklar mijozlariga xizmat ko’rsatish orqali iqtisodiyotda pul harakatini ta’minlaydi, shu bilan birga ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning pul mablag’iga bo’lgan talabini qondirishga harakat qiladi. Iqtisodiyotda pul aylanish tezligini va xavfsizligini ta’minlash hamda bozorning yangi talablariga javob beraolishi uchun hisob-kitob tizimlariga yangi axborot texnologiyalarini tatbiq etish zarurati e’tiborda tutiladi.

Masofaviy yangi bank xizmatlarini hayotga tatbiq qilish bilan birga kredit tashkilotlari o’zlarining an’anaviy bank operatsiyalariga qo’shimcha ravishda, mijozlar ehtiyojini to’laroq va sifatliroq qondirishga va yangi bank mahsulotlarini keng joriy etishga erishmoqdalar.

Bank mijozlari bank hisobvaraqlaridagi mablag’lar haqida uzoqdan turib mobil aloqa yoki internet tizimidan foydalangan holda kerakli axborotlarni olishlari va bank xizmatidan foydalanishlari, shu jumladan, to’lovlarni amalga oshirishlari mumkin.

Masofaviy bank xizmatida bank ofisida bajarilishi lozim bo’lgan ayrim operatsiyalar endilikda masofadan turib amalga oshirilmoqda, jumladan, mijozlar o’z ofisidan turib, to’g’ridan-to’g’ri to’lov hujjatlarini elektron shaklda shakllantirib, o’z bankining operatsion bo’limiga uzatilishini ta’minlamoqda. Bundan tashqari mijozlar o’z ofisidan turib, kunlik pul aylanmasini va qoldiq

summasini real vaqt rejimida doimiy kuzatishi mumkin. Buning natijasida ular pul mablag'larini hamda likvidlik risklarini samarali boshqarishga, to'lov majburiyatlarini tez bajarishga, bankka doimiy qatnash muammolaridan xoli bo'lib, ish vaqtini tejashga erishadilar.

Banklarning masofaviy bank xizmatlariquyidagi kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash orqali amalga oshiriladi:

“Telebanking” yoki **“Telefon-banking”** (phone-banking) tizimida bank va mijoz o'rtasidagi aloqa tizimi “Call-markaz” orqali amalga oshiriladi, ya'ni maxsus statsionar telefon (faks) xizmatidan foydalaniladi. Uning imkoniyatlari “Bank-mijoz” yoki “Internet-banking” tizimlarining imkoniyatiga nisbatan ko'ra chegaralangan va asosan axborot ko'rinishida amalga oshiriladi. Ushbu tizim orqali quyidagi operatsiyalarni bajarish mumkin:

- bank hisobraqamidagi mablag'larning tushumi, chiqimi va qoldig'i bo'yicha axborot olish;
- faks orqali to'lov hujjatlarini olish, naqd pulga buyurtma berish;
- “Call-markaz”dan mutaxassislar maslahatini olish.

“Telebanking”yoki “Telefon-banking” tizimi mijozlar kunutun masofadan turib bank hisobraqamiga va bankning mijozlarga taalluqli ma'lumot bazasiga kirishini ta'minlaydi;

“Mobil banking” (mobile-banking). Bunda mijoz va bank o'rtasidagi aloqa va axborot almashuvi mobil telefon orqali amalga oshiriladi, jumladan, qisqa ma'lumot uzatish tizimi “SMS-banking” yoki mobil-internet tizimi yordamida “WAP-banking”, “GSM-banking” kabi tizimlar asosida bajariladi.

Hozirda milliy tijorat banklari tomonidan mijozlariga xizmat ko'rsatishda “SMS-banking” tizimidan keng foydalanilmoqda.

“SMS-banking”– bank mijozlariga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank to'lov kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag'dan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborishi talab etiladi.

Mijoz uchun “SMS-banking” xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beradi:

- hisobvarag’ga kelib tushgan mablag’lar to’g’risida ma’lumot olish;
- hisobvarag’dan qilingan xarajatlar to’g’risida ma’lumot olish;
- hisobvaraq balansi to’g’risida ma’lumot olish;
- kun davomida o’tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma’lumot olish.

“ATM-banking”. Bunda infokiosk, bankomat (ATM-banking) va o’ziga xizmat ko’rsatuvchi terminallar yordamida mijozlarga bank xizmatlari tashkil qilinadi.

Masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish sub’ektlari quyidagi ikki guruhga bo’linadi:

- yuridik shaxslar va xususiy tadbirkor sub’ektlari;
- jismoniy shaxslar.

Masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish vositalari o’zaro farqlanishiga qaramasdan, mijozlarga xizmat qilishning an’anaviy usullariga nisbatan quyidagi umumiy ustunliklarga ega:

- xizmat ko’rsatish sifatining oshishi. Masofaviy bank xizmatlari orqali vaqt cheklovi olib tashlanadi, ya’ni mijoz o’z hisobraqamini haftasiga etti kun, kuniga yigirma to’rt soat davomida boshqarish imkoniga ega bo’ladi. Vaqt cheklovidan tashqari, mijozning geografik joylashuv holatiga ham e’tibor berilmaydi. Mijoz dunyoning istalgan nuqtasidan o’z tranzaksiyalarini o’tkazishi mumkin. Buning uchun personal kompyuter va internet global tarmog’i yoki mobil telefon va aloqa tarmog’i bo’lsa kifoya;

- bankning yangi mahsulotlarini yaratish, amaliyotga tatbiq etish yoki mavjud moliyaviy xizmatlarni masofaviy aloqa vositalari bilan uyg’unlantirish va o’zaro integratsiyasini oshirish, shuningdek, banklararo raqobat sharoitida bankning raqobatbardoshlik ko’rsatkichini oshirish imkoniga ega;

- filiallarni boshqarish bilan bog’liq xarajatlarni qisqartirish orqali bank operatsiyalari tannarxining kamayishini ta’minlaydi.

Mijozlarga masofaviy bank xizmatini ko'rsatish zamonaviy bank tizimining eng istiqbolli yo'nalishlaridan bo'lib, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri internet global tarmog'i foydalanuvchilari sonining oshib borishi hisoblanadi. Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi ma'lumotlariga ko'ra, 2000 yildan 2015 yilga qadar jahon aholisi orasida internetdan foydalanuvchilar 6,5 foizdan 43 foizgacha, ya'ni etti marta oshgan.³⁷

Aytib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasida internet tarmog'idan foydalanuvchilarning umumiy soni 2018 yil boshiga 20 mln. nafardan oshdi (infocom.uz, 2018), bu ko'rsatkich 2017 yil boshiga nisbatan 36 % oshganini ko'rsatadi. Mobil internet foydalanuvchilarning soni esa 3,504 milliontaga etdi (gazeta.uz, 2015). Mobil telefonlar aholini qaysi holatidan (xaraktdami, turg'unmi) qat'iy nazar internetdan foydalanish imkonini bermoqda. Internet va mobil aloqaning barcha foydalanuvchilari banklar uchun istiqbolli mijozlar hisoblanadi. Endilikda masofaviy bank xizmatlari doirasini kengaytirish va ularning qulay tomonlarini ko'rsatib berish tijorat banklarining strategik vazifasiga aylanishi lozim. Bu mobil telefonlar internetga chiqishda ko'proq qo'llanilayotganidan dalolat beradi. Internet va mobil aloqaning barcha foydalanuvchilari banklar uchun istiqbolli mijozlar hisoblanadi. Endilikda masofaviy bank xizmatlari doirasini kengaytirish va ularning qulay tomonlarini ko'rsatib berish tijorat banklarining strategik vazifasiga aylanishi lozim.

Mijozlarga masofadan turib bank xizmatini ko'rsatish orqali banklar operatsiyalari avtomatlashtirilgani natijasida xarajatlar qisqardi. Bu esa masofaviy yangi bank xizmatlari rivojlanishiga zamin yaratdi.

Hozirda rivojlangan banklar internet tizimidan samarali foydalangan holda mijozlarga bank xizmatlarini masofadan turib taqdim etayotganini kuzatish mumkin. Internet yordamida banklar o'z virtual ofislarini ochgan holda "Internet-banking" dasturiy ta'minoti tizimi asosida bank xizmatlari qo'lamini va sifatini oshirmoqda. Bu esa banklarning bilvosita va bevosita rentabellik darajasiga ijobiy ta'sir etmoqda.

³⁷ http://www.bizhit.ru/index/polzovateli_interneta_v_mire/0-404.

Jahon bank xizmatlari bozorida istiqbolli sohalardan biri banklarning “riteyl” xizmatlari sanalmoqda. Riteyl xizmatlari orasida bank kartalar yordamida bank xizmatlarini ko’rsatish sifat va son jihatidan oshib bormoqda. Ushbu chakana to’lov tizimi yangi innovatsion texnologiyalarni keng qo’llash uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Xususan, mamlakatimizning bank tizimida masofadan xizmat ko’rsatish amaliyoti keng rivojlanib, hozirda mijozlar shaxsiy web – kabinet va shaxsiy IVR (Interactive Voice Response) – kabinet ochish orqali bank xizmatlaridan samarali foydalanishmoqda. Bunda shaxsiy web-kabinet mijozgau qaysi mamlakatdaligidan qat’iy nazar, kechayu kunduz istalgan vaqtda o’z kartochka hisobvarag’i holatini onlayn rejimda nazorat qilish imkoniyatini bermoqda. Ushbu tizimda ishlashning afzalliklari shundaki, bank-mijoz internet tarmog’i orqali kechayu kunduz istalgan vaqtda tizimga kira olishi, har qanday kompyuterda ishlay olishi, tizim yuqori darajada ximoyalangan bo’lib, mijoz mablag’larini himoyalash uchun parol va shifrlangan aloqa kanallari orqali operatsiyalarini amalga oshiradi.

Milliy banklarda joriy etilgan masofaviy bank xizmatlari plastik kartochka foydalanuvchilariga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- mijoz o’z hisobraqamlari va kartochkalari xaqida umumiy axborot olishi mumkin, jumladan, qoldiq mablag’lari haqida ham;
- tanlagan kalendar oyi uchun kartochka yoki hisobvaraqa bo’yicha ko’chirma shakllantirishi;
- kartochka yoki hisobvaraqa bo’yicha bajarilgan oxirgi o’nta operatsiya xaqida ma’lumot olishi;
- kirim-chiqim operatsiyalari bajarilganda hisobvaraqa yuz bergan o’zgarishlar SMS\ e-mail–xabarlar yoki ovoz shakllarida mijozlarga taqdim etilishi va boshqalar.

Shaxsiy IVR– kabinet esa, ovozli xabarlash tizimi servisi hisoblanadi. Mazkur intellektual platforma uyali yoki shahar telefon raqamlaridan bankning maxsus servis raqamiga qo’ng’iroq qilib, shaxsiy IVR – kabinet orqali interaktiv rejimda

bank mahsulotlari va xizmatlari, shuningdek, mijozning depozit hisobraqamlari bo'yicha axborot olish imkoniyatini beradi.

IVR servisidan foydalanuvchi mijoz axborot xizmatlari bo'yicha xabarlarni mustaqil ravishda ulashi yoki bekor qilishi, shuningdek, o'zining kartochka xisobvarag'i holatini kuzatishi va bajarilgan oxirgi operatsiyalar haqida ma'lumot so'rab, SMS-xabar ko'rinishida javob olishi mumkin.

Hozirda riteyl bank xizmatlari bozoriga NFC (Near Field Communication) texnologiyasining kirib kelishi mijozlarning ayrim hisob-kitob operatsiyalarini bajarishda qulay vosita bo'lib xizmat qilmokda.

NFC– texnologiyasi qisqa masofaviy radioaloqa variatsiyasi hisoblanib, u orqali uyali telefon yordamida to'lovlarni amalga oshirish mumkin.

NFC– texnologiyasi orqali uyali telefon yoki maxsus karta hamda axborot o'quvchi uskuna o'rtasida simsiz aloqa yordamida axborot almashuvi ta'minlanadi. Ushbu texnologiyadan hisob-kitoblar amallarini kartalar yordamida amalga oshirish qiyin bo'lgan nuqtalarda yoki noqulayliklarni keltirib chiqaradigan holatlarda hisob-kitob amaliyotida samarali foydalanish mumkin. Masalan, jamoaviy transportlardan foydalanishda, ovqatlanish joylarida, avtomashinalar to'xtash joylarida va saqlanadigan joylarda va boshqa holatlarda.

NFC– texnologiyasidan foydalanishda mijoz tomonidan pin-kod kiritish zarurati bo'lmaydi va operatsiyalarning amalga oshirilishi tez va qulay kechadi.

“Visa” va “MasterCard” xalqaro to'lov tizimlari tomonidan NFC– texnologiyasida ishlaydigan “RayWave” va “PayPass” terminal platformalari ishlab chiqilgan. Ular bu terminallarni o'z hamkorlariga tavsiya etishmokda.

Innovatsion texnologiyalar rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi “Frost & Sullivan” konsalting kompaniyasi ko'rsatkichlaridan ma'lum bo'lmoqdaki, yaqin istiqbolda chakana naqd pulsiz hisob-kitob bozori rivojlanishining asosiy yo'nalishi mobil va simsiz (NFC – Near Field Communication) aloqa texnologiyalari bo'lib qoladi. 2017 yilda Evropada simsiz (NFC) aloqa texnologiyalariga asoslangan kartalarning yillik o'rtacha o'sishi 28,7% tashkil

etishi, 2018 yilda esa sotiladigan mobil telefonlarning 38%ni NFC –texnologiyasi bilan sozlanishi bashorat qilinmoqda.³⁸

7.2. Hisob-kitob sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llash istiqboli

Jahon iqtisodiyotini rivojlanish tendentsiyasi shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy bozor iqtisodiyotida tovar-pul munosabatlari takomillashib, pulning turlari va ular bilan hisob-kitob qilish usul va mexanizmlari kundan kunga kengayib bormoqda.

Zamonaviy iqtisodiyot innovatsion rivojlanishga qaratilib, pul aylanish tizimlari ham unga munosib ravishda o'zgarmoqda, jumladan barcha turdagi to'lov tizimlarida yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etilib kelinmoqda.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Xarakterlar strategiyasida bank sohasini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish masalasi ustuvor o'ringa ega bo'lib, 2018 yilni "2018 yil – faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlanishi buning aniq isbotidir. "Davlatimiz rahbari qayd etganidek, bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi"³⁹. Tabiiyki davlatimiz rahbari qo'ygan strategik vazifa iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishiga zamin yaratuvchi shart-sharoitlarni yaratishni ham o'z ichiga olib, bozor iqtisodiyotida pul muomalasini yuqori saviyada amalga oshirilishni taqozo etadi.

Iqtisodiyotda pul aylanish tezligini va xavfsizligini ta'minlash hamda bozorning yangi talablariga javob beraolishi hisobga olib hisob-kitob tizimlarini yangi axborot texnologiyalariga asoslanib rivojlanishini talab etadi.

³⁸<http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=5393>.

³⁹<http://taraqqiyot.uz/2018-yil-faol-tad>

birkorlik-innovatsion-goyalar-va-tekhnologiyalarni-k-ullab-k-uvvatlash-yili

Banklar o'z faoliyatida innovatsion texnologiyalarning joriy etish orqali aholiga xalqaro standartlar darajasida moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishga intilmoqda, bu esa, bankdan tashqari pul aylanmasini qisqartirishga va aholini ishonchini oshirishga asos bo'lmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy banklar innovatsion-kommunikatsion texnologiyalarning virtual formatda ishlash imkonini beruvchi platformalarni yaratib, yangi bank xizmatlarini joriy etishi bilan birga bank xizmatlarini tannarxini tushurishga hamda ularni sifatini oshirishga erishmoqdalar.

Raqamli texnologiyalarga asoslangan bank mahsulotlari, jumladan, masofaviy bank xizmatlarini taqdim etishga xizmat qiluvchi virtual kartali hisob-kitob tizimlari va boshqa veb kabinet orqali bank hisobraqamlarini boshqarish imkonini beruvchi axborot-kommunikatsion tizimlarni kiritish lozim.

Ma'lumki, raqamli iqtisodiyotning infrastrukturasi ajralmas elementi bo'lib elektron pullar hisoblanadi.

Keyingi yillarda respublika tijorat banklari mijozlarga taqdim etayotgan xizmatlar turlarini kengaytirish va faoliyatini diversifikatsiya qilish maqsadida mijozlarga bankomat, mobil telefon va internet orqali o'z hisobraqamlarini masofaviy boshqarish kabi elektron xizmat ko'rsatish texnologiyalarini faol tarzda amaliyotga joriy etmoqda. Lekin shuni ta'qidlab o'tish lozim, jahon bank amaliyotida banklar tomonidan raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali internet tizimida elektron to'lov tizimlarini joriy etish amaliyoti qo'llanilib kelinmoqda.

Elektron pullar tizimini iqtisodiyotga keng joriy etish orqali elektron tijorat sohasini jonlantirish mumkin, bu esa raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga zamin yaratib bermoqda.

Pul muomalasini tashkil qilinishida mobil savdo va mobil bankning muhim o'ringa ega bo'lib, ushbu sohalarni rivojlanishi bank va boshqa moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlarning faoliyatini tubdan o'zgarishiga asos bo'lmoqda.

O'tgan asrning 80 yillarida amerika bank amaliyotida mijozlarga masofadan bank xizmatlarini ko'rsatish imkonini beruvchi birinchi tizim "Home Banking"

hisoblanadi. Buning yaratilishiga turdki bo'lgan omillardan biri bu Amerika davlatining anitimonopol choralarni ta'minlash maqsadida tijorat banklarning filiallarini sonini chegaralash hisoblangan. Bu esa, tijorat banklarini qonun talablarini "aylanib o'tish" maqsadida innovatsion yondashuvni, aniqrogi masofaviy moliyaviy xizmatlarni joriy etishiga asos bo'ldi.

Dastlabki yaratilgan "Home Banking" tizimi 1995 yilda yaratilgan "Security First Network Bank" – virtual banki qabi ommalashishi qiyin kechgan. Ushbu bank birinchi bo'lib, internet-banking tizimini joriy etib, uni ommalashishiga zamin yaratib bergan bank hisoblanadi. Hozirda internet-banking tizimi xizmatidan G'arb Evropa va Amerika davlatlarining 90 foiz atrofidagi aholisi foydalanmoqda.

Bank xizmatidan foydalanuvchilarni fikriga ko'ra "internet-banking"ni "uydagi bank" degan nom olgan bo'lsa, "mobil bankning" esa – "cho'ntakdagi bank" degan nomni olgan.

Hozirda telefon ishlab chiqaruvchi kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilayotgan smartfonlar bank tomonidan bajaradigan operatsiyalarni amalga oshirish imkonini bermoqda.

2017 yildan boshlab Evro Ittifoqi davlatlarida davlat direktivasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda banklar tomonidan o'zlarini API (Application Programming Interface) sini uchinchi shaxslarga ochib berish shartligi belgilab berilgan.

API tushunchasi bank prilojeniyalarni dasturlash interfeysi degan ma'noni anglatadi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar.
2. O'zbekiston to'lov xizmatlari bozorida innovatsion texnologiyalarning turlari.
3. O'zbekistonda to'lov xizmatlari sifatini va ko'lamini oshirishda yangi axborot texnologiyalarning o'rni.
4. O'zbekistonda to'lov tizimini rivojlantirishda qommunikatsion tizimlarni takomillashtirish masalasi.
5. "Telebanking" yoki "Telefon-banking" (phone-banking) tizimining ishlash texnologiyasi.

6. Banklarning chakana xizmatlar bozorida NFC-texnologiyasining o'rni.
7. Kartali to'lov tizimlarda NFC-texnologiyasidan foydalanish tartibi.
8. Shaxsiy IVR– kabinetidan foydalanish texnologiyasi.
9. "Mobil banking" tizimining bank xizmatlar bozorida o'rni.
10. "ATM-banking" ning bank xizmatlar bozorida o'rni.

8 BOB. SWIFT – XALQARO TO'LOVLARNI UZATISH TIZIMI

8.1. Xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari

Hozirda jahon iqtisodiyotida xalqlaro iqtisodiy aloqalarni o'rnatmagan bironta mamlakat yo'q.

Globalashuv sharoitida xo'jalik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati kengayishi kuzatilimokda. Bu esa, o'z navbatida, ularning halqaro hisob-kitoblari hajmi oshishiga sabab bo'lmoqda.

Xalqaro hisob-kitoblarturli davlatlarhududida joylashgan davlat, tashkilot, aholining iqtisodiy, siyosiy aloqalari orqali vujudga kelgan pullik talab va majburiy to'lovlarini tartibga solish tizimidir.

Xalqaro hisob-kitobning asosiy ob'ektlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish lozim:

- tovar va xizmatlar (ishlab chiqarish yoki iste'mol xarakterlarga ega bo'lgan);
- xalqaro kreditlar (hususiy, davlat va halqaro institutlarning kreditlari);
- xalqaro kapital harakati (ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiyalar);
- xar xil xalqaro majburiyatlar (davlatlararo huquqiy javobgarlik, xalqaro institutlar oldidagi majburiyatlar va h.q.);
- davlatlararo siyosiy va madaniy kelishuv munosabatlari;
- xalqaro yordamlar;
- qonun bilan belgilangan pul munosabatlariga asoslangan boshqa xalqaro munosabatlar.

Xalqaro hisob-kitob jarayonlarining ishtirokchi(sub'ekt)lari quyidagilar hisoblanadi:

- importyorlar;

- eksportyorlar;
- banklar va boshqa kredit tashkilotlari;
- davlat;
- xalqaro tashkilotlar;
- jismoniy shaxslar.

Jahonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar mamlakatlarning ichki bozoridan tashqari tashqi bozorlarga olib chiqilish xalqaro tovar-pul munosabatlarini tashkil qilinishiga asos bo'lmoqda.

Mamlakatning xalqaro hisob-kitob jarayoniga davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa siyosatlarining sifat darajasi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Uning holatiga esa quyidagi omillar ta'sir etadi:

- davlatlararo iqtisodiy, siyosiy munosabatlar;
- davlatning tovar va pul bozorlaridagi holati;
- xalqaro hisob-kitoblarning davlat tomonidan tartibga solinishi (davlatning valyuta va boshqa siyosatlari yordamida) va uning samaradorligi;
- xalqaro hisob-kitoblar tartibi va davlatlararo tovar, xizmat hamda kapital oqimlarini tartibga soluvchi usul va mexanizmlar;
- davlatlarda inflyatsiya darajasining farqlanishi;
- davlatlar to'lov balansining holati;
- bank amaliyoti;
- kredit shartnomalarini tuzish, kreditlarni taqdim etish shart-sharoitlari;
- valyutalarning aylanish darajasi.

Hozirda xalqaro hisob-kitoblarni bankning ishtirokisiz va uning xizmatidan foydalanmasdan amalga oshirish iloji yo'q. Shuning uchun iqtisodiy sub'ektlarning xalqaro-iqtisodiy munosabatlarini tashkil qilishda tijorat banklari muhim o'rin tutadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari xo'jalik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini tashkil qilishda, ularga nafaqat moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi tashkilot, balki hamkor tashkilot sifatida ham nomoyon bo'lmoqda.

Tijorat banklari boshqa mamlakatlar bilan olib boradigan operatsiyalar ularning xalqaro operatsiyalari deb nomlanadi. Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalari xalqaro savdoda ishtirok etuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni, ssuda kapitali bozorida investitsiya faoliyatini yurituvchi, turizm, xorijiy qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, valyutani ayirboshlashi chek, veksel, inkassatsiya uchun bank aktseptlarini qabul qilish bilan shug'ullanuvchi mijozlar tomonidan talab qilinadigan xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro operatsiyalardan bankka tushadigan daromadning eng asosiy qismini kredit berishdan tushadigan daromadlar tashkil qiladi. Xalqaro savdoni bank tomonidan kreditlash tovar va tovar hujjatlarini garovga olish asosida kredit berish, veksel bo'yicha va aktsept kreditlarni, bank ssudalarini berish shaklida amalga oshiriladi. Tashqi savdoni kreditlashning yangi shakllariga lizing, faktoring va forfetinglarni kiritish mumkin.

Banklarxalqarooperatsiyalariningyana bir turi valyuta operatsiyalari hisoblanadi. Bankning bir valyutani boshqa valyutaga almashtirish bilan bog'liq xalqaro operatsiyalari konvertsiya valyuta operatsiyalari deyiladi. Ularni amalga oshirish zaruriyati mavjudligining asosiy sababi xalqaro savdo, xalqaro kredit va xizmatlar bo'yicha hisoblashishlarda yagona to'lov vositasiga ega bo'lish zarurligi hisoblanadi.

Valyuta bozorining taklifini sotilgan tovar va xizmatlar uchun olingan valyuta daromadi tashkil qilsa, talabni esa, sotib olinadigan tovar va xizmatlarni to'lash uchun xorijiy valyutaga muhtoj importyorlar yo'lga qo'yadi. Valyuta operatsiyalari asosini tovarlar va xizmatlar, kapital va kreditlarning xalqaro harakati tashkil etadi.

Aksariyat hollarda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi xo'jalik sub'ektlarining valyutaga bo'lgan talabi ularga xizmat ko'rsatuvchi banklar tomonidan qondiriladi, aniqrog'i, birjadan tashqari valyuta bozorida amalga oshiriladi.

Valyuta muomalalarini valyuta cheklovlari yo'q yoki sezilarli bo'lmagan davlatlarda (AQSh, Yaponiya, GFR, Buyuk Britaniya, Gonkong va boshq.) bank

ixtiyoriy, valyuta cheklovlari mavjud mamlakatlarda esa faqatgina Markaziy bank hamd davlat tomonidan yo'l qo'yib berilgan operatsiyalarga ruxsat etiladi.

Bankning xalqaro bozordagi faolligi uning yirikligiga, obro'siga, xorijiy bo'limlari va filiallari tarmoqlarining rivojlanganlik darajasiga, zamonaviy axborot va kommunikatsion texnologiyalarini qo'llash darajasiga bog'liq bo'ladi. Xalqaro valyuta operatsiyalarining asosiy qismi yirik tijorat banklariga to'g'ri keladi. Ular valyuta bozorida sotuvchi yoki oluvchi bo'lib ishtirok etib, xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi.

Banklar tomonidan valyuta operatsiyalari, shuningdek, xalqaro hisob-kitoblar bankning o'z hisobidan yoki mijozlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Xorijiy valyutada ifodalangan naqdsiz to'lov vosita va mexanizmlari: bank o'tkazmalari, depozitlar, akkreditiv, inkasso, cheklar, veksellar hisobiga amalga oshiriladi.

Jahon moliya bozorlaridagi operatsiyalar va xalqaro hisob-kitoblarning katta qismi quyidagi chet el valyutalarida amalga oshiriladi:

- AQSh dollari (USD=\$) - 40%;
- evro (EURO=€) - 30%;
- Yaponiya ienasi (JPY = ¥) - 15%;
- Angliya funt-sterlingi (GBP= £) - 8-10%;
- Shveysariya franki (SNF= ₣) - 1-2%.

Jahon iqtisodiyotida hisob-kitob operatsiyalarining 90 foizi yuqorida qayd etilgan 5 ta valyutada amalga oshiriladi.

Jahon moliya bozorlarida bir kunda o'rtacha 20 trln. AQSh dollaridan ko'p xalqaro hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Xalqaro hisob-kitob vosita va mexanizmlarining tanlanishi quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

– ishtirokchi sub'ektlarning xususiyatiga va ular o'rtasidagi munosabat maqsadlariga ko'ra (kotragentlar o'rtasidagi, banklar o'rtasidagi, davlat va bank o'rtasidagi, davlatlar o'rtasidagi);

– sub’ektlarning o’zaro harakatiga(harakat yo’nalishi, vositachilar ishtirokida);

– xalqaro hisob-kitoblarning ob’ektiga bog’liq (savdo, investitsiya, notijorat operatsiyalari va h.q.);

– shartnomadagi huquq va majburiyatlar asosida hisob-kitob shartlariga ko’ra(bir martada yoki qisman hisob-kitobni amalga oshirish, kredit asosida, ishtirokchilarning manfaat va moliyaviy xavfsizligi nuqtai nazardan).

Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish xususiyatini va holatini belgilovchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni alohida belgilab o’tish maqsadga muvofiq:

- kontrakt va kelishuvlarning shartlari;
- valyuta qonunchiligi;
- bank amaliyotining hususiyatlari;
- xalqaro hisob-kitob qoidalari va boshqalar.

8.2. SWIFT – xalqaro to’lovlarni uzatish tizimi va undan foydalanish tartibi

Xalqaro elektron to’lov tizimida etakchi o’rinni, shubhasiz, SWIFT (Jahon banklararo moliyaviy telekommunikatsiyalar hamjamiyati) tizimi egallaydi. SWIFT (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunications) –halqaro banklararo axborot almashinuv va to’lovlarni amalga oshirish tizimi.

SWIFTbank kommunikatsion tarmog’i bo’lib, kliring funksiyasini bajarmaydi va quyidagi operatsiyalarni amalga oshiradi:

- pul mablag’lari o’tkazmalari;
- bank hisobraqamlari holati to’g’risida ma’lumotlarni taqdim qilish;
- valyuta bitimlarini tasdiqlash;
- inkassolar bilan hisob-kitoblar;
- akkreditivlar bilan hisob-kitoblar;
- qimmatli qog’ozlar savdosini amalga oshirish;

- mijozlar elektron hisobraqamlarini yuritish va boshqarish;
- nizoli masalalarni echish.

Ushbu tizim 1973 yilda 15 mamlakatning 239 banklari ta'sischi ligi asosida AQSh va G'arbiy Evropa tijorat banklari tashabbusi bilan tuzilgan. Hozirgi kunda SWIFT tizimining uchta markazi mavjud. Ular Bryussel, Amsterdam va AQShning Kilperer shaharlarida, bosh ofisi Bryusselda joylashgan.



SWIFT tizimining logotipi

SWIFT Belgiya qonunchiligi asosida asos solingan kooperativ jamiyat bo'lib, 9000 dan ortiq a'zosi mavjud. Hozirgi kunda SWIFT tizimining 10000 ortiq foydalanuvchilari bo'lib, ulardan 1000ga yaqini yirik korporatsiyalardir.

Ushbu tizimdan bir kunda 1 mln.dan ko'p moliyaviy axborotlar o'tkaziladi. SWIFT tizimi xalqaro hisob-kitoblarning yuqori darajada operativligini va ishonchliligini ta'minlaydi. Ushbu tizim xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi. Hozirgi vaqtda SWIFT tizimi orqali har qanday bank axborotlari dunyoning istalgan mamlakatiga 5 daqiqa ichida etkazilishi mumkin. SWIFT tizimining dastlabki faoliyati hozirgidek emas edi. Unda AQSh va G'arbiy Evropa mamlakatlari o'rtasida amalga oshirilgan to'lovlar bir haftadan 10 kungacha cho'zilar edi.

Bugungi kunda 50dan ziyod mamlakatda milliy to'lov tizimi SWIFT tizimi asosida yaratilgan. Ular qatorida Bosniya, Gertsegovina, Latviya, Xorvatiyava Ozarbayjondavlatlar hamda Evropa davlatlarining EURO va TARGET to'lov tizimlari SWIFT kommunikatsion tizimiga asoslangan.

O'zbekistonda banklarning SWIFT tizimiga ulanishi 1993 yildan boshlangan. Bugungi kunda respublikadagi 26 tijorat bankidan 23 tasi (2016 yil 1 yanvar holatiga) SWIFT tizimga ulangan va ular o'z mijozlariga keng doirada bank xizmatlarini taqdim etmoqda.

SWIFTga a'zo bo'lish uchun ikki bosqich amalga oshirilishi lozim:

- birinchi bosqichda jamiyat a'ziligiga kirish va bank tarmoqqa qo'shilishi uchun tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Bu bosqichda a'zolik bo'yicha ariza

taqdim etiladi, jamiyatning muomala xarajatlari uchun to'lovlar o'tkaziladi, bank manzillari bo'yicha paket hujjatlarni jamiyatga jo'natadi. SWIFTning Direktorlar kengashi bu hujjatlarni ko'rib chiqadi va jamiyatga bankni qabul qilish yoki qilmaslik bo'yicha qaror qabul qiladi. Ushbu qaror ijobiy bo'lsa, bank nomzod bir marotabalik to'lovni amalga oshirish va bir dona aktsiyani sotib olish huquqini qo'lga kiritadi. SWIFTga a'zo bo'lish juda qimmat turadi. Bir marotabalik badal 400000 Belgiya frankini tashkil etadi, agar tizimga assotsiatsiyalashgan a'zolar ulanadigan bo'lsa, unda har bir a'zo uchun 200000 Belgiya franki to'lanadi. Hozirda jamiyatning bitta aktsiyasi 55000 Belgiya frankka baholangan va tizimga a'zo bo'lmoqchi bo'lgan bank uning bir donasini sotib olishi talab etiladi;

– ikkinchi bosqichda bankning tarmoqqa ulanishi bilan bog'liq masalalar hal etiladi. Bunda bank telekommunikatsiya uskunalari xarid qilish (bu uskunalariga taxminan 100000 AQSh dollari atrofida mablag' sarflash lozim bo'ladi) va ushbu tarmoqda ishlash uchun xodimlarni tayyorlash, ya'ni o'qitish ishlarini amalga oshirish masalalari hal etiladi. Amaliyot ko'rsatishicha, tijorat banklari SWIFTga ulanish bilan bog'liq xarajatlar o'rtacha 5 yil ichida qoplanishi mumkin.

Direktorlar Kengashi a'zo bo'lish uchun taqdim qilingan hujjatlarni ko'rib chiqib, qabul qilish xaqida qaror chiqargandan so'ng, a'zolikka qabul qilingan bank majburiy to'lovlarni amalga oshirishi mumkin.

SWIFT tizimiga ulanish uchun dasturiy va texnik ta'minotlarni tashkil qilish yilda 4 marotaba amalga oshiriladi: mart; iyun; sentyabr vadekabr oylarida.

SWIFT tizimiga bank institutlaridan tashqari boshqa toifadagi foydalanuvchilar ham ulanishi va undan foydalanishi mumkin. Masalan, pensiyatashkilotlari, investitsiya va sug'urta kompaniyalari, fond va valyuta birjalari, pul o'tkazuvchi agentlar, shuningdek, broker va dillerlar va boshqalar.

SWIFT foydalanuvchilarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:


– tarmoq axborotlarni uzatishda fizik, texnik va tashkiliy usullar orqali to'liq xavfsizlikni ta'minlaydi;

– axborotlarni uzatishning ishonchlilik darajasi yuqori;

– jahonning istalgan nuqtasidan axborotlarni tez uzatish imkoniyati mavjud boʻlib, uzatish vaqti 20 daqiqani tashkil etadi. Axborotlarning zarurligiga karab, bu muddat 1-5 daqiqani tashkil etishi mumkin;

– xabarlarni uzatish, qabul qilish va qayta ishlash jarayonlari va toʻlov hujjatlari standartlashtirilganligi. Bu esa, maʼlumotlarni ishlashda engilliklar tugʻdiradi;

– SWIFT oʻz foydalanuvchilari uchun moliyaviy himoyani kafolatlaydi. Agar SWIFTning aybi bilan kun davomida belgilangan joyga toʻlov etib bormasa, shu toʻlov bilan bogʻliq barcha xarajatlarni tarmoq oʻz zimmasiga oladi.




8.4-rasm. SWIFT tizimining xizmatlaridan foydalanuvchilar

SWIFTning katta kamchiligi, foydalanuvchilar nuqtai nazaridan qaraganda, unga kirishning oʻta qimmatligidir. SWIFTga kirish uchun bank 160–200 ming AQSh dollari miqdorida xarajat qilishiga toʻgʻri keladi. Bu esa oʻrta va kichik banklarga qiyinchilik va bir qancha muammolarni tugʻdiradi. Bundan tashqari, ichki tashkiliy texnik tizim murakkab (buzilishlar va boshqa texnik muammolar kelib chiqishi mumkin).

SWIFT tizimi jahon miqyosida toʻlovlarni oʻtkazishi uchun pul oʻtkazmalari tartibi va hujjatlari yagona xalqaro standartlar asosida boʻlishi taqozo etiladi.

SWIFTni yaratish jarayonida aynan shu muammolarni echish maqsadida yagona xalqaro standartlar qabul qilingan. Bunday standartlardan biri ISO-9263, ya'ni SWIFT tizimiga a'zo bo'lgan har bir moliyaviy muassasaga alohida identifikatsion kod beriladi. BIC (Bank Identifier Codes) deb nomlangan bu kodni berish vazifasi xalqaro standartlashtirish agentligi tomonidan SWIFT tashkilotiga yuklatilgan.



8.5-rasm. SWIFT tizimida bank tashkilotini kodlashtirish

Ushbu kod (rekvizit) umumiy ko'rinishda quyidagicha namoyon bo'ladi:

BBBB CC LL (bbb);

Bunda:BBBB –moliyaviy tashkilotning unikal to'rt belgilik kodi;

CC –moliyaviy tashkilot joylashgan davlatning 2ta belgilik (raqamli) kodi (ISO-3166); LL – hududni ko'rsatuvchi 2ta belgilik (harf – raqamli) unikal kod; bbb – filialning maxsus kodi (majburiy bo'lmagan rekvizit). Agarda tashkilot filial sifatida ro'yxatdan o'tmasa, unda bu belgi XXX ko'rinishida bo'ladi. Masalan, Ochiq aktsiyadorlik tijorat "Aloqabank"ning BIC kodi: JSCLUZ22XXX.

SWIFT tizimi uning a'zolari bir-biri bilan yagona "til"da ma'lumotlar almashinishini taqozo etadi. SWIFT tizimida ma'lumotlar formati banklarning qaysi davlatda joylashganligi va xususiyati e'tiborga olinmagan holda amalga oshiriladi.

Pul mablag'lari o'tkazmalari "Nostro" va "Loro" hisobraqamlarida aks ettirilib boriladi.

ISO (International Organization for Standardization – Standartlashtirish xalqaro tashkiloti) tomonidan ma'lumotlarning formatiga xalqaro standartlar o'rnatilib, ma'lumotlarni unifikatsiyalashtirish bo'yicha talablar belgilab berilgan. Qabul qilingan xalqaro standartlar SWIFT tizimi orqali o'tkazilayotgan ma'lumotlarning to'g'riligini va yuqori o'tkizish imkonini ta'minlaydi. Axborotlarni uzatish bo'yicha SWIFT standartlari doimiy ravishda takomillashtirilib borilmoqda.

SWIFT tizimi 4 turdagi ma'lumot almashish shakli orqali amalga oshiriladi:

1. InterAct-XML formati shaklida ma'lumot almashish;
2. FileAct- FileAct formati yoki fayllar ko'rishida ma'lumot almashish;
3. Brose-standart brauzerlar yoki HTTPS (Hyper Text Transfer Protocol over the Secure Socket Layer) protokoli asosidagi veb-serverlar;
4. FIN-MT formatidagi ma'lumot almashish.

2015 yil noyabrda qabul qilingan "SWIFT Standards 2015" bo'yicha ma'lumotni uzatishning (MT-Message Transaction) to'qqizta toifasimavjud. Ular yordamida ma'lumotlar maqsadli yo'naltirilib, moliyaviy operatsiyalar aniq va tez uzatiladi.

1. Toifa: mijozlarning o'tkazmalari va cheklar (Customer Transfers and Checks).

SWIFT tizimi orqali moliyaviy ma'lumotlar uzatilganda pul mablag'larini yuboruvchi yoki oluvchi moliya instituti bo'lmasligi yoki pul mablag'larini yuboruvchi va oluvchi ham moliya instituti bo'lmasligi mumkin;

2. Toifa: moliyaviy tashkilotlarning o'tkazmalari (Financial Institution Transfers).

Moliyaviy institutlar o'rtasida moliyaviy tushumlar, ishtirokchilarning foydasiga yoki boshqa moliyaviy institutlar foydasiga o'tazmalar va pul mablag'larining harakati bo'yicha xabar berilishini ta'minlaydi.

3. Toifa: g'aznachilik bozorlari yoki xalqaro ayriboshlash, Pul bozorlari va Derivativilar (Treasury Markets or Foreign Exchange, Money Markets and Derivatives).

Ushbu toifada ma'lumotlar ishtirokchilariga kelishuvlar ma'lum bo'lib, ularning tasdiqlanishini ta'minlaydi, jumladan, foiz stavkalari bo'yicha kelishuvlar, valyuta-ayriboshlash kontraktlari va moliyalarning depozitga yoki zayomlarga qo'yilishini.

4. Toifa: pul mablag'ini olish va inkasso(Collections and Cash Letters).

Ushbu toifada ma'lumotlar to'lov inkassosi uchun qat'iy belgilangan talablarni qo'ymaydi. Ma'lumotarni qayta ishlashda inkasso bo'yicha o'tkazilib boriladigan ma'lumotlarda to'lovlarhar xil valyutada olib borilishini ko'zda tutmaydi.

5. Toifa: qimmatli qog'ozlar bozorlari (Securities Markets).Ushbu nizom qimmatli qog'ozlarni sotish va to'lash, qimmatli qog'ozlar asosida kreditlash, daromad va kapital bo'yicha xabar berishga mo'ljallangan.

6. Toifa: qimmatbaho metallar va Sindikatlar (Precious Metals and Syndications).

Qimmatbaho metallar operatsiyalari to'g'risida ma'lumotni o'z ichiga oladi, jumladan, hisobot ma'lumotlari, kelishuvlar bo'yicha yo'riqnoma va xabarlar, savdoni tasdiqlash. Bundan tashqari, ushbu toifadagi ma'lumot qimmatbaho metallar bo'yicha sindikatishtirokchilari o'rtasida kelishuvlarni amalga oshirish borasidagi ma'lumotlarni ko'zda tutadi.

7. Toifa: hujjatlashtirilgan akreditivlar va kafolatlar (Documentary Credits and Guarantees).

Ushbu toifada ma'lumotlar akkreditiv va taqdim etilgan kafolatlar bo'yicha ma'lumotlarni uzatish uchun mo'ljallangan ma'lumot formati.

8. Toifa:yo'l cheklari (Travellers Cheques). Yo'l cheklarini sotish va to'lash bo'yicha ma'lumotlarni uzatish uchun mo'ljallangan ma'lumot formati. Ushbu toifa orqali yo'l cheklarining emitentlari va remitentlari o'rtasida ma'lumotlar almashuvi ta'minlanadi.

9. Toifa: naqd pullarni boshqarish (debitva kredit avizo xabarlari) va mijozning maqomi(Cash Management and Customer Status).Ushbu toifada balans

hisobotini (balans operatsiyalari, pul mablag'lari harakati tartibga solinishi bo'yicha ma'lumotlar) va operatsiya ishtirokchilari to'g'risida so'rovlar.

SWIFT tizimiga ulangan banklarda:

- global tizimga kirish va yirik moliya va bank institutlari bilan o'z faoliyatini olib borish imkoni tug'iladi;
- mijozlarga taqdim etayotgan xizmatlarning sifati va turi oshadi;
- to'lovlarni uzatish vaqti qisqaradi;
- moliya va hisob-kitob risklari sezilarli darajada pasayadi;
- to'lovlar sezilarli darajada tushadi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Halqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan hisob-kitob shakllari.
2. Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan akkreditiv shakllari.
3. Akkreditiv asosida hisob-kitob tartibi.
4. Veksellarning turlari va ular bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi.
5. Oddiy ("solo") veksellar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish mexanizmi.
6. O'tkazuvchi ("tratta") veksellar
7. bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish mexanizmi.
8. Hujjatlashtirilgan inkasso yordamida xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi.
9. SWIFT – xalqaro to'lovlarni uzatish tizimi va undan foydalanish tartibi va holati.
10. SWIFT xalqaro to'lov tizimining milliy iqtisodiyotga ta'siri.
11. Xalqaro naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda SWIFT tizimining o'rni.

9- BOB. PUL O'TKAZISH TIZIMLARI

9.1. Pul o'tkazish tizimlari va ularning turlari

Yuqorida ko'rib chiqilgan mavzular asosan naqd pulsiz to'lov tizimlari, ularning xususiyatlari, yangi bank xizmatlariga bag'ishlangan edi. Naqd pulsiz lo'lov tizimlari bilan birga naqd pul o'tkazmalari ham mayjud bo'lib ular ham ma'lum bir tizim asosida amal qiladi.

Boshqa davlatlarda bunday naqd pul o'tkazmalari tizimi ancha yillardan buyon amaliyotga tatbiq qilingan va muvaffaqiyat bilan ishlatilayotgan bo'lsa, respublikamizga bunday tizimlar asosan 2000-yillardan so'ng kirib keldi va bank tizimining yangi xizmat turiaridan bo'lib hisoblanadi. Naqd pul o'tkazmalari globallasuv jarayoning bir debochasi bo'lib hisoblanandi. Naqd pullar ma'lum bir tizim orqali ko'proq rivojlangan davlatlardan iqtisodi asta-sekin rivojlanib kelayotgan davlatlarga, ma'lum bir shaxs nomiga jo'natiladi.

Hozirgi kunda naqd pul o'tkazmalari yangi xizmat turidan biri bo'lishiga qaramasdan, ularning salmog'i yildan-yilga ortib borib, bu xizmat turidan foydalanayotganlar soni toboro ortib bormoqda. Oxirgi yillarda naqd pul o'tkazmalarining salmog'i mamlakat yalpi ichki mahsulotining 5-10 foizini tashkil etmoqda. Buning uchun respublikamizda pul o'tkazmalari infrastrukturasi jadal shakllangan bo'lib, aholiga ushbu xizmat turida samarali foydalanish uchun moslashtirilgan shaxobchalar soni kundan kunga ortib bormoqda.

Demak, naqd pul o'tkazmalari mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida, aholining turmush darajasini oshirishda alohida o'rin tutadi. Pul o'tkazmalari aholining turli qatlamlari uchun chet davlatlarda ishlab topgan qo'shimcha daromadlarini o'z oilalariga yetkazib turish, ota-onalarning o'zidan uzoqda kabi yumushlarini oson hal qiladi, aholi turmush darajasini oshirish va moliya Yositachilarining faollashuviga, shu bilan birga banldar uchun ham qo'shimcha daromad manbayi bo'lib hisoblanadi.

Naqd pul o'tkazmalari yurtimizdan xorijga naqd pul jo'natish va aksincha, xorijdan mamlakatimizga kiritilayotgan pul mablag'larining hajmi yildan yilga

ortib bormoqda. 2002 - yilda mamlakatimizga kiritilgan pul mablag'larining miqdori 225 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2009-yilda esa uning miqdori 1,25 mlrd AQSh dollariga yetdi. Bundan ko'rinib luribdiki, mamlakatimizga kiritilgan pul mablag'larining o'rtacha o'sish sur'ati o'rtacha 49 foizni tashkil etdi. O'zbekistondan xorijga jo'natilayotgan pul miqdori kiritilayotgan pul miqdoriga nisbatan 2 barobar kamdir. Agar 2002-yilda mamlakatimizdan xorijga 86 mln AQSh dollari miqdorida po'l o'tkazilgan bo'lsa, 2008-yilga kelib bu ko'rsatkich 100 mln AQSh dollarini, 2009- yilda esa 126 mln AQSh dollarini tashkil etgan. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyo bo'yicha naqd pul o'tkazmalari miqdori 2009-yilda 268 mlrd AQSh dollarini tashkil qilib, shundan 200 mlrd AQSh dollari migrantlarning o'z uylariga jo'natgan pul mablag'lari bo'lib hisoblanadi.

Umuman butun dunyo bo'yicha amalga oshirilgan pul o'tkazmalarining 70-80 foizi MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi. Naqd pul o'tkazmalari soni ortib borishi pul o'tkazmalari bo'yicha tariflarning pasayishi va xizmat ko'rsatish doirasining tobora kengayib borishi olib keladi. Bunga WESTERN UNION pul o'tkazmalari tizimining Rossiya va MDH davlatlaridagi Yitse prezidenti Djonatan Knausning fikrlari ham isbot bola oladi. Uning fikricha, Naqd pul o'tkazmalari - bu bugungi kunda eng zarur talab qilinayotgan xizmat turi hisoblanib, doimiy ravishda mijozlar soni ortib yurishi va xizmat ko'rsatish doirasining kengayishi, tariflarning pasaytirilishi hamda pul aylanmasining ortishi bilan ifodalanadi.

MDH davlatlari ichida naqd pul o'tkazmalari miqdori bo'yicha Ukraina yetakchilik qilib, Rossiya, Belorusiya, Qozog'iston, Azarbayjon ham pul o'tkazmalari miqdori jihatidan boshqa hamdo'stlik davlatlari ichida yuqori mavqeni egallamoqda.

Shuningdek, O'zbekistonda ham naqd pul o'tkazmalari barqaror rivojlanmoqda va ularning miqdori ortib bormoqda. O'zbekistonda naqd pul o'tkazmalari tizimi bo'yicha bank xizmatlari tijorat banklari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Hammaga ma'lum bo'lganidek, yangi xizmat turi yoki yangi mahsulotning kirib kelishi dastlabki davrda katta miqdordagi xarajatlarni talab etadi. Vaqt o'tishi bilan uni rivojlantirish talab etiladi, bu esa xarajatlarni ham yanada ko'paytiradi, ayni vaqtda ushbu xizmat yoki mahsulot turining raqobatbardoshligini oshiradi. Mamlakatimizda 2002-yilda atigi 3 ta naqd pul o'tkazmalari tizimi amaliyotga tatbiq etilgan edi. Ular AQShning WESTERN UNION, MONEUGRAM va Rossiyaning Bistraya pochta tizimlaridir. Bu davrda ushbu naqd pul otkazmalarining deyarli barchasida ortacha komission baxosi otkazilayotgan pul miqdorining 10 foizi atrofida bo'lgan. 2009—2010-yillarga kelib, respublikamizda 20dan ortiq naqd pul otkazmalari tizimi amal qilib, ularning o'rtacha komission bahosi 2 foizdan 4 foizgacha tashkil qildi. Ayrim banklarda faqat bitta naqd pul o'tkazmalari tizimidan foydalanilsa, ayrim banklarda 5-6 xil naqd pul otkazmalari tizimi aholiga taklif qilinmoqda. Bu esa aholi uchun ancha qulay bo'lib, ular o'z imkoniyati va istagiga qarab nisbatan arzon va qulay pul otkazmasidan foydalanish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, bugungi kunda pulni uch yo'l bilan jonatish mumkin. Bular:

1. Xalqaro pul otkazmalari tizimi orqali. (WESTERN UNION, MONEUGRAM, CONTACT, ANELIK, MIGOM, BLIZKO va boshqalar)
2. Xalqaro SWIFT tizimi orqali.
3. Pochta xizmati orqali.

Yuqorida sanab o'tilganlarning ichida xalqaro pul o'tkazmalari tizimi aholi uchun eng ommalashgan va rivojlangan tizim bo'lib hisoblanadi.

§ 9.2. Pul o'tkazish tizimlari va ularning moliya xizmatlar bozorida tutgan o'rni

Bugun yurtimizdagi tijorat banklari tomonidan aholiga taklif etilayotgan bank xizmat turlari yil sayin ortib bormoqda. Bunday xizmat turlaridan biri – xalqaro pul o'tkazmalaridir.










Xalqaro pul o'tkazmalari - bank hisobini ochmasdan pul o'tkazmalari tizimi, ya'ni pulni jo'natuvchi shaxs uchun ham, pulni oluvchiga ham hisob ochish shart emas.

Jahon iqtisodiyotini globalizatsiya va integratsiya jarayonlari shuni ko'rsatmoqdaki, maddiy – tovar resurslari bilan birga inson kapitalini ham xalqaro miq'yosidagi xarakati oshib bormoqda, bu esa o'z navbatida, aholini xalqaro pul o'tkazmalarga bo'lgan talabi oshib bormoqda.

O'zbekiston aholisi uchun xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro iqtisodiy aloqalarni olib borishda ushbu xizmatning o'rni katta.

Hozirda respublika tijorat banklari bir qator xalqaro pul o'tkazmalarni ta'minlab beruvchi kompaniyalar bilan kelishuv asosida aholiga xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha xizmatlar ko'rsatmoqda.

O'zbekiston tijorat banklari 17 tadan ziyod xalqaro pul o'tkazmalar bilan shugullanadigan kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi: “Western Union”, “MoneyGram”, “Anelik”, “Contact”, “X-press Money”, “Bistraya pochta”, “Lider”, “Migom”, “Unistream”, “Coinstar”, “Blizko”, “Aziya Ekspres”, “Zolotaya Korona”, “BTF-SOYuZ” “PrivatMoney”, “ALLYuR”, “Faster”, “Interexpress” (kazaxskiy bank AO «BTA Bank» - Xamkorbank, HI-TECH BANK.) va boshqa tizimlar.

Rasm. Ayrim xalqaro pul o'tkazma tizimlarini logotiplari.

Ushbu xalqaro pul o'tkazma tizimlari yordamida pul mablag'larini xorijiy mamlakatlarga yuborish yoki xorijiy mamlakatlardan kelgan pul mablag'larini to'lab berish xizmatlarini taklif etadi.

Xalqaro pul o'tkazma tizimlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar quyidagi ustuvorlikni ta'minlab beradi:

- *Xizmatlarni tez amalga oshirilishi.* Bir necha soniyalarda pul o'kazilgandan so'ng pul mablag'ini oluvchi unga tegishli mablag'larni olishi mumkin bo'ladi, lekin bunda mablag' oladigan joyda tizim agentining ish vaqtini inobatga olinishi lozim;

- *Mablag'larni kafolatlanganligi.* Yangi texnologiyalardan samarali foydalangan holda tizimni yuqori darajada xavfsizligini hamda belgilangan muddatda etib borishini ta'minlash bo'yicha kerakli choralar ko'rilgan;

- *Dunyoning keng kamrab olinganligi.* Xalqaro pul o'tkazma tizimlari deyarli barcha davlatlarning banklarida mavjud bo'lib, rezident va norezident shaxslarga pul mablag'larini o'tkazish va qabul qilish xizmatlarini ta'minlab bermoqda.

Ayrim yirik xalqaro pul o'tkazma tizimlarining infrastrukturasi:

- Western Union ning geografiyasi 200 dan ziyod davlatlarning hududlarini qamrab olgan bo'lib, 400 000 ta xizmat ko'rsatuvchi shahobchasi mavjud;
- MoneyGram – 190 davlatda vakillari mavjud;
- Zolotaya Korona – 190 davlatda vakillari mavjud;
- Coinstar – 138davlatda vakillari mavjud;

- Anelik - 82davlatda vakillari mavjud;
- Contact - 91davlatda vakillari mavjud;
- UNISTREAM – 90davlatda vakillari mavjud.

O'zbekiston milliy banklari 2000 yildan buyon xalqaro pul o'tkazma kompaniyalari bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda va banklarning daromadini shakllantirishda muhim o'rin tutmoqda.

Hozirda respublikada xalqaro pul o'tkazmalar tizimlari - jismoniy shaxslarning mablag'larini juda qisqa vaqt ichida o'tkazish imkonini beruvchi bank mahsuloti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Har qanday pul o'tkazish tizimida pullar faqatgina tizimning vakillari yoki vakillari bo'lgan shahardan jo'natishi mumkin. O'zbekiston amaliyotida bu asosan banklar hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar xorijdagi qarindoshiga yoki do'stiga biron bir pul jo'natishi kerak bo'lsa, xalqaro pul o'tkazmalari tizimidan foydalangan holda amalga oshirish mumkin va pul bir necha daqiqada o'tkaziladi. Jismoniy shaxslar pul o'tkazmani jo'natishi yoki qabul qilishi uchun tasdiqlovchi xujjati zarur bo'ladi va o'tkazma pul mablag'larini olish chog'ida tekshiruv raqamini, pul o'tkazmasining miqdorini, shuningdek jo'natuvchining ma'lumotlari va chiqish mamlakatini ko'rsatish talab etiladi.

Xalqaro pul o'tkazmalar faqatgina bitta tizim bilan shartnomani tuzgan va uning agenti sifatida faoliyat yurituvchi banklar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin. Boshqa mamlakatlarda, qonunchilikka muvofiq, banklarga emas, balki boshqa tashkilotlar ham, shu jumladan do'konlar ham agentlik vazifalarini bajarishi mumkin.

Chet elda yoki mamlakat ichkarisida pul o'tkazilayotganda ko'pgina pul o'tkazmalari faqat jismoniy shaxslar o'rtasida amalga oshiriladi, biroq ba'zi pul o'tkazish tizimlari jismoniy shaxslardan yuridik shaxslarga va aksincha, pul o'tkazish imkonini beradi.

Pul o'tkazma tizimidagi mablag'lar zamonaviy ma'lumotlarni uzatish kanallari orqali elektron (naqd pulsiz) shaklda "ko'chiriladi", bu yuqori uzatish

tezligini ta'minlaydi, ammo naqd pulda qabul qilinadi va beriladi. Pulning maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan standart vaqti bir necha daqiqadan bir kungacha.

Pul o'tkazma tizimlarining faoliyati iqtisodiyotning moliya sohasiga bevosita ta'sir etadi. Masalan, O'zbekistonga boshqa davlatlardan pul o'tkazma tizimlari orqali kirib kelayotgan pul mablag'larining miqdori O'zbekistondan boshqa davlatlarga chiqib ketayotgan mablag'larning hajmidan katta bo'lsa, unda bu ijobiy holat deb baholanadi, agar aksi bo'ladigan bo'lsa unda kapitalni chiqib ketish sifatida baholanadi.

Milliy iqtisodiyotda pul o'tkazma tizimlari orqali kirib kelayotgan va chiqib ketayotgan pul resurslarining o'rtasidagi qoldiq ijobiy bo'ladigan bo'lsa unda bu ichki investitsion imkoniyatni oshirishga xizmat qiladi va bu ijobiy baholanadi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Pul o'tkazma tizimlarning iqtisodiyotda tutgn o'rni.
2. Aholining iqtisodiy-ijtimoiy xayotida xalqaro pul-o'tkazma tizimlarning o'rni.
3. Xalqaro pul o'tkazma tizimlarning turlari.
4. Xalqaro pul o'tkazma tizimlarning boshqa tizimlardan ustuvor tomonlari.
5. Xalqaro pul o'tkazma bozorida raqobat muhiti.
6. Xalqaro pul o'tkazma bozorida tijorat banklarning o'rni.
7. Xalqaro pul o'tkazma tizimlaridan foydalanish tartibi.
8. Xalqaro pul o'tkazma tizimlarining faoliyati iqtisodiyotning moliya bozoriga ta'siri.

10-BOB. BANK XAVFSIZLIGINING MAQSADI VA VAZIFALARI

10.1. Bank xavfsizligining maqsadi va vazifalari

Bank faoliyati bevosita risk bilan chambarchas bog'liq faoliyat turi hisoblanadi. Bankning barqaror rivojlanishi uchun unga ta'sir etishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash va oldini olish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bank, uning filiallari hamda xodimlarining xavfsizligini ta'minlash yuzasidan tegishli tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish lozim, shuningdek, bank sirini tashkil etuvchi ishga oid ma'lumotlarning ovoza qilinishini, yo'qolishini, chiqib ketishini, yo'q qilinishini, moddiy-texnika vositalari hamda moliyaviy mablag'larning talon-taroj qilinishini oldini olish zarur. Shu bois bank faoliyatini boshqarishda unga tahlid etayotgan xavf-xatar turlarini o'rganishimiz, potentsial risklarni bahola olishimiz hamda xavfsizlik darajasini oshirish bo'yicha kompleks chora va tadbirlar ishlab chiqishimiz zarur.

“Xavfsizlik” so'zi 1190 yili Evropada paydo bo'lib, inson har hil turdagi xavflardan himoyalangan holatini sezishini hamda uning ruhiyatini tinchligini bildirgan.

XVII asrning boshida ushbu so'z davlat tizimlarida qo'llanila boshlandi va uning mohiyati quyidagicha talqin qilindi:

“Moddiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda real xavf-xatar (moddiy va ma'naviy xavf-xatar) yo'qlik holatida tinch holatini ta'minlab beruvchi shart-sharoitlarni yaratish”.

“Xavfsizlik” so'zi chuqur tarihiy negiziga ega bo'lib, inson jamiyati taraqqiy etishi bilan birga ushbu so'zni mohiyati tubdan o'zgarimasada, lekin uning ta'minlash choralari inson xayotini o'zgarishi bilan birga o'zgarib borgan.

Kredit institutlari tomonidan bank faoliyatini olib borilishi bilan birga xavfsizlik masalasi doimiy kun tartibining birinchi masalalardan hisoblanadi va bugungi kunga kelib, bank xavfsizligini ta'minlashda bir qator choralar qo'llanilayotganligini ko'rish mumkin. Ular quyidagilar:

- ❖ Me'yoriy bazani mustahkamlash (bank tizimi va bank me'yorida);
- ❖ Texnik va dasturiy ta'minot;
- ❖ Tashkiliy chora-tadbirlarni qo'llash.

Me'yoriy bazani mustahkamlash masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, uni makro- va mikrodarajalarda olib borilishini kuzatish mumkin, ya'ni bank tizimi va tijorat banki darajalarida.

Bank tizimi darajasida xavfsizligini ta'minlash asosan davlat huqumati, Markaziy bank hamda bank faoliyatini nazorat qiluvchi xalqaro ko'mita va tashkilotlar (Bazel ko'mitasi, Xalqaro savdo palatasi (UCP - 600) tomonidan yuritilishini ko'rish mumkin.

Bank faoliyatini xavfsizlik masalasiga bag'ishlangan ilmiy ishlar, me'yoriy xujjatlar, uslubiy ko'rsatmalar etarlik bo'lishiga qaramasdan bu banklarning xavfsizligi dolzarb bo'lib qo'lmoqda. Chunki bank faoliyatini yuritish yangi texnologiyalar ta'sirida takomillashib bormoqda, jumladan, mijozlarga xizmat ko'rsatish turi, usul va shakli o'zgarmoqda, bank va mijozlar o'rtasidagi munosabat raqobat muhiti ostida yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Bu esa, bankning ma'lum darajada yangi xavf va xatarlarni keltirib chiqishiga asos bo'lmoqda.

Davlat tomonidan bank faoliyatini xavfsizligini ta'minlash uchun kerakli me'yoriy xujjatlar qabul qilinadi, shuningdek, markaziy banklar tomonidan qonun osti xujjatlari ishlab-chiqiladi. Masalan O'zbekiston Respublika amaliyotini keltiradigan bo'lsak bu masalaga oid bir qator qonunlar qabul qilingan:

- ❖ O'zbekiston Respublikasi "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonun (1995y);
- ❖ O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati tshg'risida"gi Qonun (1996 y);
- ❖ O'zbekiston Respublikasi "Avtomatlashgan bank tizimida axborot xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun (2006 y);
- ❖ O'zbekiston Respublikasi "Bank siri to'g'risida"gi Qonun (2003 y);
- ❖ Va boshqalar.

Markaziy bankning qonun osti xujjatlariga keladigan bo'lsak, deyarli barcha me'yoriy xujjatlarni asosiy maqsadi bankning u yoki bu operatsiyalarini barqaror va xavfsiz amalga oshirish uchun shart-sharoit va zamin yaratishdan iborat.

Tijorat banklari faoliyatini boshlashi bilan bankning xavfsizligini ta'minlab beruvchi dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Buning doirasida banklar:

- ❖ bank sirini saqlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni va tegishli ichki me'yoriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- ❖ bank xodimlarni bajaradigan mansabi doirasidagi funksiyalari;
- ❖ bank mijozlari to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga ta'rqalib ketilishini oldini olish bo'yicha aniq choralar;
- ❖ bank tomonidan qo'llanilayotgan axborot texnologiyalarni xavfsizligini ta'minlash;
- ❖ va boshqalar.

“Bank xavfsizligi” deganda bankning xavfdan himoyalanganlik holati desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirda “bank xavfsizligi” - bu muraqqab, tizimli va har tomonlama bankni faoliyatini himoyalangan holatini anglatadi.

Bank amaliyotida “xavf-xatar” so'zi har doim ishtiroq etadi. “Xavf-xatar” – bu bankning xavf darajasini belgilab beruvchi so'z hisoblanadi.

Bank xavfsizligini ta'minlash masalasi bank faoliyatiga taaluqli keng doiradagi ma'lumot bazasini qayta ishlagan holda uning zaif va xavf-xatarga moil tomonlari aniqlash va kerakli choralarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

10.2. Axborot xavfsizligi va axborotni muhofaza qilish tushunchalari

Axborot xavfsizligi – ko'p qirrali faoliyat sohasi bo'lib, unga faqat tizimli, kompleks yondashuv muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Ushbu muammoni hal etish uchun huquqiy, ma'muriy, protsedurali va dasturiy-texnik choralar qo'llaniladi.

Axborot xavfsizligi deganda tabiiy yoki sun'iy xarakterdagi tasodifiy yoki qasddan qilingan ta'sirlardan axborot va uni qo'llab-quvvatlab turuvchi infratuzilmaning himoyalanganligi tushuniladi. Bunday ta'sirlar axborot

munosabatlariga, jumladan, axborot egalariga, axborotdan foydalanuvchilarga va axborotni muhofaza qilishni ta'minlovchi infratuzilmaga jiddiy zarar etkazishi mumkin.

Konfidentsiallik, butunlik va ruxsat etilganlik axborot xavf sizligini ta'minlash borasida uchta muhim xususiyat hisoblanadi.

– **axborotning konfidentsialligi** – axborotning holati bo'lib, bunda axborotga ruxsat, faqat tegishli huquqqa ega bo'lgan sub'ektlargagina beriladi.

– **axborotning butunligi** – axborotda hech qanday o'zgartirishlar bo'lmagan yoki o'zgartirishlar faqat alohida huquqqa ega bo'lgan sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladigan axborotning holati.

– **axborotning ruxsat etilganligi** – axborotga ruxsat etilgan sub'ektlarning, uni amalga oshirishga to'siqlar mavjud bo'lmagan holati.

Ruxsat etilganlik huquqiga axborotni yoki uning resurslarini o'qish uchun, o'zgartirish, nusxa olish, axborotni yo'q qilish huquqlari kiradi.

Axborotni muhofaza qilish – bu axborot himoya tizimini yaratish bilan bog'liq jarayon. Axborot himoya tizimi hech qachon yuz foizlik himoyani ta'minlay olmasligini anglash muhimdir. Bu esa axborotni mumkin bo'lgan darajadagi o'zgartirish, o'g'irlash yoki yo'q qilish tavakkalchiligiga asoslangan axborot xavfsizligi haqida fikr yuritishni taqozo etadi.

Amalga oshirilish usullariga ko'ra barcha axborot himoyasi choralarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- huquqiy;
- ma'naviy-etik;
- texnologik;
- tashkiliy;
- fizik;
- texnik (qurilmaviy va dasturiy).

Yuqorida qayd etilganlar himoya turlari orasida asosiylari huquqiy, tashkiliy va texnik himoya hisoblanadi.

Huquqiy himoya – axborotni himoyalash bo'yicha sub'ektlarning munosabatlarini tartibga soluvchi, amalda joriy etuvchi hamda ularning bajarilishini nazorat qiluvchi qonunchilik va normativ-xuquqiy hujjatlar asosida axborotni huquqiy usullar bilan himoyalashdir. Axborotni huquqiy himoyalash choralariga O'zbekiston Respublikasining mazkur sohadagi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar kiradi. Axborotga murojaat qilish qoidalari, axborot munosabati qatnashchilari, ularning huquqlari va majburiyatlari, shuningdek, qonunchilik talablari buzilgan hollarda javobgarlik qonunchilik darajasida ko'rib chiqiladi va tartibga solinadi.

Himoyaning tashkiliy choralari – tashkiliy xarakterga ega bo'lgan, axborot tizimi faoliyatini, xodimlar ishini, foydalanuvchilarning tizim bilan o'zaro aloqalarini tashkillashtirishga mo'ljallangan choralardir. Ushbu choralar ichidan quyidagi asosiylarini ko'rsatish mumkin:

- xavfsizlik siyosatini shakllantirish;
- binoga kirishni tartiblash;
- xodimlarning axborot tizimidan foydalanish uchun ruxsat etishni tartiblash;
- axborot xavfsizligi talablariga rioya etmagan hollarda javobgarlikni aniqlash va ta'minlash.

Tashkiliy choralar o'z holicha axborot xavfsizligi vazifalarini hal eta olmaydi. Ular himoyaning fizik va texnik choralari bilan birgalikda ishlashi zarur.

Fizik himoya nazorat qilinuvchi hududga g'arazgo'y kimsalarning jismoniy kirishiga qarshilik qiluvchi vositalar to'plamini anglatadi. Ular turli ko'rinishdagi mexanik, elektr yoki elektro-mexanik qurilmalar bo'lishi mumkin. Korxonalar yoki tashkilotning axborot xavfsizligini ta'minlash odatda, aynan fizik himoyani tashkil etishdan boshlanadi.

Axborot himoyasi choralari orasida **texnik himoya** muhim ahamiyatga ega. U axborot tizimlarida ma'lumotlarni texnik, dasturiy va dasturiy-texnik vositalar yordamida himoya qilishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda «Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunida axborotni muhofaza qilish bo'yicha quyidagi ta'rif keltirilgan:

Axborotni muhofaza etish - axborot borasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari.

Saqlash, o'zgartirish, uzatish va ma'lum maqsadlar uchun foydalanish ob'ekti bo'lgan tevarak olam haqidagi ma'lumotlarni, keng ma'noda axborot deb tushunish mumkin. Bu tushunchaga ko'ra inson, uning hayot tarziga va harakatlariga ta'sir etuvchi doimiy o'zgaruvchi axborot maydoni ta'sirida bo'ladi. Axborot o'z tavsifiga ko'ra siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, ishlab chiqarishga yoki tijoratga oid hamda maxfiy, konfidentsial yoki maxfiy bo'lmagan bo'lishi mumkin.

Maxfiy axborot – foydalanilishi qonun hujjatlariga muvofiq cheklab qo'yiladigan hujjatlashtirilgan axborot.

Hujjatlashtirilgan axborot esa identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborotdir.

Konfidentsial axborot deganda mamlakat qonunchiligi bilan foydalanish cheklanadigan hujjatlardagi axborot tushunilib, unga xizmat, kasbiy, tijorat va boshqa turdagi axborotlar kiradi.

Umuman olganda *axborot muhofaza qilish* yoki *axborot himoyasi* axborot xavfsizligi sohasi mutaxassisleri va g'arazgo'y kimsalar orasidagi qarama-qarshilikni ifodalaydi. *G'arazgo'y kimsa* – noqonuniy yo'llar bilan axborotning qonuniy foydalanuvchilaridan axborotni oluvchi, o'zgartiruvchi yoki yo'q qiluvchi sub'ektdir.

Axborot himoyasi zaif tuzilmali vazifa bo'lib, uni quyidagicha tavsiflash mumkin:

- samarali himoyani tuzishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ko'pligi;
- aniq dastlabki kirish ma'lumotlarining yo'qligi;

– dastlabki ma'lumotlar to'plami bo'yicha aniq optimal natijalarni olish imkonini beradigan matematik usullarning yo'qligi.

Zaif tuzilmali vazifalarni echishda tizimli yondashuv asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli axborot himoyasi masalasini hal etishda xizmat vazifasi axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan elementlar to'plamidan iborat bo'lgan axborot himoya tizimini hosil qilish lozim bo'ladi. Har qanday tizimga kirish – bu tizim holatini o'zgartiruvchi ta'sirlardir. Axborot himoya tizimi uchun kirish ham ichki, ham tashqi tahdidlar hisoblanadi.

Moliyaviy sektor axborot xavfsizligi sohasida eng ilg'orlab ketganlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, AT-resurslarni miqyosli virtualizatsiyasi, mobil aloqaga kirishning tarqalib borishi, bulutli AT-infratuzilmasiga o'tish bilan bog'liq axborot texnologiyalari sohasidagi radikal o'zgarishlar moliyaviy biznes ishtirokchilarini, davlat va xususiy tuzilmalar bilan bir qatorda alohida shaxslarni ham yangi texnologiyalardan va axborot xavfsizligi (AX) vositalaridan foydalanishga majbur qiladi.

Moliyaviy tuzilmalarning bevosita pul bilan bog'liq operatsion faoliyati kiber buzg'unchilar uchun ayniqsa jozibador ko'rinadi. AX sohasidagi mutaxassislar masofali bank xizmatlari ko'rsatishni himoyalashda avvalgidek katta muammolarni ko'rmoqdalar. Bank sohasidagi mug'ombirliklar, ularni katta talafotlar etkazuvchi frod bilan kurashuvchi qimmatbaho tizimlardan foydalanishga majbur qilmoqda.

Paydo bo'lish vaqtidan banklar jinoiy manfaat keltirib chiqargan. Bu manfaat nafaqat kredit tashkilotlarida naqd pul saqlanishi bilan, balki banklarda ko'pchilik odamlar, kompaniyalar, tashkilotlar va hatto butun boshli davlatlarning muhim va ko'pincha maxfiy moliyaviy va xo'jalik faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar to'planishi bilan bog'liq bo'lgan.

Bugungi kunda elektron to'lovlar, plastik kartalar, kompyuter tarmoqlarining keng tarqalaganligi natijasida axborot hurujlarning ob'ektiga aylanmoqda. Pul o'g'irlashga har qanday shaxs urinib ko'rishi mumkin, buning uchun Internet tarmog'iga ulangan kompyuter bo'lsa bas. Bunda bank ichiga jismonan kirish ham

shart emas, undan minglab kilometr uzoq bo'lgan masofadan ham "ishlasa" bo'ladi.

Aynan mana shu muammo hozirda eng dolzarb va eng kam o'rganilgan hisoblanadi. Agar fizik va klassik axborot xavfsizligini ta'minlashda anchadan beri qo'llanilayotgan usullar (hatto rivojlanish bu erda ham bo'layotgan bo'lsada) ishlab chiqilgan bo'lsa, kompyuter texnologiyalarida shiddat bilan sodir bo'layotgan radikal o'zgarishlar tufayli bank axborotlariga ishlov berish avtomatlashtirilgan tizimining xavfsizligi uslublari doimiy yangilanib borishni talab etadi. Amaliyot ko'rsatib turganidek, tarkibida xato bo'lmagan murakkab kompyuter tizimlari mavjud emas.

Yirik bank axborotlariga ishlov berish avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish g'oyasi doimiy ravishda o'zgarib turishi bois axborot tizimlarida topilgan xatoliklar va "tuynuk"larni to'g'irlash ko'p vaqtga etmaydi, chunki yangi kompyuter tizimi yangi muammolar va yangi xatoliklarni tug'diradi, xavfsizlik tizimini qaytadan shakllantirishga majbur qiladi.

Har bir kishi o'zining bankka taqdim qiladigan shaxsiy ma'lumotlarining maxfiy bo'lib qolishiga manfaatdor bo'ladi.

Har qanday bank jinoyati axborotning chiqib ketishidan boshlanadi. Avtomatlashtirilgan bank tizimlari bunday oqib ketishlar uchun yaxshigina kanal bo'lib kelgan. Avtomatlashtirilgan bank tizimlari joriy qilina boshlanganidanoq ular jinoiy harakatlar ob'ekti bo'lgan.



Shunday qilib, 1995 yilning avgust oyida Buyuk Britaniyada 24 yoshlik rossiyalik matematik Vladimir Levin hibsga olindi, u Peterburgdagi o'z uy kompyuteri yordamida yirik AQSh banklaridan biri bo'lgan Citibank bank tizimiga kirishni uddalagan va uning hisob raqamlaridan katta miqdordagi pul mablag'larini echib olishga uringan. Citibankning Moskva shahridagi vakolatxonasining ma'lumot berishicha, shu paytgacha bu ish hech kimni qo'lidan

kelmagan. Citibankning xavfsizlik xizmati bankdan \$2,8 mln o'g'irlashga urinish bo'lganligi, biroq nazorat qiluvchi tizimlar buni aniqlab hisob raqamlarni yopib qo'yganligini ma'lum qildi. Natijada faqatgina \$400 ming o'g'irlangan.

AQShda bank muassasalarining kompyuter ma'lumotlaridan noqonuniy foydalanish natijasida ko'rgan har yillik zarari ekspertlar baholashiga ko'ra \$0,3 dan \$5 mlrdgacha bo'lgan mablag'ni tashkil qiladi.

Shu sababli, banklar axborot xavfsizligining strategiyasi boshqa kompaniyalarning va tashkilotlarning bunday strategiyasidan judda katta farq qiladi. Bu, avvalambor, xavflarning spetsifik xarakteri hamda mijozlar uchun qulay qilish maqsadida hisob raqamlarga kirishni engil qilib qo'yishga majbur bo'lgan banklarning oshkora faoliyati bilan bog'liq.

Oddiy kompaniya o'z axborot xavfsizligini potentsial xavflarning tor doirasidan kelib chiqib barpo etadi. Bunday ma'lumot faqat tor doiradagi manfaatdor shaxslar va tashkilotlarga qiziq bo'lib, kamdan-kam holatlarda likvidli bo'ladi, ya'ni pul shakliga o'tkazila olinadi.

Bankning axborot xavfsizligi quyidagi maxsus omillarni hisobga olishi zarur:

— haqiqiy pul mablag'larini aks etuvchi va bank tizimlarida saqlanuvchi hamda ishlanuvchi ma'lumot. Kompyuter ma'lumotlariga asosan to'lovlar amalga oshirilishi, kreditlar ochilishi, katta miqdordagi mablag'lar hisobdan-hisobga o'tkazilishi mumkin. Ushbu ma'lumotlardan noqonuniy ravishda foydalanish jiddiy zararlarga olib kelish mumkinligi barchaga ayon. Bu xususiyat banklarga (masalan, ichki ma'lumoti juda kam shaxslarga qiziq bo'lgan sanoat kompaniyalaridan farqli ravishda) tajovuz qiluvchi jinoyatchilar doirasini shiddat bilan kengaytiradi.

— bank tizimlaridagi ma'lumotlar ko'p sonli odamlar va tashkilotlar — mijozlarning manfaatlarini qamrab oladi. Odatda, ushbu ma'lumotlar maxfiy bo'ladi va bank o'z mijozlari oldida ularning talab darajasidagi maxfiylikni ta'minlash uchun javobgar bo'ladi. Tabiiyki, mijozlar bank ularning manfaatlarini muhofazasini ta'minlay olishidan xotirjam bo'lishlari zarur, buni o'z bankidan

kutishga haqli, aks holatlarda bank yomon oqibatlarga olib keluvchi o'z obro'yini yo'qotish xavfiga uchraydi.

— bankning raqobatbardoshligi mijozning bank bilan ishlashi qanchalik qulayligi, ko'rsatilayotgan xizmatlar spektri qanchalik kengligi, shu jumladan, uzoqdan kira olish bilan bog'liq xizmatlarning ko'rsata olishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun mijoz o'z mablag'larini tez korlik bilan va ko'p vaqt talab qiladigan protseduralarsiz boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Biroq pullarga bundayosonlik bilan kirib borish bank tizimlariga jinoiy yo'l bilan kirib kelishehtimolini kuchaytiradi.

— bankning axborot xavfsizligi (boshqa ko'pchilik kompaniyalardan farqli ravishda) kompyuter tizimlarining ishini hatto favqulodda holatlarda ham yuqori darajadagi ishonchlilik bilan ta'minlashi zarur, chunki bank nafaqat o'z mablag'ari, balki mijozlar pullari uchun ham javobgar hisoblanadi.

Afsuski, bugungi kunda, yuqori texnologiyalarning rivojlanishi bilan, hatto maxfiy ma'lumotlardan foydalanishga oid ishlarni tartibga solish bo'yicha o'ta qat'iy choralar ham, ularni jismoniy kanallar orqali chiqib ketishini to'saolmaydi. Shuning uchun ma'lumotlarni himoyalashning tizimli yondashuvi axborot xavfsizligini ta'minlash uchun bank tomonidan foydalanilayotgan vositalar va harakatlar (tashkiliy, jismoniy dasturiy-texnik) o'zaro bog'liq, o'zaro to'ldiruvchi va o'zaro harakatlanuvchi choralarning yagona kompleksi sifatida ko'rilishini talab etadi.

Ushbu kompleks nafaqat ma'lumotlarni noqonuniy kirishdan saqlashga, biroq ma'lumotlarni tasodifiy yo'q qilish, o'zgartirish yoki oshkora qilishga hamyo'naltirilgan bo'lishi zarur.

10.3. Banklarda ma'lumotlarga ishlov berish avtomatlashtirilgan tizimlarning xavfsizligi

Banklarda ma'lumotlarga ishlovberish avtomatlashtirilgan tizimlar faoliyatini qasddan buzish muammosi hozirgi vaqtda eng dolzarblardan hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu da'vo axborot infratuzilmasi juda

yaxshi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan qo'llanilishi adolatli bo'ladi, bu haqda quyida keltiriladigan raqamlar qat'iylik bilan guvohlik beradi.

Ma'lumki, 1992 yilda kompyuter jinoyatlaridan ko'rilgan zararlar \$555 mln, 930 ish yili va 15,3 mashina vaqtini tashkil qilgan. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra moliyaviy tashkilotlarning zarari yiliga \$173 mln dan \$41 mlrdgachani tashkil qiladi.

Ushbu misoldan, ishlov berish va ma'lumotlarni himoyalash tizimlari hisoblash tarmog'iga ma'lumotlarni uzatishning potentsial ishonchsiz muhitiga bo'lgandek an'anaviy yondashuvni aks etishi to'g'risida xulosa qilsa bo'ladi.

Dasturiy-texnik muhitning xavfsizligini ta'minlashning bir nechta asosiyusullari mavjud:

— parollar yordamida identifikatsiyalash (autentifikatsiyalash) va avtorizatsiyalash;

— ma'lumot almashish maxsus protokollarida uzatiladigan ma'lumotlarning inkapsulyatsiyasi. Bunday usullardan foydalanish ochiq kalitli shifrlash algoritmlariga asoslangan. Initsializatsiya bosqichida bir juft kalit yaratiladi;

—ochiq va yopiq. Ochiq kalitli shifrlash algoritmlarining mohiyati shundaki, shifrlash va deshifrlash amaliyotlari har xil kalitlar bilan amalga oshiriladi (ochiq va yopiq kalit bilan);

— axborot oqimlarining cheklanishi. Bu, lokal tarmoqni o'zaro bog'liq kichik tarmoqlarga ajratishga va ushbu kichik tarmoqlar orasida ma'lumot uzatishni nazorat qilishga va cheklashga imkon beruvchi hammaga ma'lum bo'lgan texnik usullar.

1) Firewalls (brandmauerlar). Ushbu usul bankning lokal tarmog'i va boshqa tarmoqlar orasida maxsus oraliq serverlar yaratilishini nazarda tutadi, ular o'zlaridan o'tkazadigan ma'lumotlar oqimini (tarmoq/transport darajalari trafigi) inspektsiya qiladi, tahlil qiladi va filtrlaydi. Bu korporativ tarmoqlarga tashqaridan noqonuniy kirib kelish xavfini keskin pasaytirishga imkon beradi, biroq ushbu

xavfni umuman bartaraf qilmaydi. Usulning eng tarqalgan turi – bu maskarad (masquerading) usuli hisoblanadi, bunda lokal tarmoqdan chiqayotgan butun trafik firewall-server nomidan yuboriladi va shu vaqt yopiq lokal tarmoq deyarli ko'rinmay qoladi.

2) Proxy-servers. Ushbu usulda tarmoqda ma'lumot uzatish qoidalariga qat'iy cheklanishlar kiritiladi: lokal va global tarmoqlar orasidagi tarmoq/transport darajalarining butun trafigi butunlay to'xtatiladi – marshrutizatsiya mavjud bo'lmaydi, lokal tarmoqdan global tarmoqqa murojaatlar maxsus oraliq-serverlar orqali amalga oshiriladi.

— virtual xususiy tarmoqlarni (VPN) yaratish ma'lumotning maxfiyliginisamarali ta'minlashga, uni eshitishdan va uzatilishida shovqindan himoyalashga imkon beradi;

— noqonuniy kirishlarni aniqlovchi va zaifliklarni skaner qiluvchi tizimlar tarmoq xavfsizligining qo'shimcha darajasini yaratadi;

Yuqorida keltirilgan usullarni sarhisob qilar ekanmiz, ta'kidlab o'tish joizki, axborot tizimlarini ishlab chiqish parallel ravishda ma'lumotlarni uzatish va himoyalash texnologiyalarini ishlab chiqishni ham talab etadi.

Ushbu texnologiyalar tarmoqni “ishonchli”ga aylantirib uzatilayotgan ma'lumotlarni himoyasini ta'minlashi zarur, biroq ishonchlilik zamonaviy bosqichda jismoniy darajadagi emas, balki mantiqiy (axbrot) darajadagi sifatidatushuniladi.

10.4. Elektron to'lovlarning xavfsizligi

Bugun banklarning aksariyati to'lov amaliyotlarini masofali amalga oshirish uchun u yoki bu kanallarga ega. “To'lovnoma”ni modemli ulanish yoki ajratilgan aloqa liniyasidan foydalangan holda to'g'ridan-to'g'ri ofisdan yuborish mumkin. Bankamaliyotlarini Internet orqali amalga oshirish haqiqat bo'lib qoldi – buning uchun jahon global tarmog'iga ulangan kompyuter va bankda ro'yxatdan o'tgan elektron raqamli imzoning kaliti bo'lsa etarli bo'ladi.

Bank tomonidan masofali xizmat ko'rsatish xususiy biznesning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Bunda quyidagilar ta'minlanadi:

❖ vaqtni iqtisod qilish (bankka shaxsan kelmay turib, to'lovni har qanday vaqtda amalga oshirish mumkin);

❖ ishning qulayligi (barcha amaliyotlar odatiy ish holatida shaxsiy kompyuterdan amalga oshiriladi);

❖ to'lovlarga ishlov berishning yuqori tezligi;

❖ hujjatga ishlov berish jarayonida hujjat holatini monitoring qila olishimkoni;

❖ hisob raqamlarda pul mablag'larining harakatlari haqidama'lumotlarni olish.

Biroq, ochiq-oydin afzalliklarga qaramasdan, elektron to'lovlar unchalik tanilmagan, chunki bank mijozlarining ularning himoyalanganligiga ishonchi to'liq komil emas. Bu, avvalam bor, kompyuter tarmoqlarini qandaydir xaker osonlik bilan "buzishi" mumkin degan fikr bilan bog'liq. Ushbu mif insonning ongida mustahkam o'rnashib olgan, navbatdagi veb-saytlarga uyushtirilgan hujumlar haqida OAVlarda muntazam chop etib borilishi ushbu fikrni yanada mustahkamlab bormoqda.

Ammo zamonlar o'zgarib boradi va elektron aloqa vositalari ertami-kechmi bir hisob raqamidan boshqasiga naqdsiz pul mablag'larini o'tkazishni amalga oshirmoqchito'lovchining shaxsiy mavjudligini o'rnini bosadi.

Elektron – raqamli imzo (ERI) – xavfsizlik kafolati. Bank va mijoz o'rtasida tuzilgan namunaviy shartnomaga muvofiq elektron hujjat ostida vakolatli shaxslarning ro'yxatga olingan elektron – raqamli imzolarining mavjudligi mijozning hisob raqamlarida amaliyotlarni amalga oshirish uchun etarli asos hisoblanadi.

Har bir elektron raqamli imzo kaliti vakolatli shaxsning o'z qo'li bilan qo'yilgan imzoning analogi bo'lib hisoblanadi. Agar tashkilotda qog'ozdagi "to'lovnomalarni" odatda boshliq va bosh hisobchi imzolashsa, elektron tizimda ham shu tartibni saqlab qolish yaxshiroq hisoblanadi va ularga alohida elektron raqamli imzo kalitlaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

ERI kaliti ikki qismdan iborat bo'ladi – yopiq va ochiq. Ochiq kalit egasi tomonidan generatsiya qilinganidan so'ng tasdiqlovchi markazga taqdim

etiladi, uning vazifasini odatda bank bajaradi. Shunday qilib, ERI sertifikatini shakllanadi, uni bank elektron to'lovlar tizimlarida ro'yxatga olish zarur bo'ladi.

ERI yopiq kaliti (mahfiy kalit) uning egasi tomonidan hech qanday holatlarda boshqa shaxslarga berilishi kerak emas. Agar ushbu kalit qisqa vaqtgabo'lsa-da, boshqa shaxsga berilgan yoki biror joyda qarovsiz qoldirilgan bo'lsa, ushbu kalitni ishonchni yo'qotgan (ya'ni nusxalash ehtimoli yoki kalitdan noqonuniy foydalanish nazarda tutiladi) hisoblanadi. Boshqa so'z bilan aytilganda, kalit egasi bo'lmagan shaxs tashkilot rahbariyati tomonidan tasdiqlanmagan elektron hujjatni imzolash imkonini qo'lga kiritadi va bu hujjatni bank ijroga qabul qiladi va to'g'ri qilgan bo'ladi, chunki ERI tekshiruvini uning haqiqiylikini ko'rsatib beradi. Bunday holatda barcha javobgarlik kalit egasi zimmasiga yuklanadi. ERI kaliti egasining harakatlari plastik kartalar yo'qolganda amalga oshiriladigan paytdagidek bo'lishi zarur: kalit egasi xizmat ko'rsatuvchi bankka kalit "ishonchni yo'qotganligi" yo'qotilganligi to'g'risida axborot berishi lozim. Shunda bank o'z to'lov tizimida ushbu ERIning sertifikatini bloklab qo'yadi va qonunbuzar o'zining noqonuniy topilmasidan oydalana olmaydi.

Shunday qilib, biznesda elektron to'lovlarni qo'llash an'anaviy xizmat ko'rsatishga nisbatan katta afzalliklarni taqdim qiladi. ERI kalitlaridan foydalanish va ularni saqlash bo'yicha tavsiyalarni mijoz o'z bankidan olishi mumkin va unga rioya qilsa to'lovlarning ishonchliligi kafolatlanadi.

10.5. Jismoniy shaxslar shaxsiy to'lovlarining xavfsizligi

Xavfsizlik tizimlarining aksariyati jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini yo'qolishini oldini olish maqsadida foydalanuvchidan o'z shaxsini tasdiqlashni talab qiladi. Foydalanuvchini identifikatsiyasi quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- u muayyan bir ma'lumotni (maxfiy kod, parol) biladi;
- u muayyan bir predmetga ega (kartochka, elektron kalit, jeton);
- u shaxsiy xususiyatlar to'plamiga ega (barmoq izlari, qo'l panjalarining shakli, ovoz tembri, ko'z setchatkasining surati va h.k.);

— u maxsus kalit qaerdaligini va undan qanday foydalanishni biladi.

Birinchi usul klaviaturada muayyan kodli ketma-ketlikni terishni talab etadi – shaxsiy identifikatsiya raqamni (Personal identification number – PIN). Odatda ushbu ketma-ketlik foydalanuvchi tranzaktsiyani amalga oshirayotganda kiritilishi lozim bo'lgan 4-8 raqamlardan iborat bo'ladi.

Ikkinchi usul foydalanuvchi tomonidan identifikatsiyalashning muayyan maxsus elementlarini taqdim qilinishini talab etadi – nusxalanmaydigan elektron qurilma, kartochka yoki jetondan o'qib olinadigan kodlarni.

Uchinchi usulda kirish vazifasini inson shaxsining individual va fizik xususiyatlari o'taydi. Har qanday biometrik mahsulotga tanib olishda qo'llaniladigan tegishli tasvirlar yoki boshqa ma'lumotlarni saqlovchi katta hajmdagi ma'lumotlar bazasi hamrohlik qiladi.

To'rtinchi usulda uskunaning yoqilishi yoki kommutatsiya qilinishining alohida printsipli taklif etadi, bu uning ishlashini ta'minlaydi (bu usuldan kamdan-kam foydalaniladi).

Bank ishida ikkinchi guruhdagi shaxsni identifikatsiyalash vositalari ko'proq tarqalgan: aniq bir predmet (kartochka, elektron kalit, jeton). Tabiiyki bunday kalitdan foydalanish birinchi guruhdagi identifikatsiyalash vositalari va usullari bilan hamjihatlikda amalga oshiriladi: ma'lumotdan foydalanish (maxfiy kod, parol).

Keling bank ishida qo'llaniladigan identifikatsiyalash vositalarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Plastik kartalar. Bugungi kunda dunyoning turli davlatlarida bir yarim milliard trofida kartochkalar foydalanishga chiqarilgan. Ulardan eng taniqli bo'lganlari:

- ❖ Visa va Master Card kredit kartochkalari;
- ❖ Eurocheque va Postecheque xalqaro chekli kafolatlar;
- ❖ Sayohatlar va ko'ngilxushliklarni to'lash uchun American Express va Diners Club kartochalari.

Magnit kartochkalari. Bank ishida identifikatsiyalash vositalari sifatida magnit polosali plastik kartochkalar anchadan beri tanilgan va foydalanib kelinmoqda (ko'pchilik tizimlar oddiy kredit kartochkalardan foydalanishga imkon beradi). Ma'lumotni o'qib olish uchun kartochkani (magnit polosa tomoni bilan) riderning (o'qib oluvchi) maxsus tuynugidan o'tkazish zarur. Odatda riderlar tashqi qurilma ko'rinishida ishlangan bo'ladi va kompyuterning izchil ishlaydigan yoki universal porti orqali ulanadi. Riderlar, shuningdek klaviatura bilan birlashtirilgan holda ham ishlab chiqariladi.

Biroq ushbu kartalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari ham mavjud.

Kamchiliklar:

- magnit kartochka qo'l ostidagi usukuna yordamida osonlik bilan nusxalanishi mumkin;
- kirlanish, magnit qatlamiga o'tkazilgan kichik mexanik ta'sir, kartaning elektro magnit maydonlarining kuchli manbalari yon-atrofida bo'lishi kartaning ishdan chiqishiga olib keladi.

Afzalliklar:

- bunday kartalarni chiqarishga va ular orqali xizmat ko'rsatishga xarajatlar unchalik katta bo'lmaydi;
- magnit plastik kartalar industriyasi oxirgi o'n yillar davomida rivojlanib kelgan va hozirgi kunga kelib kartalarning 90% dan ortig'i – bu plastik kartalardir;
- magnit kartalarning qo'llanishi foydalanuvchilarning katta miqdori va kartalarning tez almashib turishi bilan o'zini oqlagan (masalan, mehmonxona nomeriga kirish uchun).

Proximity-kartalar. Umuman olganda – bu elektron jetonlarni rivojlantirish g'oyasi hisoblanadi. Bu qurilma – ichida takrorlanmas kodi yoki radiouzatkihi bo'lgan kontaktsiz kartochka (biroq u brelok yoki braslet). Ma'lumotni o'quvchi uskuna doimiy ravishda elektromagnit energiya tarqatuvchi maxsus antenna bilan jihozlangan. Kartochka ushbu maydonga kirgan zahoti kartochkaning chipiga

ishlov beriladi va karta o'qib oluvchi uskunaga o'zining takrorlanmas kodini yuboradi.

Smart-kartalar. Magnit kartadan farqli ravishda smart-kartada mikroprotssessor va energiya uzatish hamda o'quvchi uskuna bilan ma'lumot almashish uchun kontakt maydonchalari mavjud bo'ladi. Smart-karta himoyanganlikning yuqori darajasiga ega. Smart-kartalar texnologiyasi yigirma yildan beri mavjud va rivojlanib kelmoqda, biroq juda ham keng tarqalishi oxirgi bir necha yillarda ro'y berdi. Smart-karta bilan ishlash uchun kompyuter maxsus qurilma bilan jihozlangan bo'lishi zarur — bu ichki yoki tashqi kartrider. Kartalarning ko'pchiligi autentifikatsiyaning turli xilini (algoritmlarni) ko'zda tutadi. Elektron tanib olish jarayonida uch tomon ishtirok etadi: karta foydalanuvchisi, karta, terminal qurilma (kartani o'qish qurilmasi).

Elektron jetonlar. Hozirgi kunda foydalanuvchilari yoki egalarini identifikatsiyasini talab qiluvchi turli tizimlarda elektron jetonlardan kirish usuli sifatida keng foydalanilmoqda. Bunday jetonning tanilgan namunasi – elektron “tabletka”. “Tabletka” zanglamaydigan po'latdan dumaloq korpusda ishlanadi va ichida takrorlanmas raqami bo'lgan chip o'rnatilgan. Foydalanuvchining autentifikatsiyasi “tabletka”, odatda kompyuterning izchil ishlaydigan portiga ulanadigan maxsus kontakt qurilmaga tegganidan so'ng amalga oshiriladi. Shunday qilib, xonaga kirishga va shuningdek kompyuterda ishlashga ruxsat berish hamda noqonuniy foydalanuvchilarning kompyuterdagi ishini to'xtatish mumkin.

Bank ma'lumotlarini himoya qilish muammosi, uni bez e'tibor qoldirish uchun juda jiddiy hisoblanadi. Oxirgi vaqtda ba'zi banklarda maxfiylik darajasining buzilishi holatlari kuzatilmoqda. Bunga misol qilib turli tijorat kompaniyalari va alohida shaxslar haqidagi ma'lumotlarning kompakt-disklarda erkin foydalanishda paydo bo'lishini keltirsa bo'ladi. Nazariy jihatdan bizning mamlakatimizda bank ma'lumotlarini himoyalashni ta'minlash uchun qonunchilik bazasi etarli, biroq uning amalda qo'llanishi hali ko'ngildagidan ancha yiroq. Hozirga qadar birorta bank ma'lumotni tarqatgani

uchun yoki biror bir kompaniya maxfiy ma'lumotga egalik qilishga o'ringani uchun jazolanganlik holatlarini uchratganimiz yo'q.

Bankdagi ma'lumotlarni himoyalash – bu kompleks masala bo'lib, faqat bank dasturlari doirasida hal bo'lishi mumkin emas. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, bank sohasida ishlayotganda korporativ va tijorat ma'lumotlar yopiq holda bo'lishiga ishonch hosil qilish kerak degan xulosaga kelsa bo'ladi. Biroq nafaqat hujjatlar va boshqa ishlab chiqarish ma'lumotlarini himoyasi uchun, balki tarmoq sozlamalari va kompyuterda tarmoq faoliyatining parametrlari uchun ham qayg'urish zarur bo'ladi.

Bankda ma'lumotlarni himoyalash masalasi boshqa tashkilotlar-nikidan ko'ra ancha jiddiy tarzda qo'yiladi. Ushbu masalani hal qilish o'z ichiga himoyani ta'minlovchi tashkiliy, tizimli chora-tadbirlarni qamrab oladi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

- ❖ Axborot xavfsizligi tushunchasi nimani anglatadi?
- ❖ Axborot xavfsizligining qanday tashkil etuvchilari mavjud?
- ❖ Axborot xavfsizligini ta'minlashning uchta muhim xususiyati nimalardan iborat?
- ❖ Axborotni muhofaza qilish deganda nima tushuniladi?
- ❖ Axborotni muhofaza qilishning qanday usullari va turlari mavjud?
- ❖ Axborotni muhofaza qilish vositalariga nimalar kiradi?

11-BOB. BANK XAVFSIZLIGIGA TA'SIR QULUVCHI XATAR SHAKLLARI

11.1. Bank tizimida axborot xavfsizligi va uni qo'llash imkoniyatlari

Moliyaviy sektor axborot xavfsizligi sohasida eng ilg'orlab ketganlardan hisoblanadi.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalari resurslarni miqyosli virtualizatsiyasi, mobil aloqaga kirishning tarqalib borishi, bulutli axborot texnologiyalari infratuzilmasiga o'tish bilan bog'liq axborot texnologiyalari sohasidagi radikal o'zgarishlar moliyaviy biznes ishtirokchilarini, davlat va xususiy tuzilmalar bilan bir qatorda alohida shaxslarni ham yangi texnologiyalardan va axborot xavfsizligi (AX) vositalaridan foydalanishga majbur qiladi.

Moliyaviy tuzilmalarning bevosita pul bilan bog'liq operatsion faoliyati kiberbuzg'unchilar uchun ayniqsa jozibador ko'rinadi. Axborot xavfsizligi sohasidagi mutaxassislar masofali bank xizmatlari ko'rsatishni himoyalashda avvalgidek katta muammolarni ko'rmoqdalar. Bank sohasidagi mug'ombirliklar, ularni katta talafotlar etkazuvchi frod bilan kurashuvchi qimmatbaho tizimlardan foydalanishga majbur qilmoqda.

Paydo bo'lish vaqtidan banklar jinoiy manfaat keltirib chiqargan. Bu manfaat nafaqat kredit tashkilotlarida naqd pul saqlanishi bilan, balki banklarda ko'pchilik odamlar, kompaniyalar, tashkilotlar va hatto butun boshli davlatlarning muhim va ko'pincha maxfiy moliyaviy va xo'jalik faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar to'planishi bilan bog'liq bo'lgan.

Bugungi kunda elektron to'lovlar, plastik kartalar, kompyuter tarmoqlarining keng tarqalaganligi natijasida axborot hurujlarning ob'ektiga aylanmoqda. Pul o'g'irlashga har qanday shaxs urinib ko'rishi mumkin, buning uchun Internet tarmog'iga ulangan kompyuter bo'lsa bas. Bunda bank ichiga jismonan kirish ham shart emas, undan minglab kilometr uzoq bo'lgan masofadan ham "ishlasi" bo'ladi.

Aynan mana shu muammo hozirda eng dolzarb va eng kam o'rganilgan hisoblanadi. Agar fizik va klassik axborot xavfsizligini ta'minlashda anchadan beri qo'llanilayotgan usullar (hatto rivojlanish bu erda ham bo'layotgan bo'lsada) ishlab chiqilgan bo'lsa, kompyuter texnologiyalarida shiddat bilan sodir bo'layotgan radikal o'zgarishlar tufayli bank axborotlariga ishlov berish avtomatlashtirilgan tizimining xavfsizligi uslublari doimiy yangilanib borishni talab etadi. Amaliyot ko'rsatib turganidek, tarkibida xato bo'lmagan murakkab kompyuter tizimlari mavjud emas.

Har qanday bank jinoyati axborotning chiqib ketishidan boshlanadi. Avtomatlashtirilgan bank tizimlari bunday oqib ketishlar uchun yaxshigina kanal bo'lib kelgan. Avtomatlashtirilgan bank tizimlari joriy qilina boshlanganidanoq ular jinoiy harakatlar ob'ekti bo'lgan.

Shu sababli, banklar axborot xavfsizligining strategiyasi boshqa kompaniyalarning va tashkilotlarning bunday strategiyasidan judda katta farq qiladi. Bu, avvalambor, xavflarning spetsifik xarakteri hamda mijozlar uchun qulay qilish maqsadida hisob raqamlarga kirishni engil qilib qo'yishga majbur bo'lgan banklarning oshkora faoliyati bilan bog'liq.

Oddiy kompaniya o'z axborot xavfsizligini potentsial xavflarning tor doirasidan kelib chiqib barpo etadi. Bunday ma'lumot faqat tor doiradagi manfaatdor shaxslar va tashkilotlarga qiziq bo'lib, kamdan-kam holatlarda likvidli bo'ladi, ya'ni pul shakliga o'tkazila olinadi.

Bankning axborot xavfsizligi quyidagi maxsus omillarni hisobga olishi zarur:

— haqiqiy pul mablag'larini aks etuvchi va bank tizimlarida saqlanuvchi hamda ishlanuvchi ma'lumot. Kompyuter ma'lumotlariga asosan to'lovlar amalga oshirilishi, kreditlar ochilishi, katta miqdordagi mablag'lar hisobdan-hisobga o'tkazilishi mumkin. Ushbu ma'lumotlardan noqonuniy ravishda foydalanish jiddiy zararlarga olib kelish mumkinligi barchaga ayon. Bu xususiyat banklarga (masalan, ichki ma'lumoti juda kam shaxslarga qiziq bo'lgan sanoat

kompaniyalaridan farqli ravishda) tajovuz qiluvchi jinoyatchilar doirasini shiddat bilan kengaytiradi.

— bank tizimlaridagi ma'lumotlar ko'p sonli odamlar va tashkilotlar – mijozlarning manfaatlarini qamrab oladi. Odatda, ushbu ma'lumotlar maxfiy bo'ladi va bank o'z mijozlari oldida ularning talab darajasidagi maxfiylikni ta'minlash uchun javobgar bo'ladi. Tabiiyki, mijozlar bank ularning manfaatlarini muhofazasini ta'minlay olishidan xotiri jam bo'lishlari zarur, buni o'z bankidan kutishga haqli, aks holatlarda bank yomon oqibatlariga olib keluvchi o'z obro'yini yo'qotish xavfiga uchraydi.

— bankning raqobatbardoshligi mijozning bank bilan ishlashi qanchalik qulayligi, ko'rsatilayotgan xizmatlar spektri qanchalik kengligi, shu jumladan, uzoqdan kira olish bilan bog'liq xizmatlarning ko'rsata olishiga bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun mijoz o'z mablag'larini tez korlik bilan va ko'p vaqt talab qiladigan protseduralarsiz boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Biroq pullarga bunday osonlik bilan kirib borish bank tizimlariga jinoiy yo'l bilan kirib kelish ehtimolini kuchaytiradi.

— bankning axborot xavfsizligi (boshqa ko'pchilik kompaniyalardan farqli ravishda) kompyuter tizimlarining ishini hatto favqulodda holatlarda ham yuqori darajadagi ishonchlilik bilan ta'minlashi zarur, chunki bank nafaqat o'z mablag'ari, balki mijozlar pullari uchun ham javobgar hisoblanadi.

Afsuski, bugungi kunda, yuqori texnologiyalarning rivojlanishi bilan, hatto maxfiy ma'lumotlardan foydalanishga oid ishlarni tartibga solish bo'yicha o'ta qat'iy choralar ham, ularni jismoniy kanallar orqali chiqib ketishini to'sa olmaydi. Shuning uchun ma'lumotlarni himoyalashning tizimli yondashuvi axborot xavfsizligini ta'minlash uchun bank tomonidan foydalanilayotgan vositalar va harakatlar (tashkiliy, jismoniy dasturiy-texnik) o'zaro bog'liq, o'zaro to'ldiruvchi va o'zaro harakatlanuvchi choralarning yagona kompleksi sifatida ko'rilishini talab etadi.

Ushbu kompleks nafaqat ma'lumotlarni noqonuniy kirishdan saqlashga, biroq ma'lumotlarni tasodifiy yo'q qilish, o'zgartirish yoki oshkora qilishga ham yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

11.2. Banklarda ma'lumotlarga ishlov berish avtomatlashtirilgan tizimlarning xavfsizligi

Banklarda ma'lumotlarga ishlov berish avtomatlashtirilgan tizimlar faoliyatini qasddan buzish muammosi hozirgi vaqtda eng dolzarblardan hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu da'vo axborot infratuzilmasi juda yaxshi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan qo'llanilishi adolatli bo'ladi, bu haqda quyida keltiriladigan raqamlar qat'iylik bilan guvohlik beradi.

Dasturiy-texnik muhitning xavfsizligini ta'minlashning bir nechta asosiy usullari mavjud:

— parollar yordamida identifikatsiyalash (autentifikatsiyalash) va avtorizatsiyalash.

— ma'lumot almashish maxsus protokollarida uzatiladigan ma'lumotlarning inkapsulyatsiyasi. Bunday usullardan foydalanish ochiq kalitli shifrlash algoritmlariga asoslangan. Initsializatsiya bosqichida bir juft kalit yaratiladi: ochiq va yopiq. Ochiq kalitli shifrlash algoritmlarining mohiyati shundaki, shifrlash va deshifrlash amaliyotlari har xil kalitlar bilan amalga oshiriladi (ochiq va yopiq kalit bilan).

— axborot oqimlarining cheklanishi. Bu, lokal tarmoqni o'zaro bog'liq kichik tarmoqlarga ajratishga va ushbu kichik tarmoqlar orasida ma'lumot uzatishni nazorat qilishga va cheklashga imkon beruvchi hammaga ma'lum bo'lgan texnik usullar.

1) Firewalls (brandmauerlar). Ushbu usul bankning lokal tarmog'i va boshqa tarmoqlar orasida maxsus oraliq serverlar yaratilishini nazarda tutadi, ular o'zlaridan o'tkazadigan ma'lumotlar oqimini (tarmoq/transport darajalari trafigi) inspektsiya qiladi, tahlil qiladi va filtrlaydi. Bu korporativ tarmoqlarga tashqaridan noqonuniy kirib kelish xavfini keskin pasaytirishga imkon beradi, biroq ushbu

xavfni umuman bartaraf qilmaydi. Usulning eng tarqalgan turi – bu maskarad (masquerading) usuli hisoblanadi, bunda lokal tarmoqdan chiqayotgan butun trafik firewall-server nomidan yuboriladi va shu vaqt yopiq lokal tarmoq deyarli ko'rinmay qoladi.

2) Proxy-servers. Ushbu usulda tarmoqda ma'lumot uzatish qoidalariga qat'iy cheklanishlar kiritiladi: lokal va global tarmoqlar orasidagi tarmoq/transport darajalarining butun trafigi butunlay to'xtatiladi – marshrutizatsiya mavjud bo'lmaydi, lokal tarmoqdan global tarmoqqa murojaatlar maxsus oraliq-serverlar orqali amalga oshiriladi.

— virtual xususiy tarmoqlarni (VPN) yaratish ma'lumotning maxfiylikni samarali ta'minlashga, uni eshitishdan va uzatilishida shovqindan himoyalashga imkon beradi.

— noqonuniy kirishlarni aniqlovchi va zaifliklarni skaner qiluvchi tizimlar tarmoq xavfsizligining qo'shimcha darajasini yaratadi.

Yuqorida keltirilgan usullarni sarhisob qilar ekanmiz, ta'kidlab o'tish joizki, axborot tizimlarini ishlab chiqish parallel ravishda ma'lumotlarni uzatish va himoyalash texnologiyalarini ishlab chiqishni ham talab etadi.

Ushbu texnologiyalar tarmoqni "ishonchli"ga aylantirib uzatilayotgan ma'lumotlarni himoyasini ta'minlashi zarur, biroq ishonchlilik zamonaviy bosqichda jismoniy darajadagi emas, balki mantiqiy (axbrot) darajadagi sifatida tushuniladi.

Bugun banklarning aksariyati to'lov amaliyotlarini masofali amalga oshirish uchun u yoki bu kanallarga ega. "To'lovnoma"ni modemli ulanish yoki ajratilgan aloqa liniyasidan foydalangan holda to'g'ridan-to'g'ri ofisdan yuborish mumkin. Bank amaliyotlarini Internet orqali amalga oshirish haqiqat bo'lib qoldi – buning uchun jahon global tarmog'iga ulangan kompyuter va bankda ro'yxatdan o'tgan elektron raqamli imzoning kaliti bo'lsa etarli bo'ladi. Bank tomonidan masofali xizmat ko'rsatish xususiy biznesning samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Bunda quyidagilar ta'minlanadi:

- ❖ vaqtni iqtisod qilish (bankka shaxsan kelmay turib, to'lovni har qanday vaqtda amalga oshirish mumkin);
- ❖ ishning qulayligi (barcha amaliyotlar odatiy ish holatida shaxsiy kompyuterdan amalga oshiriladi);
- ❖ to'lovlarga ishlov berishning yuqori tezligi;
- ❖ hujjatga ishlov berish jarayonida hujjat holatini monitoring qila olish imkoni;
- ❖ hisob raqamlarda pul mablag'larining harakatlari haqida ma'lumotlarni olish.

Biroq, ochiq-oydin afzalliklarga qaramasdan, elektron to'lovlar unchalik tanilmagan, chunki bank mijozlarining ularning himoyalanganligiga ishonchi to'liq komil emas. Bu, avvalam bor, kompyuter tarmoqlarini qandaydir xaker osonlik bilan "buzishi" mumkin degan fikr bilan bog'liq. Ushbu mif insonning ongida mustahkam o'rnashib olgan, navbatdagi veb-saytlarga uyushtirilgan hujumlar haqida OAVlarda muntazam chop etib borilishi ushbu fikrni yanada mustahkamlab bormoqda.

Ammo zamonlar o'zgarib boradi va elektron aloqa vositalari ertami-kechmi bir hisob raqamidan boshqasiga naqdsiz pul mablag'larini o'tkazishni amalga oshirmoqchi to'lovchining shaxsiy mavjudligini o'rnini bosadi.

Elektron – raqamli imzo (ERI) – xavfsizlik kafolati. Bank va mijoz o'rtasida tuzilgan namunaviy shartnomaga muvofiq elektron hujjat ostida vakolatli shaxslarning ro'yxatga olingan elektron – raqamli imzolarining mavjudligi mijozning hisob raqamlarida amaliyotlarni amalga oshirish uchun etarli asos hisoblanadi.

Har bir elektron raqamli imzo kaliti vakolatli shaxsning o'z qo'li bilan qo'yilgan imzoning analogi bo'lib hisoblanadi. Agar tashkilotda qog'ozdagi "to'lovnomalarni" odatda boshliq va bosh hisobchi imzolashsa, elektron tizimda ham shu tartibni saqlab qolish yaxshiroq hisoblanadi va ularga alohida elektron raqamli imzo kalitlaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

ERI kaliti ikki qismdan iborat bo'ladi – yopiq va ochiq. Ochiq kalit egasi tomonidan generatsiya qilinganidan so'ng tasdiqlovchi markazga taqdim etiladi, uning vazifasini odatda bank bajaradi. Shunday qilib, ERI sertifikati shakllanadi, uni bank elektron to'lovlar tizimlarida ro'yxatga olish zarur bo'ladi.

ERI yopiq kaliti (mahfiy kalit) uning egasi tomonidan hech qanday holatlarda boshqa shaxslarga berilishi kerak emas. Agar ushbu kalit qisqa vaqtga bo'lsa-da, boshqa shaxsga berilgan yoki biror joyda qarovsiz qoldirilgan bo'lsa, ushbu kalitni ishonchni yo'qotgan (ya'ni nusxalash ehtimoli yoki kalitdan noqonuniy foydalanish nazarda tutiladi) hisoblanadi. Boshqa so'z bilan aytilganda, kalit egasi bo'lmagan shaxs tashkilot rahbariyati tomonidan tasdiqlanmagan elektron hujjatni imzolash imkonini qo'lga kiritadi va bu hujjatni bank ijroga qabul qiladi va to'g'ri qilgan bo'ladi, chunki ERI tekshiruvi uning haqiqiyligini ko'rsatib beradi. Bunday holatda barcha javobgarlik kalit egasi zimmasiga yuklanadi. ERI kaliti egasining harakatlari plastik kartalar yo'qolganda amalga oshiriladigan paytdagidek bo'lishi zarur: kalit egasi xizmat ko'rsatuvchi bankka kalit "ishonchni yo'qotganligi" yo'qotilganligi to'g'risida axborot berishi lozim. Shunda bank o'z to'lov tizimida ushbu ERI ning sertifikatini bloklab qo'yadi va qonunbuzar o'zining noqonuniy topilmasidan oydalana olmaydi.

Shunday qilib, biznesda elektron to'lovlarni qo'llash an'anaviy xizmat ko'rsatishga nisbatan katta afzalliklarni taqdim qiladi. ERI kalitlaridan foydalanish va ularni saqlash bo'yicha tavsiyalarni mijoz o'z bankidan olishi mumkin va unga rioya qilsa to'lovlarning ishonchliligi kafolatlanadi.

11.3. Jismoniy shaxslar shaxsiy to'lovlarning xavfsizligi

Xavfsizlik tizimlarining aksariyati jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini yo'qolishini oldini olish maqsadida foydalanuvchidan o'z shaxsini tasdiqlashni talab qiladi. Foydalanuvchini identifikatsiyasi quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- u muayyan bir ma'lumotni (maxfiy kod, parol) biladi;
- u muayyan bir predmetga ega (kartochka, elektron kalit, jeton);

- u shaxsiy xususiyatlar to'plamiga ega (barmoq izlari, qo'l panjalarining shakli, ovoz tembri, ko'z setchatkasining surati va h. k.);
- u maxsus kalit qaerdaligini va undan qanday foydalanishni biladi.

Birinchi usul klaviaturada muayyan kodli ketma-ketlikni terishni talab etadi – shaxsiy identifikatsiya raqamni (Personal identification number – PIN). Odatda ushbu ketma-ketlik foydalanuvchi tranzaktsiyani amalga oshirayotganda kiritilishi lozim bo'lgan 4-8 raqamlardan iborat bo'ladi.

Ikkinchi usul foydalanuvchi tomonidan identifikatsiyalashning muayyan maxsus elementlarini taqdim qilinishini talab etadi – nusxalanmaydigan elektron qurilma, kartochka yoki jetondan o'qib olinadigan kodlarni.

Uchinchi usulda kirish vazifasini inson shaxsining individual va fizik xususiyatlari o'taydi. Har qanday biometrik mahsulotga tanib olishda qo'llaniladigan tegishli tasvirlar yoki boshqa ma'lumotlarni saqlovchi katta hajmdagi ma'lumotlar bazasi hamrohlik qiladi.

To'rtinchi usulda uskunaning yoqilishi yoki kommutatsiya qilinishining alohida printsipi taklif etadi, bu uning ishlashini ta'minlaydi (bu usuldan kamdan-kam foydalaniladi).

Bank ishida ikkinchi guruhdagi shaxsni identifikatsiyalash vositalari ko'proq tarqalgan: aniq bir predmet (kartochka, elektron kalit, jeton). Tabiiyki bunday kalitdan foydalanish birinchi guruhdagi identifikatsiyalash vositalari va usullari bilan hamjihatlikda amalga oshiriladi: ma'lumotdan foydalanish (maxfiy kod, parol).

Bankda ma'lumotlarni himoyalash masalasi boshqa tashkilotlarnikidan ko'ra ancha jiddiy tarzda qo'yiladi. Ushbu masalani hal qilish o'z ichiga himoyani ta'minlovchi tashkiliy, tizimli chora-tadbirlarni qamrab oladi.

Bankdagi ma'lumotlarni himoyalash – bu kompleks masala bo'lib, faqat bank dasturlari doirasida hal bo'lishi mumkin emas. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, bank sohasida ishlayotganda korporativ va tijorat ma'lumotlar yopiq holda bo'lishiga ishonch hosil qilish kerak degan xulosaga

kelsa bo'ladi. Biroq nafaqat hujjatlar va boshqa ishlab chiqarish ma'lumotlarini himoyasi uchun, balki tarmoq sozlamalari va kompyuterda tarmoq faoliyatining parametrlari uchun ham qayg'urish zarur bo'ladi.

11.4. Himoyalangan axborotga tahdidlar va himoya ob'ektlarini toifalash

Axborot xavfsizligiga tahdid – axborot xavfsizligi buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan real yoki potentsial xatarlarni ifodalovchi sharoit yoki omillar yig'indisidir. Ana shunday xatarlarni amalga oshirish – hujum deyilib, ushbu vazifani bajaruvchi – g'arazgo'y kimsa deb ataladi.

Axborot xavfsizligiga tahdid manbai – bu axborot xavfsizligiga bevosita tahdidni yuzaga keltirishga sabab bo'luvchi sub'ekt(jismoniy shaxs, moddiy ob'ekt yoki fizik hodisa). Tashkilot ichidagi texnik vositalar, tashkilot xodimlari, g'arazgo'y kimsalar, axborot tizimidagi yondosh fizik hodisalar *tahdid manbai* bo'lishim mumkin. Axborot himoya tizimining kattaliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- maqsad va vazifalar;
- tizimning kirish va chiqishlari;
- tizimning kirish va chiqishini o'zgartiruvchi, tizimdagi ichki jarayonlar.

Maqsad – bu tizim himoyasini hosil qilishda kutilgan natija, vazifa esa – ana shu maqsadga erishish uchun qilinishi kerak bo'lgan ishlar. Axborot himoyasining maqsadi axborot xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi. Axborot xavfsizligi deganda nafaqat axborotning, balki uni qo'llovchi infratuzilmaning xavfsizligini ham tushunish lozim. Agar axborotning o'zini alohida olib qaralsa, u holda axborot xavfsizligi tushunchasi – axborotning himoyalanganlik holatini bildirib, bunda uning konfidentsialligi, butunligi va ruxsat etilganligi ta'minlanadi.

Tahdidlar va himoya ob'ektlarini toifalash. Axborot ayrimsimvollar (belgilar) to'plami sifatida har xil turdagi axborotlashuvchilarda turli shakllarda mavjud bo'lishi mumkin. Axborotlashtirish jarayonlarining jadal suratlar bilan rivojlanish natijasida zamonaviy hisoblash vositalari asosidagi avtomatlashtirilgan

tizimlarda to'planuvchi, saqlanuvchi va qayta ishlanuvchi axborot hajmi tobora ortib bormoqda.

Avtomatlashtirilgan tizim – xodimlardan va qo'yilgan vazifani bajarishda axborot texnologiyasini qo'llovchi avtomatlashtirish vositalari majmuasidan iborat bo'lgan tizimdir. Demak, avtomatlashtirilgan tizim quyidagi qismlar to'plamidan iborat:

- ma'lumotlarni qayta ishlash va uzatish texnik vositalari;
- dasturiy ta'minot;
- turli axborot tashuvchilardagi ma'lumotlar;
- xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va tizim foydalanuvchilari.

Avtomatlashtirilgan tizimda axborot xavfsizligini ta'minlash muammosining asosiy yo'nalishlaridan biri – bu axborot tizimiga mumkin bo'lgan tahdidlarni aniqlash, tahlil qilish va to'idalashdan iborat. Ahamiyati katta bo'lgan tahdidlar ro'yxatini tuzish, ularning ehtimolligini baholash va g'araz niyatli kimsalar tomonidan sodir etilish modelini yaratish himoyaning optimal tizimini hosil qilishda asosiy axborot hisoblanadi.

Axborot xavfsizligiga tahdid – axborot xavfsizligining buzilishiga imkon beruvchi yoki real xatarlarni vujudga keltiruvchi sharoit va omillar to'plamidir.

Avtomatlashtirilgan tizimning axborot xavfsizligiga tahdid – bu avtomatlashtirilgan tizimda qayta ishlanuvchi axborotga, uning konfidentsialligi, butunligi va ruxsat etilganligini buzishga olib keluvchi ta'sirni amalga oshirish imkoniyati. Shuningdek, avtomatlashtirilgan tizimni zaiflashtirish, yo'q qilish yoki izdanchiqarishga olib keluvchi, uning tarkibiy qismlariga ta'sir etish imkonidir.

Axborot xavfsizligiga tahdid manbai – axborot xavfsizligiga tahdidni yuzaga kelishiga bevosita sabab bo'luvchi sub'ektdir.

Avtomatlashtirilgan tizimlarda xavfsizlikni buzishning asosiy manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- avariya yoki tabiiy ofatlar (yong'in, er silkinishi, suv toshqini va boshqalar);
- texnik vositalarning inkor etishi va buzilishi;

– avtomatlashtirilgan tizim qismlarini loyihalash va ishlabchiqishdagi xatolar (dasturiy vositalar, ma'lumotlarni qaytaishlash texnologiyalari, qurilma vositalari va boshqalar);

– foydalanishdagi xatolar;

– tartibbuzarlarning maqsadli harakatlari.

Tahdidlarni toifalashning ko'plab mezonlari mavjud. Ulardankeng tarqalganlari quyidagilar:

1. paydo bo'lish tabiatiga ko'ra: tabiiy va sun'iy.

Tabiiy tahdidlar – bu insonlarga bog'liq bo'lmagan holda ob'ektiv fizik jarayonlar yoki tabiiy ofatlarning avtomatlashtirilgan tizimlar va ularning qismlariga ta'siri tufayli yuzaga keluvchi tahdidlar. O'z navbatida sun'iy tahdidlar – inson faoliyati bilan bog'liq holda kelib chiquvchi avtomatlashtirilgan tizimlarga tahdidlardir.

2. motivatsiya darajasiga ko'ra: oldindan biror maqsadni ko'zlamagan holda (tasodifiy) va oldindan maqsadli (qasddan).

Tasodifiy tahdidlar turli xatolar bilan bog'liq bo'lib, bular avtomatlashtirilgan tizim qismlarini loyihalashdagi, dasturiy ta'minotdagi, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning avtomatlashtirilgan tizim bilan ishlashdagi va shu kabi xatoliklar bo'lishi mumkin.

Oldindan maqsadli tahdidlar g'araz niyatli shaxslarning g'arazli, g'oyali va boshqa maqsadlari bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Bunga sabab moddiy foyda ko'rish, qasos, ma'naviy e'tiqod yoki boshqalar bo'lishi mumkin.

Asosiy **tasodifiy tahdidlarga** quyidagilarni kiritish mumkin:

– tizimning me'yorda faoliyat ko'rsatishini buzilishiga yoki to'liq to'xtab qolishiga olib keluvchi ataylab qilinmagan harakatlar.

Bu toifaga shuningdek, tizimning qurilmalari, dasturlari hamda resurslari buzilishi ham kiradi;

– qurilmani tasodifan o'chirib qo'yish;

– axborot tashuvchilarni tasodifan buzib qo'yish;

– noto'g'ri ishlatilganda tizimning ish faoliyatini izdan chiqarishga qodir bo'lgan (tizimning osilib qolishi) yoki tizimni qaytarib bo'lmas o'zgarishlarga (fayllarni o'chirib tashlash, formatlash va shu kabilar) olib keluvchi dasturiy ta'minotdan foydalanish;

– mansab vazifalarini bajarish uchun kerak bo'lmagan dasturlardan foydalanish. Bularga o'yin, ta'limiy va boshqa dasturlarni kiritish mumkin. Ularni ishlatish tizim resurslarining, xususan, protsessor va tezkor xotiraning maqsadsiz sarflanishiga olibkeladi.

– kompyuterning viruslar bilan tasodifiy zararlanishi;

– ehtiyotsiz harakatlar tufayli konfidentsial ma'lumotlarningoshkor bo'lishi;

– xato ma'lumotlarni kiritish;

– parol, shifrlash kaliti, ruxsatnoma, identifikatsiyalovchikartochka kabi identifikatorlarni yo'qotish, boshqalarga berish yokioshkor qilish;

– zaif joylarga ega bo'lgan tizim yaratish, ma'lumotlarni qaytaishlash texnologiyasidan foydalanish, dasturlarni tuzish;

– xavfsizlik siyosatiga yoki tizim bilan ishlashga o'rnatilganqoidalarga rioya qilmaslik;

– xizmat ko'rsatuvchi xodimlar tomonidan himoya vositalarinio'chirib qo'yish yoki ulardan noto'g'ri foydalanish;

– abonentlar bilan xato elektron manzillar orqali aloqa o'rnatish.

Asosiy **qasddan tahdidlarga** quyidagilarni kiritish mumkin:

– tizim yoki uning alohida tashkil etuvchilari (qurilmalar,axborot tashuvchilar, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar)ning me'yordagifaoliyati buzilishiga, ishdan chiqishiga, xato ishlashiga olib keluvchi fizik ta'sir ko'rsatish;

– hisoblash tizimining faoliyatini ta'minlovchi tizimostilarni o'chirib qo'yish yoki ishdan chiqarish (elektr manba, sovutgich vaventilatsiya, aloqa kanali va boshq.)

– tizimning me'yoriy ishlashini buzishga qaratilgan harakatlar (qurilma yoki dasturlarning ish rejimini o'zgartirish, tizim qurilmalari ishlovchi chastotalarda faol radioshovqinlar hosil qilish va boshq.)

- xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni yoki alohida vakolatga egabo'lgan foydalanuvchilarni shantaj qilish, sotib olish yoki boshqata'sir yo'llarini qo'llash;
- masofaviy foto, videotasvirga olish, eshituvchi qurilmalarni qo'llash va shu kabilar;
- aloqa kanallari orqali uzatiluvchi ma'lumotlarni tutib olish va ularni tizimga kirish qoidalarini, foydalanuvchilarni mualliflashtirish va ularni imitatsiya qilish orqali tizimga kirish yo'llarini aniqlash maqsadida tahlil qilish;
- axborot tashuvchilar (magnit disklar, tasmalar, xotira mikroshemalari, saqlovchi qurilmalar va butun kompyuterlar)ni o'g'rilash;
- axborot tashuvchilardan noqonuniy nusxa ko'chirish;
- ishlab chiqarish chiqindilari (chop etilgan qog'ozlar, yozuvlar, ro'yxatdan chiqarilgan axborot tashuvchilar va boshq.)ni o'g'irlash;
- tashqi xotira qurilmalari yordamida tezkor xotiradagi qoldiqaxborotlarni o'qish;
- ruxsatni chegaralovchi parollarni va boshqa rekvizitlarninoqonuniy (ayg'oqchi orqali, foydalanuvchilarning e'tiborsizligitufayli, tanlash orqali va boshqalar) qo'lga kiritish va ularnikeyinchalik ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi sifatida qo'llash;
- foydalanuvchilarning o'ziga xos fizik tavsifga ega bo'lgan terminallari (masalan, tarmoqdagi ishchi stantsiya raqami, fizik manzil, aloqa tizimidagi manzil va boshqalar)dan noqonuniy foydalanish;
- axborotning kriptohimoyasi shifrini ochish;
- tizimga noqonuniy va yashirin kirish imkonini yaratuvchi«maxsus ilovalar», «o'rnashmalar», «viruslar»ni kiritish va tizimdaro'yxatdan o'tib, undagi ma'lumotlarni uzatish yoki ishdan chiqarishmaqsadida tizim resurslariga noqonuniy ruxsatni amalga oshirish;
- aloqa kanallariga noqonuniy ulanib olish va qonuniy foydalanuvchi ishidagi to'xtash (pauza)lar vaqtida uning nomidan yolg'onxabarlar kiritish uzatilayotgan ma'lumotlarni modifikatsiya qilish;

– aloqa kanallariga, qonuniy foydalanuvchini tizimga kiribolganidan so'ng uni almashtirish hisobiga noqonuniy ulanib olishva keyinchalik noto'g'ri ma'lumotlarni kiritish hamda yolg'on xabarlar berish.

Ta'kidlash joizki, maqsadga erishish uchun g'araz niyatli kimsalar yuqorida keltirilgan usullarning biridan emas, balki ularningbir nechtasidan birgalikda foydalanadilar.

Tahdidlarni toifalashning boshqa mezonlari:

3. Nisbatan nazorat qilinuvchi soha holatiga ko'ra: tashqi vaichki tahdidlar. Tashqi tahdidlarga misol sifatida tizimda uzatiluvchi yoki yondosh elektromagnit nurlanishlar va navodkalar orqalima'lumotlarni tutib olishni keltirish mumkin. Ichki tahdidlarga konfidentsial axborotga ega bo'lgan axborot tashuvchini, qurilma qismini o'g'rilash kabilar kiradi.

4. Avtomatlashtirilgan tizimga ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra: passiv va faol tahdidlar. Passiv tahdidlar – avtomatlashtirilgan tizim tarkibi va faoliyatini buzmaydigan tahdidlardir.

Ularga misol sifatida konfidentsial axborotdan nusxa ko'chirish, axborotni chiqib ketish texnik kanali orqali chiqarib yuborish, eshitish va shu kabilarni keltirish mumkin. Faol tahdid esa mosravishda avtomatlashtirilgan tizim faoliyatini, uning tuzilishi va tarkibini buzilishiga olib keladi.

5. Axborotning buziluvchi xususiyati turiga ko'ra: konfidentsial-likka, ruxsat etilganlikka va butunlikka tahdidlar. Ruxsat etilganlikka tahdidlarga misol tariqasida sun'iy tahdidlar bilan bir qatorda tabiiy tahdidlar, ya'ni chaqmoq yoki qisqa tutashuv oqibatida qurilmalarning buzilishini keltirish mumkin. Hozirgi vaqtda axborotning ruxsat etilganligiga tahdid sifatida tarmoq hujumlari – DDoS (Distributed Denial of Service – xizmat ko'rsatish data qismlangan radetish) – hujumlarkeng qo'llanilmoqda.

Shuningdek, ta'kidlash joizki butunlikning buzilishiga nafaqat ma'lumotlar, balki dasturlar muhiti ham taalluqlidir.

Tizimning virus bilan zararlanishi butunlikka tahdidning amalga oshirilishiga misol bo'la oladi.

Konfidentsiallikka tahdidlarga axborotga noqonuniy ruxsat bilan bog'liq bo'lgan ixtiyoriy tahdidni kiritish mumkin. Masalan, maxsusdastur yordamida tarmoq orqali uzatilayotgan axborotni tutib olishyoki tanlangan paroldan foydalanib, noqonuniy ruxsatga ega bo'lish.

6. Tahdid yo'naltirilgan tizimning turiga ko'ra: avtonom ishjoyi asosidagi tizimlar va umumiy foydalanish tarmog'iga ulangantizimlar.

7. Amalga oshirish usuliga ko'ra: himoyalanuvchi axborotganoqonuniy ruxsat (shu jumladan tasodifiy), axborotga maqsadlita'sir ko'rsatish, axborotni chiqib ketish texnik kanallari orqalichiqarib yuborish.

Eng keng tarqalgan va ommalashgan axborotga tahdid toifalariga: *amalga oshirish usuliga ko'ra* hamda *axborotning buziluvchi xususiyati turiga ko'ralar* kiradi.

11.5. Shifrovchi dasturlar va ularning imkoniyatlari

Bugungi kunda ma'lumotlarni shifrovchi ko'plab dasturlar ishlab chiqilgan. Ular orasida **TrueCrypt** dasturi o'z afzalliklari va yuqori imkoniyati tufayli keng ommalashgan.

Mazkur dasturning o'ziga xos jihati mavjud bo'lib, uning vositasida kompyuterning doimiy xotirasida ma'lum bir soha ajratib olinadi va shifrlangan ma'lumotlar ana shu sohada saqlanadi. Ushbu sohani hosil qilish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Shifrovchi dasturlarning yana bir vakili **AxCrypt** dasturi foydalanish uchun qulay bo'lib, unda ortiqcha sozlash ishlarini amalga oshirish talab etilmaydi. Dastur kompyuterga o'rnatilganda, u *Provodnik*ning kontekstli menyusiga, ya'ni sichqonchanning o'ng tugmasi bosilganda hosil bo'luvchi menyuga joylashadi. Ushbu dastur yordamida shifrlanayotgan yoki shifrdan chiqarilayotgan fayl yoki papka belgilanadi va kontekstli menyudagi **AxCrypt** dasturida kerakli amal tanlanadi.

AxCrypt dasturi quyidagi imkoniyatlarga ega:

– **AES-128** va **SHA-1** shifrlash algoritmidan foydalanib, ma'lumotning asl nusxasi o'rniga yoki alohida yangi shifrlangan faylni hosil qilish;

– dastur orqali hosil qilingan kalitli fayl yordamida himoya qilish;

– o'zi ochiluvchi (**exe** kengaytmali) shifrlangan faylni yaratish.

Bunday holatda shifrlangan ma'lumotni ochish uchun **AxCrypt** dasturi zarur bo'lmaydi. Foydalanuvchi parolni bilishi, agar zaruriyat bo'lsa, kalitli faylga ega bo'lishi kerak;

– shifrlangan faylni shifrdan chiqarmasdan, parol (kalitli fayl) orqali ishga tushirish. Bu holda faylning asl nusxasi axborot tashuvchida hosil bo'lmaydi;

– papkalar ichidagilarni paketli shifrlash;

– o'chirilgan ma'lumotlarni tiklashdan himoyalash. O'chirilgan fayllar egallagan joyga tasodifiy sonlar yoziladi.

Ma'lumki, har qanday yozma hujjatni tayyorlashda muallifning haqiqatan ham asl nusxa ekanligini isbotlovchi shaxsiy imzosini qo'yadi. Bu holat bugungi kunda elektron hujjatlarni tayyorlash va ularni almashishda ham o'z aksini topmoqda. Elektron hujjat bilan ish yuritishda ma'lumotni qabul qiluvchi o'ziga avval berilgan imzoni olingan ma'lumotdagi imzoga solishtirib, uning haqiqiylikini tekshirib olishi mumkin. Shuningdek, imzo ma'lumot hujjatiga yuridik jihatdan mualliflikni kafolatlaydi. Bunday kafolat esa barcha sohalarda, jumladan, bank va savdoda alohida ahamiyatga ega.

Elektron hujjat. Elektron hujjatga O'zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida» 2004 yil 29 apreldagi 611-II-son qonunida quyidagicha ta'rif berilgan: «Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot elektron hujjatdir».

Elektron hujjat texnika vositalaridan va axborot tizimlarixizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratiladi, ishlov beriladi va saqlanadi.

Elektron hujjatning majburiy rekvizitlari quyidagilardan iborat:

– elektron raqamli imzo;

- elektron hujjatni jo'natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki elektron hujjatni jo'natuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- elektron hujjatni jo'natuvchining pochta va elektron manzili;
- hujjat yaratilgan sana.

Qonun hujjatlarida yoki elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining kelishuvi bilan elektron hujjatning boshqa rekvizitlari ham belgilanishi mumkin.

Elektron hujjat qog'oz hujjatga tenglashtiriladi va u bilan teng yuridik kuchga ega bo'ladi.

Elektron hujjat almashish. Bunda hujjat elektron ko'rinishda kompyuter, telekommunikatsiya va Internet tarmog'i orqali uzatiladi. Elektron hujjatlarni almashish jarayonida maxsus ixtisoslashtirilgan tizimlardan (masalan, E-hujjat) yoki elektron pochtaxizmatidan foydalaniladi.

Elektron hujjat almashish tizimlari – elektron hujjatlarni axborot tizimlari orqali jo'natish va qabul qilish jarayonlarining biridir. Elektron hujjat aylanishidan bitimlar (shu jumladan, shartnomalar) tuzish, hisob-kitoblarni, rasmiy va norasmiy yozishmalarni amalga oshirish hamda boshqa axborotlarni almashishda foydalanish mumkin.

Elektron raqamli imzo. Elektron raqamli imzo (ERI) O'zbekiston Respublikasining «Elektron raqamli imzo to'g'risida» 2003 yil 11 dekabrda 562-II-son qonuniga binoan quyidagicha ta'riflanadi: «Elektron raqamli imzo — elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo».

Qonunda talab etilgan shartlarga rioya etilgan taqdirda, elektron raqamli imzo qog'oz hujjatga shaxsan qo'yilgan imzo bilan bir xil ahamiyat, kuchga egadir. ERI manba va ma'lumotlar butligini tekshirish hamda soxtalashtirishdan muhofazalash imkonini beradi.

ERI kalitlari sertifikatlari ro'yxatga olish markazlari tomonidan beriladi.

Elektron kalitlar va sertifikatlar. O'zbekiston Respublikasining «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi qonunida quyidagi asosiy tushunchalarning ta'riflari keltirilgan:

«elektron raqamli imzoning yopiq kaliti – elektron raqamliimzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzoqo'yuvchi shaxsning o'ziga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo'ljallangan belgilar ketmaketligi;

elektron raqamli imzoning ochiq kaliti – elektron raqamliimzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektronraqamli imzoning yopiq kalitiga mos keluvchi, axborot tizimininghar qanday foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tasdiqlash uchunmo'ljallangan belgilar ketma-ketligi;

elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tasdiqlash — elektron raqamli imzoning elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga tegishliligi va elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligi tekshirilgandagi ijobiy natija».

ERI kalitining sertifikati ERIning ochiq kaliti uning yopiqkalitiga mosligini tasdiqlaydigan va yopiq kalitning egasiga ro'yxatga olish markazi tomonidan berilgan hujjatdan iborat bo'ladi.

Bu sertifikat elektron hujjat va qog'oz hujjat shakllarida tayyorlanishi mumkin.

ERI kalitlari sertifikati, uning ochiq va yopiq kalitlaribilan ishlash, fayl va papkalarga ERI qo'yish yoki ularni shifrlash,ERIni tekshirish, shifrlangan ma'lumotlarni ochish kabi amallarnibajarishda ko'pgina maxsus dasturlar, jumladan, «**KriptoARM**» va«**PGP**» dasturlaridan foydalanish mumkin.

KriptoARM dasturi ixtiyoriy ko'rinishdagi elektron hujjataylanishida axborotni himoya qilish vazifalarini hal etish uchunmo'ljallangan. Ushbu dastur foydalanuvchi uchun qulay grafik interfeysga ega bo'lib, kriptografik amallarni bajarish, ma'lumotlarnishifrlash va shifrdan ochish, ma'lumotlarni imzolah va ERIningto'g'riligini tekshirish imkonini beradi. Dastur yordamida oddiysertifikatlar bilan ishlashga oid masalalarni ham bajarish mumkin.

PGP (Pretty Good Privacy) dasturi F. Tsimmerman tomonidanyaratilgan bo'lib, u ma'lumotlarni shifrlash va ularga ERI qo'yishgamo'ljallangan. Ushbu dastur yordamida elektron hujjatlarni ishonchli himoya qilish mumkin. Dastur ochiq kalit orqali shifrlashni amalga oshiradi. Har bir foydalanuvchining ikkita: ochiq va yopiq kalitlari bo'ladi. Ochiq kalit barchaga e'lon qilinadi. Yopiq kalit esa faqat sertifikat egasida bo'lib, uni maxfiy saqlash kerak.

Misol uchun, **X** foydalanuvchi **Y** foydalanuvchiga xabarni shifrlab yubormoqchi bo'lsa, u **Y** foydalanuvchining ochiq kalitidan foydalanib, xabarni shifrlaydi. **Y** foydalanuvchi esa, o'zining yopiq kaliti bilan xabarni shifrdan chiqaradi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

- ❖ Axborotni muhofaza qilish vositalariga nimalar kiradi?
- ❖ Axborotni muhofaza qilish tizimlari qanday vazifani bajaradi?
- ❖ Axborot xavfsizligiga tahdid deganda nima tushuniladi?
- ❖ Axborot xavfsizligi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar nimani ifodalaydi?
- ❖ Axborotni muhofaza qilish sohasida qanday xalqaro standartlar mavjud?
- ❖ Raqamli sertifikatlar nima?
- ❖ Shifrlashga qanaqa talablar qo'yiladi?
- ❖ Qaysi shifrlash algoritmlari keng tarqalgan?
- ❖ Elektron raqamli imzo nima maqsadda ishlatiladi?

12-BOB. BANK XAVFSIZLIGI OB'EKTLARI

12.1 Bank xodimlari - xavfsizlik ob'ekti sifatida

Bank barqaror rivojlanishiga ichki va tashqi tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash va oldini olish, Bank, uning filiallari va xodimlari xavfsizligini ta'minlash yuzasidan tegishli tashkiliy va rejim tadbirlarni amalga oshirish, bank sirini tashkil etuvchi ishga oid ma'lumotlarning ovoza qilinishi, yo'qolishi, chiqib ketishi, yo'q qilinishi, moddiy-texnika vositalari hamda moliyaviy mablag'larning talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik orqali Bankning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash Departamentning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Markaziy bankning asosiy maqsadlaridan biri Respublika bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash, shuningdek to'lov tizimini barqaror va samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi bank tizimi tashkilotlarida axborot xavfsizligini etarli va lozim darajada ta'minlash hisoblanadi, ya'ni aksariyat hollarda avtomatlashtirilgan bank tizimining (ABT), bank texnologik jarayonlarining (to'lov, ma'lumotlari va boshqalar) axborot xavfsizligi darajasini aniqlashdan iboratdir.

Bank tizimining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, alohida tashkilotlarning ish faoliyatidagi negativ holatlar yuzaga kelishi oqibatlari to'lov tizimida tizim inqirozini tez rivojlanishiga olib keladi, mijozlar va mulkdorlar daromadlariga ta'sir qiladi. Axborot xavfsizligida intsident holatlarining yuzaga kelishi bank tizimi tashkilotlariga sezilarli darajada ziyon etish imkoniyatlarini oshiradi. Shuning uchun bank tizimi tashkilotlarining axborotlar aktivlariga tahdid, ya'ni axborot xavfsizligiga xavf tashkilotga ko'rsatiladigan real xavfni ifoda qiladi.

Bunday tahdidlarga qarshi turish va axborot xavfsizligida noxush holatlarni bartaraf etishning samarali chora-tadbirlarini ta'minlash uchun bank tizimi tashkilotlarida axborot xavfsizligi etarli darajada ta'minlanishi, shuningdek bu holatni uzoq vaqt mobaynida saqlab turilishi lozimdir. Ushbu sabablarga ko'ra

bank tizimi tashkilotlarida axborot xavfsizligi masalalari ularning faoliyatida eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Har bir tijorat banki O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Markaziy bankniig me'eri hujjatlari va Ustaviga muvofiq bank xavfsizligini ta'minlashni ishlab chiqadilar.

“O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”, “Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muxofaza qilish to'g'risida”, “Bank siri to'g'risida” va “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 5 fevralda 461-son bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Adliya vazirligida 2000 yil 10 martda 910-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan “O'zbekiston Respublikasining avtomatlashtirilgan bank tizimidagi antivirus himoyasi to'g'risida”gi Nizom kabi qonunchilik me'yoriy hujjatlariga muvofiq bank xavfsizligini ta'minlaydilar.

Tijorat banklarining xavfsizligini ta'minlashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bank to'lov tizimining uzluksiz va beto'xtov ishlashini nazorat qilib borish;

2. Bankning markaziy apparati va filiallarining ichki hamda o'zaro axborot almashinuvida, ma'lumotlar qayta ishlanishi va saqlanishida axborotlar xavfsizligini ta'minlash, bank sirini muhofaza qilish;

3. Axborotning tarqalib ketishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishi, buzib talqin etilishi, to'sib qo'yilishi, qalbakilashtirilishi va undan o'zgacha tarzda ruxsatsiz foydalanilishi, shuningdek nusxa olinishi hamda avtomatlashtirilgan bank tizimiga boshqacha shakldagi aralashuvlarning oldini olish;

4. Axborot muhofaza qilish qoidalarini ishlab chiqish hamda ularga rioya etish, shuningdek avtomatlashtirilgan bank tizimida ishlov beriladigan axborotni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va bajarilishi ustidan nazorat qilish;

5. Axborotni muhofaza qilish texnik va dasturiy vositalaridan foydalanish;

6. Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish;

7. Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborot to'plashga doir faoliyatni va unga ishlov berish usullaridan foydalanishni muvofiqlashtirish yo'li bilan amalga oshirish;

8. Filiallarining hududiy boshqarmalardagi axborot muhofazasi bo'yicha mas'ul xodimlarning ish faoliyatini nazorat qilish;

9. Bank filiallaridagi axborotni muhofaza qilish xizmati zimmasiga bank binolari xavfsizligi, qo'riqlanishi va kirib-chiqish tartibiga rioya etilishi masalalari ustidan umumiy nazorat qilish.

Tijorat banklarida axborotlarni muxofaza qilishning ya'ni Boshqarmaning funktsiyalariga qo'yidagilar kiradi:

1. Bankning avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish ishlarini loyihalashda, sinovdan o'tkazishda va qabul qilib olishda ishtirok etish;

2. Bank axborotlari xavfsizligi va himoyalanihini ta'minlashga yo'naltirilgan ishlarni tashkil etadi hamda amalga oshiradi;

3. Bank binosiga yagona tartibni belgilovchi ruxsatnomalar bilan kirib-chiqish bo'yicha tegishli hujjatlarni ishlab chiqadi;

4. Bank binosiga mijozlar va keluvchilarning ruxsatsiz kirishi, moddiy boyliklarni olib chiqilishi - olib kirilishi ustidan nazorat o'rnatadi, bank binosida xavfsizlikning o'rnatilgan tartibiga rioya qilinishini ta'minlaydi;

5. Bank muassasalarida xavfsizlik va axborotlarni himoyalash, kirib-chiqish tartibi hamda O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi Qonuni talablariga rioya etilishiga oid masalalarni o'rganadi va tekshiradi;

6. Bank muassasalaridan xavfsizlik va axborotlarni himoyalash bo'yicha keladigan so'rovnomalarga tushuntirish javob xatlari tayyorlaydi;

7. Bank muassasalari rahbarlari bilan birgalikda xodimlar hushyorligini oshirish va kirib-chiqish tartibi qoidasiga rioya qilish bo'yicha Bosh ofis, viloyat hamda tuman filiallarida profilaktik ishlarni olib boradi.

Mamlakatimiz tijorat banklari Boshqarmaning huquq va majburiyatlari qo'yidagilardan iboratdir:

1. Xvfsizlikning ahvoli va hujjatli tekshirishlarni amalga oshirish, bank filiallarining ish yuritish tartibi bilan tanishish;

2. Bankning tarkibiy tuzilmalari, filiallardan qo'riqlash xizmatiga oid hamda boshqa shu kabi ma'lumotlarni talab qilib olish;

3. Bank faoliyatining xavfsizligini ta'minlash yuzasidan xizmat surishtiruvini olib borishda bankning boshqa tarkibiy tuzilmalari xodimlarini rahbariyat roziligi bilan jalb etish;

4. Bnk tasarrufidagi filiallarning xavfsizlik va axborotlarni texnik himoya qilish xizmati ishlarini boshqarmaning huquq doirasiga kiruvchi masalalar bo'yicha tekshirish;

5. Videokuzatuv tizimi serverlarini hamda xodimlarning bank binosiga kirib chiqishini nazorat qilish.

Tijorat banklarida xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish maxsus boshqarmasiningmajburiyatlariga qo'yidagilar kiradi:

1. Boshqarmaning faoliyatiga taalluqli xatlarni ko'rib chiqish;

2. Manfaatdor tarkibiy tuzilmalar bilan hamkorlikda qog'ozdagi va elektron formatdagi tarqalishi cheklangan hujjatlar ro'yxatini hamda bu hujjatlardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar doirasini belgilash, bu to'g'risida taklif kiritish;

3. Bank rahbariyatiga imzolash uchun taqdim etilgan, boshqarmaning ishiga taaluqli bo'lgan kiruvchi buyruq, ko'rsatmalar, nizomlar, qoidalar, qo'llanmalar ishlab chiqish;

4. Vazirliklar, mahkamalar, korxonalar hamda tashkilotlar, shuningdek boshqarmaning huquq doirasiga kiruvchi masalalar bo'yicha fuqarolarning xatlari va murojaatnomalariga yozma javob berish;

5. Videokuzatuv tizimi serverlarini hamda xodimlarning bank binosiga kirib chiqishini nazorati bo'yicha rahbariyat uchun vaqti-vaqti bilan tahliliy ma'lumot taqdim etib borish.

6. Boshqarma xodimlarining majburiyatlari, ularning lavozim yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

Tijorat banklarida xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish maxsus boshqarmasining javobgarligiga qo'yidagilar belgilandi:

1. Boshqarma xodimlari o'zlariga yuklatilgan vazifalarning bajarilishiga shaxsan javobgar hisoblanadilar;

2. Boshqarma xodimlari o'z xizmat majburiyatlarini bajarishi tufayli olgan axborotlarining sir tutilishi ta'minlanishi uchun shaxsan javob beradilar.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti bilan hamkorlikda bank manfaatiga zarar keltirishi mumkin bo'lgan hodisalarning oldini olish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi.

Boshqarma o'z xizmat faoliyatida Bosh ofisning tarkibiy tuzilmalari bilan hamkorlik munosabatlarini amalga oshiradi.

a) Kassa operatsiyalari boshqarmasi bilan hamkorlikda bankka taallukli pul va moddiy boyliklarni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

b) Informatsion texnologiyalar boshqarmasi bilan hamkorlikda axborot xavfsizligi va texnik himoyasi bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqadi, bank xodimlari tomonidan ularga rioya qilinishini nazorat qiladi;

3. Ichki audit departamenti bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarida xavfsizlik hamda ichki tartibni saqlash bo'yicha me'yoriy hujjatlarining bank tizimida samarali qo'llanilishini o'rganadi, umumlashtiradi va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi.

4. Kadrlar siyosati boshqarmasi bilan hamkorlikda bank tizimining xavfsizlik boshqarma xodimlari bilan bank xavfsizligi bo'yicha ilg'or zamonaviy tajribalarni o'rganish yuzasidan seminarlar o'tkazadi.

5. Informatsion texnologiyalar boshqarmasi bilan birgalikda bank elektron to'lov tizimi ishiga noqonuniy aralashish, shuningdek kompyuterlardan shaxsiy maqsadlarda foydalanish, modifikatsiyalash, ishdan chiqarish, texnik kanallar orqali axborotlarning chiqib ketishi, elektron va aloqa vositalaridan axborotlarni

noqonuniy olish, ularni buzib ko'rsatish, yo'q qilish, ruxsatsiz nusxa ko'chirish (ko'paytirish, blokirovka qilish) kabilarning oldini oladi.

12.2. Kompyuter tizimlaridan foydalanish huquqini cheklash

Axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy tamoyillarini axborot tizimlaridagi turli aloqa va xavfsizlikni ta'minlovchi tizimlar, umumiy texnik vositalar, aloqa kanallari, dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazalariga ega yagona tizim integratsiyasiga asoslangan kompleks yondashuv tashkil etadi.

Axborot tizimi keng ma'noda olib qaralganda, tizimdan foydalanuvchilarni kerakli axborot bilan ta'minlash uchun zarur bo'lgan texnik, dasturiy va tashkiliy ta'minot hamda xizmat ko'rsatish xodimlarining yig'indisi hisoblanadi.

Axborot xavfsizligi – saqlanuvchi axborotning salbiy ta'sirlardan himoyalanganlik holatidir.

Tarmoq xavfsizligi – tashkilot yoki korxonaning kompyuter tarmog'i infratuzilmasiga hamda undan foydalanishda tarmoq resurslarini ruxsatsiz foydalanishdan himoyalash bo'yicha qo'yiluvchi talablar majmuidir.

Tarmoq xavfsizligi deganda ob'ektning axborot infrastruktururasini (autentifikatsiyalash, mualliflash, tarmoqlararo ekran, ruxsatsiz kirishga harakatlarni aniqlash tizimlari IDS/IPS (Intrusion Detection/Prevention System – yorib kirishlarning aniqlash/oldini olish tizimlari) va boshqa usullar yordamida), tashqaridan g'arazgo'y kimsalarning kirishidan hamda tasodifiy xatolardan (DLP texnologiyasi vositasida), shuningdek ruxsatga ega bo'lgan xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning maqsadli harakatlaridan himoya qilish tushuniladi. DLP (Data Leak Prevention) texnologiyasi – bu axborot tizimidagi konfidentsial axborotlarni ruxsatsiz chiqib ketishidanda dasturiy yoki dasturiy-qurilmaviy vositalarni qo'llash orqali himoya qilishning zamonaviy texnologiyasidir. Bunda chiqib ketish kanallari tarmoqli (masalan, elektron pochta) yoki lokal (tashqi axborot yig'uvchilardan foydalanib) bo'lishi mumkin.

Autentifikatsiya – foydalanuvchining axborot tizimiga kirishi uchun ruxsat berilishida, uning identifikatsiya ma'lumotlarini tekshirish jarayoni.

Mualliflash (Avtorizatsiya) – biror foydalanuvchiga ma'lumotlarni bajarish uchun huquq berish. Mualliflash autentifikatsiyadan keyin amalga oshiriladi va foydalanuvchining qaysi resurslarga ruxsati borligini aniqlashda identifikatordan foydalaniladi. Axborot texnologiyalarida mualliflash yordamida axborot resurslari va qayta ishlash tizimlaridan foydalanishga ruxsathuquqi aniqlanadi va amalga oshiriladi.

Axborotni uzatish va qayta ishlashda **autentlik** – bu axborotning butunligi bo'lib, u ma'lumotlar haqiqatan ham qonuniy foydalanuvchilar tomonidan hosil qilinganligini hamda mualliflikdan bosh tortish imkoniyati yo'qligini tasdiqlaydi.

Axborotni himoya qilish – bu himoyalangan axborotni chiqib ketishi, unga noqonuniy va tasodifiy ta'sir ko'rsatishning oldini olishga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Kompleks xavfsizlik – vujudga kelishi mumkin bo'lgan barcha turdagi tahdidlar (noqonuniy foydalanish, ma'lumotlarni tutib olish, terrorizm, yong'in, tabiiy ofatlar va h.k.)ni majburiy hisobga olib, zamon va makon (faoliyatning barcha texnologik tsikllari) bo'yicha xavfsizlikni ta'minlashning majburiy bo'lgan uzluksiz jarayonini nazarda tutadi.

Kompleks yondashuv qanday shaklda qo'llanilishidan qat'iy nazar, u murakkab va turli yo'nalishdagi xususiy masalalarni, ularning o'zaro chambarchas bog'liqlikdagi eчими bilan hal etiladi. Bunday masalalarning eng dolzarblari bo'lib, axborotlardan foydalanishni cheklash, axborotlarni texnik va kriptografik himoyalash, texnik vositalarning yondosh nurlanishlari darajasini kamaytirish, ob'ektlarning texnik mustahkamlanganligi, ularning qo'riqlash va tahlikadan xabardor qilish (signalizatsiya) qurilmalari bilan jihozlanganligi hisoblanadi.

Foydalanuvchilar, operatorlar, administratorlarga qurilmadan foydalanishga ruxsat berishni tashkil etishda quyidagi harakatlarni amalga oshiriladi:

- ruxsat olayotgan sub'ektni identifikatsiyalash va autentifikatsiyalash;
- qurilmani blokirovkadan chiqarish;
- ruxsat berilgan sub'ektning harakatlarini hisobga olish jurnalini yuritish.

Ruxsat etilgan sub'ektni identifikatsiyalash uchun kompyutertizimlarida ko'p hollarda atributivli identifikatorlardan foydalaniladi. Biometrik identifikatsiyalashning oson yo'li – klaviaturada ishlash ritmi orqali aniqlashdir. Atributivli identifikatorlar ichidan, odatda, quyidagilaridan foydalaniladi:

- parollar;
- echib olinadigan axborot tashuvchilar;
- elektron jetonlar;
- plastik kartochkalar;
- mexanik kalitlar.

Konfidentsial ma'lumotlar bilan ishlaydigan deyarli barchakompyuterlarda foydalanuvchilarni autentifikatsiyalash parollaryordamida amalga oshiriladi.

Parol – bu simvollar (harflar, raqamlar, maxsus belgilar)kombinatsiyasi bo'lib, uni faqat parol egasi bilishi kerak. Ayrimhollarda xavfsizlik tizimi ma'muriga ham ma'lum bo'ladi.

Kompyuterning zamonaviy operatsion tizimlarida paroldanfoydalanish o'rnatilgan. Parol avtonom tok manbaiga ega bo'lganmaxsus xotirada saqlanadi. Parollarni taqqoslash operatsion tizim(OT) yuklangunga qadar amalga oshiriladi. Agar buzg'unchi parol saqlanayotgan xotiraning avtonom tok manbaini o'chirib qo'ya olmaganida,ushbu turdagi himoya juda samarali hisoblanar edi. Lekin, kompyuterning OT yuklanishini amalga oshirish uchun kiritiladigan foydalanuvchi parolidan tashqari, Internetda ro'yxati keltirilgan ayrim«texnologik» parollardan ham foydalanish mumkin.

Ko'pgina kompyuter tizimlarida identifikator sifatida, foydalanishga ruxsat etilgan sub'ektni identifikatsiyalovchi kodyozilgan *echib olinuvchi axborot tashuvchilardan* foydalaniladi.

Foydalanuvchilarni identifikatsiyalashda, tasodifiy identifikatsiyalash kodlarini hosil qiluvchi – elektron jetonlardan kengfoydalaniladi. Jeton – bu, harflar va raqamlarning tasodifiyketma-ketligini (so'zni) yaratuvchi qurilma. Bu so'z kompyuter tizimidagi xuddi shunday so'z bilan taxminan minutiga bir martasinxron tarzda o'zgartirib turiladi. Natijada, faqatgina ma'lumvaqt oralig'ida

va tizimga faqatgina bir marta kirish uchun foydalanishga yaraydigan, bir martalik parol ishlab chiqariladi. Boshqabir turdagi jeton tashqi ko'rinishiga ko'ra kalkulyatorga o'xshabketadi. Autentifikatsiyalash jarayonida kompyuter tizimi foydalanuvchi monitoriga raqamli ketma-ketlikdan iborat so'rov chiqaradi, foydalanuvchi ushbu so'rovni jeton tugmalari orqali kiritadi.

Bunda jeton o'z indikatorida akslanadigan javob ketma-ketligini ishlab chiqadi va foydalanuvchi ushbu ketma-ketlikni kompyutertizimiga kiritadi. Natijada, yana bir bor bir martalik qaytarilmaydigan parol olinadi. Jetonsiz tizimga kirishning imkonibo'lmaydi. Jetondan foylanishdan avval unga foydalanuvchi o'zining shaxsiy parolini kiritishi lozim.

Autentifikatsiyalash jarayoni kompyuter tizimlari bilan ruxsat etilgan sub'ekt orasida amalga oshiriladigan muloqotni hamo'z ichiga olishi mumkin. Ruxsat etilgan sub'ektga bir qator savollar beriladi, olingan javoblar tahlil qilinadi va ruxsat etilgan sub'ektning aslligi bo'yicha yakuniy xulosa qilinadi.

Kompyuter tizimlari qurilmalaridan foydalanishga ruxsat nimasofadan turib boshqarish mumkin. Masalan, lokal tarmoqlarda ishchi stantsiyaning tarmoqqa ulanishini administrator ish joyidanturib blokirovka qilishi mumkin. Qurilmalardan foydalanishga ruxsat etishni tok manbaini uzib qo'yish orqali ham samarali boshqarish mumkin. Bunda ishdan boshqa vaqtlarda, tok manbai qo'riqlash xizmati tomonidan nazorat qilinadigan kommutatsiyali qurilmalari yordamida uzib qo'yiladi.

Xizmat ko'rsatuvchi xodimning qurilmadan foydalanishiga ruxsat etishni tashkil etish foydalanuvchiga berilgan ruxsatdan farqlanadi. Eng avvalo, qurilma konfidentsial ma'lumotlardan tozalanadi hamda axborot almashinish imkonini beruvchi aloqalar uziladi.

Qurilmaga texnik xizmat ko'rsatish va uning ish qobiliyatini tiklash mansabdor shaxs nazorati ostida amalga oshiriladi. Bunda ichki montaj va bloklarni almashtirishga bog'liq ishlarni amalga oshirilishiga jiddiy e'tibor beriladi.

12.3. Zararlantiruvchi dasturiy ta'minot

Zararlantiruvchi dasturiy ta'minot, avvalo kompyuter viruslari axborot tizimiga jiddiy xavfni yuzaga keltiradi. Bu xavfni mensimaslik foydalanuvchi axboroti uchun jiddiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. O'z vaqtida kompyuter viruslari tahdidlariga o'ta yuqori e'tibor qaratish ham axborot tarmog'ining imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zararlantiruvchi dasturiy ta'minot ta'siri mexanizmlari hamda ularga qarshi kurashish usul va vositalarini bilish, ularning kompyuter va axborotlarga zarar etkazishiga qarshi kurashni samarali tashkil etishga imkon yaratadi.

Axborot tizimida zararlantiruvchi dastur ta'minoti mavjudligini foydalanuvchi quyidagi belgilar orqali bilib olishi mumkin:

- ekranda zararlanganlik yoki zararlanish ehtimoli mavjudligi haqida antivirus vositalarining xabarlari paydo bo'lishi, antivirus vositalarining o'z-o'zidan ishlamay qolishi;

- monitor yoki printerga uzatiluvchi xabarlar, tovush effekt lari, dasturlarning tasodifan ishga tushib ketishi, fayllarning o'chirib yuborilishi kabi tizimda virus mavjudligini bildiruvchi belgilar;

- kompyuter tizimining qurilma va dasturiy ta'minotidagi ishdan chiqishlar, u yoki bu ma'lumotni qayta ishlash vaqtining cho'zilib ketishi, disklardagi bo'sh joylarning asossiz kamayib ketishi, skaner-dasturlar tomonidan virusni skaner qilishni rad etilishi, tizimning «osilib qolish»i va boshqalar;

- foydalanuvchi tomonidan elektron pochta orqali yuborilmaganxabarlarning tarqatilishi.

Zararlantiruvchi dastur (Malware, malicioussoftware –g'arazmaqsadli dasturiy ta'minot) – bu axborot tizimi resurslariga, mavjud qoidalarni chetlab o'tish orqali, ruxsatsiz kirishni amalga oshirish yoki ta'sir ko'rsatish uchun mo'ljallangan har qanday dasturiy ta'minotdir.

Dasturiy ta'minotning zararliligi yoki foydaliligini ko'p jihatdan foydalanuvchi tomonidan yoki uni qo'llash usuli bilan belgilanadi. Zararlantiruvchi dasturlarning umume'tirof etilgan klassifikatsiyasi (toifalanishi) hozirgacha mavjud

emas. Bu boradabirinchi urinishlar o'tgan asrning 90-yillarida CARO (ComputerAntiVirusResearcher'sOrganization) antivirus mutaxassislari alyansi tomonidan amalga oshirilgan.

Biroq, vaqt o'tishi bilan zararlantiruvchi dasturlarning shiddat bilan rivojlanib ketishi, yangi platformalarning yaratilishi hamda antivirus kompaniyalari sonining ortib borishi natijasida CARO tizimi ishlamay qo'ydi. Uning ishlamay qolishiga yanada ko'proq ta'sir qilgan sabab, bu turli antivirus kompaniyalarining detektorlash tizimi texnologiyalari turlicha bo'lib, buning natijasida turli antivirus dasturlarining tekshirish natijalarini yaqqol taqqoslashning imkoni bo'lmay qoldi. Shunday bo'lsa-da, ba'zan antivirus dasturlari tomonidan detektorlanuvchi ob'ektlarni yangi umumiy klassifikatsiyasini ishlab chiqishga harakatlar qilinmoqda. Bu borada so'nggi e'tiborli loyiha CME (Common Malware Enumeration) standartining tuzilishi bo'lib, uning mohiyati bir xil toifadagi detektorlanuvchi ob'ektlarga yagona identifikator berishdan iborat.

«Kasperskiy laboratoriyasi» kompaniyasi tomonidan taklif etilgan klassifikatsiyaga ko'ra, undagi mutaxassislar zararlantiruvchi dasturiy ta'minotni zararlantiruvchi dasturlar (Malware) va eng keraksiz dasturlarga (PUPs, Potentially Unwanted Programs) ajratishni taklif etadilar. O'z navbatida zararlantiruvchi dasturlarga quyidagilar kiradi: kompyuter virusi va qurtlar, troyan dasturlari, shubhali tahlovchilar (upakovkalovchilar) va zararlantiruvchi utilitlar.

Kompyuter viruslari va qurtlar. «Kompyuter virusi» degani bora bugungi kunda hech kimni ajablantirmaydi. Bu tushuncha o'tgan asrning 80-yillarida paydo bo'lib, zararlantiruvchi dasturlar biologik viruslarga xos bo'lgan belgilarga ega bo'lganligi sababli shunday nomlangan. Ular kompyuter tizimiga tezkor va sezdirmay kiribborib, tez tarqalish, ko'payish, zararlash hamda tizim faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Axborot tizimlari bilan ishlashda «virus» atamasi bilan birga «zararlanish», «tarqalish muhiti», «profilaktika» kabi tushunchalardan ham foydalaniladi.

Kompyuter virusi – bu kompyuter yoki kompyuter tizimida foydalanuvchiga bo'ysunmagan holda tarqalish va o'z-o'zidan

ko'payishxususiyatiga ega bo'lgan kichik o'lchamli bajariluvchi yoki interpretatsiyalanuvchi dasturlardir. Ulardan olingan nusxalar ham shunday xususiyatlarga ega bo'ladi. Viruslar axborot saqlanuvchi ob'ektda yokikompyuter tarmog'i qurilmalarida saqlanuvchi ma'lumotlarni o'zgartirish yoki yo'q qilib yuborishga mo'ljallanishi mumkin. Viruslartarqalish jarayonida o'zini modifikatsiya qilishi mumkin.

Cherviyaklar viruslarga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular boshqafayllarga zarar etkazmagan holda o'z-o'zidan ko'payishi mumkin. Ubir kompyuterga kirib olgach, boshqa kompyuterlarga tarqalish yo'llarini qidiradi. Qurt – bu alohida fayl, virus esa mavjudfayllarga kiritiluvchi kod.

Kompyuter virusi va qurtlar toifasiga quyidagilar kiradi:

Virus (virus) – kompyuterning lokal resurslari bo'yicha foydalanuvchi ixtiyoridan tashqari noqonuniy ravishda o'z-o'zidan ko'payishxususiyatiga ega bo'lgan zararlantiruvchi dastur. Chervyaklardan farqliravishda viruslar boshqa kompyuterlarga tarqalish va kirishi uchuntarmoq servislaridan foydalanmaydilar. Virus nusxasi boshqakompyuterga faqatgina zararlangan ob'ektning o'sha kompyuterdafaollashtirilishi tufayli o'tishi mumkin. Masalan:

- virus tarmoq resursida joylashgan faylga kirib olganda;
- virus axborot tashuvchiga o'z nusxasini ko'chirib, undagi fayllarni zararlaganda;
- foydalanuvchi virus bilan zararlangan ilovani elektronpochta orqali yuborganda.

Worm – kompyuter tarmoqlarida, uning resurslariorqali foydalanuvchi ixtiyoridan tashqari noqonuniy ravishda o'zo'zidan ko'payish xususiyatiga ega bo'lgan zararlovcchi dastur. Qurtnifaollashtirish uchun foydalanuvchi uni ishga tushirishi kerak.

Bunday toifadagi qurtlar tarmoqda o'qish va yozish uchun ruxsati bo'lgan tarmoq katalogiga ega kompyuterlarni qidirib, ularga o'ziningnusxasini ko'chiradi.

Net-Worm – kompyuter tarmoqlarida foydalanuvchi ixtiyoridan tashqari noqonuniy ravishda o'z-o'zidan ko'payishxususiyatiga ega bo'lgan zararlovchi dastur.

Troyan dasturlari. Bunday zararlovchi dasturlar tashqaridan qaraganda qonuniy dasturiy mahsulot ko'rinishida bo'lib, ishgatushirilganda ma'lumotlarni yo'q qilishga, blokirovka qilishga, modifikatsiya yoki axborotdan nusxa olishga, kompyuter yoki kompyuter tarmog'i faoliyatini ishdan chiqarishga yo'naltirilgan noqonuniy harakatlarni amalga oshiradi. Virus va qurtlardan farqli ravishda, bunday toifadagi zararlovchi dasturlar o'zlarining nusxasini yaratish imkoniga ega emas.

Backdoor (bekdor) – zararlangan kompyuterni g'arazgo'y kimsa tomonidan yashirin tarzda boshqarish uchun mo'ljallangan zararlovchi dastur. Bunday zararlovchi dasturlar kompyuterda muallif tomonidan qo'yilgan barcha vazifalarni: fayllarni qabul qilish va yuborish, ularni ishga tushirish va yo'q qilish, xabarlarni chiqarish, ma'lumotlarni o'chirish, kompyuterni qayta ishga tushirish kabilarni bajarish imkonini beradi.

Exploit (eksployt) – oldindan g'arazli maqsadni ko'zlovchi, lokalyoki tarmoqqa ulangan kompyuterdagi dasturiy ta'minotning zaifjoylaridan foydalanish imkonini beruvchi, ma'lumotlar yoki bajariluvchi kodlarga ega bo'lgan dasturlar. Odatda, eksploytlar g'arazgo'y kimsalar tomonidan kompyuterga kirish va keyinchalik unga zararlovchi kodlarni yuborish maqsadida foydalaniladi (masalan, sindirilgan Web-saytga kiruvchi barcha foydalanuvchilarni zararlash).

Rootkit – tizimdagi alohida ob'ektlarni ochish yoki faollashtirish uchun mo'ljallangan dastur. Odatda, ular yordamida reestr kalitlari, fayllar yoki zararlangan kompyuter xotirasidagi jarayonlar ochilishi mumkin. Rootkit o'z-o'zidan hech qachon zarar keltirmaydi, biroq bu turdagi dasturlar aksariyat hollarda zararlantiruvchi dasturlar tomonidan o'zining xususiy yashash vaqtini uzaytirish uchun foydalaniladi.

Trojan – noqonuniy harakatlarni amalga oshirish orqali ma'lumotlarni yo'q qilishga, blokirovka qilishga, modifikatsiya yoki axborotdan nusxa olishga,

shuningdek, kompyuter yoki kompyuter tarmog'i faoliyatini ishdan chiqarishga mo'ljallangan zararlovchi dastur. U o'z toifasidagi boshqa dasturlarning birortasiga o'xshamaydi.

Trojanlarga shuningdek, «ko'pmaqsadli» trojan dasturlari ham kiradi. Ular bir vaqtning o'zida bir nechta ruxsat etilmagan noqonuniy harakatlarni sodir etishga qodir bo'lib, ularning birortasiga alohida yondashib bo'lmaydi. Bir biridan farq qiluvchi harakatlarni amalga oshiradigan hamda «jabrlanuvchi»ga har xil ta'sir ko'rsatuvchi trojan dasturlarning ko'plab turlari mavjud. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

Trojan-Banker – foydalanuvchining bank tizimlariga, elektron mablag'larga va plastik kartalariga taalluqli axborotlarni o'g'rilashga mo'ljallangan.

Trojan-Dropper – foydalanuvchining kompyuteriga noqonuniy tarzda zararlovchi dasturlarni yashirin ravishda installyatsiya qilishga mo'ljallangan.

Trojan-Proxy – noqonuniy tarzda foydalanuvchining kompyuteri orqali anonim ravishda turli internet resurslariga ruxsat berishni amalga oshirish uchun mo'ljallangan.

Trojan-Clicker – noqonuniy foydalanuvchi tomonidan Internet resurslariga murojaatni amalga oshirish uchun mo'ljallangan (odatda Web-sahifalarga).

Trojan-PSW (Password-Stealing-Ware) – zararlangan kompyuterdan foydalanuvchining akkauntlari (login va parol)ni o'g'rilash uchun mo'ljallangan.

Trojan-DDoS – noqonuniy foydalanuvchi tomonidan zararlangan kompyuter orqali oldindan aniqlangan manzilga DoS-hujum uyushtirish uchun mo'ljallangan.

Trojan-Downloader – noqonuniy foydalanuvchi tomonidan zararlangan kompyuterga zararlovchi dasturlarning yangi versiyalarini o'rnatish va ishga tushirish uchun mo'ljallangan. Internetdan yuklangan dasturlar yoki ishga tushiriladi yoki operatsion tizim imkoniyatlariga mos ravishda avtomat tarzda yuklash uchun trojan dasturi tomonidan ro'yxatga olinadi.

Trojan-Spy – foydalanuvchi ortidan elektron ayg'oqchilik qilish uchun mo'ljallangan. Olingan ma'lumotlar (klaviatura orqali kiritiluvchi ma'lumotlar,

ekrandagi tasvirlar, faol ilovalar ro'yxativa boshq.). g'arazgo'y kimsaga uzatib turiladi.

Shubxali tahlovchilar. Bunday turdagi zararlovchi dasturlar maxsus usul bilan taxlashni amalga oshirib, shifrlangan fayllarni keyinchalik qayta tiklashda evristik usullardan foydalanishni murakkablashtiradi.

Zararlovchi utilitlar – boshqa turdagi viruslarni, troyan yoki qurtlarni yaratishni avtomatlashtirish, serverga DoS-hujumlarni uyushtirish, kompyuterni ishdan chiqarish kabilarni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan zararlovchi dasturlardir. Virus, troyan yoki qurtlardan farqli ravishda bunday toifadagi dasturlar o'zlari ish yurituvchi kompyuterlarga to'g'ridan-to'g'ri xavf tug'dirmaydi. Ularni ajratib turuvchi asosiy jihati – bu ular tomonidan amalga oshiriladigan harakatlardir.

Bunday toifadagi dasturlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

Constructor – yangi kompyuter viruslari, qurtlari va troyan dasturlarini tayyorlash uchun mo'ljallangan dasturlar.

HackTool – noqonuniy foydalanuvchi tomonidan lokal kompyuter yoki tarmoqdagi kompyuterga hujumlar uyushtirish uchun foydalaniladigan dasturlar.

Spoofers– jo'natuvchining qalbaki manzili orqali xabarlar vatarmoq so'rovlarini yuborish imkonini beruvchi dasturlar.

DoS – kompyuterlarga DoS-hujumlarni uyushtirish uchun mo'ljallangan dasturlar.

12.4. Xorijiy mamlakatlarda axborotni muhofaza qilish tizimi

Mamlakatning tahdidlarga mos aks ta'sir ko'rsatish layoqatiga ega bo'lgan axborot xavfsizlik tizimini yaratish uchun, rivojlangan chet el mamlakatlarida axborot urushining zamonaviy kontseptsiyalari, o'ziga xos xususiyatlari, axborot qurolining turlari va qo'llashsamaradorligi, shuningdek, chet el mamlakatlarida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari qay tarzda echilishi haqida aniq bir tasavvurga ega bo'lish kerak.

Axborot quroli deb nomlanuvchi vositalar:

- axborot massivlarini yo'q qilish, buzish yoki o'g'irlash;
- himoya tizimlarini engish;
- qonuniy foydalanuvchilar huquqlarini cheklash;
- kompyuter tizimlarini, texnik vositalarni ishini izdanchiqarish;
- shular kabi boshqa amallarni bajaradi.

Hozirda hujumkor axborot quroliga quyidagilarni keltirish mumkin:

- ko'payish, dasturlarga kirish, aloqa liniyalari, ma'lumotuzatish tarmog'i orqali uzatish, boshqaruv tizimini ishdan chiqarishva shu kabi boshqa qobiliyatlarga ega bo'lgan kompyuter viruslari;

- mantiqiy bomba – dasturiy o'rnatma qurilmalari, signal bo'yichayoki aniq vaqtda harakatga keltirish uchun harbiy yoki fuqarolik infratuzilma axborot-boshqaruv markazlariga oldindan kirgiziladi;

- telekommunikatsiya tarmoqlarida axborot almashishinisusaytiruvchi, davlat yoki harbiy boshqarish kanallarida axborotnisoxtalashtiruvchi vositalar;

- tekshiruvchi dasturlarni neytrallashtiruvchi vositalari;

- ob'ektning dasturiy ta'minotiga raqib tomonidan ongliravishda turli xatoliklarni kiritish.

Axborot qurolini qo'llash oqibatini kamaytirish yoki oldiniolish uchun quyidagi chora - tadbirlarni ko'rish kerak:

- axborot resurslarini fizik asosini tashkil etuvchi materialtexnik ob'ektlarni himoyalash;

- ma'lumotlar bazasi va bankini normal va uzluksiz ishlashinista'minlash;

- ruxsat etilmagan kirishlardan, buzish yoki yo'q qilishdanaxborotlarni himoyalash;

- axborot sifatini (vaqtidaligini, aniqligini, to'laligini vafoydalana olishlikni) saqlab qolish.

Axborot qurolidan himoyalovchi dasturiy tasnifdagi amaliyadbirlarga quyidagilar kiradi:

1. Xalqaro tarmoq orqali turli xil axborot almashinuvida iqtisodiy va boshqa tuzilmalarning extiyojini bashoratlash va monitoringini tashkil qilish. Buning

uchun transchegara, shu qatorda Internet orqali ham, almashinuvni nazorat qilish uchun maxsus tuzilmalarni yaratish; ochiq tarmoqlarda axborot xavfsizligi tahdidlarinibartaraf etish bo'yicha davlat va nodavlat idoralarning chora-tadbirlarini koordinatsiya qilish; xalqaro hamkorlikni tashkil etishmumkin.

2. Axborot resurslarining xavfsizligi talablariga rioya qilan xolda milliy va korporativ tarmoqlarni jahon ochiq tarmoqlariga ulanishini ta'minlovchi axborot texnologiyalarni takomillashtirish.

3. Jahon axborot tarmoqlarida ishlash uchun ommaviy foydalanuvchilarni va axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish kompleks tizimining faoliyatini takomillashtirish.

4. Internet foydalanuvchilarining mas'uliyatlari va majburiyatlari, reglament huquqi va axborot resurslari bilan foydalanish qoidalarining milliy qonunchilik qismini takomillashtirishni davom ettirish. Jahon ochiq tarmoqlari ishlashining normativ huquqiy ta'minotini va xalqaro qonunchiligini ishlab chiqishdafaol ishtirok etish.

AQShning milliy xavfsizligini ta'minlash tizimi. Milliyxavfsizlik agentligi (MXA-NBA) – radioelektron tutib qolish sohasida jahonda peshqadam xisoblanadi. Agentlikning maqsadi – texnik vositalar yordamida AQShning milliy xavfsizligini ta'minlash.

AQShning tashqi xavfsizligini ta'minlashda Markaziy razvedka boshqarmasi (MRB-TSRU)ga asosiy o'rinlardan biri ajratilgan. Uerda boshqa davlatlar tomonidan milliy axborot infratuzilmagaqilinadigan tahdidlar haqidagi axborotlarni qidirish va qayta ishlash bo'yicha razvedkaning imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan reja ishlab chiqilgan va tatbiq qilingan. Agentura ishigaoid an'anaviy usullardan tashqari, MRB texnik yo'l orqali yopiq ma'lumotlar bazasiga kirishni va ochiq manbalarning tahliliga kata e'tibor qaratadi. Keyingi vaqtlarda MRB axborot va kompyutertexnologiyalari bo'yicha mutaxassislarni, jumladan xakerlar orasidan tanlashni amalga oshirmoqda.

Federal tekshirishlar byurosi (FTB-FBR) ham, eng avvalo AQShinfratuzilmasini himoyalash nuqtai nazaridan axborot urushidoktrinasini

tatbiq qilishda ishtirok etadi. AQShda kompyuterjinoyatchiligiga qarshi kurashish maqsadida 1996 yili «Kompyuterlarni qo'llash orqali firibgarlik va suiiste'mol qilishlar to'g'risida»gi federal qonun qabul qilingan va ushbu turdagi jinoyatchilik bilan kurashish bo'yicha FTB tarkibida bo'linma tashkil etish ko'zdatutilgan. FTB telekommunikatsiya tarmog'i orqali amalga oshiriladigan ayg'oqchilik, maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilish, davlat instantsiyalarni aldash, terrorism, xiyla ishlatish va firibgarlik kabi noxush holatlarni tekshirish bilan shug'ullanadi. Uning tarkibiga kompyuter jinoyatchiligi bilan shug'ullanuvchi ettita bo'linma kiradi, ularning shtati 300 kishini tashkil qiladi.

AQShning Mudofaa vazirligi (MV) xalqaro Internet tarmog'ining ajdodi hisoblanib, birinchi bo'lib mamlakatning xavfsizligiga yangi tahdidning va axborot qurolining kuchini anglab etdi va hozirgi vaqtda harbiy sohada axborot urushi doktrinasini tatbiq qilishda etakchi o'rinni egallaydi. MV ilmiy kengashining ekspertlar komissiyasi axborot urushi hodisasiga qarshi harbiy telekommunikatsiya va kompyuter tarmoqlari xavfsizligini ta'minlovchi shoshilinch choralarni qabul qilish lozimligi haqida doklad tayyorladi.

Pentagon harbiy avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini «qizil buyruqlar» deb ataluvchi zaiflikka tekshirish uchun harbiy kompyuter tarmoqlarini himoyasini ta'minlash bilan shug'ullanish maqsadida xakerlarni ishga qabul qiladi.

Hozirgi kunda AQSh idoralari faoliyatidagi umumiy tendentsiya axborot urushi olib borishning asosiy tashkiliy va kontseptual printsiplarini ishlab chiqish, axborot texnologiyalarni qo'llab yangi ish usullarini qidirish hisoblanadi.

Buyuk Britaniyadagi axborotni himoyalash tizimi. Buyuk Britaniyada axborot xavfsizligini ta'minlash davlat tizimini yaratishda axborot urushi dushmanning axborot tizimiga ta'sir etuvchi va bir vaqtda mamlakatning shaxsiy tizimlarini himoyalovchi harakatlar deb qaraladi.

Buyuk Britaniyaning Razvedka va xavfsizlik bo'yicha parlament komiteti Britaniya maxsus xizmatlari ustidan nazorat organi sifatida 1994 yilda tashkil etilgan. Bu komitet «Razvedka xizmatlari to'g'risida»gi qonunga muvofiq uchta maxsus xizmat: SIS (Secret Intelligence Service) razvedkasi, Maxfiy xizmat (MI5 –

MilitaryIntelligence-5) va Hukumat aloqa markazi tomonidan byudjet mablag'larining sarflanishini, bu xizmatlarning boshqarilishini va ularning olib borayotgan siyosatini nazorat qilish uchun tuzilgan.

SIS/MI6 - Buyuk Britaniyaning asosiy razvedka xizmati. SIS Tashqi ishlar vazirligi (TIV) tizimiga kiritilgan bo'lib xorijda 87 ta qarorgohga va Londonda shtab-kvartiraga ega. SISni Bosh direktor boshqaradi va u bir vaqtning o'zida Tashqi ishlar vazirining o'rinbosari ham hisoblanadi. Shunday qilib, formal ravishda SIS Buyuk Britaniyaning TIV nazorati ostida hisoblanadi, biroq, shu bilan birga u to'g'ridan-to'g'ri premer-ministriga chiqishi mumkin.

Kontrrazvedka xizmati - MI-5 1909 yilda ichki xavfsizlikni ta'minlash bilan shug'ullanuvchi maxfiy xizmatlar Byurosining ichki departamenti sifatida tuzilgan.

Hukumat aloqa markazi Buyuk Britaniyaning maxsus xizmatlar tizimida radioayg'oqchilik uchun javob beradi. Markaz TIV tarkibiga kiritilgan bo'lib, xodimlarining soni va axborotni topish hajmi bo'yicha mamlakatning yirik idoralaridan biri hisoblanadi.

Germaniyaning axborotni himoyalash tizimi. Axborot oqimlarining xavfsizligini ta'minlashga mas'ul koordinatsiyalovchi hukumat organi bo'lib 1991 yilda tashkil etilgan Federal xavfsizlik xizmati (BSI) hisoblanadi. Bu xizmat axborot texnikasi sohasidagi xavfsizlikni ta'minlaydi. Hozirgi vaqtda BSI faoliyatining umumiy kontseptsiyasi NATO va ES bilan yaqin hamkorlikda quyidagi funktsiyalarni bajarilishini ko'zda tutadi:

- axborot texnologiyalarni joriy etishdagi ehtimoliy xavfni baholash;
- milliy kommutatsiya tizimlarining himoyalash darajasini baholash uchun kriteriyalar, usullar va sinov vositalarini ishlab chiqish;
- axborot tizimlarining himoyalani darajasini tekshirish va muvofiqlik sertifikatlarini berish;
- muhim davlat ob'ektlariga axborot tizimlarini joriy etish uchun ruxsatnoma berish;
- davlat organlari, politsiya va boshqa idoralarda axborot almashinishda maxsus xavfsizlik choralarini amalga oshirish;

- sanoat vakillariga maslahatlar berish.

Xavfsizlikni ta'minlovchi boshqa davlat organlari:

- Germaniyaning federal razvedka xizmati (Bundesnachrichtendienst -BND).

BND federal kantsler boshqarmasiga bo'ysunadigan bo'linma hisoblanadi. BNDning shtat tarkibi 7000 kishidan ziyodni tashkil etadi, ulardan 2000ga yaqini bevosita xorijda razvedka ma'lumotlarini yig'ish bilan band. Xodimlar orasida taxminan 70 ta turli soha vakillari: harbiy xizmatchilar, huquqshunoslar, tarixchilar, muhandislar va texnik mutaxassislar mavjud.

- Konstitutsiyani himoyalash federal byurosi (Verfassungsschutz -BfV).

Ushbu byuro BND va BSI bilan bir qatorda mamlakatning uchta maxsus xizmatlaridan biri hisoblanadi va u Germaniyaning ichki ishlar vazirligiga bo'ysinadi. Barcha federal erlarda mahalliy ichki ishlar vazirligiga bo'ysinadigan o'zining mos xizmatlari mavjud.

Har yili to'plangan axborotlar asosida Konstitutsiyaga rioya etilganligi doirasidagi ish holati haqida hukumatga hisobot taqdim etiladi, unda xulosalar va tavsiyalar qilinadi. Hukumat, o'z navbatida, aniq choralarni amalga oshirish kerakligi haqida qaror qabul qiladi. Axborotning yarmidan ko'pini maxsus xizmat ochiq manbalardan:

ommaviy axborot vositalarida chop etilgan nashrlar, Internet, majlis va mitinglarda ishtirok etish orqali yig'adi. Axborotning bir qismi ayrim kishilardan va boshqa idoralardan kelib tushadi.

Frantsiyada axborotni himoyalash tizimi. Frantsiya kibermay donda o'zining fuqarolarini nazorat qilish bo'yicha tuzilma tashkil etgan. Frantsuzlar «Eshelon» nomli Amerika tizimiga o'xshash o'z tizimini yaratdilar. U deyarli barcha xususiy global kommunikatsiyalarni tutib qolishga yo'naltirilgan.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha siyosatning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish bilan CLUSIF (Club de la securite informatique francaise) birlashmasi shug'ullanadi. U o'zining statusi bo'yicha informatika sohasida ishlovchi yuridik va fizik shaxslarning ochiq assotsiatsiyasi hisoblanadi. CLUSIF davlat tomonidan to'liq qo'llab quvvatlanadi va maxsus xizmatlar bilan yaqin aloqaga ega.

Frantsiyaning maxsus xizmati strukturasi. Frantsiya razvedka uyushmasining umumiy shtati, uchta har xil vazirlikka bo'ysinuvchi xizmatlarda ishlaydigan 13 mingga yaqin xodimlardan iborat. Uchta xizmat Tashqi xavfsizlikning Bosh direksiyasi (DGSE); Harbiy razvedka boshqarmasi (DRM) va Harbiy kontrrazvedka boshqarmasi (DPSD) Mudofaa vazirligi himoyasida faoliyat olib boradi. Maxsus xizmatlarga jandarmeriyani (Gendarmerie) ham kiritish mumkin.

Uning vazifalaridan biri bo'lib razvedka faoliyatini yuritish hisoblanadi – jandarmeriyaning xar bir qismida razvedka bo'limi mavjud. Ikkita maxsus xizmat: kontrrazvedka (DST) va Bosh razvedka xizmati (RG) Ichki ishlar vazirligiga bo'ysungan.

Rossiya Federatsiyasi (RF)ning axborot xavfsizligini ta'minlovchi davlat organlari strukturasi. Axborot xavfsizligining davlat siyosatini ishlab chiqish, qonunlar, normativ-normativ hujjatlar tayyorlash, axborotni muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha o'rnatilgan me'yorlarni bajarilishi ustidan nazoratni davlat organlari amalga oshiradilar.

RF Prezidenti axborot xavfsizligini ta'minlovchi davlat organlariga boshchilik qiladi. U Xavfsizlik kengashini boshqaradi va davlatda axborot xavfsizligini ta'minlashga doir farmonlarni tasdiqlaydi.

Mamlakatning davlat xavfsizligiga oid boshqa masalalar bilan bir qatorda axborot xavfsizligi tizimining umumiy boshqaruvini RF Prezidenti va Hukumati amalga oshiradi.

RF Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashi davlat xavfsizligi masalalari bilan bevosita shug'ullanuvchi hokimiyat organi hisoblanadi. Xavfsizlik Kengashi tarkibiga Axborot xavfsizligi bo'yicha idoralararo komissiya kiradi. Komissiya davlatning axborot xavfsizligi sohasida Prezident farmonlarini tayyorlaydi, qonun chiqarish tashabbusi bilan chiqadi, vazirlik va idoralar rahbarlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Axborot xavfsizligi bo'yicha idoralararo komissiyaning ishchi organi bo'lib RF Prezidenti huzuridagi Davlat texnik komissiyasi hisoblanadi. Bu komissiya qonun loyihalarini tayyorlashni amalga oshiradi, normativ hujjatlarni ishlab

chiqadi, axborotni muhofaza qilish vositalarini (kriptografik vositalardan tashqari) sertifi katlashtirishni tashkil etadi, himoya vositalarini ishlab chiqish sohasidagi faoliyatni litsenziyalashtiradi va axborotni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarni o'qitadi. Axborotni muhofaza qilish sohasida izlanishlar olib boruvchi davlat ilmiy-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi. Bu komissiya Davlat sirini himoyalash bo'yicha idoralararo komissiya ishini ham ta'minlaydi.

Davlat sirini himoyalash bo'yicha idoralararo komissiyasiga davlat sirini tashkil etadigan ma'lumotlardan foydalanish, axborotni muhofaza qilish vositalarini yaratish hamda davlat sirini himoyalash bo'yicha xizmat ko'rsatish bilan bog'liq korxonalar, muassasa va tashkilotlarni litsenziyalashni boshqarish vazifasi yuklatilgan.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Axborotlarni muhofaza qilishning asosiy va yordamchi apparat vositalariga nimalar kiradi?
2. Axborotlarni muhofaza qilishning dasturiy vositalari qanday dasturlardan iborat?
3. Axborotlarni muhofaza qilishning dasturiy vositalarining afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
4. Kompyuter tizimlaridan foydalanish huquqini cheklashning qanday usul va vositalari mavjud?
5. Kompleks xavfsizlik nimalardan iborat?
6. Qanday atributivli indentifikatorlarni bilasiz va ular qanday tartibda ishlaydi?
7. Autentifikatsiyalash qanday amalga oshiriladi?
8. Zararlantiruvchi dastur deb nimaga aytiladi?
9. Axborot tizimida zararlantiruvchi dastur mavjudligi qanday aniqlanadi?
10. Kompyuter viruslari nima?
11. Kompyuter qurtlari nima?
12. Troyan dasturlari qanday vazifalarni bajaradi?
13. Troyan dasturlarning qanday turlarini bilasiz?
14. Zararlovchi utilitlardan nima maqsadda foydalaniladi?
15. Axborot xavfsizligi sohasida mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha qanday ishlar olib borilmoqda?

16. Axborot quroli qanday amallarni bajarishga yo'naltirilgan?
17. Axborot qurolidan himoyalovchi amaliy tadbirlarga nimalar kiradi?
18. AQSh va Buyuk Britaniyadagi axborotni himoyalash tizimi haqida nimalarni bilasiz?
19. Germaniya, Frantsiya va Rossiyada axborotni himoyalash tizimi qanday tashkil qilingan?

13-BOB. BANK XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

13.1. Bank axborotlarining muhofazasini ta'minlashning huquqiy me'yoriy asoslari

Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to'g'risida qonun qonunchilik palatasi tomonidan 2005 yil 16 noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2006 yil 24 fevralda ma'qullangan. Ushbu qonun 12 moddadan iborat bo'lib, qonuning maqsadi avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Avtomatlashtirilgan bank tizimi bank faoliyati sohasida axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va undan foydalanishni amalga oshirish uchun mo'ljallangan axborot tizimidir.

Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

banklarning axborot xavfsizligini ta'minlash va bank sirini muhofaza qilish; axborotning tarqalib ketishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishi, buzib talqin etilishi, to'sib qo'yilishi, qalbakilashtirilishi va undan o'zgacha tarzda ruxsatsiz foydalanilishi, shuningdek nusxa olinishining hamda avtomatlashtirilgan bank tizimiga boshqacha shakldagi aralashuvlarning oldini olish.

Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotning muhofaza qilinishini tashkil etish:

❖ axborotni muhofaza qilish qoidalarini ishlab chiqish hamda ularga rioya etish, shuningdek avtomatlashtirilgan bank tizimida ishlov beriladigan axborotni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish;

❖ sertifikatlangan texnika vositalari va axborotni muhofaza qilish vositalaridan foydalanish;

❖ avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish;

❖ avtomatlashtirilgan bank tizimida axborot to'plashga doir faoliyatni va unga ishlov berish usullaridan foydalanishni muvofiqlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Avtomatlashtirilgan bank tizimidan foydalanuvchi avtomatlashtirilgan bank tizimida axborot mulkdorining ruxsati bilan axborotdan foydalanadi.

Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotdan axborot mulkdorining ruxsatisiz foydalanishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi.

Avtomatlashtirilgan bank tizimi mulkdori yuridik shaxs bo'lishi kerak.

Avtomatlashtirilgan bank tizimi mulkdori axborot mulkdori va avtomatlashtirilgan bank tizimidan foydalanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiradi.

Avtomatlashtirilgan bank tizimi mulkdori axborot mulkdorini va avtomatlashtirilgan bank tizimidan foydalanuvchini avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotga ishlov berish usullarining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida xabardor qilishi, axborot mulkdori va avtomatlashtirilgan bank tizimidan foydalanuvchi esa taklif etilgan ishlov berish usullarining qo'llanilishiga rozi ekanligini va e'tirozlari yo'qligini tasdiqlashi shart.

Avtomatlashtirilgan bank tizimi mulkdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq axborotning muhofaza qilinishini ta'minlashi hamda axborot mulkdorini uning axboroti muhofazasi buzilishining barcha hollari to'g'risida xabardor qilishi shart.

Avtomatlashtirilgan bank tizimi mulkdori davlat sirlarini o'z ichiga olgan yoki maxfiy hisoblangan axborotning muhofaza qilinishini O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda ta'minlashi shart.

Avtomatlashtirilgan bank tizimidagi texnika vositalarini, shuningdek bu tizimning davlat sirlarini o'z ichiga olgan yoki maxfiy hisoblangan axborotga ishlov beruvchi muhofaza vositalarini (shu jumladan kriptografiya vositalarini) sertifikatlashtirish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va banklarda avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish xizmati tashkil etilishi kerak.

Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish xizmati:

- ❖ axborotning saqlanishini ta'minlash ustidan nazoratni tashkil etadi;
- ❖ axborotni muhofaza qilish masalalarida uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;
- ❖ avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish tizimini loyihalash, sinovdan o'tkazish va qabul qilib olishda ishtirok etadi;
- ❖ avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotdan ruxsatsiz foydalanishga urinishlar bo'lganligi, unga boshqacha shaklda aralashilganligi aniqlanganda hamda tizimning ishlash qoidalari buzilganda mazkur tizimdagi axborotni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ko'radi;
- ❖ axborotni muhofaza qilish chora-tadbirlarining holati va samaradorligini tahlil etadi;
- ❖ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

To'lov tizimlarining axborot tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash qoidalari

Avtomatlashtirilgan bank tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash qoidalari, shu jumladan, banklarda server xonalarini tashkil qilish Markaziy bankning «O'zbekiston Respublikasi hududida banklarda elektron axborotlarni muhofazalashni tashkil etish to'g'risida»gi Yo'riqnomasi (ro'yxat raqami № 1047, 09.07.2001 y.) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq belgilanadi.

Tashqaridan begonalarning kirishini va tijorat axborotini o'g'irlanishini oldini olish uchun bank bo'lmagan to'lov tashkilotlarning server xonalari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) mustahkam devorlar, ishonchli to'siqlarga va panjaralarga ega bo'lishi;
- 2) maxsus kodli yoki boshqa turdagi ishonchli qulflar bilan jixozlangan mustahkam eshiklar bilan jixozlanishi;
- 3) tashqi kuzatuvga qarshi himoya vositalariga ega bo'lishi;
- 4) yong'in xavfsizligi va qo'riqlash signalizatsiyasini mavjudligi, zarur hollarda ogohlantirish qurilmalari ichki ishlar organlari qo'riqlash bo'linmalarining pultiga ulaniladi.

To'lov tizimi serverlarini tashqi ta'sirdan himoyalash uchun tarmoqlararo ekranlar (Firewall) o'rnatiladi. Banklarda bank hisobvaraqlarini masofadan faol boshqarish tizimlarida ishlash va boshqa to'lov tizimlarini ulanishi uchun alohida amaliy masalalar serverlari o'rnatiladi.

To'lov tizimi foydalanuvchilarini to'lov tizimiga kirishda autentifikatsiya qilish quyidagilar yordamida amalga oshiriladi:

- 1) login va parol (8ta belgidan kam bo'lmagan raqam va simvollar kombinatsiyasi);
- 2) bank kartasining raqami va pin-kodi (odatda 14 belgili simvollar kombinatsiyasi);
- 3) login va parolning bir martalik o'zgaruvchi kodlar bilan birgalikda qo'llash.

Autentifikatsiya natijasi uch marta noto'g'ri bo'lgan holda, tizim berkitilishi kerak. To'lov tizimi foydalanuvchilarini autentifikatsiya qilish usullarini texnik-dasturiy vositalarni qo'llagan holda takomillashtirishga ruxsat etiladi.

To'lov tizimi a'zolarini to'lov tizimiga hamda boshqa to'lov tizimlarini bank ichki to'lov tizimining avtomatlashtirilgan bank tizimiga ulanishida autentifikatsiyalash, albatta texnik-dasturiy vositalar va IP-manzilni aniqlash yordamida bajariladi.

Operatsiyalarning aslligini tasdiqlash elektron to'lov hujjatlarini elektron raqamli imzo bilan imzolash va/yoki bir martalik o'zgaruvchi kodlardan foydalanish yordamida amalga oshiriladi. Alohida bir martalik o'zgaruvchi kodlar ishlatilganda operatsiyalar summasining cheklanishi tavsiya etiladi.

To'lov tizimi foydalanuvchilari va a'zolari o'rtasida elektron axborot ayirboshlashda, shuningdek, bank hisobvaraqlarini masofadan faol boshqarish tizimlariga kirish SSL protokoli bo'yicha amalga oshiriladi, to'lov tizimi a'zolari o'rtasida himoyalangan shifrlangan aloqa kanallari (VPN) qo'llaniladi. Axborotni maxfiyligini ta'minlash uchun qo'shimcha sertifikatsiyalangan axborotni kriptografik muhofaza qilish vositalari qo'llanilishi mumkin.

To'lov tizimi serverlariga uzatiladigan va qabul qilinadigan axborot so'ngi yangilangan antivirus bazali litsenziyaga ega bo'lgan antivirus dasturi bilan viruslar mavjudligi bo'yicha tekshirilishi kerak.

To'lov tizimi foydalanuvchilarini tizimga kirganligi hamda amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida ularning uyali telefoni, elektron pochtaga yoki boshqa ogohlantirish vositalari orqali xabardor qilish tavsiya etiladi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining avtomatlashtirilgan bank tizimlarida ishlov beriladigan hujjatlardagi ma'lumotlarni muhofaza qilishning umumiy tartibi va tijorat banklari faoliyatida avtomatlashtirilgan bank tizimlarning uzluksiz ishlashini ta'minlash chora-tadbirlari hamda mas'ul xodimlarning javobgarligini belgilaydi.

Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasining «Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining rahbarlari, bosh buxgalteri bank balansida va elektron to'lovlar tizimi orqali o'tkazilgan to'lov hujjatlarida aks ettirilgan ma'lumotlarning but saqlanishi, shuningdek ma'lumotlarning o'zgartirishsiz, to'g'ri uzatilishi uchun shaxsan javob beradilar.

Tijorat banklari rahbarlari o'z bank filiallarida bank sirini himoyalash bo'yicha, Lokal tarmoq administratori, Axborot muhofazasi, shuningdek antivirus ishlarini yuritish uchun javobgar xodimlarni tayinlaydilar.

Tijorat banklarining rahbarlari elektron to'lovlarni tayyorlovchi xodim (keyingi o'rinlarda mas'ul xodim) bilan amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida yozma shartnoma tuzishlari lozim.

Mas'ul xodim to'lov tizimiga kiritayotgan ma'lumotlarning to'g'ri, aniq va qonuniy kiritganligi uchun javobgardir.

Har bir mas'ul xodim, bo'lim boshliqlari, bosh buxgalter o'rinbosarlarining xonalariga o'rnatilgan ishchi stantsiyalarga kirish parollar orqali amalga oshirilib, bank telekommunikatsiya tarmog'ida ishlash vakolatiga ega bo'lgan xodimlarning ishchi stantsiyalari mazkur tarmoqqa ulanishga ruxsat beruvchi apparat – dasturiy qurilmalar bilan jihozlanishi lozim.

Bosh banklarning To'lov markazidagi kompyuter va serverlariga bankning umumiy lokal tarmog'iga ulangan ishchi stantsiyalarning kirish (ko'rish) imkoniyati bo'lmasligi lozim.

Barcha to'lov hujjatlari alohida xonada joylashgan va lokal tarmoq orqali ulangan printerda qog'ozga chop etilishi va belgilangan tartibda imzolar bilan rasmiylashtirilishi lozim.

Har bir Bosh bank va elektron to'lovlar bazasi bor filiallar bank amaliyot kunini tashkil etish hamda elektron to'lovlar tizimi orqali filiallararo va banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha tuzilma tashkil etishi shart.

Elektron to'lov tizimida ishlayotgan Bosh banklar har bir filialdan o'tadigan to'lov hujjatlarini elektron imzo bilan tasdiqlanishini apparat-dasturiy qurilmalar yordamida amalga oshiradilar.

Elektron to'lovlar tijorat banklarida quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

a) fayl ko'rinishida (off-line). Bank filialining bosh buxgalteri mas'ul xodimlar kiritgan ma'lumotlarni tekshirib va uni o'ziga birlashtirilgan elektron raqamli imzoning yopiq kaliti bilan tasdiqlaydi va Bosh bank To'lov markaziga jo'natadi.

To'lov markaziga kelib tushgan elektron hujjatning elektron raqamli imzosi haqiqiylikini tasdiqlash uchun tekshiriladi, elektron raqamli imzo tasdiqlansa, elektron hujjat ishlov berish uchun qabul qilinadi. Agar elektron raqamli imzo tasdiqlanmasa, elektron hujjat ishlov berishga qabul qilinmaydi. Elektron hujjatni hosil qilgan filialga elektron hujjatni qabul qilinmaganligi to'g'risida ma'lumot yuboriladi. Qabul qilingan ma'lumot ishlov berilib, To'lov markazining tegishli elektron raqamli imzosining yopiq kaliti bilan tasdiqlanib, filialga jo'natiladi. Agar elektron hujjat banklararo to'lov bo'lsa, Bosh bankning To'lov markazi o'z elektron raqamli imzosining yopiq kaliti bilan tasdiqlab, Markaziy bank Axborotlashtirish Bosh Markazi «Hisob-kitoblar markazi» (keyingi o'rinlarda ABM HKM)ga jo'natadi. Uzatilgan elektron hujjatning elektron raqamli imzosi haqiqiylikini tasdiqlash uchun tekshiriladi, Bosh bankning elektron raqamli imzosi tasdiqlansa, ABM HKM tomonidan elektron hujjat qayta ishlanishiga ruxsat beriladi. Agar Bosh bankning elektron raqamli imzosi tasdiqlanmasa, tasdiqlanmaganligi to'g'risidagi ma'lumot Bosh bankka yuboriladi.

Axborot Bank amaliyot kuni dasturida avtomat tarzda shifratsiya jarayonidan o'tishi va mazkur bankning To'lov markaziga jo'natilishi lozim.

b) aniq vaqtda (on-line). Tijorat banki filialining har bir mas'ul xodimi hujjatning asl nusxasidan maket asosida ma'lumotlarni To'lov markazi serveriga kiritadi va o'ziga biriktirilgan elektron raqamli imzoning yopiq kaliti bilan tasdiqlaydi, so'ng kiritilgan jadvaldagi elektron to'lov ma'lumotlarini bosh buxgalter tekshirib, to'lovni amalga oshirishga ruxsat beradi. Elektron hujjatning elektron raqamli imzosi haqiqiyligi tekshirilib, ishlov berishga olinadi. Ishlov berish natijasida to'lov ma'lumoti shu bankka tegishli bo'lsa, o'sha filialga tegishli hisobvaraqa aks ettiriladi. Agar elektron raqamli imzo tasdiqlanmasa, elektron hujjat qayta ishlanishga qabul qilinmaydi. Elektron hujjatni hosil qilgan filialga elektron hujjatni qabul qilinmaganligi to'g'risida ma'lumot yuboriladi. Banklararo to'lov ma'lumoti esa ABM HKMga Bosh bank To'lov markazining elektron raqamli imzosining yopiq kaliti bilan tasdiqlanib, uzatiladi.

Tijorat banklari filiallari bilan Bosh bank To'lov markazi orasidagi, Bosh bank bilan Markaziy bank Axborotlashtirish Bosh Markazi orasidagi aloqa tarmoqlari buzilganda axborot quyidagi usullarda uzatilishi va qabul qilinishi mumkin:

Kommutatsiyali telefon tarmog'i orqali:

a) tijorat banki filiali Bosh bankning To'lov markazini yozma ravishda kommutatsiyali telefon tarmog'i orqali ishlashi haqida ogohlantiradi, so'ngra kommutatsiyali telefon tarmog'i orqali axborot almashinuvini amalga oshiradi;

b) kommutatsiyali telefon tarmog'i orqali ishlash imkoni bo'lmaganda tijorat bank filiali o'zining viloyat boshqarmasidan, yoki bank tizimiga tegishli bo'lgan boshqa bank bo'limi orqali tegishli sozlash ishlarini amalga oshirgan holda o'z identifikatori bilan axborot almashinuvini amalga oshirishi mumkin;

v) Bosh bank bilan ABM orasidagi aloqa tarmoqlari buzilganda Bosh bank Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamentidan yozma ravishda ruxsat so'raydi, so'ngra o'z tizimiga tegishli bo'lgan bank bo'limi orqali kerakli sozlash ishlarini amalga oshirib, ABM bilan axborot almashinuvini amalga oshiradi.

Bosh bank bilan uning filiallari orasidagi, Bosh bank bilan ABM orasidagi aloqa tarmoqlari yoki elektr manbai buzilganda, axborot almashinuvini tijorat banklari tashqi saqlovchi vositalar yordamida quyidagicha uzatishi va qabul qilishi mumkin:

a) Bosh bank To'lov markazi bilan uning filiallari yoki ABM bilan Bosh bank elektron hujjatlarni tashqi saqlovchi vositalar yordamida almashuvini amalga oshirish uchun, almashuv tashabbuskori (uzatuvchi bank yoki filial) bo'lgan filial yoki Bosh bank tomonidan elektron hujjatni qabul qiluvchi Bosh bank to'lov markazi yoki ABM boshlig'i nomiga tashabbuskor bank rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolangan xat yuboriladi. Xatda sana, elektron hujjatlarni tashqi saqlovchi vosita orqali o'tkazilishining sababi, elektron hujjatlarni tashqi saqlovchi vosita orqali uzatuvchi xodimning ismi, sharifi va lavozimini ko'rsatish lozim.

b) Elektron hujjatlarni tashqi saqlovchi vosita orqali uzatishga tayyorlashda, kamida ikkita tashqi saqlovchi vosita - asosiy va qo'shimcha tashqi saqlovchi vositalar tayyorlanishi zarur va quyidagilarga rioya qilish lozim:

tashqi saqlovchi vositani formatlashtirish;

❖ uzatishga mo'ljallangan fayllarning nomi 8.3 formatda (8 bayt -fayl nomining uzunligi, 3 bayt - fayl kengaytmasining uzunligi) bo'lishi kerak;

❖ elektron hujjat tashqi saqlovchi vositaga Bank amaliyoti dasturi orqali ko'chiriladi;

❖ tashqi saqlovchi vositada, uzatishga mo'ljallanmagan elektron hujjatlar bo'lmasligi kerak;

❖ tashqi saqlovchi vositadagi elektron hujjat «virus» yo'qligiga eng so'ngi bazaga ega Antivirus dasturi orqali tekshirilgan bo'lishi lozim.

v) har bir tashqi saqlovchi vositaga ikkitadan ma'lumotnoma ilova qilinishi kerak bo'lib, ularda: tashqi saqlovchi vositaning taqqoslash raqami, ya'ni muvofiq tashqi saqlovchi vositaga qo'yilgan raqam bilan mos tushadigan raqam, uzatishga mo'ljallangan barcha fayllarning nomi, hajmi, fayllar yaratilgan sana va vaqti, ma'lumotnomaning olingan vaqti va kunini, ijro etuvchining, ya'ni ma'lumotnoma olgan xodimning ismi sharifi va lavozimi ko'rsatilgan bo'lishi kerak (ma'lumotning shakli ilovada keltirilgan);

g) ma'lumotnomalarga javobgar shaxs va ijro etuvchi tomonidan imzo qo'yilgan bo'lishi kerak;

d) Tijorat banki filiali tomonidan Bosh bank To'lov markaziga, Bosh bank To'lov markazi tomonidan ABM ga elektron hujjatni tashqi saqlovchi vositada bosh buxgalter, bosh buxgalter yordamchisi yoki vakolatli boshqa xodim etkazuvchi bo'lishi mumkin.

Elektron hujjatni tashqi saqlovchi vositada qabul qilib oluvchi Bosh bank yoki ABM xodimi quyidagilarni bajarishi shart:

❖ xatning mavjudligini va uning to'g'ri tuzilganligini tekshirishi;

❖ ma'lumotnomalarning mavjudligini va ularda zarur bo'lgan rekvizitlarning qayd qilinganligini tekshirishi;

❖ tashqi saqlovchi vositani «virus» yo'qligiga eng so'ngi bazaga ega Antivirus dasturi orqali tekshirishi;

❖ tashqi saqlovchi vositadan o'z dasturi orqali ikki nusxada ma'lumotnoma olishi;

❖ o'zi olgan ma'lumotnomalarni tashqi saqlovchi vosita bilan birga keltirgan ma'lumotnomalarga solishtirib ko'rishi lozim;

Ma'lumotnomalar bir - biriga mos kelishi zarur.

Yuqorida keltirilgan shartlar to'liq bajarilmasa, tashqi saqlovchi vositadagi elektron hujjat qabul qilinmaydi.

Bosh bank yoki ABMning elektron hujjatni tashqi saqlovchi vositada qabul qilib oluvchi xodimi quyidagilarni bajaradi:

❖ tashqi saqlovchi vositadan elektron hujjatni kompyuterga o'tkazadi;

❖ ikkita ma'lumotnomaga imzo qo'yadi;

❖ tashqi saqlovchi vosita bilan birga taqdim etilgan ma'lumotnomalarning birini tashqi saqlovchi vosita bilan qo'shib qaytarib beradi;

❖ tashqi saqlovchi vosita orqali qabul qilib olingan elektron hujjatni belgilangan tartibda jo'natadi;

❖ tashqi saqlovchi vosita bilan keltirilgan ma'lumotnomani maxsus papkaga tikib qo'yadi;

maxsus daftarga, elektron hujjatning tashqi saqlovchi vosita orqali qabul qilinganligini yozib qo'yadi. Shu bilan birga daftarga elektron hujjatning qabul qilingan sanasi, vaqti, qabul qilingan fayllarning nomi va hajmi, elektron hujjat uzatuvchisining rekvizitlarini kiritib boradi. Tashqi saqlovchi vosita orqali elektron hujjatni qabul qilgan xodim maxsus daftarga o'z imzosini qo'yadi;

tashqi saqlovchi vosita orqali qabul qilingan elektron hujjatlarni belgilangan joyga to'g'ri uzatilishini nazorat qilib boradi.

Elektron hujjatni tashqi saqlovchi vositada qabul qilib oluvchi Bosh bank yoki ABM xodimi, o'rnatilgan qoidalarga asosan qabul qilingan elektron hujjatning xatoligiga javobgar bo'lmaydi.

Bosh bank yoki ABM ning elektron hujjatni tashqi saqlovchi vositalar orqali uzatuvchi xodimi, uzatish qoidalarining barchasiga rioya qilgani holda, tashqi saqlovchi vositaning holatiga va vujudga kelgan yaroqsiz joylariga javobgar bo'lmaydi.

Elektron to'lov tizimi orqali elektron to'lovga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni yuborish taqiqlanadi.

Yo'l qo'yilgan qoida buzarliklar natijasida tijorat banki moddiy zarar ko'rgan taqdirda, aybdor shaxslar qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda javobgar bo'ladilar.

Xodim elektron to'lov tizimi orqali mijozlarning hisobvaraqlaridan yoki bankning ichki xisobvaraqlaridan mablag'larni hisobdan chiqarmasdan elektron to'lov xujjatlari orqali jo'natganligi natijasida tijorat bankiga etkazilgan zarar belgilangan tartibda undirib olinadi.

Etkazilgan zararni aniqlash maqsadida zarur hollarda hay'at tuziladi va tijorat banklarining elektron arxiv hujjatlari batafsil tekshirib chiqiladi.

Hay'at tarkibiga Markaziy bankning vakolatli xodimlari, tijorat banki bosh buxgalteri va boshqa tegishli xodimlari kiritilishi lozim.

13.2. Elektron pochta va internetdan foydalanish

Bank tomonidan «Bank siri»ni tashkil etuvchi ma'lumotlar elektron pochta orqali yuborilganda, ma'lumotlar shifrlanishi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanishi shart. Bank faoliyatiga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarning elektron pochta orqali uzatilishi qat'iy man etiladi. Bunga yo'l qo'ygan shaxslar qonunda ko'zda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Bank tomonidan elektron pochta orqali jo'natilayotgan har bir elektron ma'lumot «virus» yo'qligiga eng so'ngi bazaga ega Antivirus dasturi orqali tekshirilishi shart.

Internet tarmog'iga ega bo'lgan Bosh banklar va filiallari o'zlarining to'lov tizimiga bog'langan ishchi stantsiyalari, serverlari, xavfsizlik majmualarini internet

tarmog'iga ulashlari man etiladi. Internet provayderlari bilan bankning ajratilgan ishchi stantsiyalari alohida kanal orqali ulanishini amalga oshiradilar.

Bank internetdan foydalanish ichki tartib qoidalarini ishlab chiqishi va ruxsat berilgan foydalanuvchilarning internetdan foydalanishini ta'minlashi lozim.

Bank elektron to'lov tizimiga tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlarni arxivga olish Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga asosan amalga oshiriladi. To'lov tizimi kompyuter va jihozlarining ishdan chiqishi holatlari yuz berganda, to'lov tizimining beto'xtov ishlashini ta'minlash uchun tijorat banklari Zaxira tiklanish rejasi, dastur va uskunalarga ega bo'lishlari shart.

Bosh bank To'lov markazidagi tizimning ishonchliligini oshirish uchun RAID texnologiyalari asosida disklardagi ma'lumotlar takrorlanadi.

Bosh bank To'lov markazidagi tizimni favqulotda holat (yong'in, zilzila, suv toshqini va boshqa) lardan himoya qilish uchun 5 km dan kam bo'lmagan masofada To'lov markazining zaxira markazlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Zaxira markazi bankning filiallarida, boshqa bankda, tashkilotda yoki alohida ajratilgan binoda tashkil etilishi mumkin. Zaxira markazi xisoblash texnikasi majmuasi bilan to'liq ta'minlanishi lozim. Asosiy tarmoqda ishlatilayotgan dastur va ma'lumotlarning zaxira nusxalari zaxira markazda saqlanishi lozim. Bu esa tizimning tez qayta tiklanishini ta'minlaydi. Zaxira markazida ma'lumotlarni tiklab turish davriyligi kuniga bir martadan kam bo'lmasligi kerak.

Har bir bankda favqulotda holatlarga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasi bo'lishi shart. Chora-tadbirlar rejasi bir necha turli darajalar, shu jumladan oxirgi foydalanuvchi, tarmoq va bank (filiallar, bo'linmalar yoki bankning o'zini to'liqligicha olingan holda) uchun ishlab chiqiladi.

a)oxirgi foydalanuvchi uchun reja. Favqulotda holatlarga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasida oxirgi foydalanuvchi uchun hujjatlarni qayta tiklash va himoya qilish, foydalanuvchi javobgar bo'lgan majmualarni himoya qilish, shuningdek tarmoqning normal tarzda ishlashi to'xtab qolgan yoki buzilgan hollarda o'tkaziladigan chora-tadbirlarga doir yo'riqnomalar.

b)tarmoq uchun reja. Favqulotda holatlar rejasida tarmoq qurilmalarida bo'ladigan buzilishlar va oxirgi foydalanuvchining imkoniyatiga qarab tarmoqdagi buzilishlarga xizmat ko'rsatish. Bu rejaga bir qancha xodimlarning lovozim majburiyatlari, tizim ishlashini qayta tiklash bo'yicha chora-tadbirlar kiradi.

v)bank uchun reja. Bankning Favqulotda holatlarga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasiga korporativ ma'lumotlar bo'yicha xizmat ko'rsatish va ularni himoyalash chora-tadbirlari kiradi.

Elektr bilan ta'minlash buzilganda ish uzluksizligini ta'minlash uchun banklar serverlarini va zarur bo'lgan ishchi stsiyalarini energiya bilan ta'minlovchi vosita – UPS bilan ta'minlanishi lozim. Bundan tashqari, bank uzluksiz ishlashi uchun kamida bir sutkaga etadigan yoqilg'i zapasiga ega bo'lgan dizelgeneratorlar bilan ham ta'minlanishi lozim. Bankda elektr bilan ta'minlash bo'lmaganda 10 minutdan so'ng, dizelgeneratorlar avtomat ravishda ishga tushishi lozim.

Bosh bank Axborotni muhofaza qilish bo'limi xodimlari (sho''ba, javobgar xodim) o'z banklarida mazkur Nizom talablarining bajarilishi ustidan doimiy nazorat olib borishlari lozim. Davriy o'tkazilgan tekshiruvlar natijasi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Xavfsizlik va axborotlarni muxofaza qilish departamenti tomonidan muvofiqlashtirilgan reja-jadvallar asosida, tijorat banklarida ushbu Nizom talablarini bajarilishi ustidan tekshiruvlar o'tkaziladi.

Markaziy bank Axborotlashtirish Bosh Markaziga Bosh bankdan yoki Bosh bankga filiali tomonidan tashqi saqllovchi vositada taqdim etuvchi fayllar ro'yxati haqida ma'lumot

Faylning nomi	Faylning hajmi	Yaratilish vaqti	Yaratilish sanasi

Tashqi saqllovchi vositaning belgisi: _____

(Vaqti, sanasi)

Markaziy bank Apparati, Hududiy Bosh boshqarmalar, Hisob-kitob-kassa markazlari va Axborotlashtirish Bosh Markazi mansabdor shaxslari va mas'ul xodimlariga nisbatan tadbiq etiladi.

Markaziy bank elektron tizimlari foydalanuvchilariga quyidagilar kiradi:

Markaziy bank departamentlari va mustaqil boshqarmalari;

Markaziy bank Xududiy Bosh boshqarmalarining bo'limlari;

ABM Xisob markazi;

ABM Telekommunikatsiya bo'limi;

XKKM;

Respublika tijorat banklari;

Respublika vazirlik va idoralari.

Respublika vazirlik va idoralari Markaziy bank elektron tizimlaridan foydalanishlari Markaziy bankning axborotlashtirish ishlarini muvofiqlashtiruvchi Rais o'rinbosari ruxsati orqali amalga oshiriladi.

Axborotlashtirish Bosh markazi Bank telekommunikatsiya tarmog'idagi qurilmalarda tegishli sozlash ishlarini bajarib, axborot almashinuvi imkoniyatini yaratadi.

Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamenti Respublika vazirlik va idoralarining Markaziy bank elektron tizimlari resurslaridan foydalanishlari uchun ularni aniq tanilish (autentifikatsiya) va ma'lumotlarni shifrlash, zarur hollarda ma'lumotlarga elektron imzo qo'yish masalalarini hal etadi.

Respublika vazirlik va idoralari bilan Markaziy bank o'rtasida axborot almashinuvi muhofazalangan SSL (Secure Sockets Layer) protokoli yordamida amalga oshiriladi.

Elektron tizimi administratorlari resurslardan belgilangan darajada foydalanish uchun ruxsat beradilar.

13.3. Tijorat banklari bilan ishlashda axborot muhofazasi

Markaziy bankning lokal hisoblash tarmog'iga Bank telekommunikatsiya tarmog'i orqali salbiy ta'sirlarni chegaralash maqsadida Firewall (fayrvol-tarmoq filtri) axborot muhofazasi qurilmalari o'rnatiladi.

Markaziy bankning lokal hisoblash tarmog'i hamda Bank telekommunikatsiya tarmog'i orqali amalga oshirilgan barcha axborot almashinuv jarayonlari avtomatik tarzda elektron protokolga yozib borilishi shart.

Tijorat banklari Bank telekommunikatsiya tarmog'idan foydalanuvchilari hisoblanib, Markaziy bankga axborot uzatishlari hamda Markaziy bankdan axborot olishlari uchun identifikatsiya va autentifikatsiya tekshiruvlaridan o'tadilar. Identifikatsiya va autentifikatsiya tekshiruvlari iKey, Touch Memory qurilmalariga yozilgan maxsus kodlar orqali amalga oshiriladi. Barcha elektron hujjatlar (elektron to'lov va boshqa elektron ma'lumotlar) kriptografik tunel (shifrlangan tarmoq) orqali uzatiladi.

Elektron to'lov ma'lumotlari (amaldagi elektron to'lov hujjati faylida «On line» tizimiga o'tilgach, tasdiqlangan tuzilmadagi fayl ko'rinishida) elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda Markaziy bank ABM Hisob markazida qayta ishlashga qabul qilinadi.

Markaziy bank departamentlari va mustaqil boshqarmalarining kompyuterlari alohida virtual lokal tarmoqlarda (vlan) tashkil etiladilar.

Markaziy bank departamentlari va mustaqil boshqarmalari Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamenti bilan kelishgan holda elektron tizim resurslaridan foylanishlari uchun To'lov tizimi va axborotlashtirish departamentiga belgilangan tartibda yozma murojaat qiladilar.

To'lov tizimi va axborotlashtirish departamenti Axborotlashtirish Bosh markaziga elektron tizim resurslaridan foydalanish darajasini belgilagan holda foydalanishni amalga oshirish uchun ruxsat beradi.

Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamenti elektron tizimlardan foydalanishda aniq tanilish (autentifikatsiya), axborotlarni shifrlash va elektron imzodan foydalanilgan holda axborot almashinuvini amalga oshiradi.

Axborotlashtirish Bosh markazi elektron tizimlardagi serverlar resurslaridan chegaralangan holda foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Har bir foydalanuvchi o'ziga yuklatilgan vazifalar darajasida elektron tizimlardan to'g'ri foydalanish uchun javobgar.

Markaziy bank departamentlari va mustaqil boshqarmalari kompyuterlaridagi bank siri va konfidentsial ma'lumotlarni lokal hisoblash tarmoqlardan ko'rish imkoniyati cheklangan bo'lishi kerak hamda ushbu kompyuterdan boshlang'ich foydalanish (yoqilganda) parol orqali kirish amalga oshirilishi shart.

Markaziy bank Hududiy Bosh boshqarmalarining boshqarmalari va bo'limlarida alohida virtual lokal hisoblash tarmoqlari tashkil etiladi.

Markaziy bank elektron tizimlar resurslaridan foydalanish uchun Markaziy bank Hududiy Bosh boshqarmalari boshliqlari To'lov tizimi va axborotlashtirish departamentiga belgilangan tartibda murojaat qiladilar.

Markaziy bank Hududiy Bosh boshqarmalari boshliqlari o'zlarining elektron tizimlari resurslaridan foydalanish uchun ruxsat beradilar.

Markaziy bank Hududiy Bosh boshqarmalari Axborotni muhofaza qilish sho'balari elektron tizimlar resurslaridan foydalanish nazoratini olib boradilar.

Markaziy bank «Kriptomarkazi»da axborot muhofazasi Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamenti tomonidan tashkil etiladi.

Markaziy bank «Kriptomarkazi» elektron tizimlarda ma'lumotlarni shifrlash, shifrdan ochish, elektron imzo bilan ta'minlash, elektron imzosini tekshirish hamda tizimga kirishda tekshirish va ruxsat berish vazifalarini o'z vaqtida, uzluksiz bajarilishini ta'minlashi lozim.

Markaziy bank «Kriptomarkazi»da o'z server va dasturlar administratorlari tayinlanib, ular Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamenti direktori ko'rsatmasiga asosan elektron tizimlar foydalanuvchilariga resurslardan chegaralangan holda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Markaziy bank «Kriptomarkazi»da elektron tizimlar resurslaridan foydalanish ruxsati berilishi bilan bog'liq hujjatlar yig'ma jildi saqlanadi.

Barcha kiruvchi va chiquvchi elektron hujjatlar, axborot qabul qilinganligi va uzatilganligi to'g'risidagi umumiy fayllar soni va elektron protokollarni (Log fayllarni) ma'sul xodim har kuni arxivga olishi va elektron arxivni qayd etuvchi maxsus daftarga yozishi shart. Elektron arxiv ma'lumotlarini saqlash muddati 10 yil.

Elektron raqamli imzo kalitlari va «Kriptomarkaz»da qo'llaniluvchi dasturlar o'zgarish bo'lgan holatlarda elektron arxivga olinadi.

«Kriptomarkaz»da favqulotda holatlarda ishni qayta tiklash uchun serverlarda Backup arxivi (mavjud ma'lumotlar va sozlash holatlarini saqlash) ishlari amalga oshiriladi.

«Kriptomarkaz»da ko'zda tutilmagan holatlar uchun daftar yuritiladi. Bu daftarda serverlarni yoqib-o'chirish (perezagruzka), elektron kalitlarni almashtirish, sozlash ishlarini bajarish va boshqa holatlar qayd etiladi.

ABM hisob markazi dasturlarini ekspluatatsiya qilish bo'limi boshlig'i va tegishli mutaxassisleri o'z mansab vazifalaridan kelib chiqqan holda elektron to'lov ma'lumotlarini o'z vaqtida, belgilangan tartibda, beto'xtov ishlov berilishini ta'minlaydi;

ABM hisob markazi dasturlarini ekspluatatsiya qilish bo'limida elektron arxiv yurituvchi javobgar xodim buyruq asosida tayinlanib, har kuni bank amaliyot kuni yakunida belgilangan tartibda ma'lumotlarni elektron arxivga oladi.

ABM hisob markazi dasturlarini ekspluatatsiya qilish bo'limida bank amaliyot kuni yakunida Hisob markazi va Elektron pochta bo'limida qayta ishlangan (qabul qilingan) elektron to'lovlar to'g'risida elektron ma'lumotlar tayyorlanib, Kriptomarkazga uzatiladi va Kriptomarkazdan olingan elektron ma'lumotlar bilan solishtiriladi.

ABM hisob markazi dasturlarini ekspluatatsiya qilish bo'limi kompyuterlari boshqa bo'lim kompyuterlaridan alohida mantiqiy (VLAN - virtual tarmoq tashkil etilgan holda) ajratilgan bo'lishi lozim.

ABM hisob markazi dasturlarini ekspluatatsiya qilish bo'limining Oracle ma'lumotlar bazasiga boshqa bo'limlar lokal hisoblash tarmog'idan to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyati to'liq chegaralangan bo'lishi shart.

ABM hisob markazi dasturlarini ekspluatatsiya qilish bo'limida joylashgan WEB serverga kiruvchilar qat'iy ravishda autentifikatsiya tekshiruvi (iKey, Touch Memory yoki boshqa maxsus kalit) orqali kirishga ruxsat etiladi.

ABM hisob markazi dasturlarini ekspluatatsiya qilish bo'limining serverlari joylashgan xonalar kodli qulf bilan jixozlangan va xonaga kiruvchilar ro'yhati rahbariyat tomonidan tasdiqlangan bo'lishi shart.

ABM hisob markazi dasturlarini ekspluatatsiya qilish bo'limining ma'lumotlar bazasi administratori buyruq asosida tayinlanadi. Ma'lumotlar bazasi administratori rahbariyatning yozma ko'rsatmasiga ko'ra ma'lumotlar bazasi foydalanuvchilarini ishlashga ruxsat etadi va ularning ishlash huquqlarining (chegarasini) belgilab beradi.

Tizimga kirib-chiqish amaliyotlari elektron jurnal-bayonnomalarda qayd etilishi kerak.

ABM tarmoq administratori tomonidan Markaziy bank elektron to'lov tizimi foydalanuvchilarining ishlashlariga, ABM ma'lumotlar bazasi administratori ushbu foydalanuvchilarning tegishli ma'lumotlarga va ular bilan tegishli amaliyot bajarishlari uchun Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamenti bilan kelishilgan holda, ABM rahbariyatining yozma ko'rsatmasiga asosan ruxsat beradi. ABM rahbariyatining yozma ko'rsatmalari yig'ib borilib, yil oxirida umumlashtiriladi. Markaziy bank elektron to'lov tizimidan foydalanuvchilar ruyhati buyruq bilan tasdiqlanadi. Ma'lumotlar bazasi bilan ishlovchilar ro'yhati Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamentiga taqdim qilinadi.

ABM hisob markazi dasturlarini ekspluatatsiya qilish bo'limining serverlari dastur va boshqa elektron ma'lumotlarni ruxsatsiz o'zgartirishdan muhofazalovchi axborot muhofazasi dasturlari bilan jihozlanadi.

ABM hisob markazi dasturlarini ekspluatatsiya qilish bo'limida doimiy ravishda antivirus dasturi orqali barcha kiruvchi-chiquvchi ma'lumotlar tekshirib turilishi shart.

Axborot muhofazasi alohida xonalarda joylashtirilgan serverlar va qurilmalar yordamida tashkil etiladi.

ABM telekommunikatsiya bo'limi Bank telekommunikatsiya tarmog'idagi uskuna va qurilmalarning benuqson ishlashini, ma'lumotlarni uzatilishida ushlanib qolmasligini ta'minlaydi.

Bank telekommunikatsiya tarmog'ini boshqaruvchi va yordamchi amallarni bajaruvchi kompyuterlariga Bank telekommunikatsiya tarmog'idan foydalanuvchilar (tijorat banklari va boshqalar) hamda Markaziy bankning lokal hisoblash tarmog'i kompyuterlaridan kirish imkoniyati bo'lmasligi ta'minlangan bo'lishi kerak.

ABM ma'lumotlarni uzatish tarmog'i va ma'lumotlarni uzatish tarmog'iga xizmat ko'rsatish bo'limlari tomonidan Bank telekommunikatsiya tarmog'i foydalanuvchilarini tarmoqqa ulash, tarmoqdagi yo'nalish (marshrutizatsiya) imkoniyatlarini belgilash, tarmoqdan o'chirish ishlari foydalanuvchilarni yozma xatlariga ABM rahbariyatining chiqargan qaroriga asosan amalga oshiriladi. Barcha xatlar yig'ma jildda yig'ilib boriladi. Yil boshida tarmoq foydalanuvchilari to'g'risidagi jadval tuzilib, ABM rahbariyati tasdig'idan o'tkaziladi va eski yildagi qaror bilan tasdiqlangan xatlar arxivga topshiriladi.

ABM telekommunikatsiya bo'limida tarmoq foydalanuvchilarining almashinilgan axborotlari xajmlari xisobi yuritiladi.

ABM telekommunikatsiya bo'limi administratorining kompyuteri ruxsatsiz kirishdan muxofazalovchi apparat-dasturiy qurilmalari bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

ABM telekommunikatsiya bo'limidagi Bank telekommunikatsiya tarmog'ini boshqaruvchi yoki yordamchi amallarni bajaruvchi kompyuterlari INTERNET tarmog'iga ulanishi ta'qiqlanadi.

13.4. Xisob-Kitob Kassa Markazida axborot muhofazasi

Markaziy bankning HKKM rahbarlari, bosh buxgalterlari, so'ngi nazoratchilar va ma'sul ijrochi buxgalterlari elektron to'lov hujjatini shakllantirish jarayonida uning rekvizitlarini to'g'ri kiritilganligi va qog'ozdagi pul-hisob-kitob hujjatiga mosligiga shaxsan javob beradilar.

Markaziy bank elektron to'lov tizimida qatnashuvchi barcha kompyuterlar umumiy bank lokal hisoblash tarmog'i kompyuterlaridan mantiqiy (VLAN - virtual tarmoq tashkil etilgan holda) ajratilgan bo'lishi lozim.

Elektron to'lov hujjatlarini kirituvchi, tasdiqlovchi, to'lov bazasidan balans yoki boshqa ma'lumot oluvchi xodimlar (har bir mas'ul xodim, bo'lim boshliqlari, bosh muhosib o'rinbosarlari va boshqalar) qat'iy tanilish (iKey, Touch Memory yoki boshqa maxsus kalit) orqali elektron to'lov tizimiga kirishga ruxsat etiladi.

Elektron to'lov tizimiga lokal hisoblash tarmog'i orqali kiruvchi kompyuterlar ruxsatsiz kirishni chegaralovchi uskunaviy-dasturiy qurilmaga ega bo'lishi shart.

Kunlik balans, hisobvaraqlar qoldiq qaydnomasi, kirim-chiqim orderlari va boshqa to'lov hujjatlari alohida xonada joylashgan va lokal hisoblash tarmog'i orqali ulangan printerda dasturiy ravishda to'g'ridan-to'g'ri qog'ozga chop etilishi va belgilangan tartibda imzolar bilan rasmiylashtirilishi lozim. Ma'lumotlarni elektron faylga olib, fayldan chop etish qat'iyan man etiladi.

Markaziy bankning HKKM rahbarlari bosh buxgalterlar va ularning o'rinbosarlari, so'nggi nazoratchilar va elektron to'lov hujjatlarini tayyorlovchi ma'sul ijrochi buxgalterlar bilan ularni ishga qabul qilishda amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida yozma shartnoma tuzishlari shart.

Kiritilgan va tekshiruvdan o'tkazilgan elektron to'lov hujjatlari bosh buxgalter tomonidan to'lov hujjatining asl nusxasi bilan solishtirilib, dasturiy ravishda to'lovni amalga oshirishga ruxsat beriladi, so'ngra elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi. («Tasdiqlangan» xolatiga o'tkaziladi)

HKKMdand jo'natilgan elektron to'lov hujjatining elektron raqamli imzosining haqiqiyliги Kriptomarkazda tekshiruvdan o'tkaziladi va ABM hisob markazi dasturlarini ekspluatatsiya qilish bo'limiga qayta ishlash uchun uzatiladi. Elektron raqamli imzosi tasdiqlanmagan elektron to'lov xujjatlari qayta ishlashga qabul qilinmaydi va bu to'g'risida HKKMga ma'lumot uzatiladi.

HKKM elektron raqamli imzosi tasdiqlanmagan elektron to'lov hujjatlarini qayta texnologik tartibda shakllantirib, ABM hisob markazi dasturlarini ekspluatatsiya qilish bo'limiga qayta uzatadi.

ABM hisob markazi dasturlarini ekspluatatsiya qilish bo'limida qayta ishlangan elektron to'lov hujjatlari Kriptomarkaz elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi va HKKMga uzatiladi. HKKMga qabul qilingan elektron to'lov xujjatlarning elektron raqamli imzosi tekshirilib, qayta ishlanadi. Agar elektron raqamli imzo tasdiqlanmasa, elektron to'lov qayta ishlash uchun qabul qilinmaydi va bu haqda Kriptomarkazga xabar beriladi. Kriptomarkaz tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanmaganlik sabablari aniqlanib, tegishli choralar ko'riladi.

Agar HKKM moddiy javobgar shaxslari elektron to'lovlar tizimi orqali mijozlarning hisob varaqlaridan yoki HKKMning ichki hisob varag'idan mablag'larni hisobdan chiqarmasdan elektron to'lov hujjatlari fayllarini jo'natganligi natijasida HKKMga zarar etkazgan bo'lsa, zarar ulardan qonunchilikda belgilangan tartibda undirib olinadi.

Rahbar va mas'ul xodimlar xizmat vazifalaridan kelib chiqqan holda yopiq turdagi axborotlarni sir saqlanishi bo'yicha javobgardirlar.

Texnologik, vaqt va ma'lumotlarga kirishga ruxsat etish rejimlarini qasddan buzgan xodimlar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Agar ABM Markaziy bankka, tijorat banklariga yo'l qo'yilgan tartibbuzarliklar, xizmat vazifasida ko'rsatilmagan ishlarni bajarish natijasida jarima to'lab zarar etkazsa, aybdor shaxslar qonunchilikda ko'zda tutilgan hajm va tartibda moddiy javobgarlikka tortiladilar.

ABM Xodimlar bilan ishlash bo'limi Ma'lumotlar bazasi bilan ishlaydigan xodim ishdan bo'shaganida yoki boshqa ishga o'tganida tarmoq administratoriga, ma'lumotlar bazasi administratoriga hamda Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamentiga yozma ma'lumot beradi. Tarmoq va ma'lumotlar bazasi administratorlari xodimning tarmoqqa kirish va ma'lumotlar bazasidan foydalanish huquqlarini bekor qiladilar.

Tarmoq administratori va Ma'lumotlar bazasi administratori boshqa ishga o'tganida yoki ishdan bo'shaganida barcha huquqlari bekor qilinib, zudlik bilan buyruq asosida uning o'rniga boshqa xodim tayinlanadi.

Markaziy bank ABM elektron pochta orqali bankning moliyaviy faoliyatiga tegishli bank siri ma'lumotlari jo'natilganida, ma'lumotlar shifrlanishi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanishi shart.

ABM elektron pochta orqali qabul qilingan va uzatilgan elektron hujjatlarning elektron jurnal-bayonnomalari avtomatik tarzda olib boriladi. Jurnal-bayonnomalar har kuni dasturiy yo'l bilan arxivlanadi.

ABM elektron pochta administratori elektron pochta serverlarini to'g'ri va uzluksiz ishlashini ta'minlaydi. Elektron pochta jurnal bayonnomalarini tahlil qiladi. Tahlil natijasida qoidabuzarliklar aniqlansa, Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamentiga yozma ma'lumot beradi.

ABM elektron pochta bo'limida elektron pochta orqali o'tgan elektron to'lov hujjatlari fayllari arxivi olib boriladi.

ABM elektron pochtasidan bank faoliyatiga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarning uzatilishi qat'iyon taqiqlanadi.

ABM elektron pochta orqali jo'natilayotgan har bir elektron ma'lumot antivirus dasturi bilan tekshirilgan holda jo'natilishi shart.

ABM elektron pochta orqali bank faoliyatiga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni yuborish natijasida ko'rilgan zarar qonunchilikda belgilangan tartibda aybdor shaxslardan undiriladi.

Etkazilgan zararni aniqlash maqsadida zarur hollarda hay'at tuziladi va elektron arxiv hujjatlari batafsil tekshirib chiqiladi.

Hay'at tarkibiga Markaziy bankning vakolatli xodimlari va zarar ko'rgan bank xodimlari kiritilishi lozim.

Internet tarmog'i Markaziy bank elektron tizimlari va ABM elektron pochta tizimidan ajratilgan bo'lishi shart.

Internet tarmog'idan foydalanish uchun ruxsat departament va mustaqil boshqarma boshliqlarining asoslangan yozma ma'lumotiga asosan Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamenti tomonidan beriladi.

Markaziy bank Internet tarmog'i administratori etib To'lov tizimi va axborotlashtirish departamenti xodimi tayinlanadi.

Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamenti tomonidan Internet tarmog'i orqali foydalanish ta'qiqlangan saytlar ro'yxati tayyorlanib, Markaziy bank Raisining xavfsizlik masalalari bo'yicha o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi hamda administrator tomonidan ushbu internet saytlariga kirish ruxsati olib qo'yiladi.

Valyuta ayirboshlash shaxobchalari, Kredit axboroti milliy instituti tizimlari ma'lumotlari tijorat banklari tomonidan uzatilishi uchun xavfsizlik serverlari orqali identifikatsiya va autentifikatsiya jarayonlari bilan tekshiruvdan o'tkaziladi. Barcha tekshiruv amallaridan to'g'ri o'tgan foydalanuvchilar ABMning WEB serverida keyingi bosqichdagi tekshiruvdan o'tkaziladi. Foydalanuvchilar ushbu tizimlar serverdagi ma'lumotlar ba'zasiga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyatiga ega bo'lmasligi kerak. Xavfsizlik va WEB serverlarida avtomatik tarzda elektron jurnal-bayonnomalari yuritiladi. Jurnal-bayonnomalarning saqlanish muddati – 1 yil. Tizim foydalanuvchilari va ularning ish huquqlarini mos ravishda Kredit axboroti milliy instituti hamda MB Valyuta ayirboshlash operatsiyalari maxsus Bosh boshqarmasi tomonidan belgilanib, Markaziy bankning tegishli Rais o'rinbosarlari ruxsati bilan beriladi. Tizimlar alohida (virtual VLAN) lokal xisoblash tarmoqda bo'lishlari zarur. Tizim administratorlari ABM rahbari tomonidan buyruq asosida tayinlanadi.

BDMAB bo'yicha so'rovnomalar Markaziy bank bilan tijorat banklari o'rtasida tashkil etiladigan shifrlangan tarmoqli muhofazalangan tizim orqali

uzatiladi. Uzatilgan so'rovnomalar (ma'lumotlar) BDMAB bo'limida ishlov beriladi va shu tizimdan jo'natiladi.

BDMAB administratori ABM rahbarining buyrug'i asosida tayinlanadi.

«Naqd pul tizimi» ma'lumotlari Lotus Notus elektron pochta tizimi orqali uzatilib, Lotus Notus elektron pochtasining mavjud bo'lgan standart muhofaza tizimidan foydalaniladi. Tizimni ishlatish shartnoma asosida ABM ga yuklatiladi.

ABM arxiv bo'limida banklararo to'lov tizimi va XKKMning elektron ma'lumotlari «mustaxkam» saqlanishi tashkil etiladi. ABM elektron to'lov ma'lumotlarini belgilangan muddatda but saqlash uchun tegishli chora-tadbirlar amalga oshirib, ma'lumotlarni but saqlanishiga javobgar xisoblanadi. Elektron to'lov tizimi hamda XKKMda texnik nosozlik (fors major) xolatlarida ish faoliyatini tiklash uchun zaruriy elektron ma'lumotlar bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Barcha tegishli ma'lumotlar tashqi qurilmalarda kamida 2 nusxada, yonmaydigan seyflarda, bir biridan uzoqlashgan joyda, maxsus daftarlarda qayd qilingan holda saqlanishi tashkil etiladi. ABM Arxiv bo'limi ma'lumotlarni tezkor taqdim etish maqsadida kompyuterlarda 3 yildan kam bo'lmagan davrdagi ma'lumotlarni saqlaydi. Bu kompyuterlar alohida virtual tarmoqlarda tashkil etiladi. ABM Arxiv bo'limining ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash xonasi kodli qulf va signalizatsiya qurilmalari bilan jixozlanadi. Bo'lim xodimlari ABM raxbariyatining ruxsati bilan arxiv ma'lumotlarini taqdim etadilar.

ABM favqulotda xolatlarda banklararo to'lov tizimi, HKKM va boshqa mavjud tizimlarning ish faoliyatini beto'xtov ishlashini ta'minlash maqsadida uzoqlashgan joyda Zaxira markazini tashkil etadi. Zaxira markazi barcha zaruriy kompyuter, uskuna va qurilmalariga ega bo'lishi kerak. Zaxira markazi ishlari yilda kamida bir marotaba tekshiruvdan o'tkaziladi.

Zaxira markazi ABMning Asosiy markazidan kamida 5 km dan kam bo'lmagan uzoqlikda joylashtiriladi va Asosiy markazning barcha funksional imkoniyatlarini to'liq hajmda o'zida mujassamlashtirishi lozim. Asosiy

markazning ish faoliyati to'xtaganda 1 soat ichida Zaxira markazi ishga tushirilishi va Asosiy markazning funksiyalarini bajara olishi shart.

Favqulodda holatlarda Asosiy va Zaxira markazlari ishsiz holatga kelganda ma'lumotlarni qayta tiklash maqsadida ABM Arxiv markazi tashkil etilishi lozim. Arxiv markazi Asosiy markazdan uzoqlashgan joyda tashkil etiladi (50 km dan kam bo'lmagan masofada). Arxiv markazida 24 soat ichida Asosiy markaz funksiyalari "Favquloddagi holat"dan kelib chiqqan talablar qayta tiklanadi.

ABM Asosiy, Zaxira va Arxiv markazlarida axborot texnologiyalaridagi qurilma, uskuna va dasturlarning (serverlar, telekommunikatsiya qurilmalari, diskli massivlar va x.k.) ishlashi bo'yicha monitoring va nazorat qilish tizimlari mavjud bo'lishi lozim.

Elektron to'lov va boshqa ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish O'zbekiston Respublikasi "Bank siri to'g'risida"gi Qonuniga asosan Markaziy bank Raisining ABM ishiga rahbarlik qiluvchi o'rinbosarining yozma farmoyishiga asosan amalga oshiriladi.

14-BOB. BANK SIRINI XIMOYALASHNI TASHKIL ETISH

14.1. Bank siri bank tomonidan muxofaza qilishning iqtisodiy ahamiyati.

Bank siri bank tomonidan muhofaza qilinadigan quyidagi ma'lumotlardan iboratdir:

– o'z mijozlarining (vakillarining) operatsiyalari, hisobvaraqlari va omonatlariga doir ma'lumotlar;

– bank o'z mijoziga (vakiliga) bank xizmatlari ko'rsatishi munosabati bilan mazkur mijoz (vakil) to'g'risida olgan ma'lumotlar;

– mijozning (vakilning) bank seyflari va binolarida saqlab turilgan mol-mulki, uning xususiyati va qiymati haqidagi ma'lumotlar;

– mijoz (vakil) topshirigiga binoan yoki uning foydasini ko'zlab amalga oshirilgan banklararo operatsiyalar va bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

– bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning banklar o'rtasida muomalada bo'lishi natijasida ma'lum bo'lib qolgan, boshqa bankning mijoziga (vakiliga) doir ma'lumotlar;

– jamg'arib boriladigan pensiya tizimining ishtirokchilari, pensiya badallarining mikdori va summalarining xarakati, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi pensiya jamg'armalari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Bank siri bank tomonidan muhofaza qilinadigan quyidagi ma'lumotlardan iboratdir:

o'z mijozlarining (vakillarining) operatsiyalari, hisobvaraqlari va omonatlariga doir ma'lumotlar;

bank o'z mijoziga (vakiliga) bank xizmatlari ko'rsatishi munosabati bilan mazkur mijoz (vakil) to'g'risida olgan ma'lumotlar;

mijozning (vakilning) bank seyflari va binolarida saqlab turilgan mol-mulki, uning xususiyati va qiymati haqidagi ma'lumotlar;

mijoz (vakil) topshirig'iga binoan yoki uning foydasini ko'zlab amalga oshirilgan banklararo operatsiyalar va bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning banklar o'rtasida muomalada

bo'lishi natijasida ma'lum bo'lib qolgan, boshqa bankning mijoziga (vakiliga) doir ma'lumotlar;

jamg'arib boriladigan pensiya tizimining ishtirokchilari, pensiya badallarining miqdori va summalarining harakati, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi pensiya jamg'armalari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari orkali e'lon qilish, ogzaki yoki yozma shaklda yoxud boshqa yo'sinda tarkatish yoki ma'lum qilish, uchinchi shaxslar e'tiboriga etkazish, bunday ma'lumotlarni ko'lga kiritishi uchun uchinchi shaxslarga bevosita yoki bilvosita, shu jumladan ana shunday ma'lumotlar xizmat vazifasini bajarishi munosabati bilan o'ziga ishonib topshirilgan yoxud ma'lum bo'lib kolgan yoki ushbu konunda belgilangan tartibda taqdim etilgan shaxslar tomonidan bunday ma'lumotlarni saklash tartibining buzilishi okibatida imkoniyat yaratib berish bank sirining oshkor kilinishi deb hisoblanadi.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning bank tomonidan uchinchi shaxslarga ushbu qonunda nazarda tutilgan hollarda, shuningdek bankka yuridik, buxgalteriya, auditorlik, axborot va maslahat yo'sinidagi xizmat ko'rsatuvchi shaxslarga ma'lum qilinishi yoki taqdim etilishi, basharti bu ana shunday xizmat ko'rsatish zarur bo'lsa hamda mazkur shaxslar ushbu konunning 6-moddasida belgilangan harakatlarni sodir etishdan o'zlarini albatta tiysalar, bank sirining oshkor qilinishi deb hisoblanmaydi.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar xizmat vazifasini bajarishi munosabati bilan o'ziga ishonib topshirilgan yoki ma'lum bo'lib qolgan yoxud ushbu qonunda belgilangan tartibda taqdim etilgan shaxslar tomonidan bu ma'lumotlarning oshkor qilinishi yoki ulardan shaxsiy maqsadda yoxud uchinchi shaxslarning manfaatlari yo'lida foydalanilishi taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki zimmasiga qonun bilan yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor etishga yoki taqdim etishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning muhofaza qilinishi bank tomonidan kafolatlanadi.

Bankning rahbarlari va boshqa xodimlari xizmat vazifasini bajarishi munosabati bilan o'ziga ishonib topshirilgan yoki ma'lum bo'lib qolgan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilishi, shuningdek mazkur ma'lumotlardan shaxsiy maqsadda yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari yo'lida foydalanishi, uchinchi shaxslarga bunday foydalanish imkoniyatini bevosita yoki bilvosita, shu jumladan ana shunday ma'lumotlarni saqlash tartibini buzish oqibatida yaratib berishi taqiqlanadi.

Bankning rahbari yoki boshqa xodimi bankda ishlash davrida o'ziga ma'lum bo'lib kolgan, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni uning bank bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingandan keyin ham oshkor qilishga haqli emas.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning tegishli ravishda saqlanishi uchun bank zarur tashkiliy va texnikaviy chora-tadbirlar ko'rishi shart.

Agar bank bilan mijoz (vakil) o'rtasida nizo kelib chikkan bo'lsa, bank o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga mijozning (vakilning) bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni zarur hollarda va doirada ma'lum qilishi mumkin.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar mijozning (vakilning) o'ziga, u vakolat bergan vakillarga, shuningdek ushbu qonunda belgilangan tartibda boshka shaxslarga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hisob palatasi bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni, agar bu ma'lumotlar uning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishi uchun zarur bo'lsa, olishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z mijozlari xaqidagi bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni ushbu qonunda belgilangan tartibda taqdim etadi.

Bank, uning mijozi (vakili) va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan tashqari boshqa barcha shaxslar uchinchi shaxslar hisoblanadi.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning muhofaza qilinishi bank tomonidan kafolatlanadi.

Bankning rahbarlari va boshqa xodimlari xizmat vazifasini bajarishi munosabati bilan o'ziga ishonib topshirilgan yoki ma'lum bo'lib qolgan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilishi, shuningdek mazkur ma'lumotlardan shaxsiy maqsadda yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari yo'lida foydalanishi, uchinchi shaxslarga bunday foydalanish imkoniyatini bevosita yoki bilvosita, shu jumladan ana shunday ma'lumotlarni saqlash tartibini buzish oqibatida yaratib berishi taqiqlanadi.

Bankning rahbari yoki boshqa xodimi bankda ishlash davrida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni uning bank bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingandan keyin ham oshkor qilishga haqli emas.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning tegishli ravishda saqlanishi uchun bank zarur tashkiliy va texnikaviy chora-tadbirlar ko'rishi shart.

Agar bank bilan mijoz (vakil) o'rtasida nizo kelib chiqqan bo'lsa, bank o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga mijozning (vakilning) bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni zarur hollarda va doirada ma'lum qilishi mumkin.

14.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni taqdim etish

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar mijozning (vakilning) o'ziga, u vakolat bergan vakillarga, shuningdek ushbu Qonunda belgilangan tartibda boshqa shaxslarga taqdim etiladi.

Bank sirini tashkil etuvchi, pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq bo'lgan axborot qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni, agar bu ma'lumotlar uning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishi uchun zarur bo'lsa, olishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni, agar bu ma'lumotlar mazkur tashkilotlar faoliyatida qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan nazorat qilish sohasida o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishi uchun zarur bo'lsa, olishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z mijozlari haqidagi bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni ushbu Qonunda belgilangan tartibda taqdim etadi.

Kredit axborotini belgilangan tartibda kredit byurolariga taqdim etish bank sirining buzilishi deb hisoblanmaydi.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar prokuratura, tergov va surishtiruv organlariga mazkur bank mijoziga (vakiliga) nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishi mavjud bo'lgan taqdirda, etkazilgan zarar undirib olinishini yoki uning mol-mulki xatlanishini ta'minlash maqsadida tergovchi yoxud surishtiruvchining asoslantirilgan qaroriga binoan prokuror sanksiyasi bilan taqdim etiladi.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar sudga uning yozma so'rovi asosida, mazkur bank mijoziga (vakiliga) nisbatan sudning ish yurituvidagi ishlar bo'yicha taqdim etiladi.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar davlat ijrochisiga uning yozma so'rovi, shu jumladan elektron hujjat tarzidagi so'rovi asosida, mazkur bank mijoziga (vakiliga) nisbatan qo'zg'atilgan ijro ishi bo'yicha taqdim etiladi.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar davlat soliq xizmati organlariga bank mijoziga (vakiliga) soliq solish masalalariga taalluqli hollarda qonun hujjatlariga muvofiq taqdim etiladi.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni sudga, prokuratura, tergov va surishtiruv organlariga, shuningdek davlat ijrochisiga taqdim etish, buning uchun ushbu Qonunda nazarda tutilgan asoslar bo'lgan taqdirda, ularni so'rayotgan organga yopiq va muhrlangan konvertida yoki axborot tizimi orqali elektron hujjat tarzida himoyalangan aloqa kanallari vositasida yuborish orqali amalga oshiriladi. Kredit axborotini kredit byurolariga taqdim etish kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Mijoz (vakil) to'g'risidagi, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar uning merosxo'rlari yoki huquqiy vorislariga, agar ularning o'zi yoki ular vakolat bergan vakillar qonun hujjatlariga muvofiq meros huquqini yoki huquqiy vorislikni tasdiqlovchi barcha zarur hujjatlarni taqdim etsalar, bank tomonidan taqdim etiladi.

Meros huquqini yoki huquqiy vorislikni tasdiqlamaydigan hujjatlar olingan taqdirda, bank murojaat qilgan shaxsni u so'ragan ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyati yo'qligi xususida uch ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilishi shart, shuningdek qo'shimcha hujjatlar taqdim etishni talab qilishga yoki murojaat etgan shaxsning meros huquqini yoxud huquqiy vorisligini tasdiqlab berish to'g'risidagi yozma so'rovni tegishli notariusga yoki yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organga yuborishga haqli. Meros huquqini yoki huquqiy vorislikni tasdiqlovchi barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan taqdirda, bank murojaat etgan shaxsga besh ish kuni ichida tegishli mijoz (vakil) to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni berishi va barcha hujjatlarni taqdim etishi shart.

Banklar o'z faoliyatining xavfsizligini ta'minlash, omonatlarni, kreditlar va boshqa investitsiyalarning qaytarilishini kafolatlash maqsadida o'z mijozlari (vakillari) to'g'risidagi ma'lumotlarni qonunda belgilangan tartibda va doirada o'zaro almashib turishlari va bir-birlariga taqdim etishlari mumkin.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondiga, shuningdek omonatchilarga pullarni qaytarish tadbir-choralarini ko'rish uchun agent banklarga taqdim etiladi.

Boshqa bankning mijozi (vakili) to'g'risidagi ma'lumotlarni olgan bank bunday ma'lumotlarni oshkor qilishga va uchinchi shaxslarga taqdim etishga haqli emas.

Bank ushbu Qonunga muvofiq faqat o'z mijoziga (vakiliga) doir, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni taqdim etadi, bunda mijozning (vakilning) bankda saqlanayotgan hujjatlarida boshqa shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lsa, bunday ma'lumotlar ham mijozga (vakilga) doir ma'lumotlar deb hisoblanadi.

Agar bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni taqdim etish to'g'risidagi talab

ushbu Qonunning qoidalariga muvofiq bo'lmasa, bank bunday ma'lumotlar taqdim etishni rad qilishi shart.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni taqdim etishni rad qilganlik ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shuningdek ularning mansabdor shaxslari bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni so'rash va olishga haqli emas, ushbu Qonunda ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Bank siri bilan bog'liq nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar xizmat vazifasini bajarishi munosabati bilan o'ziga ishonib topshirilgan yoki ma'lum bo'lib qolgan shaxsning bu ma'lumotlarni noqonuniy ravishda oshkor qilganligi yoxud ulardan noqonuniy foydalanganligi hamda bank mijoziga (vakiliga) zarar etkazganligi qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

15-BOB. BANK XAVFSIZLIGINI HIMOYALASHNI TASHKIL ETISH

15.1. Tijorat banklarida mijozlarni lozim darajada

tekshirish ishlarni tashkil etish

Ichki nazorat tizimi maqsad va vazifalariga erishish uchun Ichki nazorat xizmati quyidagilar bo'yicha funksiyalarni bajaradi:


1. Qonunga xilof ish qilish holatlarini, shu jumladan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni va (yoki) terrorizmni moliyalashtirish uchun tijorat banki xizmatlaridan foydalanish taxdidining oldini olish uchun qonun hujjatlarida, tegishli qoidalarda, ichki hujjatlarda ko'zda tutilgan choralarni ko'rish;

2. Tijorat banki tomonidan qonun hujjatlari va tijorat banki ichki hujjatlari talablariga rioya etilishini monitoring qilish;

3. Tijorat banki faoliyatidagi qonun hujjatlari va ichki hujjatlar talablariga rioya qilinmaganligi bo'yicha aniqlangan kamchilik va xatolarni bartaraf etish yuzasidan rahbariyat ko'rib chiqishi uchun takliflar tayyorlash va kiritish;

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vakolatli vakillari, tijorat bankining ichki audit xizmati xodimlari, tashki auditorlar hamda Departament xodimlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruv jarayonida ichki nazorat tizimini tashkillashtirishda va uning faoliyatida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etilishini monitoring qilish;

5. Ichki nazoratni tashkil etish, xodimlar tomonidan qonun hujjatlari, tegishli va ichki hujjatlar talablarining buzilish holatlarining oldini olish va bartaraf etish masalalari bo'yicha Markaziy bank va Departament bilan hamkorlik qilish.



2.1-rasm. ATB Mikrokreditbankning ichki nazorat tizimi⁴⁰

Har bir tijorat banki Ichki nazorat xizmatining vazifalari, huquqlari va javobgarligini belgilaydigan nizomni mustaqil tarzda ishlab chiqadi va Bank Kengashida tasdiklangandan so'ng amalga kiritiladi. Tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilgan "Ichki nazorat xizmati to'g'risida"gi Nizomda quyidagi ma'lumotlar aks ettirishi kerak:

- uning maqsadi va vazifalari;

⁴⁰ Muallif tomonidan tuzildi

- uning tijorat bankining boshqa bo'linmalaridan mustaqil bo'lishini ta'minlash usullari;

- uning tijorat bankining boshqa bo'linmalari, shuningdek tijorat banki ichki audit xizmati bilan o'zaro munosabati;

- o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish huquqiga ega bo'lishi, shuningdek mazkur ma'lumotlarni taqdim etish masalalari yuzasidan hamkorlik qilish bo'yicha tijorat bankining boshqa bo'linmalari xodimlarining majburiyati;

- qonun hujjatlari va ichki hujjatlar bo'yicha mumkin bo'lgan buzilishlarni o'rganish o'tkazish huquqiga ega bo'lishi;

- olingan ma'lumotlarni tijorat banki boshqaruvi raisiga va zarur hollarda tijorat banki kengashiga erkin ifodalash va oshkor etish huquqiga ega bo'lishi;

- boshqaruv raisiga tegishli hisobotni taqdim qilish majburiyati;

- tijorat banki boshqaruviga qonun hujjatlari va standartlarga muvofiqlik masalalari bo'yicha, jumladan mazkur sohadagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan maslahatlar berish majburiyati;

- xodimlarni tanlash talablari va tartiblari;

- malakani oshirish bo'yicha maxsus kurslarda muntazam ravishda o'qib borish majburiyatlari.

Tijorat bankining ichki nazorat tizimi bank faoliyatining jihatlari, asosiy yo'nalishi, mijozlar bazasi va mijozlar hamda ularning operatsiyalari bilan bog'liq xatarlar darajasini hisobga olgan holda tashkillashtiriladi. Tijorat bankining, shu jumladan, uning filiallarining ichki nazorat tizimi tuzilmasi tijorat banki kengashi qarori bilan belgilanadi va Markaziy bankning talablariga muvofiq qayta ko'rib chiqiladi. Tijorat banki ichki nazorat tizimi tuzilmasi tijorat banki bosh ofisining Ichki nazorat xizmatini, shuningdek tijorat bankining har bir filialidagi Ichki nazorat xizmatini yoki mas'ul xodimni o'z ichiga oladi. Ichki nazorat xizmati ichki nazorat maqsadlariga samarali erishish va vazifalarni unumli bajarish uchun yetarli miqdorda xodimlar bilan shakllantiriladi. Filiallari soni 50 ta yoki undan ortiq

bo'lgan tijorat banklarining bosh ofisidagi ichki nazorat xizmati shtat birligi 10 tadan kam bo'lmasligi lozim.

Tijorat banklari quyidagi hollarda mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha mustaqil ravishda chora-tadbirlarni ko'rishlari kerak:

a) xo'jalik va fuqaroviy-huquqiy munosabatlarni o'rnatishda, shu jumladan:

yuridik yoki jismoniy shaxs bank hisobvarag'ini (omonatni) ochish uchun ariza bilan murojaat qilganda;

jismoniy shaxs bank plastik kartasini olish uchun ariza bilan murojaat qilganda;

yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tijorat banki tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish uchun ariza bilan murojaat qilganda;

yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tijorat banki ustav kapitalining bir foizga teng yoki oshadigan summadagi uning aktsiyalariga egalik qilganda;

jismoniy shaxs kredit olish uchun murojaat qilganda;

b) bir martalik operatsiyalar amalga oshirilgan quyidagi hollarda:

eng kam ish haqi miqdorining 100 baravariga teng yoki undan oshgan summada jismoniy shaxslar tomonidan naqd chet el valyutasi sotilishida;

eng kam ish haqi miqdorining 25 baravariga teng yoki undan oshgan summada jismoniy shaxslar tomonidan naqd chet el valyutasini maydalanishida, almashtirilishida va (yoki) konversiyalanishida;

jismoniy shaxslardan naqd chet el valyutasini inkassoga va (yoki) ekspertiza uchun qabul qilinishida;

jismoniy shaxslar tomonidan tijorat bankida joylashgan terminallar orqali plastik kartalardan foydalanilgan holda operatsiyalar (naqd mablag'lar echish, tovar va xizmatlarga to'lovlar) amalga oshirilganda (kommunal va aloqa xizmati, byudjet, byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar hamda boshqa majburiy to'lovlar bundan mustasno);

mijozlar tomonidan plastik kartalardan naqd chet el valyutasi olinishida;

jismoniy shaxslar tomonidan chet el valyutasini sotib olinishi;

bank hisobvarag'ini ochmasdan yoki hisobvaraqdan foydalanmasdan, pul o'tkazmalarini amalga oshirishda yoki qabul qilishda (kommunal va aloqa xizmati, byudjet, byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar hamda boshqa majburiy to'lovlar bundan mustasno);

v) shubhali operatsiyalar amalga oshirilganda;

g) mijoz to'g'risida avval olingan ma'lumotlarning to'g'riligiga yoki etarli ekanligiga nisbatan gumonlar mavjud bo'lganda.

Mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar mazkur Qoidalar kuchga kirgunga qadar hisobvaraqa ochilgan mijozlarga nisbatan ham amalga oshiriladi.

Tijorat banklari tomonidan mijozni lozim darajada tekshirish bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga olishi shart:

tegishli hujjatlar asosida mijozning va u qaysi shaxslar nomidan ish ko'rayotgan bo'lsa, o'sha shaxslarning shaxsini hamda vakolatlarini tekshirishni;

mijozning haqiqiy egasini identifikatsiyalashni;

mijoz tomonidan amalga oshiriladigan ish munosabatlari va operatsiyalarni ularning bunday mijoz va uning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish maqsadida doimiy asosda o'rganish o'tkazishni.

Tijorat banki tomonidan mijoz va mijozning haqiqiy egasini identifikatsiyasi ma'lumotlar, shuningdek operatsiyalar va boshqa bitimlarning bajarilishi uchun asos hisoblanuvchi hujjatlar va boshqa zarur ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banki tomonidan jismoniy shaxs — mijozni identifikatsiyalash shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki uni o'rnini bosadigan hujjat) asosida amalga oshiriladi. Bunda, tijorat banki mustaqil ravishda bunday hujjatning asli bilan tanishib chiqishi lozim.

Yuridik shaxslarga nisbatan mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar bajarilayotganda tijorat banklari ulardan davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi tegishli hujjatlarni, rahbariyati haqidagi, shuningdek ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarni olishlari lozim.

Yuridik shaxslarni lozim darajada tekshirish jarayonida tijorat banki pirovard natijada mijozning mulkdori bo'lgan yoki mijozni nazorat qiluvchi mijozning haqiqiy egasi — jismoniy shaxsni identifikatsiyalash bo'yicha, shu jumladan mijozning hamda uning ta'sischilari (jamiyat aktsiyalarining kamida o'n foiziga ega bo'lgan aktsiyadorlari, ishtirokchilari) ning mulk va boshqaruv tuzilmasini o'rganish orqali asosli va imkoni mavjud bo'lgan choralarni ko'rish lozim.

Agar mijoz yoki mijozning haqiqiy egasi mulkchilik tarkibi to'g'risida ma'lumotni oshkor qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablari tatbiq qilinuvchi yuridik shaxs hisoblansa, bunday yuridik shaxsning ta'sischilari (jamiyat aktsiyalarining kamida o'n foiziga ega bo'lgan aktsiyadorlari, ishtirokchilari)ni aniqlash va tasdiqlash talab etilmaydi.

Tijorat banki yuridik shaxs — mijozni batafsil o'rganish maqsadida quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi lozim:

mijozning ta'sischilari (jamiyat aktsiyalarining kamida o'n foiziga ega bo'lgan aktsiyadorlari, ishtirokchilari) tarkibiga, mijozning ustav fondi (kapitali)ning 10 foizdan ortiq ulushiga egalik qilayotgan shaxslarni aniqlashga;

mijoz boshqaruvi organlari tuzilmasiga va ularning vakolatlariga;

mijoz ustav fondi (kapitali)ning ro'yxatga olingan miqdoriga.

Mijozni va operatsiyaning boshqa ishtirokchilarini identifikatsiyalash imkonini beruvchi barcha hujjatlar ular taqdim etilgan sanada amalda bo'lishi shart.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga nisbatan mijozlarni lozim darajada tekshirish chora-tadbirlarining o'tkazilishi talab qilinmaydi.

Tijorat banklari mijozlardan olingan axborotlar (hujjatlar) ishonchliligiga shubhalar mavjud bo'lganda, ushbu axborotlarni (hujjatlarni) tekshirish (verifikatsiyalash) bo'yicha choralarni ko'rishlari lozim. Bunday holatlarda, tijorat banklari tegishli tashkilotlarga mijozlar haqidagi axborotlarning (hujjatlarning) ishonchligini (haqiqiylikini) aniqlashtirish uchun murojaat qilishlari mumkin.

Norezident-bank bilan vakillik munosabatlar o'rnatilishida va amalga oshirilishida norezident-bankni identifikatsiyalashdan tashqari, tijorat banki quyidagilarni amalga oshirishi kerak:

norezident-bankning ish faoliyati xususiyatlari to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lish uchun u haqidagi axborotlarni yig'ish;

ochiq ma'lumotlar asosida norezident-bankning obro'sini va nazorat sifatini, shu jumladan, ushbu bankka nisbatan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga oid qoidabuzarliklar yuzasidan tergov harakatlari olib borilgan yoki borilmaganligini aniqlash;

«tranzit hisobvaraqlar»ga nisbatan — bank-respondentda bank-korrespondent so'rovi bo'yicha mijoz to'g'risida kerakli identifikatsiyalashga oid zarur ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyati mavjudligi to'g'risida tasdiq olish;

tranzit o'tkazmalarini amalga oshirish maqsadida boshqa banklar bilan munosabatlarni o'rnatishda elektron to'lovlar to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni saqlash.

Norezident-bank bilan vakillik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida qaror tijorat banki Boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi.

Tijorat banklari vakillik munosabatlari o'rnatilayotgan norezident-banklar tomonidan tekshirishning xalqaro standartlar qo'llanilishi va operatsiyalarga nisbatan tegishli tekshiruv tartiblaridan foydalanilishi haqida ishonch hosil qilishlari kerak.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmayotgan davlatlar hududida joylashgan norezident-banklar yoki ularning sho'ba banklari, filiallari va vakolatxonalari bilan vakillik munosabatlarini davom ettirish jarayonida tijorat banklari ular bilan amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalarga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Tijorat banklari:

ular ro'yxatdan o'tgan davlatlarning hududida doimiy faoliyat yurituvchi boshqaruv organlari bo'lmagan banklar tomonidan hisobvaraqlari

foydalanayotganligi to'g'risida ma'lumot mavjud bo'lgan norezident-banklar bilan munosabatlar o'rnatilishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rishlari shart;

xalqaro hisob-kitoblar amalga oshirilishida mazkur hisob-kitoblar bilan bog'liq to'lov tafsilotlari va boshqa ma'lumotlarni bank-korrespondentlarga taqdim etishi mumkin;

jo'natuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar (jismoniy shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, yuridik shaxslarning nomi, jo'natuvchining joylashgan eri (pochta manzili) va hisob raqami) taqdim etilmagan yoxud qisman taqdim etilgan xalqaro pul o'tkazmalari bilan bog'liq operatsiyalarga alohida e'tibor qaratishlari va batafsil tahlil qilishlari lozim;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmayotgan davlatlarda joylashgan o'zlarining chet eldagi sho''ba banklari, filiallari va vakolatxonalarini faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirishlari kerak;

o'zlarining chet eldagi sho''ba banklari, filiallari va vakolatxonalaridan ular joylashgan mamlakatlar qonun hujjatlarida taqiq mavjudligi sababli, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha tegishli choralarni ko'rish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, tijorat bankining bosh ofisiga axborot berilishini talab qilishga majburdirlar. O'z navbatida tijorat banklari bu haqda Markaziy bankka va Departamentga xabar berishlari shart.

Tijorat banklarining chet eldagi sho''ba banklari, filiallari va vakolatxonalarini agarda ular joylashgan mamlakatning qonun hujjatlarida tijorat bankining ichki qoidalariga nisbatan engilroq ichki nazorat choralari belgilangan bo'lsa, ular jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda tijorat bankining ichki qoidalariga rioya qilishlari kerak.

Xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi kompaniyalar (bundan buyon matnda xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari deb

yuritiladi) bilan munosabatlar o'rnatilishida va amalga oshirilishida bunday tashkilotni identifikatsiyalashdan tashqari, tijorat banki quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha sherigining ish faoliyati xususiyatlari to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lish uchun u haqidagi axborotlarni yig'ish;

ochiq ma'lumotlar asosida tashkilotning obro'sini, jumladan, ushbu tashkilotga nisbatan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga oid kamchiliklar yuzasidan tergov olib borilgan yoki borilmaganligini aniqlash;

elektron to'lovlar to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni saqlash.

Xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari bilan vakillik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi qaror tijorat banki boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi.

Xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha, shu jumladan xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari orqali operatsiyalarni amalga oshiruvchi tijorat banklari:

o'zlarining bunday xizmatlarni ko'rsatuvchi bo'linmalari (shoxobcha, bo'lim va shu kabilar) va ushbu bo'linmalar xodimlarini hisobini yuritishlari;

pul o'tkazmalariga oid operatsiyalarni jismoniy shaxs — mijozlarni lozim darajada tekshirgandan so'ng amalga oshirishlari;

jo'natiladigan pul o'tkazmalarini mijoz-jo'natuvchi haqidagi (famiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki uning o'rnini bosadigan hujjat) seriyasi va raqami; agar operatsiya jarayonida hisobvaraq ishlatilgan bo'lsa, u holda uning raqami yoki operatsiyaning xos raqami) va oluvchi haqidagi (famiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); agar operatsiya jarayonida hisobvaraq ishlatilgan bo'lsa, u holda uning raqami yoki operatsiyaning xos raqami) aniq ma'lumotlar bilan birga yuborilishini ta'minlashlari;

norezident-banklardan va xalqaro pul o'tkazmalari tizimlaridan eng kam ish haqining 25 baravari miqdorigacha bo'lgan summadagi pul mablag'larini jo'natuvchilari haqidagi minimal ma'lumotlarni (famiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); agar operatsiya jarayonida hisobvaraq ishlatilgan bo'lsa, u

holda uning raqami yoki operatsiyaning xos raqami) taqdim etilishini talab qilishlari;

norezident-banklardan va xalqaro pul o'tkazmalari tizimlaridan eng kam ish haqining 25 baravari miqdoriga teng yoki undan oshadigan summadagi pul mablag'larini jo'natuvchilari haqidagi minimal ma'lumotlarni (famiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki uning o'rnini bosadigan hujjat) seriyasi va raqami; jo'natuvchining yashash manzili yoki tug'ilgan sanasi va joyi; agar operatsiya jarayonida hisobvaraqa ishlatilgan bo'lsa, u holda uning raqami yoki operatsiyaning xos raqami) taqdim etilishini talab qilishlari;

oluvchisi va (yoki) jo'natuvchisi haqidagi talab qilingan ma'lumotlarga ega bo'lmagan xalqaro pul o'tkazmalarini aniqlash bo'yicha asosli va imkoni mavjud bo'lgan choralarni ko'rishlari;

oluvchisi va (yoki) jo'natuvchisi haqidagi talab qilingan ma'lumotlarga ega bo'lmagan xalqaro pul o'tkazmalari aniqlanganda tijorat banki tomonidan ko'riladigan choralar (ijro qilish, rad etish, to'xtatish yoki boshqalar) tartibini belgilovchi, tavakkalchiliklarni baholashga asoslangan ichki hujjatni ishlab chiqishlari kerak.

Tijorat banklari norezident-vakil banklardan va xalqaro pul o'tkazmalari tizimlaridan ular bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq pul mablag'larini jo'natuvchilari haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni uch ish kuni davomida olish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Bunday imkoniyat mavjud bo'lmaganda tijorat banklari bunday xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari bilan shartnomani bekor qilish masalasini ko'rib chiqishlari lozim.

To'lov o'tkazmalarida vositachi (tranzit bank) sifatida ishtirok etuvchi tijorat banklari:

elektron to'lovlarga ilova qilinadigan jo'natuvchi va oluvchi haqidagi barcha ma'lumotlarni, jo'natuv to'g'risidagi ma'lumotlar bilan birga yuborilishini va besh yildan kam bo'lmagan muddat davomida saqlanishini ta'minlashlari;

oluvchisi va (yoki) jo'natuvchisi haqidagi talab qilingan ma'lumotlarga ega bo'lmagan xalqaro pul o'tkazmalarini aniqlash bo'yicha asosli va imkoni mavjud bo'lgan choralarni ko'rishlari;

tavakkalchiliklarni baholashga asoslangan holda oluvchisi va (yoki) jo'natuvchisi haqidagi talab qilingan ma'lumotlarga ega bo'lmagan xalqaro pul o'tkazmalari aniqlanganda tijorat banki tomonidan amalga oshiriladigan choralar tartibini belgilovchi dasturni ishlab chiqishlari kerak;

oluvchisi va (yoki) jo'natuvchisi haqidagi talab qilingan ma'lumotlarga ega bo'lmagan xalqaro pul o'tkazmalari aniqlanganda, bunday o'tkazmalar haqida Departamentga xabar berish masalasini ko'rib chiqishlari kerak.

Mijoz va mijozning haqiqiy egasini qayta identifikatsiyalash avvalgi identifikatsiyalash natijasida olingan ma'lumotlar ishonchliligiga gumon tug'ilgan taqdirda amalga oshirilishi lozim.

Mijoz va mijozning haqiqiy egasini identifikatsiyalashda tijorat banki olingan ma'lumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Departament tomonidan shakllantiriladigan va tijorat banklariga taqdim qilinadigan, ro'yxat hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmayotgan davlatlar ro'yxati bilan solishtirib chiqishi shart.


Mijozni lozim darajada tekshirish imkoniyati mavjud bo'lmagan taqdirda tijorat banki bu haqida Departamentga xabar berish masalasini ko'rib chiqishi va bunday mijoz bilan hamkorlik munosabatlariga kirishish yoki bunday mijozning operatsiyalarini amalga oshirishdan voz kechishi yoxud u bilan har qanday amaliy ish munosabatlarini to'xtatishi lozim.

Norezident-bank tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartlar talablari buzilishi holatlari haqida axborot mavjud bo'lgan taqdirda, tijorat banki boshqaruvi ushbu vakil bank bilan hamkorlikni to'xtatishgacha bo'lgan tegishli choralar ko'rish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi kerak.

15.2. Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishda gumonli va shubhali operatsiyalar mezonlari va alomatlaridan foydalanish

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan har bir tijorat bankining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazoratni muvofiqlashtirish boshqarmasi maxsus vakolatli davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti nomidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish boshqarmasiga xabar qilinishi lozim bo'lgan operatsiyalarni aniqlashga doir faoliyatini tashkillashtiradi va amalga oshiradi.

Masalan, yirik banklarda bu xizmat alohida department shaklida, shu bank filiallari tarmog'ida esa alohida bo'lim sifatida tashkil etilib, xodimlar bazasi ham ichki nazoratni muvofiq darajada olib borish uchun yetarli bo'lishi zarur. Tijorat banki ichki nazorat tuzilmasi 2.2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Tijorat banki ichki nazorat tuzilmasi ⁴¹

Rasmdan ko'rinadiki, filiallardagi ichki nazorat xizmati xodimlari bevosita filial rahbariga bo'ysunadi. Ushbu tashkiliy tuzilma ichki nazorat xodimining rahbarga aniqlangan kamchiliklar, aktivlardan samarali foydalanish yo'nalishlari

⁴¹ Muallif tomonidan tuzildi

haqida o'z vaqtida aniq axborotni yetkazib borishiga imkon yaratadi. Ichki nazorat xizmati boshqarmasi yesa bank bo'g'inlaridagi nazorat tizimi uchun umumiy yo'riqlarni ishlab chiqadi, mas'ul xodimlarning xuquq va majburiyatlari, ish faoliyatini tashkil qilish tartibini belgilab beradi.

Tijorat banking ichki nazoratni muvofiqlashtirish boshqarmasi tashkil qilinib, u bevosita bevosita bank Boshqaruvi Raisiga bo'ysunishi lozim. Boshqarmaga tayinlangan rahbar - boshqarma boshlig'i bevosita bank Boshqaruv Raisiga hisobdordir va bankning boshqa bo'linmalaridan mustaqildir. Ichki nazorat xizmati xodimlari bevosita boshqarma boshlig'iga hisobdordir. Bankning chet eldagi sho'ba banki, filial yoki vakolatxonasi (agar mavjud bo'lsa) ning ichki nazoratni amalga oshirishga mas'ul bo'linmasi boshqarmaga hisobdor qilib belgilanadi.

Boshqarma va uning xodimlari (shu jumladan filialdagi ichki nazorat xizmati xodimlari) ni mustaqilligi quyidagilar bilan ta'minlanadi:

- boshqarma bevosita bank Boshqaruvi Raisi nazorati ostida faoliyat yuritadi;
- boshqarma boshlig'i va xodimlari Bosh ofisning shtat birligiga kiradi, hamda ularning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari Bosh ofis xarajatlari hisobidan amalga oshiriladi;
- boshqarma xodimlari bank Boshqaruvi Raisining buyrug'i bilan lavozimiga tayinlanadi va ozod etiladi;
- filiallarda ichki nazorat xizmati xodimlariga ichki buyruqlar rasmiylashtirilishi, ichki tuzilgan komissiyalar tarkibiga kiritilishi, xizmat vazifasiga oid bo'lmagan boshqa ishlarga jalb etilishi va ularga tazyiq o'tkazilishi ta'qiqlanadi;
- boshqarma boshlig'i va xodimlari bank nomidan to'lov (hisob-kitob), kredit va buxgalteriya hujjatlarini imzolash yoki vizalash huquqiga ega emas.

Boshqarma boshlig'i va xodimi lavozimiga tayinlanuvchi shaxsdan quyidagilar talab qilinadi:

- bank va moliya qonun hujjatlarini bilishi,
- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartlarni bilishi;
- buxgalteriya hisobi qoidalari haqidagi bilimga ega bo'lishi, shuningdek muntazam ravishda malakani oshirish bo'yicha maxsus o'quv kurslarida ishtirok etishi.

Boshqarma boshlig'i oliy iqtisodiy yoki yuridik ma'lumotga va bankning bank operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'linmasida kamida ikki yillik rahbarlik tajribasiga yohud ichki nazorat xizmatida bir necha yillik ish stajiga ega bo'lishini talab qilinishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Boshqarma boshlig'i yoki xodimi (shu jumladan, filiallardagi ichki nazorat xizmati xodimlari) lavozimiga quyidagi shaxslar tayinlanishi mumkin emas:


- o'z faoliyati va shaxsiy xulq atvorida ishonib topshirilgan bo'linmani noto'g'ri boshqargani yoki ishni vijdonan yuritmaganini namoyon etgan shaxslar;
- iqtisodiyot sohasidagi jinoyati uchun avval sud tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishda ishtirok etuvchi xorijiy organlar so'rov bilan Departamentga murojaat kiladilar. Departament Markaziy bank orqali tegishli so'rovni tijorat banklariga taqdim etadi. Tijorat banklari bunday so'rov asosida so'ralayotgan ma'lumotni Departamentga taqdim etadilar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 12 oktyabrdagi 272-sonli «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq ma'lumotlarni taqdim etish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq tijorat banklari maxsus vakolatli davlat organiga hisobot taqdim qilib borishadi.

Ushbu qarorga muvofiq operatsiyalar to'g'risidagi axborot elektron hujjat shaklida, axborotni kiritish, faqat qayta ishlash va uzatish bo'yicha dasturli vositalarning avtomatlashtirilgan kompleksi yordamida, axborotni kriptografik himoya qilish vositalarini va axborot uzatishning elektron tizimini (DVAK)

qoʻllagan holda, shaklga solingan xabar tarzida tuziladi hamda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtkazilgan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.⁴²

ATB Mikrokreditbankda shubhali amaliyotlar hamda shubhali deb topilgan gumonli amaliyotlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar hamda qonun hujjatlari buzilishi dalillari toʻgʻrisidagi axborotlar quyidagi sxema asosida tegishli boshqarmalarga yetkaziladi:



3-rasm. Shubhali amaliyotlar toʻgʻrisida tegishli boshqarmalarga maʼlumot yetkazish sxemasi⁴³

Bankda ushbu yoʻnalishga aloqador xodimlarning ish samaradorligini yuqori darajada ushlab turish maqsadida Bosh Bank «Tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazorat» boshqarmasining tegishli xodimlari xamda «Ichki nazorat xizmati» xodimlari yilda kamida ikki marta maxsus oʻquv tayyorgarligidan oʻtadilar. Bunda xodimlarga jinoiy faoliyatga qarshi kurashish sohasidagi soʻnggi yangiliklar va

⁴² Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 12 oktabrdagi «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bogʻliq maʼlumotlarni taqdim etish tartibini takomillashtirish toʻgʻrisida»gi 272-sonli [Qarori](#)

⁴³ ATB Mikrokreditbankda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha ichki nazorat qoidalari.

rivojlangan banklar amaliyotlari o'rgatib boriladi. Ayniqsa FATF tashkilotining har bir majlisidan so'ng bankda tashkilot tomonidan qabul qilingan qarorlar va qora ro'yhat tarkibi sinchiklab o'rganib chiqiladi.

Operatsiyalar quyidagi mezon va alomatlarning biri mavjud bo'lganda gumonli operatsiya deb tan olinadi:

tijorat banki tomonidan tavakkalchilik darajasi yuqori deb berilgan operatsiya yoki uni amalga oshirayotgan mijoz;

rezident-mijoz tomonidan tovar etkazib berish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) shartnomasi bo'yicha avval olingan summani norezident foydasiga muntazam ravishda qaytarib berilishi;

operatsiyani amalga oshirish uchun taqdim qilingan hujjatlarning haqiqiylikiga (ishonchligiga) gumon tug'ilishi va (yoki) operatsiya to'g'risidagi, shu jumladan operatsiya bajaruvchi tomonlarning biri haqidagi ma'lumotlar tijorat bankida mavjud bo'lgan ma'lumotlarga muvofiq kelmasligi;

operatsiyani amalga oshirish uchun ariza (topshiriq, iltimosnoma) bilan murojaat qilinganda mijozning xatti-harakatlarining g'ayrioddiylik, masalan: asabiylashishi, ikkilanish, mijozning harakatlarini boshqarib turuvchi shaxslarning mavjudligida uning agressivligi yoki uning boshqa shaxslarga arzimas sabab yuzasidan telefon orqali maslahat uchun murojaat qilishi;

mijozning maxfiylik masalalari yuzasidan g'ayrioddiy tashvishlanishi yoki tijorat banki tomonidan operatsiya haqida so'ralgan ma'lumotlarni mijoz tomonidan asossiz rad etilishi yoxud taqdim etilishida asossiz kechiktirilishi;

amalga oshirilayotgan operatsiya bo'yicha mijoz hamkorlarini aniqlash imkoni yo'qligi;

operatsiya aniq iqtisodiy mohiyatga ega emasligi va mijoz faoliyatining tavsifi va faoliyat turiga muvofiq kelmasligi;

mijoz faoliyati tavsifiga bog'liq bo'lmagan holda uning hisobvarag'ida pul mablag'lari aylanmasining asossiz ko'payishi;

tijorat banki ishtirokida mijoz tomonidan bajarilayotgan operatsiyalarning operatsiyalarni amalga oshirishning umumqabul qilingan amaliyotiga yaqqol nomuvofiqligi;

mijoz tomonidan bajarilayotgan operatsiyalarga o'xshash operatsiyalarning summalari asossiz taqsimlanishi;

hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi mijozning odatiy faoliyatidan farq qiluvchi nostandart yoki g'ayrioddiy murakkab sxemalardan iborat bo'lishi;

mijoz tomonidan avval kelishilgan operatsiyaning amalga oshirish sxemasiga uning amalga oshirilishi bevosita boshlanishidan oldin, pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulklarning harakat yo'nalishiga taalluqli bo'lgan muhim o'zgartirishlar kiritilishi;

jismoniy shaxs tomonidan ayirboshlash kuniga belgilangan eng kam ish haqining 500 baravari miqdoriga teng bo'lgan yoki undan oshadigan summada bir qiymatdagi banknotlarni boshqa qiymatdagi banknotlarga ayirboshlash;

jismoniy shaxs tomonidan operatsiya amalga oshirilish kuniga belgilangan eng kam ish haqining 500 baravari miqdoriga teng yoki undan oshadigan summada naqd pul ko'rinishidagi pul mablag'larini yuridik shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning bank hisobvarag'iga qarz, kredit, moliyaviy yordam, ustav fondi (kapital)ga qo'yilma sifatida kiritilishi;

norezident tomonidan rezidentga grantlar, moliyaviy yordam, qarz yoki beg'araz yordam sifatida pul mablag'lari berilishi;

yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobvaraqlaridan operatsiya amalga oshirilish kuniga belgilangan eng kam ish haqining 500 baravari miqdoriga teng yoki undan oshadigan summadagi pul mablag'larini moliyaviy yordam yoki qarz sifatida ko'chirilishi;

jismoniy shaxslarning hisobvaraqlariga yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobvaraqlaridan operatsiya amalga oshirilish kuniga belgilangan eng kam ish haqining 500 baravari miqdoriga teng yoki undan oshadigan summadagi pul mablag'larini dividend sifatida ko'chirilishi;

bir kontragentning terminalidan bir kun davomida besh va undan ortiq xalqaro to'lov kartalaridan har bir kartaning operatsiyasi miqdori eng kam ish haqining 25 baravariga teng bo'lgan yoki undan oshadigan summadagi operatsiyalar (to'lov yoki naqd pul echilishi) amalga oshirilishi.

Operatsiyalar quyidagi mezon va alomatlarining biri mavjud bo'lganda shubhali operatsiya deb tan olinadi:

operatsiya bajaruvchi tomonlardan biri jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmayotgan davlatda doimiy yashayotgan, turgan yoki ro'yxatga olingan shaxs bo'lsa;

jismoniy shaxslar tomonidan, shu jumladan pul o'tkazmalari tizimlari orqali bir vaqtda yoki 3 oydan oshmagan muddat davomida ko'p marotaba eng kam ish haqining 500 baravari miqdoriga teng yoki undan oshadigan umumiy summada chet el valyutasida chet eldan jo'natilgan pul mablag'lari olinishi yoki chet elga pul mablag'lari jo'natilishi;

jismoniy shaxslar tomonidan bir vaqtda yoki 3 oydan oshmagan muddat davomida ko'p marotaba eng kam ish haqining 500 baravari miqdoriga teng yoki undan oshadigan umumiy summada chet el valyutasidagi pul mablag'lari sotilishi yoki sotib olinishi;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga anonim shaxsga ochilgan hisobvaraqa pul mablag'lari ko'chirilishi hamda O'zbekiston Respublikasiga anonim shaxsga ochilgan hisobvaraqdan yoki jo'natuvchisi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lmagan pul mablag'larining o'tkazilishi;

pul mablag'lari O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga offshor hududlarda doimiy yashovchi yoki ro'yxatga olingan shaxslarning hisobvarag'iga yoki foydasiga o'tkazilishi, yoxud bunday shaxslarning hisobvarag'idan O'zbekiston Respublikasiga 30 kun davomida oxirgi o'tkazish (kelib tushish) kunida belgilangan eng kam ish haqining 500 baravariga teng bo'lgan yoki undan oshadigan umumiy summada mablag'lar bir marotaba yoki ko'p marotaba o'tkazilishi (kelib tushishi);

taqdim etuvchiga tegishli aktsiyalarning emitenti hisoblangan norezident shaxslar bilan operatsiyalar;

tijorat banki tomonidan xabar qilinishi lozim bo'lgan operatsiyalar toifasiga kiritish to'g'risida qaror qabul qilingan gumonli operatsiya;

mazkur badda nazarda tutilgan mezon va alomatlarga ega bo'lmagan, mazkur Qoidalar va tijorat bankining ichki qoidalari bilan belgilangan gumonli operatsiyalar toifasiga kirmaydigan, biroq jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va (yoki) terrorizmni moliyalashtirishga aloqadorligiga tijorat bankida shubha mavjud bo'lgan operatsiyalar.

Ichki qoidalar bilan gumonli operatsiyalarni qo'shimcha mezonlari va alomatlari belgilanishi mumkin.

Tijorat banklari barcha murakkab, g'ayrioddiy yirik operatsiyalarga, shuningdek aniq iqtisodiy yoki qonuniy maqsadga ega bo'lmagan operatsiyani amalga oshirishning g'ayrioddiy sxemalariga kuchaytirilgan e'tibor qaratishlari kerak.

Operatsiya bajaruvchi tomonlaridan biri quyidagi shaxslar hisoblanishi to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olingan axborot mavjud bo'lganda har qanday operatsiya xabar qilinishi lozim:

terrorchilik faoliyatida ishtirok etayotgan yoxud ishtirok etishda gumon qilinayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

terrorchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yoxud amalga oshirishda gumon qilinayotgan tashkilotning bevosita yoki bilvosita mulkdori bo'lgan yoxud uni nazorat qilayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

terrorchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yoki amalga oshirishda gumon qilinayotgan jismoniy shaxsning yoxud tashkilotning mulkidagi yoki nazorati ostidagi yuridik shaxs.

Agar uning bir tomonlaridan biri jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmayotgan davlatlarda doimiy yashayotgan,

joylashgan yoki ro'yxatdan o'tgan shaxslar bo'lsa, ushbu operatsiyalar ham Departamentga xabar qilinishi lozim.

15.3. Banklarda gumonli va shubhali operatsiyalarni aniqlash

Identifikatsiyalash jarayonida olingan ma'lumotlar, shuningdek mijoz bilan ishlashga berilgan tavakkalchilik darajasi mijoz tomonidan amalga oshiriladigan (oshirilgan) operatsiyalarning mijoz faoliyatining asosiy yo'nalishlariga muvofiqligiga ishonch hosil qilish uchun va zarur hollarda mablag'lar manbalarini o'rganish uchun monitoringga asos bo'lib hisoblanadi.

Mijozlarni identifikatsiyalash va ular operatsiyalarining joriy tekshiruvini lavozim majburiyatlariga muvofiq tijorat bankining mijozlarga bevosita xizmat ko'rsatuvchi (mas'ul ijrochilar, kassirlar va shu kabi) xodimlar tomonidan o'tkaziladi, ular shubhali va (yoki) gumonli alomatlari mavjud operatsiyalar aniqlagan taqdirda bunday operatsiyalar haqida bevosita o'z rahbariga va Ichki nazorat xizmati xodimlariga yozma ravishda zudlik bilan xabar berishi lozim.

Mijozlar operatsiyalarining keyingi tekshiruvini Ichki nazorat xizmati xodimlari tomonidan joriy tekshiruv jarayonida aniqlanmaydigan shubhali operatsiyalarni aniqlash maqsadida, mijozning o'tgan davr mobaynida bajargan operatsiyalarini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Gumonli va (yoki) shubhali operatsiyalar alomatlari mavjud operatsiyalar aniqlanganda tijorat bankining mijozlarga bevosita xizmat ko'rsatuvchi xodimlari Ichki nazorat xizmatining topshirig'iga binoan zarur hollarda o'tkazilayotgan operatsiya haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar yuzasidan mijozga murojaat qiladilar.

Ichki nazorat xizmati xodimlari mijoz va operatsiya haqidagi ma'lumotlarni o'rganadilar, tegishli ma'lumotlarni maxsus jurnalga va mijoz anketasida qayd etadilar hamda etarli asoslar mavjud bo'lganda Ichki nazorat xizmati rahbariga gumonli operatsiyani shubhali sifatida tasniflash haqida taklif yuboradilar.

Asosli shubhalar mavjud bo'lgan taqdirda Ichki nazorat xizmati rahbari mijoz operatsiyasini shubhali deb hisoblash to'g'risida yozma qaror qabul qiladi hamda bu haqida bank boshqaruvi raisiga ma'lum qiladi.

Operatsiyalarni shubhali deb tan olish har bir alohida holatda mazkur Qoidalar hamda tijorat banking ichki qoidalari bilan belgilangan mezonlar va alomatlardan foydalangan holda kompleks tahlil asosida amalga oshiriladi.

Mijoz operatsiyasini shubhali deb tan olingandan so'ng, Ichki nazorat xizmati quyidagi choralarni ko'rishi kerak:

shubhali operatsiya to'g'risida Departamentga xabar berish;

mijoz to'g'risida qo'shimcha ma'lumot olish;

mijozning tavakkalchilik darajasini qayta ko'rib chiqish;

mijozning operatsiyalari ustidan monitoringni kuchaytirish;

qonun hujjatlariga va mijoz bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq shartnoma munosabatlarini to'xtatish masalasini ko'rib chiqish.

Shubhali operatsiya haqidagi xabar Ichki nazorat xizmati tomonidan shubhali operatsiya aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 12 oktyabrdagi 272-son qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 42-son, 450-modda) bilan tasdiqlangan Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq Departamentga beriladi.

Har bir xabar to'g'risidagi ma'lumot maxsus jurnalga kiritiladi.

Ichki nazorat xizmati har kuni Departamentga yuborilgan xabar haqida, elektron xabardagi barcha axborotlar aks ettirilgan jadvalda qog'oz shaklida ma'lumot shakllantiradi. Mazkur jadval ijrochi tomonidan imzolanishi va Ichki nazorat xizmati rahbari tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Bunday jadvallar shakllantirilayotganda elektron xabarlarni qog'oz shaklida chiqarish talab qilinmaydi. Departamentga yuborilgan xabar elektron shakldan qog'oz shakliga chiqarilganda Ichki nazorat xizmati rahbarining imzosi bilan tasdiqlanadi.

Tijorat banklari tomonidan bajariladigan operatsiyalar ma'lum mezonlar asosida gumonli va shubhali operatsiyalarga ajratiladi. Gumonli operatsiya - jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va (yoki) terrorizmni

moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilganligi to'g'risida tijorat bankida gumon uyg'otuvchi hamda uni shubhali operatsiyalar turkumiga kiritish (kiritmaslik) haqida qaror qabul qilgunga qadar bo'lgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiya.⁴⁴

1-jadval

ATB Mikrokreditbank "Toshkent viloyati" filialida gumonli va shubhali operatsiyalar tahlili⁴⁵

№	Ko'rsatkichlar	2017 yil	2018 yil	O'zgarishi
1	Jismoniy shaxslarni identifikatsiyalash	245	208	-37
2	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni identifikatsiyalash	1205	1392	187
3	Jami	1450	1600	150

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki ATB Mikrokreditbank "Toshkent viloyati" filialida gumonli va shubhali operatsiyalar 2018 yilda 1600 tani tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 150 taga ko'paygan. Jismoniy shaxslarni identifikatsiyalash o'tgan yilga nisbatan 37 taga kamaygan bo'lsada, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni identifikatsiyalash 187 taga ko'paygan.

Samarali va narx parametrlari bo'yicha raqobatbardoshli DVAKlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish bo'yicha qo'llanmani tashkilotlarga berish Departament tomonidan ta'minlanadi.

Operatsiya to'g'risidagi elektron hujjat tarzidagi axborotni uzatish Departamentning tashkilot joylashgan joydagi bo'linmasida (banklardan tashqari) almashtiriladigan magnitli va boshqa manbalarda (disketalarda, kompakt-disklarda va boshqa xotirada saqlab qoladigan qurilmalarda), axborot yetkazib beruvchi tomonidan, yetkazib berish vaqtida hujjatning maxfiyligi buzilishini istisno qiluvchi chora-tadbirlarga rioya qilgan holda yoki maxsus pochta aloqasi vositasida amalga oshiriladi.

Operatsiya to'g'risidagi axborotni elektron hujjat tarzida taqdim etish imkoniyati mavjud bo'lmagan taqdirda axborot yetkazib berish vaqtida hujjatning

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2009 yil 13-oktabrdagi "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari". № 2023

⁴⁵ Muallif tomonidan tuzildi

maxfiyligi buzilishini istisno qiluvchi chora-tadbirlarga rioya qilgan holda qog'ozda bevosita taqdim etiladi yoki maxsus pochta aloqasi vositasida yetkazib beriladi.

Operatsiya to'g'risidagi axborot bevosita keltirib berilgan yoki u belgilangan tartibda maxsus pochta aloqasi bo'linmasiga topshirilgan sana axborot taqdim etilgan sana hisoblanadi.

Banklar tomonidan bajariladigan operatsiyalar to'g'risidagi axborotni Departament banklarning avtomatlashtirilgan tizimida ochiladigan, ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilingan maxsus elektron pochta manzilidan oladi.

Tashkilotning Departamentga operatsiya to'g'risidagi axborotni belgilangan shaklga muvofiq bo'lmagan holda taqdim etishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi operatsiya to'g'risidagi axborotning tasdiqlangan shakliga belgilangan tartibda o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

Departament operatsiya to'g'risidagi axborotni jo'natuvchini identifikatsiya qiladi va axborot mazmunining aynanligini (o'zgarmaganligini) nazorat qiladi.

Tashkilotlar tomonidan operatsiya to'g'risidagi axborot buzilgan tarzda yoki to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilganda, shuningdek unda elektron raqamli imzo (tashkilot muhri, vakolatli shaxslar imzolari) mavjud bo'lmaganda Departament operatsiya to'g'risidagi axborot olingan kuni, maxfiylikni ta'minlash choralariga rioya qilgan holda, aniq kamchiliklarini ko'rsatib, uni qaytadan taqdim etish to'g'risida so'rovnoma jo'natadi.

Departamentning so'rovnomasi olingan taqdirda tashkilot so'rovnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'radi va uning olingan vaqtdan boshlab bir ish kuni mobaynida Departamentga tuzatilgan axborotni belgilangan tartibda jo'natadi.

Tashkilot tomonidan Departamentga majburiy nazorat qilinmaydigan operatsiya to'g'risidagi axborot noto'g'ri taqdim etilgan taqdirda tashkilot tegishli tartibda Departamentga tashkilotning rahbari imzolagan va muhri bilan tasdiqlangan xat bilan, noto'g'ri taqdim etilgan axborotni haqiqiy emas deb e'tirof

etish to'g'risida murojaat qiladi. Xatda operatsiya to'g'risidagi axborotni haqiqiy emas deb e'tirof etish sabablari, shuningdek operatsiya to'g'risida noto'g'ri taqdim etilgan axborotni so'zsiz identifikatsiya qilish imkonini beradigan ma'lumotlar (axborotning tartib raqami va sanasi, uni aloqaning elektron kanali bo'yicha yoki qog'ozda taqdim etish usuli, shuningdek operatsiyaning u amalga oshirilgan valyutadagi summasi va uni amalga oshirish sanasi) ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Tijorat banklari Departamentning yozma so'rovlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim qiladilar, shuningdek Departament jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni, shu jumladan tijorat banklarining avtomatlashtirilgan axborot, ma'lumotnoma tizimlaridan hamda ma'lumotlar bazalaridan yozma so'rash va bepul olish huquqiga ega. Xorijiy davlatning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishda ishtirok etuvchi vakolatli organining so'rovi mavjud bo'lganda Departament Markaziy bank orqali tegishli so'rovni tijorat banklariga taqdim etadi. Tijorat banklari bunday so'rov asosida so'ralayotgan ma'lumotni Departamentga taqdim etadilar.

Tijorat banklari doimiy tarzda ichki nazoratni amalga oshiradi va bu borada tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishiga yo'l ko'ygan tijorat banklariga nisbatan tegishli sanksiya va choralar qo'llaniladi.

Ichki nazorat xizmati rahbari bo'lmagan holatda yuborilgan xabarlar haqidagi jadval va (yoki) xabarning qog'oz shaklidagi nusxasi tijorat banki boshqaruvi raisining yozma bergan vakolati asosida Ichki nazorat xizmati rahbarining o'rinbosari yoki mas'ul xodim tomonidan imzolanadi.

Departamentga yuborilgan barcha xabarlar va yuborilgan xabarlar haqida jadval shaklidagi ma'lumot bevosita Ichki nazorat xizmati rahbari tomonidan

maxsus jihozlangan xonada yoki yonmaydigan va muhrlanadigan seyfa saqlanishi kerak.

Tijorat banklari, shuningdek tegishli operatsiyaning shubhali ekanligini tasdiqlovchi yoki shubhaliligini olib tashlovchi har qanday ma'lumot yuzasidan darhol Departamentga xabar berishlari zarur.

Agar mijoz bilan munosabatlarni o'rnatish davrida, yoki ushbu munosabatlarni amalga oshirishda, yoxud bir marotabalik operatsiyalarni o'tkazishda tijorat banki xodimlarida mazkur Qoidalarga muvofiq operatsiya alohida hollarda xabar qilinishi lozimligi to'g'risida shubhalar paydo bo'lsa, bu haqida zudlik bilan bunday operatsiya aniqlangan kunning o'zida Ichki nazorat xizmatiga xabar berilishi kerak. O'z navbatida Ichki nazorat xizmati quyidagi chora-tadbirlarni ko'rishi lozim:

mijoz va mijozning haqiqiy egasini batafsil identifikatsiyalash;

yuridik yoki jismoniy shaxs hisobvarag'iga tushgan pul mablag'larini hisobga kiritish bo'yicha operatsiyalarni istisno etganda, bu operatsiya bajarilishi lozim bo'lgan sanadan e'tiboran uch ish kuniga to'xtatib turish to'g'risida asoslantirilgan farmoyish qabul qilish;

operatsiya to'xtatib turilgan kunning o'zida operatsiya to'g'risidagi xabarni Departamentga yuborish uchun tayyorlash;

mijoz haqida qo'shimcha ma'lumotlarni olish (shu jumladan, faoliyat turi, aktivlari miqdori, ochiq ma'lumotlar bazasi orqali olish mumkin bo'lgan ma'lumotlar va shu kabilar);

mijoz amalga oshirayotgan operatsiyalarini doimiy monitoring qilish;

mijozning pul mablag'lari yoki moliyaviy holatining manbasini, shu jumladan mijozdan ma'lumot olish orqali aniqlash bo'yicha choralarni ko'rish;

operatsiya haqidagi ma'lumotni maxsus jurnalga kiritish.

Bunday operatsiyani to'xtatish, shu jumladan bank xizmatlarini ko'rsatishni rad etish faqatgina tijorat bankida mijoz to'g'risidagi mavjud axborotlar Ro'yxatdagi ma'lumotlar bilan to'liq mos kelgan taqdirda amalga oshiriladi.

Operatsiya to'xtatilgan taqdirda mijozning topshirig'i asosida hisobvaraqlardan pul mablag'larini hisobdan chiqarish amalga oshirilmaydi.

Mijoz topshirig'i operatsiyalari to'xtatilgan mijozlarning topshiriqlari ro'yxatga olinadigan alohida jurnalda ro'yxatga olinishi, shuningdek operatsiya to'xtatilishi muddati tugaguniga qadar maxsus jildga joylashtirilishi lozim.

Operatsiyalari to'xtatilgan mijozlarning topshiriqlarini ro'yxatga olish uchun alohida jurnalda to'xtatilgan operatsiyani, shuningdek ushbu operatsiya ishtirokchilarini identifikatsiyalash imkonini beruvchi ma'lumotlar qayd etib boriladi.

Departamentning operatsiyani ikki ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga to'xtatib turish haqidagi ko'rsatmasi mavjud bo'lganda, tijorat banki uni ko'rsatilgan muddatgacha to'xtatadi.

Departament jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni, shu jumladan tijorat banklarining avtomatlashtirilgan axborot, ma'lumotnoma tizimlaridan hamda ma'lumotlar bazalaridan yozma so'rash va bepul olish huquqiga ega.

Tijorat banklari Departamentning yozma so'rovlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim qiladilar.

Xorijiy davlatning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishda ishtirok etuvchi vakolatli organining so'rovi mavjud bo'lganda Departament Markaziy bank orqali tegishli so'rovni tijorat banklariga taqdim etadi. Tijorat banklari bunday so'rov asosida so'ralayotgan ma'lumotni Departamentga taqdim etadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2010. – 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi qonuni, 1995 yil 21 dekabr, 154-I-son.
3. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonuni, 1996 yil 25 aprel, 216- I-son.
4. O'zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi qonuni, 2003 yil 11 dekabr, 556-II-son.
5. O'zbekiston Respublikasining «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi qonuni, 2003 yil 11 dekabr, 562- II-son.
6. O'zbekiston Respublikasining «Elektron tijorat to'g'risida»gi qonuni, 2015 yil 22 may.
7. O'zbekiston Respublikasining «Elektron to'lovlar to'g'risida»gi qonuni, 2005 yil 16 dekabr, O'RQ-13-son.
8. O'zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi qonuni, 2004 yil 29 aprel.
9. O'zbekiston Respublikasining «Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni, 2006 yil 24 fevral.
10. O'zbekiston Respublikasining «Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida»gi qonuni, 2011 yil 26 avgust.
11. O'zbekiston Respublikasining «Garov reestri to'g'risida»gi qonuni, 2013 yil 23 oktyabr.

II.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONLARI VA QARORLARI

1. 2018 yil 14 maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston respublikasi prezidentining Qarori;
2. O'zbekiston Respublikasi 2018 yil 22 martdagi “Davlat aktivlarini sotishda va ijaraga berishda elektron savdolari joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori;
3. 2018 yil 21-noyabrda «Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori;
4. O'zbekiston Respublikasi 2016 yil 2 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Elektron tijoratdagi bitimlar amalga oshirilish tartibini yanada takomillashtirish bo'yicha choralar to'g'risida” qarori. Ushbu qaror doirasida Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalari ham qabul qilindi;

5. O'zbekiston Respublikasi 2013 yil 30 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Elektron tijoratni rivojlantirish choralar to'g'risida" qarori;

6. O'zbekiston Respublikasi 2007 yil 3 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida axborotlarni kriptografik ximoya qilishni tashkil etish bo'yicha choralar to'g'risida" qarori;

7. - 2007 yil 12 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Elektron tijorat yuritishda to'lovlar o'tkazishni yanada takomillashtirish bo'yicha choralar to'g'risida" qarori;

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PF-4058-sonli farmoni.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 5 avgustagi «Banklardagi depozit hisobvaraqlardan naqd pul to'lovlarini uzluksiz ta'minlash kafolatlari to'g'risida»gi PQ-147-sonli qarori.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi «Naqd pul muomalasini takomillashtirish va bankdan tashqari aylanmani qisqartirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-57-sonli qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 7 noyabrdagi «Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-726-sonli qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 3 avgustdagi «Plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-433-sonli qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 19 apreldagi «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1325-sonli qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2344-sonli qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi PF-5296-sonli "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-sonli "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi PQ-3724-sonli "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi PQ-

3945-sonli “Milliy to’lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori.

20. “O’zbekiston Respublikasida 2018-2020 yillar davrida raqamli bankingni rivojlantirish Kontseptsiyasi”

III. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

ASARLARI VA MA’RUZALARI

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokrati O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: «O’zbekiston» NMIU, 2016. -56 b.

2. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga qo’ramiz / Sh.M. Mirziyoyev. - “O’zbekiston” NMIU, 2017.-488 b.

3. Sh.M.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farvonligining garovi. O’zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr/Sh.M.Mirziyoev.- Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017.-48 b.

4. Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, kat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O’zbekiston», 2017. - 104 b.

5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o’rganish va keng jamoatchilik o’rtasida targ’ib etishga bag’ishlangan ilmiy-ommabop qo’llanma (Matn)/nashr uchun ma’sul R.S.Qosimov.-T.: “Ma’naviyat”, 2018. – 320 bet.

IV. DARSLIKLAR, O’QUV QO’LLANMALAR VA MONOGRAFIYALAR

1. Abdullaeva Sh.Z.Bank risklari va kreditlash. – T.: “Moliya”, 2002. – 304b.

2. Abdullaeva Sh.Z. Pul va pul tizimi. – T.: “O’qituvchi”, 1997. – 99 b.

3. Abdullaev S.P. Zamonaviy va qulay to’lov vositasi. – T., 2006.– 188 b.

4. Antonov V.A. Mirovaya valyutnaya sistema i mejdunarodnie rascheti. V.A. Antonov; Akademiya narodnogo xoz-va pri pravitelstve RF. Rossiysko-nemetskaya visshaya shkola upravleniya. – M.: TEIS, 2000. – 193 str.

5. Bankovskoe delo. Upravlenie i texnologii: uchebnik/pod. red. A.M. Tavasieva. – 3-e izd., pererab. i dop. –M.: YuNITI-DANA, 2012.– 671 str.

6. Balabanov I.T.Elektronnaya kommertsiya. –SPb: Piter, 2001.–320 str.

7. Bobakulov T.I. Milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash: muammolar va echimlar. – T.: “Fan va texnologiya”, 2007. – 184 b.

8. Vaxabov A.V. Mejdunarodnie valyutno-kreditnie i finansovie otnosheniya. V 2-x t. –T.: “Universitet”, 2003. –538 str.
9. Dengi, kredit i banki. Uchebnik. Pod. red. Lavrushina O.I.–M.: KnoRus, 2009.–560 str.
10. Jarkovskaya E.P. Bankovskoe delo: ucheb. pos./E.P.Jarkovskaya, I.O.Arends. 10-e izd., stereotip.– M.: Omega-L, 2011. – 295 ctr.
11. Karaliev T.M., Abdullaev Yo.A. “Bank ishi” o’quv qo’llanma. – T.: TMI, 2009. – 580 b.
12. Krivoruchko S.V. Platyojnie sistemi: uch. posobie –M.: Market D.S., 2010. – 176 str.
13. Krivoruchko S.V., Lopatin V.A. Natsionalnaya platyojnaya sistema: struktura, texnologii, regulirovanie. Mejdunarodniy opit, rossiyskaya praktika – M.:KnoRus: TsIPSiR, 2013, – 456 str.
14. Kochergin D.A. Elektronnie dengi. –M.:Market DS; TsIPSiR, 2011. – 424 str.
15. Navruzova K.N. va boshqalar Bank hisobi T.Fan va texnologiyalar 2006 y.
16. Navruzova K.N., Qulliev I. Markaziy bankda buxgalteriya hisobi T.: Moliya-iqtisod 2007 y.
17. Platyojnaya sistema // T.S.Malikov, Z.A.Xolmaxmadov, Sh.M.Toshmuradov, V.X.Murtazaeva. - T.: Ma’naviyat, 2001. – 96 s.
18. Raximova X.U. Osobennosti organizatsii i razvitiya platyojnoj sistemi Respubliki Uzbekistan. Monografiya. – T.: “Moliya”, 2013. –156 str.
19. Raximova X.U. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to’lov tizimi” O’quv qo’llanma. Bekmuradov A.Sh. tahrir ostida.-Toshkent: Moliya, 2016 -299 b.
20. Raximova X.U. Elektronnyaya kommertsiya v Uzbekistane: sostoyanie, problemi i puti razvitiya. Monografiya. Pod redaktsiey d.e.n., prof. A.Sh. Bekmuradova – T.: Moliya, 2017. 111 c.
21. Novie platejnie texnologii. Informatsionno-spravochnoe izdanie/A.I. Grizov, N.V.Babinovai dr., pod red. A.I. Grizova, – M.: AOZT «Rekon», 2001.– 272str.
22. Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik.– T.:Cho’lpon,2011. – 328 b.
23. Usoskin V.M. Sovremenniy kommercheskiy bank. – M.: Finansi i statistiki, 2003. – 314 str.
24. O’zbekiston Respublikasi bank tizimi/F.M. Mullajonov tahriri ostida; O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki. – T.: “O’zbekiston”, 2011. – 368 b.
25. O’zbekiston Respublikasida plastik kartochkalar yordamida to’lovlarni amalga oshirish bo’yicha qonun hujjatlari to’plami. – T.: O’zbekiston Banklari Assotsiatsiyasi, 2010. – 192 b.
26. O’zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlari to’plami/O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki. – T.: “O’zbekiston”, 2011. – 456 b.

27. Shaten P.L. Predotvrashchenie otmivaniya deneg i finansirovaniya terrorizma: Prakticheskoe rukovodstvo dlya bankovskix spetsialistov/P.L.Shaten; per. s angl. – M.: “Alpina Pabliherz”, 2011. – 316 ctr.

28. [James Brook](#). Examples & Explanations: Payment Systems. – New York.: Wohers Kluwer Low@Business. 479 pg.

29. Carol Chomsky, Christina Kunz, Elizabeth Shiltz, Charles Tabb. Selected Commercial Statutes, For Payment Systems Courses: West Academic Publishing 2015 Edition.1836 pg

30. David B. Humphrey. Payment Systems: Princiles, Practice, and Improvements. The Wold Bank, – Washington, USA, 111 pg.

31. Sayfiddinov I.F. To'lov aylanmasi, uning muammolari va hal etish yo'lllari. Iqtisod fanlari nomzodi... diss. avtoreferati -Toshkent, 2012. -23 b.

V.ILMIY MAQOLALAR

1. Allaberganov R. Mobilniy banking: perspektivi razvitiya v Uzbekistane// Bozor, pul va kredit. – T.: 2012, №2, s.65 – 68.

2. Aliqoriev O. Masofaviy bank xizmatlari bozori: holat va istiqbol // Bozor, pul va kredit. – T.: 2013, №2, b. 24 – 28.

3. Bekchanov M. Sistema plastikovix kart v Uzbekistane// Bozor, pul va kredit. – T.: 2012, №4, s.11 – 14.

4. Bekchanov M., Po'latov R. Kanada: plastik kartochkalar bilan hisob-kitob qilish tizimi // Bozor, pul va kredit. – T.: 2012, № 6, b. 22 – 25.

5. Jumanazarov M. O'zbekistonda elektron to'lovlar tizimi rivojlanishi // Bozor, pul va kredit. – T.: 2013, № 5, b.10 – 13.

6. Marpatov Sh. Bank resurslarini vakillik hisobvarag'i orqali tezkor boshqarish// Bozor, pul va kredit. – T.: 2015, № 2, b. 61 – 68.

7. Mahmudov U. Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi – davr talabi // Bozor, pul va kredit. – T.: 2014, №7, b. 4 – 9.

8. Raximova X.U.Natsionalnie elektronnie rinki: tendentsii stanovleniya // Bozor, pul va kredit. – T.: 2014, №3, s. 23–28.

9. Saidkamolov J. Osobnosti importnogo dokumentarnogo akkreditiva v Respublike Uzbekistan // Bozor, pul va kredit. – T.: 2014, №7, s.10-18.

10. Saidkamolov J. Bankovskaya garantiya v mejdunarodnix raschyotax i platejax//Bozor, pul va kredit. – T.: 2014, №10, s.4–9.

11. Taylakov B. Razvitie i funktsionirovanie telekommunikatsionnoy seti SWIFT//Bozor, pul va kredit. – T.: 2012, №12, b.43–46.

12. Trenkin A.P. Kreditno-raschyotnie otnosheniya i denejnoe obrashchenie v Respublike Moldoviya//Bankovskoe delo. Moskva, 2010, № 8, s. 37–39.

13. Bech. M.L., Preisig, C. & Soramäki, K. Global Trends in Large-Value Payments // FRBNY Economic Policy Review / September 2008. 23 pp.

14. Central bank oversight of payment and settlement systems. – BIS, Basel, Switzerland, May 2005.

15. E.G. Johnson and other. Payment Systems, Monetary Policy, and the Role of the Central bank. International Monetary Fund. 1998.

VI. INTERNET SAYTLAR

1. <http://www.lex.uz/>
2. <http://www.cbu.uz/>
3. <http://www.nbu.uz/>
4. <http://www.uzreport.com/>
5. <http://www.finance.uz/>
6. <http://www.cbu.ru/>
7. <http://www.mf.uz/>
8. <http://www.stat.uz/>
9. <http://www.ahbor.uz/>
10. <http://www.bankir.uz/>
11. <http://www.bankingtech.com/>
12. <http://www.soliq.uz/>
13. <http://www.review.uz/>
14. <http://www.uba.uz/>
15. <http://www.gov.uz/>
16. <http://www.cer.uz/>
17. <http://www.bankinfo.uz/>
18. <http://www.imf.org/>
19. <http://www.stat.uz/>
20. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
21. http://www.ved.gov.ru/rus_export/factoring/factoring_associations/
22. <http://sdo.rea.ru/cde/conference/13/file.php?fileId=6>.
23. <http://bankirsha.com/tags/plastikovye-karty.page5.html>
24. http://www.bizhit.ru/index/polzovateli_interneta_v_mire/0-404
25. <http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=5393>
26. http://www.topknowledge.ru/index.php?option=com_content&view=article&id=1710
27. http://www.cbr.ru/publ/MoneyAndCredit/conf_01_14.pdf
28. http://www.cbr.ru/statistics/p_sys/print.aspx?file=sheet005.htm&pid=psrf&sid=ITM_32730
29. www.ecb.europa.eu
30. <http://www.ecb.europa.eu/paym/t2/html/index.en.html>
31. <http://bankirsha.com/karty-platezhnoy-sistemy-china-unionpay.html>
32. <http://www.gazeta.uz/2013/07/29/billing/>
33. <http://kypc.ru/blog/finance/47343.html>
34. <http://www.kp.ru/guide/plastikovye-karty-bankov.html>
35. <http://uzcard.uz/index.php/ru/world-news/item/61-dolya-internet-prodazh-v-mirovom-tovarooborote-sostavila-5-9-v-2014-godu>
36. <http://soc-in.com/zakonodavstvo/normatyvna-baza/pidzakonni-npa/inshi-organi/5614-direktiva-N-200258es.html>.

ILOVALAR

TO'LOV TIZIMI SHARHI⁴⁶

(2019 yil I-yarim yillik yakunlari bo'yicha)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296-sonli Farmoniga muvofiq Markaziy bank faoliyatining strategik maqsadli yo'nalishlaridan biri sifatida to'lov tizimi barqarorligi va rivojlanishini ta'minlash ko'rsatib o'tilgan.

O'z navbatida, o'tgan hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi PQ-3945-sonli "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra tashkil etilgan "Milliy banklararo protsessing markazi" faoliyatini to'laqonli yo'lga qo'yish masalasi, to'lov tizimi sohasida amalga oshirilgan asosiy vazifalardan biri bo'ldi, deb hisoblash mumkin.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martda tasdiqlangan "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli qaroriga asosan tijorat banklari tomonidan bank xizmatlari va mahsulotlarining yangi turlarini joriy etish borasida aniq maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, Markaziy bank tomonidan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqilib, tasdiqlangan "*O'zbekiston Respublikasida 2018-2020 yillar davrida raqamli bankingni rivojlantirish Kontseptsiyasi*"da nazarda tutilgan chora-tadbirlar ham bajarilmoqda.

I. Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi faoliyati tahlili

O'zbekiston Respublikasining "Elektron to'lovlar to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra banklararo to'lov tizimi banklar o'rtasidagi elektron to'lovlarni banklarning


⁴⁶ Mazkur ma'lumotlar O'zbekiston respublikasi Markaziy bankining saytidan olindi. www.cbu.uz

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi iqtisodiyotdagi hisob-kitoblarning asosiy qismini tashkil etuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning naqd pulsiz to'lovlarini o'tkazilishini ta'minlaydi.

Banklararo to'lov tizimi orqali o'tkaziladigan elektron to'lov hujjatlarida qayd etilgan rekvizitlarning to'g'ri ko'rsatilishi to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirilishiga hamda xato to'lovlarni oldini olishga zamin yaratadi. Shu munosabat bilan, bank mijozlariga xos raqam berish hamda ularning bank hisobvaraqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlash maqsadida tashkil etilgan Bank depozitorlarining Milliy axborotlar bazasi (BDMAB) bu jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadi. BDMAB banklar va vakolatli organlarning so'rovnomalarini fayl va onlayn rejimida avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlanishini ta'minlaydi.

BDMAB ma'lumotlari tahlili mijozlar va ularning hisobvaraqlari miqdori doimiy ortib borayotganligini ko'rsatmoqda (*1-rasm*).

1-rasm




Qayd etish joizki, BDMABda ro'yxatga olingan mijozlar soni 2019 yil 1 yanvar holatiga 1 880 634 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2019 yilning 1 iyul holatiga 8,1 foizga ortib, 2 033 277 taga etdi. Ushbu mijozlarga

ochilgan hisobvaraqlar soni esa 2019 yil 1 yanvar holatiga 7 263 621 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2019 yilning 1 iyuliga kelib, 5,8 foizga ortib 7 686 510 taga etdi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali 2018 yilning I-yarim yilligida 36,31 mln. ta yoki 385,33 trln. so'mlik banklararo to'lovlar amalga oshirilgan bo'lsa, 2019 yilning shu davrida bu ko'rsatkich 34,03 mln. tani yoki 506,31 trln. so'mni tashkil etdi.

Solishtirilayotgan davrda banklararo to'lov tizimi orqali o'tgan to'lov hujjatlari soni 6,3 foizga kamayib, to'lov hujjatlari summasi esa 31,4 foizga oshganligini kuzatish mumkin. Ta'kidlash o'rinliki, 2019 yilning o'tgan davrida tranzaksiyalar sonining kamayishi aholining chakana to'lovlarini Markaziy bankning hisob-kitoblar Kliring tizimi orqali amalga oshirilishi ko'lamining ortishi bilan izohlash mumkin (2-rasm).

2-rasm



Shuningdek, 2019 yilning I-yarim yilligi mobaynida Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalarni oylar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, o'rtacha oylik tranzaksiyalar soni 5,67 mln. tani, ularning summasi esa 84,38 trln. co'mni tashkil etdi.

Bundan tashqari, 2019 yilning I-yarim yilligi davomida Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi 126 bank ish kuni faoliyat yuritgan bo'lib, o'rtacha kunlik tranzaksiyalar soni 270,04 mingtani, o'rtacha kunlik tranzaksiyalar summasi esa 4 018,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Eng ko'p amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 2019 yil 29 aprelda amalga oshirilgan bo'lib 443,6 mingtani, tranzaksiyalar summasi esa 2019 yil 30 aprelda amalga oshirilgan bo'lib 8,24 trln. so'mni tashkil etgan.


Agar, 2019 yilning I-yarim yilligi mobaynida Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalarni to'lov hujjatlari qirqimida tahlil qiladigan bo'lsak (3-4-rasmlar), unda:


to'lov topshiriqnomasi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 19,6 mln. tani (jami tranzaksiyalar sonining 57,5 foizini), tranzaksiyalar summasi esa 338,4 trln. so'mni (jami tranzaksiyalar summasining 66,8 foizini);

memorial order orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 10,3 mln. tani (30,3 foiz), tranzaksiyalar summasi esa 165,4 trln. so'mni (32,7 foizni);

inkasso topshiriqnomalari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 3,9 mln. tani (11,5 foiz), tranzaksiyalar summasi esa 2,1 trln. so'mni (0,4 foiz) tashkil etmoqda.

(3-rasm)





II. Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi PQ–1989-sonli “O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq Markaziy bankning “Chakana to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish kliring tizimini yaratish hamda xizmat ko'rsatuvchilarning billing tizimi bilan integrallash” loyihasi 2014 yilda joriy etilgan bo'lib, tizim orqali amalga oshirilayotgan to'lovlar hajmi va ko'lami doimiy ravishda ortib bormoqda.


Hozirgi kunda banklar infratuzilmalarida Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi orqali barcha kommunal tashkilotlar, Moliya vazirligi G'aznachiligiga to'lanadigan byudjet to'lovlari, soliq hamda bojxona to'lovlari, notariat va FXDYo to'lovlari, IIV jarima to'lovlari, Davlat xizmatlari agentligi xizmatlari to'lovlari, “UzAUTO MOTORS” avtomashinalari uchun to'lovlar, shuningdek, mobil aloqa, internet-provayderlar va boshqa ko'plab boshqa xizmatlar uchun to'lovchini xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning billing tizimi orqali aniq identifikatsiya qilish orqali to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish va aks ettirish imkoniyati yaratilgan.

Shu bilan birga, Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi respublikada faoliyat yuritayotgan chakana to'lov tizimlarining bank plastik kartalari orqali o'tkazilgan tranzaksiyalari natijasi bo'yicha kliring amaliyotlarini bajarish uchun "Hisob-kitob banki" vazifalarini ham amalga oshirib kelmoqda.

Qayd etish joizki, Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi bilan integratsiya qilish orqali to'lovlarni onlayn rejimida amalga oshirishga talabgor bo'layotgan idora va tashkilotlar ham ko'paymoqda. Bugungi kunga kelib, hisob-kitoblar kliring tizimi orqali jami 30 dan ortiq xizmatlar bo'yicha to'lovlar real vaqt rejimida amalga oshirilmoqda.


Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi orqali 2017 yilning I-yarim yilligi mobaynida 1 973,6 mlrd. so'mlik to'lovlar amalga oshirilgan bo'lsa, 2018 yilning I-yarim yilligida to'lovlar summasi 2017 yilning shu davriga nisbatan 2,2 barobarga ortib, 4 355,7 mlrd. so'mlik to'lov amalga oshirilgan. 2019 yilning shu davrida esa ushbu tizim orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi 2018 yilning shu davriga nisbatan qariyb 1,7 barobarga ortib, 7 484,2 mlrd. so'mga etganligini ko'rish mumkin (5-rasm).

(5-rasm)



Jumladan, Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi orqali 2019 yilning I-yarim yilligida amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasining 1 872,6 mlrd. soʻmini (amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasining 25,04 foizi) Gʻaznachilik toʻlovlari, 1 131,3 mlrd. soʻmini (15,13 %) “Oʻztransgaz” xizmatlari toʻlovlari, 983,6 mlrd. soʻmini (13,15 %) “Oʻzbekenergo” xizmatlari uchun toʻlovlar, 533,0 mlrd. soʻmini (7,13 %) “UzAUTO MOTORS” uchun toʻlovlar, 512,3 mlrd. soʻmini (6,85 %) Davlat xizmatlari markazlari xizmatlari uchun toʻlovlar, 512,1 mlrd. soʻmini (6,85 %) soliq va majburiy toʻlovlar, 505,5 mlrd. soʻmini (6,76 %) notariat va FHDYo toʻlovlari, 379,4 mlrd. soʻmini (5,07 %) yoʻl harakati qoidalarini buzganlik uchun jarima toʻlovlari, 261,5 mlrd. soʻmini (3,50 %) bojxona toʻlovlari, 175,9 mlrd. soʻmini (2,35 %) “Toshisqquvati” uchun toʻlovlar hamda 610,9 mlrd. soʻmini (8,17 %) boshqa toʻlovlar tashkil etgan (6-rasm).

(6-rasm)



III. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari

Mamlakatimizda ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda tadbirkorlik sub'ektlari bilan to'laqonli hamkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo'jalik sub'ektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash vazifalari dolzarbligini inobatga olib, Markaziy bank hamda tijorat banklari tomonidan hisobvaraqlarni masofadan boshqarish tizimlarini respublika miqyosida kengaytirishni jadallashtirish borasida ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, bank mijozlari uchun qulay bo'lgan masofaviy bank texnologiyalari, ya'ni internet-banking, sms-banking va mobil-banking kabi zamonaviy texnologiyalar keng joriy qilinmoqda. Mijozlarga zamonaviy texnologiyalar asosida yangi xizmatlar ko'rsatilishi natijasida bank mijozlarining soni ham, banklarga bo'lgan ishonch ham ortib bormoqda.

Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan dastur yaratuvchilar bilan birga joriy etilgan mobil ilova dasturlari orqali mijozlarga real vaqt rejimida quyidagi bank operatsiyalarini bajarish imkonini beruvchi:

kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish;

soliq, byudjet, kommunal va boshqa bir qancha to'lovlarni amalga oshirish;

mijozning talabiga ko'ra bank kartasini bloklash (blokdan chiqarish);

jismoniy shaxslar uchun mikroqarz olish va kreditlarni so'ndirish;

onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish (bank hisobvaraqlarini o'rnatilgan tartibda ochgan mijozlar uchun);

xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarni amalga oshirish va monitoring qilish, onlayn konversiya xizmatlari;

bank infratuzilmalari (filiallar, ayirboshlash shaxobchalari, bankomat va infokiosklar) dislokatsiyasi haqida ma'lumot olish;

xalqaro pul o'tkazmalari tizimi orqali kelgan mablag'larni mijozning xohishiga ko'ra bank hisobvarag'i (omonati) yoki bank kartasiga kiritish kabi xizmatlar taklif qilinmoqda.

Ta'kidlash o'rinliki, respublikada 2019 yilning 1 iyul holatiga bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchi mijozlar jami soni 9 783 063 ta bo'lib, shundan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 546 520 tani tashkil etgan bo'lsa, jismoniy shaxslar soni esa 9 236 543 tani tashkil etdi. Bu esa, 2018 yil 1 iyul holatiga (6 687 547 taga) nisbatan bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar jami soni 146,3% ni, mos ravishda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni (304 055 taga nisbatan) 179,7% ni hamda jismoniy shaxslar soni (6 383 492 taga nisbatan) 144,7% ni tashkil qilganligidan dalolat beradi (7-rasm).

Shu bilan birga, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilarning qariyb 94% ini jismoniy shaxslar tashkil qilishini qayd etib o'tish joizdir.

(7-rasm)



Bundan tashqari, nobank to'lov tashkilotlari ham innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda masofadan xizmat ko'rsatish borasida


bank kartalari foydalanuvchilari hisoblangan mijozlarga keng ko'lamli zamonaviy va qulay xizmatlarni taklif qilmoqda.

IV. Bank kartalari tizimi infratuzilmasining rivojlanishi


Mamlakatimizda bank plastik kartalari infratuzilmasining rivojlanishiga to'xtaladigan bo'lsak, 2019 yil 1 iyul holatiga 18 855 ming dona bank plastik kartalari muomalada bo'lib, ularning soni 2019 yilning 1 yanvar holatiga nisbatan qariyb 1,2 mln. dan ziyodga ortgan. To'lov terminallari soni esa 2018 yil 1 iyul holatiga 241 810 tani tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilning 1 iyul holatiga 284 020 tani, bankomat va infokiosklar soni esa 2018 yil 1 iyul holatiga 6 174 tani tashkil etgan bo'lsa, 2019 yil 1 iyul holatiga 7 743 tani tashkil etdi (8-10 rasmlar).

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, to'lov terminallari orqali milliy valyutada amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi 2017 yilning I-yarim yilligida 28 986 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilning shu davrida 28 276 mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019 yilning yarim yilligida esa mazkur ko'rsatkich 33 052 mlrd. so'mga etgan bo'lib, o'rtacha bir oylik tranzaksiyalar summasi 5 508,7 mlrd. so'mni tashkil etmoqda (11-rasm).


(8-rasm)



(9-rasm)




(10-rasm)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi PQ-3945-sonli "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi "Axborotlashtirish Bosh markazi" DUKning Milliy banklararo protsessing markazi faoliyati tashkil etildi.

Milliy banklararo protsessing markazining muvaffaqiyatli ishga tushirilishi bank kartalariga asoslangan to'lov xizmatlarini ko'rsatuvchi chakana to'lov tizimlari o'rtasida raqobat muhitining paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

(11-rasm)



Qayd etish joizki, "HUMO" milliy to'lov tizimi infratuzilmasini yaratish loyihasi doirasida sotib olinayotgan qurilmalar, jumladan, terminallar, bankomatlar va bank plastik kartalari o'z sohasida dunyo etakchilari hisoblanadigan kompaniyalar tomonidan etkazib berilishi bilan bir qatorda, mazkur yaratilayotgan to'lov infratuzilmasi kontaktless to'lov texnologiyasini (NFC) ham qo'llab-quvvatlab, xalqaro standartlar va zamonaviy talablarga javob beradi.

Bugungi kunda Toshkent shahri, Toshkent va Buxoro viloyatlarida 70 mingdan ortiq "Humo" to'lov tizimining zamonaviy terminallari savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlarida o'rnatilgan bo'lib, ular orqali to'lovlarni kontaktless ravishda amalga oshirish mumkin.

Ta'kidlash o'rinliki, joriy yilning may oyidan boshlab "HUMO" to'lov tizimi infratuzilmasi joriy qilingan hududlarda aholi uchun bank kartalarini emissiya qilish jarayoni ham boshlandi.

Hozirgi kunda “HUMO” tizimi terminallarini savdo va xizmat ko’rsatish shahobchalariga o’rnatish jarayoni Samarqand va Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog’iston Respublikasida amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, respublikaning barcha hududlari bo’ylab “HUMO” to’lov tizimining bankomatlarini o’rnatish ishlari olib borilmoqda.